


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKUL'TETI

«MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSISLARI VA HUQUQ TA'LIMI» KAFEDRASI



«Milliy g`oya; asosiy tushuncha va tamyillar» fani
bo`yicha

MA'RUZA MATN.

Urganch-2017

MUNDARIJA

1	Mavzu: “Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari .	3
2	Mavzu: “Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari.	14
3	Mavzu: Milliy g’oya, ijtimoiy taraqqiet va mafkuraviy jarayonlarning o`zaro bog`liqligi.	35
4	Mavzu:G’oyaviy tahdidlarning yo`nalishlari.	56
5	Mavzu: Mafkuraviy tajovuz va axborot xavfsizligi.	63
6	Mavzu: Mafkuraviy faoliyat-milliy g’oyani amalga oshirish vositasi.	79
7	Mavzu:Globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetni shakllantirish vazifalari.	91
8	Mavzu: Jamiyat barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy g’oyaviy asoslari.	106
9	Mavzu:Tafakkur o`zgarishi va ma’naviy yangilanishda milliy g’oyaning roli.	110
10	Mavzu:Milliy g’oyani rivojlantirishning institutsional tizimi.	120
11	GLOSSARIY	133

1. Mavzu “Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari .

1. “Milliy g’oya asosiy tushuncha va tamoyillar” faning predmeti: g’oya-insoniyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi omili, hayotiy maqsadlar ifodasi.
2. Mafkura tushunchasining mazmuni.
3. Milliy g’oya tushunchasi, uning tuzulishi va namoyan bo’lish xususiyatlari.
4. Jamiyatning ijtimoiy tabaqalanish jarayoniga mafkuraviy ta’sir.

1. “Milliy g’oya asosiy tushuncha va tamoyillar” faning predmeti: g’oya-insoniyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi omili, hayotiy maqsadlar ifodasi.

«Milliy istiqlol g’oyasi» fanining o’qitilish sabablari: O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov 2000 yil 8 iyunda «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblarida mafkura dunyosida bo’shliqqa yo’l qo’yib bo’lmasligi, hozirgi paytda ro’y berayotgan ayrim salbiy holatlar, yovuz ishlar, avvalo, mafkuraviy bo’shliq tufayli sodir bo’layotganligini ta’kidlab o’tgan edi. «Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasi mazmunini xalqqa, yoshlar tarbiyasi jarayoniga olib kirish dolzarb masala qilib qo’yildi. Bu avvalo 3 jihatni o’z ichiga qamrab oladi:

1) Milliy dasturning asosiy maqsadi barkamol shaxsni shakllan-tirish. Aslida bu Qadrlar tayyorlash Milliy dasturining ham ustuvor jihatidir.

2) Milliy dastur maqsad va vazifalarining amalga oshirilishi huquqiy davlat qurish, tafakkur va munozara madaniyatini rivojlantirish, shaxs ichki dunyosini boyitishdan iboratdir.

3) Milliy istiqlol g’oyasini ijtimoiy ong sifatida shakllantirishni davr taqozo etdi.

SHuningdek, O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov «Jamiyatni baxt-saodatga, buyuk va yorug’ kelajakka boshlab boruvchi yagona kuch - ma’naviyatdir» - degan edilar. Aql-zakatli, yuksak ma’naviyatli kishilar tufayli jamiyat yangilanib, kuchayib, taraqqiy topib boradi. YOshlar ongida g’oyaviy bo’shliq paydo bo’lishiga yo’l qo’ymaslik, ularni milliy istiqlol g’oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash va Vatanimiz ravnaqiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga etkazish bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O’quv dasturlari, darsliklar va o’quv qo’llanmalarni qayta ko’rib chiqish va yangilarini yaratish bo’yicha respublika muvofiqlashtirish komissiyasi» kengaytirilgan majlisining 2000 yil 30 sentabrdagi «Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fanini uzluksiz ta’lim tizimiga joriy etish haqida» gi Qaroriga ko’ra 2000-2001 o’quv yilining 2-choragidan e’tiboran umumiy o’rta ta’lim muassasalarining o’quv rejasidagi 7-9-sinflar uchun «Ma’naviyat asoslari» o’rniga «Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari» o’quv fani joriy etildi. 2000 yil 9 oktabrda Xalq ta’limi, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirliklari bu masalani yana bir bor ko’rib chiqib uni hayotga joriy qilish uchun zaruriy ishlarni belgilab oldilar.

2001 yil 18 yanvarda O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning **«Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo’yicha ta’lim dasturlarini yaratish va respublika ta’lim tizimiga joriy etish to’g’risida»**gi Farmoyishi qabul qilindi¹. SHuningdek, 2006 yil 25 avgustda O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning **«Milliy g’oya targ’iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to’g’risida»**² qarori qabul qilindi.

¹ O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2001 yil 18 yanvarda qabul qilingan «Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo’yicha ta’lim dasturlarini yaratish va respublika ta’lim tizimiga joriy etish to’g’risida»gi Farmoyishi. «Ma’rifat» gazetasi. 2001 yil 20 yanvar.

² O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2006 yil 25 avgustda qabul qilingan «Milliy g’oya targ’iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to’g’risida»gi qarori. «Xalq so’zi» gazetasi, 2006 yil 26 avgust.

Qarorga binoan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi huzuridagi Milliy mafkura ilmiy targ'ibot markazi o'rniga Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining ilmiy-amaliy yo'nalishda faoliyat olib boradigan, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. YA'ni Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining amaliy targ'ibot yo'nalishida faoliyat olib boradigan Respublika targ'ibot markaziga aylantirildi.

Milliy istiqlol g'oyasining mazmun-mohiyatini tushunchalari, shakllanish qonuniyatlari, namoyon bo'lish xususiyatlari, uni xalqimiz qalbiga singdirish yo'llari va usullari ushbu fanning mohiyatini belgilaydi. Uning tushuncha va kategoriyalari bir butun, yaxlit tizim shaklida namoyon bo'ladi. Milliy istiqlol g'oyasining fan sifatida e'tirof etilishi uning o'ziga xos **predmeti, ob'ekti, maqsad va vazifalari mavjudligini** anglatadi.

Birinchidan, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar qatori «Milliy istiqlol g'oyasi» fanining ham muayyan bilimlar tizimi, o'ziga xos mavzulari, tushunchalari, qonun va kategoriyalari mavjud.

Ikkinchidan, uning boshqa fanlar qatori o'z predmeti, ob'ekti, maqsad va vazifalari bor.

Milliy istiqlol g'oyasining predmeti – milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi, keng jamoatchilikning ishonchi va e'tiqodiga aylanishi, uning madaniy negizlarini ijtimoiy hayot, mehnat faoliyatida namoyon bo'lish shart-sharoitlari, omillari, qonuniyatlarining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganadigan fanlar.

Milliy istiqlol g'oyasi – mustaqillikni qo'lga kiritish, uni mustahkamlash, O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida o'ziga xos nufuzga ega bo'lishi uchun imkon yaratadigan xalqni, millatni jipslashtirib turadigan maqsadlar, manfaatlar majmuidir. Milliy istiqlol g'oyasi fanining predmetini faqat «g'oya va mafkura» tushunchalaridan iborat deb o'ylamaslik kerak. Bu fanning predmetini hozirgi zamondagi mafkuraviy jarayonlar, uning ma'no-mazmunidagi o'ziga xos xususiyatlari, ta'sir etish qonuniyatlari, ma'lum bir makonda va davrda namoyon bo'lish xususiyatlari, uni ko'p millatli davlatimiz fuqarolarining ongi va qalbiga singdirish yo'llari hamda uslublarini aniqlash ham tashkil etadi.

Bu jarayon, **birinchidan**, milliy g'oyaning fan talablari asosida, bilim va tajriba tizimi orqali kishilarning ongi va tafakkuri, dunyoqarashi, maqsad va intilishlari milliy-ma'naviy merosga munosabatning jamiyat hayotida namoyon bo'lish xususiyatlari bilan bog'liq. **Ikkinchidan**, milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi kishilar (xalq, millat, avlodlar) amaliy faoliyatida hamda o'zaro munosabatlarida ishonch va e'tiqodga aylanishining namoyon bo'lishi yagona tartib me'yorlarga osonlikcha tushavermaydi.

Milliy istiqlol g'oyasining ob'ekti sifatida O'zbekistonning o'ziga xos tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy milliy-madaniy rivojlanish xususiyatlarini, qadriyatlarini e'tirof etish mumkin. SHuningdek, xalqning madaniyati, milliy-madaniy merosini, odamlarning ijtimoiy munosabatlarini qaror toptirish bilan bog'liq maqsadlarini jamiyat hayotida namoyon bo'lishini tahlil etish ham muhimdir. SHuningdek, **fanning ob'ekti** - O'zbekiston tanlagan taraqqiyot yo'li va ijtimoiy rivojlanishning milliy-ma'naviy negizlari, umumbashariy tamoyillar tashkil etadi.

Foya tushunchasi (yunon. g'oya, ta'limot). Ilmiy adabiyotlarda «g'oya», «mafkura», «ideya» va «ideologiya» tushunchalari ishlatilmoqda. «Ideya» va «ideologiya» ko'proq g'arb davlatlarida hamda rus tilidagi manbalarda uchraydi. Ideya iborasi yunon tilidagi «idea» so'zidan olingan. U ideologiya so'zining o'zagi bo'lib hisoblanadi va tushuncha yoxud fikr ma'nosini anglatadi. **Ideologiya** (Idea - g'oya, tuguncha, logos - ta'limot) atamasi esa g'oyalar to'g'risidagi ta'limotni anglatadi va ikki xil ma'noda ishlatiladi:

1) g'oyalarning mohiyat-mazmuni, shakllanishi, ahamiyati to'g'risidagi bilimlarni ifodalaydi va ilmiy soha bo'lib hisoblanadi;

2) muayyan g'oyani amalga oshirish, maqsadga etish usullari, vositalari, omillari tizimini anglatadi.

Demak: 1. **Foya** inson tafakkurining mahsuli.

1. Foya oldin mavjud bo'lmagan, o'zida yangilikni tashuvchi fikrdir.

2. Oldin g'oya paydo bo'ladi, undan keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo'ladi.

Foyalarning oddiy fikrlardan farqi yana shundaki, ular garchi tafakkurda paydo bo'lsa-da, inson va jamiyat ruhiyatiga, hatto tub qatlamlariga ham singib boradi. Foya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki dunyosigacha kirib borib, uni xarakatga keltiruvchi, maqsad sari etaklovchi ruhiy-ma'naviy kuchga aylanadi. Ularni muayyan maqsadga yo'naltiradi, safarbar etadi, jipslashtiradi, hamkorlikka undaydi.

Foya mohiyatan ijtimoiy xarakterga ega. Muayyan g'oya odatda alohida olingan shaxs ongida shakllanadi, keyinchalik esa jamiyatning turli qatlamlariga tarqaladi, turli elat va millatlar orasida siyosiyiladi. Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud g'oyalar ta'sirida tarbiyalanadi, muayyan qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdiradi, o'z navbatida yangi g'oyalarni yaratadi va targ'ib etadi.

Ezgu g'oya - inson tafakkurida vujudga keladigan, muayyan fikrlarning ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga keltiradigan, ularni bunyodkor maqsad-muddao sari etaklaydigan ulug'vor fikrlardir.

Foya moddiylashtiruvchi, amaliyotga aylantiruvchi kuch ekanligiga qarab: sinfiy g'oya, milliy g'oya, umumxalq g'oyasi, umuminsoniy g'oyalar ham mavjud.

Foya va mafkuraning tarixiy shakllarini, mazmun-mohiyatini azal-azaldan ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va vayronkorlik o'rtasidagi kurash dialektikasi belgilab keladi, ya'ni bosqinchilik, boshqalar hisobidan boyish, tajovuzkorlik, aqidaparastlik mafkuralariga qarama-qarshi o'laroq, ozodlik, mustaqillik va adolat g'oyalari uzluksiz maydonga chiqib, xalqlarning muzaffar bayrog'iga aylangan. Bunyodkorlik g'oyalari insonni ulug'laydi, uning ruhiga qanot bag'ishlaydi.

2.Mafkura tushunchasining mazmuni.

Mafkura tushunchasi: Jamiyat mafkurasiz bo'lmaydi. Chunki har bir davlat mustaqil taraqqiyot va rivojlanish yo'lini tanlab olar ekan, o'z taraqqiyot dasturi, qarashi, amalga oshirish tamoyillari, kontseptsiyasiga ega bo'lmasdan o'z istiqbolini aniq ko'ra olmaydi.

Har qanday nazariya yoki ta'limot bir tizimga solingan g'oyalar majmuidan iborat bo'ladi. Dunyoqarashning negizini va muayyan ishonch-e'tiqodning asosini ham g'oya tashkil etadi. Odamlar, ijtimoiy sinf va qatlamlarning, millat va davlatlarning manfaatlari va maqsadlari ham g'oyalarda ifoda etiladi.

O'z oldiga qo'ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani, bunga qanday yo'llar va vositalar bilan erishmoqchi bo'layotgani haqidagi g'oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy mafkurasining asosini tashkil etadi.

Mafkura (arab. - fikrlar majmui, nuqai nazarlar, e'tiqodlar tizimi) – muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat, jamiyat yoki davlatning manfaatlari, orzu-istak, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyaviy-nazariy qarashlar hamda ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir. Unda manfaatlari ifodalanayotgan kuch va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi.

Mafkura (arab. «mafkura» – fikrlar, nuqtai nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmui.

Mafkura keng ma'noda: ijtimoiy borliqning jamiyat hayotining ma'naviy-siyosiy in'ikosidir, uning inson ongida aks etishi, inson tomonidan anglanib, butun tizim holiga keltirilishi va bu tizimning Amaliy faoliyatda nazariy asos hamda ruhiy tayanch bo'lib xizmat qilishidir.

Milliy istiqlool mafkurasi – bu istiqloлга erishilgandan keyin shakllangan va taraqqiy etayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotini va olib borilayotgan ham ichki ham tashqi siyosatni himoya qilib qo'llab-quvvatlaydigan qarashlar, nazariyalar majmuidir.

Turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyatdagi har xil tabaqa va qatlam-larning mafkuras

turlicha bo'lishi tabiiy. Buning asosida manfaatlarning turlichaligi, ularni qondirish imkoniyatlari va uslublarining har xilligi yotadi. Sinf

iy qutblashuv kuchaygan, sinfiy kurash avj olgan (yoki sun'iy ravishda keskinlashtirilgan) tuzumlarda mafkura o'ta siyosiy

lashadi, aholini o'zaro qarama-qarshi qilib qo'yadi.

Ijtimoiy hamkorlikka asoslangan, erkin demokratik jamiyat barpo etishni ko'zlagan davlatlarda milliy mafkura aholining barcha qatlamlarini jipslashtirishga, umummanfaat va yagona maqsad yo'lida birlashishga chorlaydi. Bunday mafkuralarda ziddiyatli jihatlar emas, umuminsoniy tamoyillar kuchayib boradi.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlol mafkurasi aynan jamiyatni jipslashtirishga, buyuk kelajak yo'lida yakdil harakat qilishga, barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyatida har bir yurtdoshimizning o'ziga xos o'rni bo'lishiga erishishga safarbar etadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning mafkuraga shunday ta'rifi mavjud: **«Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o'rtasida o'ziga xos ko'pri bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman»**¹. Binobarin, milliy mafkura har qanday xalqni xalq, millatni millat qiladigan, uning yo'li va maqsadlarini aniq-ravshan charog'on etadigan mayoqdir.

Insoniyat tarixi mobaynida turli shakldagi juda ko'plab mafkuralar yaratilgan, behisob ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'z g'oyalari va ta'limotlari bilan maydonga chiqqan, maqsad va niyatlariga etishmoq uchun harakat qilgan. Biz har qanday mafkurani g'oyalar tizimi sifatida talqin qilar ekanmiz, shuni unutmaslik kerakki, biror bir mafkuraning mohiyatini anglab etish uchun faqat uning tarkibidagi g'oyalarni tahlil qilishning o'zi etarli emas. O'tmishda turli kuchlar va guruhlar o'z g'arazli niyatlariga erishish, asl maqsadlarini yashirish uchun yuksak va jozibali g'oyalardan foydalangan. Eng yovuz bosqinchi va eng razil guruhlar ham o'z kirdikorlarini ezgu g'oyalar bilan niqoblashga uringan.

Demak, **mafkuraning mohiyati** faqat uning asosiy g'oyalari vositasida emas, shu g'oyalarga erishish usullari va vositalari, umume'tirof etilgan tamoyillari, ularning aksariyat omma manfaatlariga mosligi orqali ham namoyon bo'ladi. O'zining mudhish talab-ehtiyojlari va yovuz niyatlarini boshqa xalqlar hisobiga qondirishni ko'zlab harakat etuvchi mafkuralar halokatga mahkumdur.

Mafkuralar, ma'no-mohiyatiga ko'ra, falsafiy, dunyoviy, diniy va boshqa turli ta'limotlar asosida yaratiladi. Xilma-xil ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'z mafkuralarini yaratishda siyosiy g'oyalar bilan birga, diniy oqimlar va ilm-fan yutuqlariga tayanadi, ulardan nazariy asos sifatida foydalanadi.

Totalitar rejim. Ushbu rejim XX asr mahsulidir. To'la asos bilan unga fashistik davlatlarni hamda «shaxsga sig'inish» davri sotsialistik davlatini kiritish mumkin. Totalitar rejim avtoritar rejimning eng keskin shaklidir. Totalitar davlat to'la qamrovli, to'la nazorat qiluvchi va hamma narsaga chuqur kirib boruvchi hokimiyatdir.

Totalitar rejim - fuqarolar hayotiga o'z aralashuvini cheksiz-chegarasiz kengaytirgan, boshqaruvi ko'lamiga ularning butun faoliyatini va majburiy muvofiqlashtirishni ham ko'shib olgan siyosiy rejim demakdir. «Totus» so'zi lotinchada «jami, bir butun» ma'noni anglatadi. Binobarin, totalitar davlat hamma va jami narsalarni o'z komiga tortuvchi davlatdir. U fuqarolarning tashabbuskorligi nozarur va zararli, fuqarolar erkinligi esa xavfli va chidab bo'lmaydigan narsa degan qoidaga amal qiladi. Yagona hokimiyat markazi mavjud bo'lib, u hamma narsani bilish, hamma narsani oldindan ko'ra olish, hamma narsani rejalashtirish, hamma narsani amr qilishga da'vat etilgan hisoblanadi. Taniqdi huquqshunos I.Ilin bunday davlatni qanday ta'riflashiga e'tibor qiling-a: «Odatiy huquqiy ong, taqiqlamagan hamma narsaga ruxsat beriladi, degan nuqtai nazardan kelib chiqadi; totalitar davlat esa, butunlay boshqa narsani - yozilmagan hamma narsa man etiladi, deb uqtiradi. Odatiy davlat: sening xususiy manfaatlarining bor, unda sen erkinsan deydi; totalitar davlat: faqat davlat manfaatigina mavjud va sen unga bog'langansan, deya e'lon qiladi.

¹ Karimov I. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin. T.7. -T.: «O'zbekiston», 1999. 89-bet.

Demokratik rejimning eng zamonaviy shakllaridan biri **liberal-demokratik rejim** hisoblanadi. U ko'pchilik mamlakatlarda mavjud. Uning ahamiyati va maftunkor qudrati shu qadar kuchliki, ko'pchilik olimlar uni hokimiyatni amalga oshirish rejimi emas, balki jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida tsivilizatsiyaning yashash sharti, jamiyat siyosiy tashkiloti siyosiy evolyutsiyasining qariyb oqibat natijasi deb hisoblashmoqda. Albatta, bu erda bo'rttirib yuborish, mubolag'a ko'rinib turibdi. Hozir davlat hokimiyatining yangi shakllari paydo bo'layaptiki, bunday shoshqaloklik va qat'iy xulosalarga o'rin yo'q. Davlat boshqaruvida markazdan qochish tamoyilidan foy-dalaniladi, ya'ni markaz mahalliy organlar hal eta olmaydigan muammolarnigina echishni o'z zimmasiga oladi. Liberal-demokratik rejim davlat rejimi bo'lgan jamiyat fuqarolik jamiyati deb ataladi.

Demoqratiya ikki asosiy turga - bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) va vakillik demoqratiyalariga bo'linadi. Bevosita demoqratiya sharoitida saylangan yoki tayinlab qo'yilgan rasmiy shaxslar vositachilgisiz fuqarolar ijtimoiy qarorlarni qabul qilishda qatnasha oladilar. Bunday tizim nisbatan kam odamlar qatnashadigan jamoa va qabila kengashlarida, kasaba uyushmalari mahalliy organlari yig'inlarida hamma a'zolar masalalarni muhokama etish hamda konsensus yo'li yoki ko'pchilik ovoz bilan qaror qabul qilish uchun bir binoga joylasha oladigan hollardagina mazmun-ma'noga ega bo'lishi mumkin. Qadimgi Afina - jahondagi birinchi demoqratiya davlatida bevosita demokratiyani, yodingizda bo'lsa 5-6 ming kishi qatnashadigan yig'inlar yordamida amalga oshirishidan hayratga tushasan kishi (aftidan, bu miqdor bevosita demokratiyani hayotga tatbiq etish uchun odamlarni bir joyga to'plash mumkin bo'lgan eng katta miqdor bo'lgan bo'lsa ajabmas). Monarx tanho hukmronlik qiladi. Albatta, bu davlatning barcha ishlarini uning bir o'zi hal etarkan, degan ma'noni bildirmaydi. Turli davlat organlarida xizmat qiluvchi ko'psonli maslahatchilar, vazirlar, amaldorlar davlat ishlarini boshqarishardi. Ayni paytda, eng muhim, prinsipial davlat ishlari bo'yicha monarxning o'zi hukm chiqarishiga to'g'ri kelardi. U butun hokimiyatning to'la sohibidir. Monarx hokimiyati oliy hokimiyat bo'lib, mustaqildir. U - davlatdagi oliy hokimiyatdir.

3. Milliy g'oya tushunchasi, uning tuzulishi va namoyan bo'lish xususiyatlari.

Milliy istiqlol mafkurasi - har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o'zi va oilasi oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma'naviy mezon hamdir. Milliy istiqlol mafkurasining yurtimizda yashovchi har bir fuqaro uchun qadrliligi shundaki, uning mohiyatida quyidagi umuminsoniy tamoyillar yotadi. Milliy istiqlol mafkurasi:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi. Binobarin, u qonuniylikka, umume'tirof etilgan talablarga, umumbashariy tamoyillarga va milliy manfaatlariga mos keladi.

2. Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi. Bu milliy mafkuramizning chuqur tarixiy va boy ma'naviy asosga ega ekanligidan dalolat beradi.

3. Adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqi-mizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi. Bilamizki, bu ulug' g'oyalar istiqlol sari intilgan har bir xalqning ezgu maqsadi, ishonch va e'tiqodi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

4. Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu tamoyil uning jamiyat a'zolarini aniq maqsad sari safarbar qiluvchi, ularni bu yo'lda uyushtiruvchi ma'naviy omil sifatida mohiyatga ega ekanini ifodalaydi.

5. Jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi. Bu olijanob maqsadlarga erishish fuqarolarning hamjihatligiga, o'zimizning burchimizni qay darajada anglashimiz, ertangi kunga bo'lgan ishonchimizga ko'p jihatdan bog'liqdir.

6. Millati va dinidan qat'iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona - Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi. Bu qoida har bir fuqaro ongiga Vatanning muqaddasligini singdirishga xizmat qiladi.

7. Jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi kabi demokratik tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi.

Milliy istiqlool mafkurasi yaxlit tizim bo'lganidan uning barcha xususiyatlari o'zaro aloqadorlikda va uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

Milliy istiqlool mafkurasi xalqimizning o'ziga xos tabiati, irodasi, orzu-intilishlarini ifodalaydigan quyidagi milliy xususiyatlarni zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi:

Milliy g'oya - millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shakli.

Milliy g'oya o'z mohiyatiga ko'ra, xalq, millat taqdiriga daxldor bo'lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo'lgan vazifalar va mo'ljallarni ham aks ettiradi. O'z davrida (1941-1945 yillarda) fashistlar bosib olgan Frantsiyada «Qarshilik ko'rsatish» g'oyasining milliy g'oya darajasiga ko'tarilgani va Frantsiyaning ozod etilishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotgani fikrimizga dalil bo'la oladi¹.

U yoki bu g'oyaning milliy g'oya sifatida maydonga chiqishi, millatning o'tmishi, mavjud holati bilan bevosita bog'liq. Ana shu ikki negizga tayangan holdagina u millatning qisqa yoki uzoq vaqtda erishishi lozim bo'lgan maqsad-muddolari va mo'ljallarini to'g'ri ifodalay olishi mumkin.

Har qanday milliy g'oyada umum insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan g'oyalar mavjud. Masalan, «Milliy yarash» g'oyasi fuqarolar, urushi ketayotgan davlatlar uchun xos hayotiy mazmunga ega. Yoki «Manfaatli hamkorlik» g'oyasi dunyoning barcha mamlakatlari uchun birdek ahamiyatga ega.

Milliy mafkura - millatning etnoijtimoiy birlik sifatida mavjud bo'lishi va rivojlanishini, erkin va ozod taraqqiyotini g'oyaviy asrash, ta'minlashga qaratilgan qarashlar tizimi.

«Milliy mafkura»ni faqat bitta millat yoki xalqning mafkurasi, deb tushunish to'g'ri emas. U muayyan jamiyat yoki davlatning umumiy mafkurasi ma'nosini ham anglatadi. Chunki «milliy» sifati «millat» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, nafaqat muayyan etnik birlik, balki «davlat» ma'nosini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Masalan: «milliy daromad», «milliy qurolli kuchlar» birikmalarida u aynan, «davlat» so'zining ma'nodoshi sifatida ishlatiladi.

Milliy istiqlool g'oyasining hayotbaxshligi taraqqiyotning o'zbek modelini amalga oshirishda yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbek modelining asoschisi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida amalga oshirilgan taraqqiyot yo'lining ko'pchilik boshqa milliy modellardan farq qiladigan xususiyati shundaki, u faqat iqtisodiy rivojlanish emas, balki keng ma'nodagi milliy tiklanish va ijtimoiy taraqqiyot modelidir. Shu sababdan u iqtisodiyot bilan bir qatorda davlat qurilishi, ijtimoiy soha va ma'naviyatni, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi.

Milliy istiqlool mafkurasining asosiy maqsadi: ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishidir. Xalq ommasini milliy g'oya atrofida birlashtirish, kishilarni ma'naviy-ruhiy jihatdan ulug'vor ishlarga tayyorlash va safarbar etishdan iborat. Pirovard natijada bunga erishishning yo'llari, vositalari va usullari ham ushbu maqsaddan kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq milliy istiqlool g'oyasi va mafkurasini shakllantirish zarurati haqida qayg'urgan edi. Chunki «Milliy mustaqil davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar». O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov 2005 yil 14 may kuni Oqsaroyda, 12-13 may kunlari Andijon shahrida ro'y bergan voqealar

¹ Nazarov Q., Ochiliev A. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. -T.: Yangi asr avlodi, 2002. 113-114-betlar.

munosabati bilan mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari uchun o'tkazilgan matbuot anjumanida ham ta'kidlaganlaridek, «har bir davlatning o'z tarixi bor, o'ziga xos shart-sharoiti bor. SHuning uchun ham ayrim voqealarni «atirgul rangli inqilob», boshqasini - «apelsin rangli inqilob», uchinchisini - «lolarang inqilob» deb atashga bo'lgan urinishlar mutlaqo samarasizdir»¹. Demak, milliy g'oyaning zarurligi, eng avvalo, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash uchun zarurdir. Uning zarurati quyidagi **maqsadlarni** amalga oshirish bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi:

Vatan ravnaqi g'oyasi mazmunini har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g'oyadir. U milliy istiqlolning oliy maqsadi - O'zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning el-yurt kamoli bilan bog'liq orzu-umidlarini amalga oshirishni ifodalaydi. Vatan g'oyasini amalga oshirishda: 1) ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, mahallaning mavqeyini oshirish, aholini ijtimoiy himoyalash tamoyillari muhim hisoblanadi; 2) hayotda demokratik tamoyillarning ustuvorligi, muqobil partiyalar, jamiyatni erkinlashtirish, davlatning islohotchilik funktsiyasi, aholi siyosiy ongi va madaniyatini oshirish zarur; 3) mulkchilikni shakllantirish, kichik va o'rta biznesni, tadbirkorlikni rivojlantirish kerak; 4) intellektual salohiyatni oshirish; 5) qonun ustuvorligiga erishish, huquqiy demokratik jamiyat qurish kabilar kiradi.

YUrt tinchligi - mamlakat barqaror taraqqiyotining garovi, bebaho ne'mat, ulug' saodatdir. **Tinchlik** - insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi va kamol topishining eng zarur omilidir. Bashariyat o'z taraqqiyoti-ning barcha bosqichlarida, avvalo, tinchlik-totuvlikka intilib kelgan. Tinchlikni saqlash va mustahkamlash masalasi umumbashariy muammodir. Insoniyat taraqqiyotining masalasi umumbashariy muammodir. Insoniyat taraqqiyotining asosiy masalalari tinchlik-totuvlik holatidagina samarali hal etilgan. Tinchlikni saqlash muammosini o'z-o'zidan kishilarning xohish-istagi, orzu-umidlari bilan hal qilib bo'lmaydi. Insoniyat uchun muqaddas bu qadriyatga doimo izchil va qat'iy harakatlar tufayligina erishiladi.

Xalq farovonligi har bir shaxs va oila farovonligi bilan bog'liq. Bunda insonning shaxsiy manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashib ketadi va har bir fuqaroning farovonligi - butun jamiyat farovonligidir, degan tamoyil amalga oshadi.

4. Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta'sirida g'oyalarning differensiyallashuvi.

Insoniyat tarixida g'oya va mafkuralar nixoyatda katta axamyat kasb etadi. Ular insonning o'zi kabi azaliydir. Buni biz o'zbek davlatchiligi g'oyalarining shakllanishi va takomili misolida ham kuzatishimiz mumkin. Masalan: qadimgi Xorazm, Sug'diyona, Baktriya, Kushon hamda keyinchalik temuriylar davlatiga asos solinishida bunyodkor g'oyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan.

Ijtimoiy taraqqiyot – g'oya va mafkuralar tarixidir. Er yuzida dastlabki odamzod paydo bo'lib, uning urug', jamoa yoki xalq sifatida shakllanishi ro'y bergan dastlabki davrlardayoq ularni birlashtirib turadigan umumiy g'oya va mafkuraga extiyoj tug'ildi. Islom Karimov ta'kidlab o'tganlaridek **«Mafkura jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi»**. (Milliy istiqlol mafkurasi –xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. «Fidokor» gazetasi, 2000 yil, 8 iyul)

Zardushtiylikning ezgulik va insonparvarlik haqidagi qarashlari mintaqamizdagi islomga qadar asosiy g'oyalar edi. SHuningdek ko'k tangriga sig'inish, buddaviylik ham zardushtiylik bilan yonma-yon yashab kelgan. Zardushtiylik Xorazm, Sug'diyona, Baktriyada davlat dini darajasiga ko'tarildi va rasmiy mafkura vazifasini ham bajardi. Kushon davlati davrida esa zardushtiylik bilan birga buddaviylik ham davlat dini darajasiga chiqqan. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda axamoniylar bosqini, 329-227 yillarda Aleksandr Makedonskiyning bosqinchilik yurishlari va xalqimizning bir muddat mustamlakaga tushib qolishidan, ozodlik g'oyasi asosida yillar davomida dushmanga qarshi kurash olib borilgan. Mustaqillik g'oyalari asosida xalqimiz Kushon podsholigi va buyuk Turk xaqonligi kabi ulkan saltanatlarga asos soldilar. VII –VIII asrlarda arablar bosqini

¹ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. -T.: O'zbekiston, 2005. 35-36-betlar.

va Muqanna boshchiligidagi ozodlik harakatida ozodlik g'oyasi kurashda mafkura vazifasini bajardi. IX-XII asrlarda somoniylar, koraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshoxlar sulolalari tomonidan mintaqada asos solingan davlatlarda islom dini xalqni birlashtiruvchi, davlatni kuchaytiruvchi mafkura bo'lib xizmat qildi. Bu davrda Muxammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Axmad Fargoniy, Ibn Sino, Beruniy, kabi allomalar; Xoji YUsuf Xamadoniy, Axmad YAssaviy, Abdulxolik Fijduvoni, Baxouddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi mutasavvuf; Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi Muxaddislar; Maxmud Kashg'ariy, YUsuf Xos Xojib, Axmad YUgnakiy, Lutfiy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Bedil kabi adabiyot va san'at vakillari etishib chiqdi. Temuriylar saltanatining g'oyaviy tamoyillarida adolat g'oyasi ustuvor edi.

XIX asrda mamlakatimiz CHor istibdodi changaliga tushib qolganda-ozodlik g'oyasini ma'rifatparvarlar va jadidlar ko'tarib chiqishgan. Turkistonda bosqinchi qizil armiya va sovet tuzumiga qarshi ko'tarilgan istiqloqlilik harakatining mafkurachilari ham aynan jadidlar bo'ldilar. Zo'ravonlik bilan mamlakatimizga o'rnatilgan sotsializm g'oyasi jamiyatning yagona va xukmron mafkurasiga aylandi. Milliy ozodlik g'oyasi Prezidentimiz I.Karimov tomonidan 80 yillarning oxirida kun tartibiga qo'yildi va Vatanimiz mustaqilligini qo'lga kiritishda muhim omil bo'ldi.

G'oya va mafkuraning tarixiy shakllarini, mazmun-mohiyatini azal-azaldan ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va vayronkorlik o'rtasidagi kurash dialektikasi belgilab keladi, ya'ni bosqinchilik, boshqalar hisobidan boyish, tajovujkorlik, aqidaparastlik mafkuralarga qarama-qarshi o'laroq, ozodlik mustaqillik va adolat g'oyalari uzluksiz maydonga chiqib xalqlarining muzaffar bayrog'ig'a aylangan. Bunyodkorlik g'oyalari insonni ulug'laydi, uning ruhiga qanot bag'ishlaydi. Xar bir xalqning tarixi shu xalqdan etishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoyi insonlar tarixi asosida bitiladi.

Ming yillar o'tsa ham, ulug' ajdodlarimizning matonati va qahramonligi xalqning xotirasidan o'chmaydi. Chunki ular yuksak g'oyalar –Vatan ozodligi, el-yurt baxt-saodati, ilmu urfon rivoji yo'lida jon fido qilganlar. Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganlaridek **«O'zbek tom ma'noda bunyodkordir»**. **«Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishni alqayman. O'zimni ezgu fikrga, ezgu so'zlarga, ezgu ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon fikrlardan, yomon so'zu yomon ishlardan yuz o'giraman»**, deyiladi **«Avestoda»**. Bu yuksak g'oyalar zardushtiylarning o'lmas mafkurasidir.

G'oyalarni ilohiy tushuncha deb bilgan Aflotun (er.av. 427-348 y.y) ning ham asosiy g'oyasi ezgulik va yagonalik edi. Suqrot (er.avv. 470-399 yy) adolatga xilof bo'lgan davlat boshqaruvining barcha shakllarini tanqid qiladi, faqatgina adolatli, demokratik davlat boshqaruvini yoqlab chiqadi. Abu Nasr Farobiy (873-990) ning **«Fozil odamlar shaxri»** to'g'risidagi Alisher Navoiyning insonparvarlik g'oyalari bunyodkor g'oyalarga misol buladi. Xitoy mutafakkiri Konfutsiy (er.avv. 551-479) ning fanlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqei orqali emas, balki odamiylik, adolatparvarlik, haqgo'ylik kabi fazilatlariga erishishi tufayli kamolotga erishadi degan g'oyalari bunyodkor g'oyaga misoldir. Hind xalqining buyuk farzandi Maxatma Gandi (1869-1948yy) mustamlakachilikka qarshi kurashning timsoli edi. U hindlar bilan musulmonlarni, din bilan siyosatni birlashtirishga harakat qilgan. Unga halq **«Maxatma»**, **«Buyuk qalb»** deb nom bergan. Amir Temurning bunyodkorlik g'oyalari **«Temur tuzuklari»** dagi **«Agar fuqarodan birining uy-iyorati buzilib, tuztishga qurbi etmasa, kerakli uskunalarini etkazib berib, unga yordam berilsin»** degan ko'rsatmasi, qilgan ishlari, qurilishlari, fozillarga hurmati bunyodkorlikka namunadir.

Buzg'unchi g'oyalar xalqlar boshiga so'ngsiz kulfatlar keltirgan. Bunga olis va yaqin tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. inson va jamiyat bor ekan, ezgu g'oyalarning ziddi bo'lgan zulm va zo'ravonlik, qaboxat va jaxolat yangi-yangi shakllarda namoyon bo'lishga urinadi. Vayronkor g'oyalarning mazmun-mohiyatini, maqsad-muddaolarini bilish nihoyatda muximdir. Bu fuqarolar, ayniqsa yoshlar uchun buzg'un g'oyalar xavfini anglash, o'zlarida mafkuraviy immunitet hosil qilish uchun zarur bilimlarni egallashga yordam beradi.

Ushbu vayronkor g'oyalardan ba'zilarini ko'rib o'tsak. XX asrning boshlarida mustabid g'oya va mafkuraning Fashizm shakli yuzaga keldi. (ital «fashio» - oqim) Italiyada 1910 yildan **«Milliy**

g'oya» deb nomlangan millatchilikni targ'ib etuvchi jurnal chiqa boshlagan edi. Italiyada sobiq sotsialist – Mussolini fashistik harakatning asoschisi bo'ldi. Germaniyada milliy sotsialistik partiya tuzgan Gitler fashizmni tamal toshini qo'ydi. Fashizm –irqiy dunyoqarash. Nemis millati **«oriy-Oliy irq»** shu sabab olamga hukmronlik qilishga xaqli, «quyi irq» larni boshqarish huquqi tabiiydir ular xatto dinni ham yordamga chaqirib, qo'rqitib, zo'rlab diniy fatvo ham olishadi. XIX asr Birlashgan Germaniyaning ilk Fyureri – Bismark: Fashizm g'oyasini asoschisi bo'ladi u: **«Buyuk davlatlar dunyoni bo'lib oldilar. Biz nemislar esa chetda qoldik. Juda katta adolatsizlik ro'y berdi. SHuning uchun dunyoni qaytadan bo'lib olmoq lozimki, Germaniya ham o'z ulushiga ega bo'lsin..»** degan fikrlarni ilgari surgan edi. Gitler Bismark g'oyalarini davom ettirib uni amaliyotga oshirmoqchi bo'lgan edi. XIX asrda Marks tomonidan o'rtaga tashlangan va XX asrga kelib voqea bo'lgan sotsializm g'oyasi ham insoniyat boshiga keltirgan musibatlari bilan yovuz g'oyalar tarkibiga kiradi. Qizig'i shundaki bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan va bir-birini inkor etgan. Hamda ikkinchi jaxon urushining bir-biriga qarshi kurashgan ikki subyekti Fashizm va sotsializm mafkurasini o'zaro taqqoslaydigan bo'lsak, hayron qolarli darajadagi o'xshashliklarni ko'ramiz.

Fashizm: Bolshevizm - irqchilik - umumiy tenglik - millatchilik - millat yo'qoladi, yagon **«Sovet xalqi» g'oyasi «Jaxon inqilobi»** -dunyoga hukmronlik qilish - kitoblar (ma'naviy me'ros)ni yoqish – Qatag'onlar – qatag'onlar - Kontslagerlar - kontslagerlar - yakka partiya - yakka partiyaviylik -yagona mafkura ustivorligi -yagona mafkura ustivorligi -shaxsga sig'inish.

Mustabid va zo'ravonlikka asoslangan bu ikki mafkura ijtimoiy taraqqiyot qonunlariga zidligi, taraqqiyotga zidligi tufayli ham o'z-o'zini inkor etdi va tarix saxnasidan ustivor mafkura maqomini yo'qotib tushib ketdi. Siyosiy terrorizm: G'arbiy Germaniyada **«qizil armiya»**, Italiyada **«qizil brigada»** guruxlari. Ispaniyada basklar tashkiloti, Olsterdagi **«inqilobiy – xaloskorlik armiyasi»**, Perudagi **«Porloq hayot»** kabi terroristik guruh va birlashmalar. Mustabidlik – **«yangi jamiyat»**, **«yangi inson» g'oyasi. Xokimiyatni monopollashuvi –bitta partiya qo'lida to'planishi. Partiya davlat apparatiga o'sib chiqadi. Jamiyatni davlatlashuvi, fuqarolik jamiyatini yo'nalishi, huquq va qonunning roli kamsitilishi davlatning cheklanmaganligi, Axborot monopoliyasi, jamiyatni xarbiylashtirilishi. Rassizm – rassa (irq) so'zidan kelib chiqqan irqchilik ta'limoti insoniyatni «oq», «qora», «sariq», irqga ajratish, oq irqni ulug'lash quyi irqqlar ustidan hukmronlik qilishini ko'tarib chiqqan g'oya. Irqchilik – odamlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, bosqinchilik, zo'ravonlik va urushlarni kishilarning turli irqqlariga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi gayrimilliy ta'limot. Masalan, fashizm mafkurasini va «Oriy irq» g'oyasi. Aqidaparastlik - muayyan sharoitda, biron-bir g'oya yoki tamoyilga qat'iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni, boshqa sharoit, holat, vaziyatni xisobga olmagan xolda, ko'r-ko'rona qo'llashga urishish.**

Vaxobiylilik, fashizm sotsializm va boshqa g'oyalariga hamon ko'r-ko'rona ishonuvchilar. **Terrorizm (lot "terror-qo'rquv, dahshat) - ma'lum yovuz maqsadlar yo'lida, kuch ishlatib, odamlarni jismoniy yo'q qilishdan iborat bo'lgan g'oyaga assoslangan zo'ravonlik usuli.** Millatchilik- boshqa millat kishilari manfaatlari ehtiyojlariga bepisandlik bilan qarash, o'z millati manfaatlari, ehtiyojlarini boshqa millat manfaatlari, ehtiyojlarini kamsitish yordamida qondirishdir. Maxalliychilik – kishilarda o'zlari tug'ilib o'sgan joy bilan bog'liq holda shakllanadigan hududiy yaqinlik tuyg'usining salbiy shaklda namoyon bo'lishi.

5. Jamiyatning ijtimoiy tabaqalanish jarayoniga mafkuraviy ta'sir.

Mamlakatimizda demokratik institutlar faoliyatini yo'lga qo'yish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish uzoq muddatli jarayondir. Demokratik g'oyalarni shunchaki bayon qilib, yuqoridan joriy va tatbiq etish bilan odamlar ongida tub o'zgarishlar qilib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Demokratiya jamiyatning qadriyatiga, har bir insonning boyligiga aylanmog'i kerak. Bu esa bir zumda bo'ladigan ish emas. Xalqning madaniyatidan joy ololmagan demokratiya turmush tarzining tarkibiy qismi ham bo'la olmaydi. Bu tayyorgarlik ko'rish va demokratiya tamoyillarini o'zlashtirishdan iborat ancha uzoq muddatli jarayondir».

SHu boisdan ham demokratiyani ustuvor qadriyat sifatida o'rganish, ijtimoiy hayotga joriy etish, bir tomondan jahon xalqlari demokratiya an'alarini puxta o'rganish va o'zlashtirishni, ikkinchi tomondan ajdodlarimizning adolatli jamiyat barpo etish borasidagi qarashlarini bugungi kunga joriy etishni taqozo etadi.

Har bir jamiyat, davlat o'zi uchun mos demokratik taraqqiyot yo'lini tanlaydi. O'zbekiston ham o'zi uchun maqbul demokratik taraqqiyot yo'lini tanlab oldi.

Bizga ma'lumki, sobiq sho'rolar davrida SHarq xalqlariga K.Marksning «*Osiyocha ishlab chiqarish uslubi*» deb atalgan **nazariyasiga** tayanib ish ko'rilgan edi. Bu nazariyaga ko'ra SHarqda hokimiyatni boshqarish azaldan **despotizmga**, ya'ni zo'rovonlikka asoslanadi, degan fikrdan iborat bo'lgan. Evropatsentristik qarashlar (Gegel), Evropani jo'g'rofiy jihatdan ustun qo'yish (Monteske), kapitalizmning tarixan aynan Evropada paydo bo'lishi to'g'risidagi tasavvurlarning (Maks Veber) barchasi turmush tarzi uchun demokratiya mutlaqo yot bir narsa, degan, bepisand fikrga asoslanish oqibati edi. Bugungi kunda SHarqning ham o'ziga xos davlatchilik an'analari, boshqaruv tizimi, idora usullari, hokimiyat tarmoqlari bo'lgani, bu borada u g'arbdan sira ham kam emasligi barchaga ayon bo'lib qoldi.

Xususan, SHarq demokratiyasining bir qator ustuvor jihatlari mavjud: 1) g'oyaviy-falsafiy asosda shakllangan insonparvarlik (ajdodlarimizning bu boradagi boy ma'naviy merosi) negizida siyosiy madaniyat shakllangan. 2) SHarq falsafasining muhim jihatlaridan biri - «**me'yor**» tushunchasi aslida demokratik me'yorga asoslangan siyosiy madaniyatdir. 3) SHarqda odamlarning hokimiyatga va siyosiy munosabatlarga: saylov tizimi, davlatchilik, siyosiy harakatlar, jamoatchilik fikri, ommaviy axborot vositalari - bularning barchasi SHarqda o'z xususiyatlariga ega. SHarqda jamoatchilik fikri ham keng rivojlangan.

Umuman, demokratiya qadimdan dunyoning turli mintaqalarida turlicha yo'nalishda rivojlanib borgan. **Demokratiyaning shakllari:**

1. **SHarqona demokratiya** (o'zida milliy umumbashariy, mahalliy xususiyatlarni birlashtirgan, o'ziga xos ko'rinish).

2. **Siyosiy demokratiya** (jamiyat siyosiy tizimini xalqqa yaqinlashtirish, siyosiy adolatsizliklarning oldini olish).

3. **Ijtimoiy demokratiya** (bugungi davr demokratik islohotlar jarayoniga e'tibor) ko'rinishlari mavjud bo'lib kelgan.

Umuman, milliy g'oya, erkin fuqaro va demokratiya - yuqori darajada rivojlangan kishilar jamiyati, insoniyat erishgan buyuk ne'mat, ko'pchilikka ma'qul yashash tarzi. Ammo uning amalga oshishi barcha mamlakatlarda bir xil emas. Har bir mamlakat demokratiyaning umumiy qadriyat va tamoyillarini o'z milliy qadriyatlari zaminida, o'z xalqining uzoq tarixi davomida shakllangan an'analari bilan qo'shib qabul qilganini bilamiz. Masalan, AQSH yoki Angliya, Frantsiya (boshqa Evropa mamlakatlari ham) demokratik davlatlar bo'lsalarda, lekin har biri o'z milliy ruhi, an'alarini ham saqlagan. SHu kabi Yaponiya, Koreya, Malayziya kabi mamlakatlarda ham demokratik tuzum milliy va diniy e'tiqod udumlar negizida amal qilmoqda.

SHubhasiz, O'zbekistonda ham biz ana shunday bo'lishi uchun intilmoqdamiz. YUrtboshimizning barcha asarlarida bunga alohida e'tibor qilinib, milliy qadriyatlarni tiklash, milliy axloq-odobni mustahkamlash uchun sa'y-harakatlar qilinmoqda. Biz demokratiya yo'lini, dunyoviy taraqqiyot yo'lini tanladik, hamda rivojlanayotgan davlatlar erishgan darajaga etish uchun bosqichma-bosqich qadam tashlamoqdamiz.

SHunday qilib, milliy g'oya hayotiy va istiqbolli g'oyadir. U taraqqiyotga va mamlakat fuqarolarini chinakam hamjihatlikka, ma'rifatga olib boradigan insonparvar va taraqqiyotparvar g'oyadir.

SHunga ko'ra milliy g'oya har qanday «izmlar» (kommunizm, panislomizm, panturkizm kabi) zararli va umrini o'tab bo'lgan fikrlarni rad etadi. Vatanga, xalqiga muhabbatli odamgina etuk ma'naviyatli, ma'rifatlidir. Ma'rifatli odam o'z erkini boshqalar erki bilan birga deb biladi, o'zgalarning yashash tarzi, e'tiqodi huquqini hurmat qiladi. Bizning ulug' ajdodlarimiz Forobi, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy ana shunday etuk, komil inson bo'lish uchun kurashganlar. «Naqshband uchun shohu gado barobar edi, u qul saqlamas va o'zi ham hech kimga

qul emasligidan faxrlanardi», deb yozadi Navoiy. Hazrat Navoiy asarlarida kuylangan g'oyalar bugun ham bizga ibrat va saboq bo'lib kelmoqda.

Mustaqillik, demokratiya va taraqqiyot o'zaro uyg'un va bir biri bilan bog'liq tushunchalar. CHunki agar milliy mustaqillik bo'lmasa, erkinlik ham, erkin rivojlanish ham bo'lmaydi. SHaxs erkinligi millat erkinligidan ayri tushuncha emas. SHu bois, O'zbekiston XX asr 90-yillarida istiqlolni qo'lga kiritganda bir - biri bilan bog'liq bo'lgan ikki vazifa kun tartibida turardi: **biri** - mustaqillikni mustahkamlash bo'lsa, **ikkinchisi** - bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurish.

Hozirgi paytda O'zbekistonda bu ikki jarayon muvaffaqiyat bilan davom etmoqda va mamlakatimiz tobora iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlar safiga kirib bormoqda. Iqtisodiy taraqqiyot ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy yuksalish bilan uzviy aloqada kechishi lozim. Boshqacha aytganda, iqtisodiy taraqqiyotni O'zbekiston xalqining o'zi amalga oshiradi. YA'ni xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi, bilim va malakasi, salohiyati, umummadaniy darajasi qanchalik baland bo'lsa, iqtisodiy taraqqiyot ham shuncha tezlashib, «erkin, farovon bo'ladi».¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevningning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida" 2017 yil 7 fevraldagi ПФ-49-47- son farmonidagi ustuvor yo'nalishlarning birinchisi Davlat boshqaruv tizimini isloh qilish, davlat boshqaruvi sohasini erkinlashtirish borasida institutsional, funksional va tizimli o'zgarishlar mohiyati, O'zbekistonda davlat hokimiyatining bo'linishi tamoyili va huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash, davlatning strategic dasturlarini qabul qilishda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari tizimi va vakolatlari haqida keng va batavsil yoritilgan.¹

Aholining har bir qatlami, har bir fuqaro buni yaxshi anglab etib, shunga qarab faoliyat olib borishi lozim bo'ladi. Ammo bu sohada muammolarimiz ko'p. Zero, **demokratiya** - erkin yashash va erkin faoliyat olib borish, fikr bildirish, o'z irodasini ifodalash, haq-huquqlaridan bemalol foydalanish va jamiyat ishlariga faol qatnashishni anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bunga to'la kafolat beradi va har bir fuqaroning huquqini himoya qiladi. Biroq, ayni vaqtda, demokratiya yuksak ma'naviyat egasi bo'lish, mas'uliyat va jamiyat oldidagi burchni his qilishni talab etadi. **Qonun, huquq imkoniyatlar** bersa, axloq, burch, o'zgalar manfaati bilan hisoblashish, insoniylik udumlari, vijdon esa **mas'uliyat yuklaydi**, har bir individual shaxs manfaati bilan jamiyat manfaati chambarchas bog'liq ekanini har soatda bizga bildirib turadi. SHu bois huquq va burch, erkinlik va mas'uliyat hamma vaqt birga, uzviy aloqada amal qiladigan tushunchalardir. Zero, yaxlit bir tizim markazida **ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat** kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak. O'zaro raqobat, aqlu zakovat kurashi va tadbirkorlik, ishbilarmonlik xislatlari ham shu zaminda adolat o'zaniga tushadi, kishining kishi tomonidan nohaq ezilishi, zo'ravonlik qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8- jild – T.: O'zbekiston, 2000, 19 – bet.

¹ «Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида” 2017 йил 7 февралдаги ПФ-49-47- сон Фармони». 2017 й.

2. Mavzu “Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari.

1. Insoniyat tarixida g’oya va mafkuralar nomoyon bo’lishining asosiy bosqichlari.
2. Sharq va Markaziy Osiyoda g’oyalarning nomiyon bo’lishi, ularning gumanistik mohiyati.
3. G’arb mamlakatlarida g’oyaviy qarashlarning takomil bosqichlari.
4. XV-XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar va XVIII va XIX asrlardagi yangi zamon g’oyalarning shakllanishi.
5. Mafkuraning XIX asr o’rtalaridan boshlangan takomil bosqichlari va Sovet davrida kommunistik partiya g’oyalarining gegemonligi va uning oqibatlarini.
6. Mustaqillik-milliy g’oya fanining bosh mavzusi.

1. Insoniyat tarixida g’oya va mafkuralar nomoyon bo’lishining asosiy bosqichlari.

Insoniyat tarixida odamlar ongi va shuuriga adolat, haqiqat, ezgulik, mehnatsevarlik kabi yuksak g’oyalar urug’ini sepgan zot, payg’ambar Zardo’sht yaratgan «Avesto» kitobida quyidagi satrlar mavjud: «Ezgu fikr, ezgu so’z va ezgu ishlar bilan ezgu fikr, ezgu so’z va ezgu ishni alqayman. O’zimni bori ezgu fikrga, ezgu so’zlar (aytish)ga, ezgu ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon fikrlardan, yomon so’zu yomon ishlardan yuz o’giramani». Bu yuksak g’oyalar bundan 2700 yil muqaddam yashab o’tgan vatandoshimiz Zardushtning o’lmas mafkurasi edi.

Qadimgi Dunyo bunyodkor g’oyalari:

1. Qadimgi SHarq bunyodkor g’oyalari va ta’limotlari (Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo):

Asosiy turlari, xarakterli xususiyatlari:

1. Buddizm, braxmanlik.
2. Zardushtiylik (Zardo’sht).
3. Konfutsiy, daosizm (Lao-tszi) Mo-tszi.

2. Qadimgi YUnon va Rum bunyodkor g’oyalari va ta’limotlari:

- 1) Gomer, Gesiod, Demokrit (er.avv. VI-V asr).
- 2) Aflotun (er.avv. 427-347 y.).
- 3) Arastu (er.avv. 344-322 y.).
- 4) Seneka (er.avv. 465 y.).
- 5) Neoplatonizm (Plotin, Porfiriy, Prokl) (er.avv. IV-III asr).

Insoniyat doimo yaxshilikni yoqlab, yomonlikka qarshi kurashadi, yaratuvchanlik va bunyodkorlik unga xos bo’lgan buyuk fazilatlaridir. SHarq xalqlarining buyuk ijodkorligi, bunyodkorligi va qadriyatlarini turli davrlar ta’sirida g’arbiga, xususan, antik YUnon-Rim madaniyatiga ham kuchli ta’sir ko’rsatdi. Ana shunday ta’sir ostida YUnon-Rim madaniyati, ilm-fani, falsafiy tafakkur dunyosi shu qadar yuksaldiki, o’sha davrda yaratilgan shoh asarlar va ularning mualliflari merosi hanuz bashariyatning ezgu ishlariga xizmat qilib kelmoqda. SHu ma’noda, komil ishonch bilan aytish mumkinki, insoniyatning haqiqiy umumbashariy madaniyati g’arb tsivilizatsiyasi va SHarq ma’naviyatining qo’shilishi asosida yaratilgan.

Hayotning, borliqning mohiyatini anglash to’g’risidagi **buddizm** dinining asoschisi Sidxartxa Gautama qarashlari muhim o’rin tutadi. Har qanday insoniy tuyg’u, hissiyot, ehtiros va istak azob-uqubatlarni chuqurlashtiradi. Hayot mazmunan tug’ilish, sevish, o’lim, azobdan iborat. «Borliq girdobi»dan chiqib olish uchun g’aflatdan uyg’onish, dunyo mohiyatini anglash, hayotga chanqoqlikdan, ko’ngilxushliklarga, lazzatlarga, hokimiyatga, boylikka intilishlardan voz kechish lozim. Faqat shundagina «najot topish yo’li»ga kirish mumkin. Inson beshta ahloqiy talabga amal qilishi lozim: har bir kishi yomonlik qilishdan, yolg’on gapirishdan, o’g’irlik qilishdan, xis-tuyg’ularga ortiqcha berilishdan, ichkilikdan o’zini tiyishi kerak. S.Gautama quyidagi 8 ta ongli harakatni ilgari suradi:

- 1) E'tiqod to'g'ri shakllangan bo'lishi.
- 2) Maqsad sari qat'iy xarakat qilishi.
- 3) To'g'ri tafakkur va nutq bo'lishi.
- 4) To'g'ri fe'l-atvor bo'lishi.
- 5) To'g'ri turmush tarzi bo'lishi.
- 6) Kuch-g'ayratning to'g'ri maqsadga qaratilgan bo'lishi.
- 7) Fikr, maqsadning to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi.
- 8) Diqqat-e'tiborni to'g'ri orzu-niyat qilishga qaratish kerakligi ta'kidlanadi¹.

Suqrot (Sokrat, mil. av. 470-399 yy.) esa bahs orqali, ya'ni muayyan masalalarni o'rta qo'yish va ularga javob topish yo'li bilan haqiqatni aniqlash mumkin, deb bilgan. U ezgulik - bilim va donishmandlikdir, yaxshilik mohiyatini to'g'ri anglagan insongina yaxshilik qiladi, deb tushuntiradi. Suqrot adolatga xilof bo'lgan davlat boshqaruvining hamma shakllarini tanqid qiladi, faqatgina adolatli, demokratik davlat boshqaruvini yoqlab chiqadi.

Masalan, A.Makedonskiyning ustoz, o'zining bu jahongir shogirdi Osiyoni mahv etgach, unga yuborilgan «Avesto» kitobini chuqur o'rgangan Yunon faylasufi va qomusiy olimi **Arastu** (Aristotel, mil. av. 384-322 yy.) o'z g'oyaviy qarashlarida ustoz Aflotun (Platon, mil. av. 427-348 yy.) g'oyalarini boyitdi va unga muhim o'zgartishlar kiritdi. U jamiyatda bo'lib o'tayotgan barcha voqeliklar tabiatga xos deb biladi. Bu bilan jamiyatni tubdan o'zgartirish g'oyalariga qarshi chiqadi va jamiyat rivoji tabiiy jarayonlar tarzida kechishi kerak, deb hisoblaydi.

Suqrotning shogirdi Aflotun esa g'oyalar umumiy tushunchalar sifatida odam aqliga bog'liq emas, balki u ilohiy tushunchalar deb izohlagan edi. Uning asosiy g'oyasi - ezgulik yoki yagonalik edi. Bunda oliy g'oya ko'pincha xudoga tenglashtiriladi.

Xitoy va hind mutafakkirlarining jamiyat rivoji haqidagi qarashlari va bunyodkorlik g'oyalari ham Osiyoning «sharqona» ma'naviyatida o'ziga xos o'rin tutadi. Jumladan, buyuk Xitoy mutafakkiri **Konfutsiy (mil. av. 551-479)** g'oyalari hanuzgacha Xitoy xalqi mafkurasida etakchilik qilib kelmoqda. Bu g'oyaning asosi jamiyatni har qanday ijtimoiy larzalardan asrab qolish va insonlar manfaatini yuqori qo'yishga qaratilgan. Allomaning maqsadi xalqni mavjud tartib-qoidalarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash bo'lgan. Bu g'oyaga ko'ra, insonlar jamiyatning tabiiy taraqqiyotiga qarshi chiqmasligi, ya'ni inqilobiy yo'lni tanlamasligi kerak. Konfutsiy insoniyat haqida fikr yuritar ekan, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqeyi orqali emas, balki odamiylik, adolatparvarlik, haqgo'ylik, samimiyat, farzandlik izzat-hurmati kabi yuksak ma'naviy fazilatlariga erishish tufayli kamolatga etishuvi mumkin deb, hisoblaydi. Bunday «sharqona demokratiya»ning tamoyillarini o'zida aks ettirgan g'oyalar butun-butun davlatlarning uzoq yillar davomida barqaror yashab qolishiga sabab bo'lgani, sharq xalqlarining tarixiy, ijtimoiy, siyosiy taraqqiyotiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatgani shubhasiz.

SHarqda, ya'ni Turon zaminda esa jamiyat rivoji va bunyodkorlik g'oyalari xususida Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy qarashlari o'ziga xos o'rin tutadi. «Al-muallim as-Soniy» («Ikkinchi muallim»), SHarq Aristoteli deb nom olgan **Abu Nasr Forobiy** (873-990 yy.) o'zining «Fozil odamlar shahri», «Fuqarolik siyosati», «Baxt saodatga erishuv haqida» kabi asarlarida olijanob jamiyat, adolatli tuzum haqidagi o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib, o'z davri uchun izchil ta'limot yaratdi. U har tomonlama etuk, barcha aholini baxt-saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi ideal jamoa haqidagi g'oyalarni olg'a surdi.

O'sha davrning buyuk mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning bu boradagi qarashlari ham o'ziga xosdir. Ular har bir narsani kuzatish va tajriba asosida o'rganishga, keyin xulosa chiqarishga intilganlar, barcha bunyodkorlik insonning mehnatiga bog'liqligini ta'kidlaganlar. Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy esa o'z asarlari bilan jamiyat taraqqiyotining zamonasiga xos fazilatlarini yoritishga harakat qilgan. U she'rlari va dostonlarida razolatga, beqarorlikka, urushu janjallarga, ma'rifatsizlikka qarshi kurash g'oyalarini ulug'laydi. Insonlarni mehnatga, yaratuvchanlikka, adolatga chaqiradi. Ma'rifatga asoslangan jamiyat yaratishni orzu qiladi. Uning bu orzulari «Farxod va SHirin», «Saddi Iskandariy» kabi

¹ Jo'raev U., Saydjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. -T.: «Sharq», 1998. 77-bet.

dostonlarida o'z ifodasini topgan. SHoirning bevosita o'zi ham qator bunyodkorlik ishlariga bosh-qosh bo'lgan.

Ko'hna Turon o'z boshidan buyuk tarixiy voqealar ichida Amir Temurning bunyodkorlik g'oyalari va amaliy faoliyati katta ahamiyatga ega. U garchi fotihlar qatoridan o'rin olib, behisob jangu-jadallarni boshidan kechirgan bo'lsa-da, asosiy maqsadi bunyodkorlik va yaratuvchilik bo'lgan. Jumladan, u «Temur tuzuklari»da: «Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi etmasa, kerakli uskunalarini etkazib berib, unga yordam berilsin», deb ko'rsatma beradi. SHu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning Amir Temur o'z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan, desak, adolatdan bo'ladi, degan fikrlari nihoyatda o'rindir. Zero Sohibqironning Movarounnahr, Xuroson va boshqa joylarda bunyod etgan inshootlari, uning o'zi va temuriylar sulolasi davridagi madaniyat, fan, adabiyot sohasidagi yutuqlar bunga misol bo'la oladi.

O'rta asr bunyodkor g'oyalari:

I. O'rta SHarq bunyodkor g'oyalari va ta'limotlari:

- 1) Islom diniy ta'limoti. Qur'on va Payg'ambar Muhammad alayhissalomning Hadislari.
- 2) Al-Xorazmiy (783–850 yi.).
- 3) Al-Farg'oni (IX asr 861 y. vafot etgan).
- 4) Imom al-Buxoriy (809–869 yy.).
- 5) Abu Nasr Forobiy (873–950 yy.).
- 6) Abu Rayhon Beruniy (973–1048 yy.).
- 7) Abu Ali ibn Sino (980–1037 yy.).
- 8) YUusuf Xos Hojib (XI asr).

Ilk o'rta asrlarda aynan shu yerda (Xorazmda) asos solingan Ma'mun akademiyasi butun sharq va g'arb olamida shuxrat qozongani barchamizga ma'lum. Jo'shqin Amudaryodan suv ichib, muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog'ida unib- o'sgan, xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan Abu Rayxon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Maxmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oni, Sakkokiy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko'plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan.¹

II. Tasavvuf: asosiy yo'nalishlari (tariqatlari) va asoschilari.

- 1) YAssaviy (YUusuf Hamadoni (1048–1140 yy.), Hoja Ahmad YAssaviy (1041–1166 yy.)).
- 2) Qubraviya (Najmiddin Qubro: 1145–1221 yy.).
- 3) Naqshbandiya (Xojagon). Abduxoliq G'ijduvoni (1270 y. vafot etgan, Bahouddin Naqshband (1318–1389 yy.).
- 4) Mavlaviya. Jololiddin Rumi (1207–1273 yy.).

El – yurt ozodligini o'z hayotidan ham ustun qo'ygan Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro kabi mardlik va jasorat timsoli bo'lgan bobolarimiz butun xalqimizning iftixoriga aylangan.²

O'rta asr SHarq bunyodkor g'oyalari:

1. Pahlavon Mahmud (1248–1325 yy.).
2. Amir Temur (1336–1405 yy.).
3. Alisher Navoiy (1441–1501 yy.).
4. Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530 yy.).
5. Boborahim Mashrab (1640–1711 yy.).

¹ Мирзиёев Ш. М. Буюк келажегимизни мard ва олийжаноб халқимиз билан бирга курамиз. Т.: Ўзбекистон, 2017. 241b.

² Мирзиёев Ш. М. Буюк келажегимизни мard ва олийжаноб халқимиз билан бирга курамиз. Т.: Ўзбекистон, 2017. 242b.

Uyg'onish davri bunyodkor g'oyalari: Uyg'onish davri G'arb bunyodkor g'oyalari va ta'limotlari.

- N.Makiavelli (1469–1527 yy.).
- Tomas Mor (1478–1535 yy.).
- Jordano Bruno (1548–1600 yy.).

YAngi davr G'arb bunyodkor g'oyalari va ta'limotlari:

- F.Bekon (1561–1626), R.Dekart (1596–1650), T.Gobbs (1588–1679), D.Look (1632–1704), B.Spinoza (1632–1677), G.Leybnits (1646–1716).
- Dj.Berkli (1685–1753), D.YUm (1711–1776), A.Volter (1694–1778), P.Golbax (1723–1789).
- Nemis klassik falsafasining namoyondalari: I.Kant (1724–1804).

XVIII-XIX asr bunyodkor g'oyalari: XVIII-XIX asr Turkistondagi bunyodkor g'oyalar.

1. Nodira (1792–1843),
Uvaysiy (1789–1850),
Dilshod (1800–1906).
2. A.Donish (1827–1897),
Berdaq (1827–1900),
Furqat (1850–1903),
Avaz O'tar (1884–1919).
3. XX asr jadidchiligi.
M.Behbudiy (1879–1919),
M.Abdurashidxonov (1878–1931),
A.Fitrat (1886–1937),
A.Avloniy (1878–1934).

XX asr bunyodkor g'oyalari:

- XX asr Hindiston. Moxandos Karamchand Gandi (1869–1948).
- XIX-XX asr Evropadagi bunyodkor g'oyalar:
O.Kont (1798–1857), G.Spenser (1820–1903), E.Dyurkgeym (1858–1917), M.Veber (1864–1920), Fridrix Nitsshe (1844–1900).

Hind xalqining buyuk farzandi **Mahatma Gandi** (1869–1948) o'z ma'naviyati, g'oyalari va ilg'or qarashlari bilan XX asrning buyuk shaxslaridan biriga aylangan. U mustamlakachilarga qarshi kurashning timsoli edi. U hindlar bilan musulmonlarning o'zaro do'stligini mustahkamlashga intildi. Gandi din bilan siyosatni bir-biriga bog'lashga harakat qildi. Unga xalq «Mahatma» - «Buyuk qalb» deb nom bergani ham shundan bo'lsa, ajab emas. R.Tagor fikriga ko'ra: «Gandi muvaffaqiyatining siri uning jo'shqin ma'naviy kuchida va behad darajada o'z manfaatlaridan voz kechishidadir. U o'zining olihimmatliligi bilan noyobdir. Gandi hayotining o'zi fidoyilik timsolidir».

Mafkuraviy va ma'naviy tahdidlarning asl maqsadi nima ekanligi va ularning ma'naviy hayot uchun qanday xavflar keltirib chiqarishi ustida gapirib O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning shunday fikrlarni aytib o'tgan edilar: «Agarki masalaga amaliy ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan har qanday xuruj-bu millatimizni millat qiladigan, asrlar, ming yillar davomida ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlarga, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usiga, bizni doimiy ravishda tadrijiy taraqqiyotga chorlaydigan, shu yo'ldagi barcha asorat va illatlardan xalos bo'lib, ozod va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga katta zarba beradigan mudhish xavf-xatarlarni anglaydi¹.

¹ I.A.Karimov. «Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch» T., «Ma'naviyat», 2008, 14-bet.

Milliy g'oya jamiyat ma'naviyat hayotini yuksalib borish zamini bo'lish bilan birga u ma'naviyatimizni ezgu maqsadlar yo'lida engilmas kuchga aylanishini ta'minlab beradi.

Milliy g'oyasiz va yuksak ma'naviyatsiz odamlar, jamiyat va davlat yo'lini yo'qotadi. Milliy g'oya jamiyatni yuksaltirish va ma'naviy etuklikka erishishi yo'lidagi, jamiyat a'zolarini Oliy maqsadlar sari etaklab boruvchi bayroq misolidir. Milliy g'oya xalqni, millatni birlashtiradi. Jamiyatning har bir a'zosini ma'naviy kamolotga erishishini ta'minlab beradi. Milliy g'oya jamiyatning har bir a'zosini yuksak ma'naviyat belgilaridan hisoblangan vatanparvarlik, fidoyilik singari fazilatlarini shakllantirib beradi. Ularni Ozod va obod Vatanni yaratish yo'lga safarbar etadi. Milliy g'oya ma'naviy hayotini yuksaltirish yo'lidagi olijanob vazifalarni bajarish bilan birga jamiyatning har bir a'zosida ertangi farovon hayotimizga ishonchni shakllantirib beradi. Yuksak ma'naviyatni shakllantirish yo'lida, mamlakatimiz kuch-qudratini oshirish yo'lidagi xizmat qiladigan milliy g'oya haqida gapirib O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday degan edilar: «... u Vatanimizning shonli o'timishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb xis qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oya bo'lishi kerak»¹.

Milliy g'oya jamiyatimiz a'zolarini bosh g'oyasi bo'lgan Ozod va obod Vatanni yaratish, erkin va farovon yashash orzusiga sadoqat ruhida tarbiyalab boradi.

Ma'naviyat doimo har bir shaxsning, butun jamiyatning e'tiqod va qadriyatlariga aylangan g'oyalari, me'yorlari va omillaridandir. Ma'naviyat xalqimizning boy madaniy merosida qadimdan shakllanib kelgan urf-odatlar va an'analarida o'z ifodasini topadi.

Milliy g'oya ma'naviy hayotni yuksaltirishga xizmat qiladigan fazilatlarni shakllantirib berish bilan birga turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalar o'rtasidagi hamkorlikni, millatlararo totuvlikni va umumtaraqqiyot yo'lidagi jipslashuvni ta'minlab beradi. Milliy g'oya O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha xalqlarning tilidan, e'tiqodidan jinsidan qat'iy nazar barcha O'zbekistonliklarning manfaatlarini ifodalay bilishi kerak. Milliy g'oya har bir shaxsning o'zligini erkin namoyon etishga, ma'naviy kamolotga erishish yo'lida shart-sharoit bo'lib xizmat qilishi lozim. Milliy g'oya jamiyatning ma'naviy hayotini yuksalishiga to'siq bo'luvchi turli illatlarni oldini olishda katta ahamiyatga egadir. Milliy g'oyaning jamiyat hayotini yuksaltirishga xizmat qiladigan etuk avlodni tarbiyalab berishdagi o'rni ham benihoya kattadir. Shuning uchun ham milliy g'oyaning asosiy vazifalaridan biri barkamol avlodni, komil insonni tarbiyalashdir.

Milliy g'oya jamiyatning har bir a'zosini yovuz g'oyalar ta'siriga tushib qolishdan asrab qolish bilan birga ularni sog'lom fikrlashga ulg'ayib kelayotgan yoshlarni o'z xalqi va Vatani ravnaqi yo'lida voyaga etishini ta'minlab beradi. Bugungi kunda jamiyat a'zolarini ayniqsa O'zbekistonning kelajagi bo'lgan yoshlarni ongi va qalbini zaharlashga intilayotgan, jamiyatimizning ma'naviy hayotini parokandalik holatiga tushirishga harakat qilayotgan ma'naviy tahdidlar mavjuddir. Mana shunday ma'naviy tahdidlarni oldini olishda Milliy g'oya katta rol o'ynaydi. Ma'naviy hayotni yuksalib borishiga to'siq bo'luvchi ma'naviy tahdidlar to'g'risida gapirib O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov yana shunday fikrlarni ilgari surgan edilar: «Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin.

Eng yomoni, bunday xurujlarning pirovard oqibati odamni o'zi tug'ilib o'sgan yurti va xalqidan topishga, vatanparvarlik tuyg'ularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayd bo'lgan shaxsga aylantirishga qaratilganida namoyon bo'lmoqda¹.

Ma'naviy tahdidlarni oldini olishda yuksak ma'naviyatga erishish yo'lida milliy g'oyaning tutayotgan o'rnini va bajarayotgan vazifalarini quyidagilarda ko'rib o'tsak bo'ladi.

¹ I.A.Karimov. «Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz». T., «O'zbekiston» 1999, 92-bet.

¹ I.A.Karimov. «Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch» T., «Ma'naviyat», 2008, 12-13betlar.

-Jamiyat a'zolarining dunyoqarashlarini boyitish, ularga chuqur bilim berish, tafakkur erkinligini shakllantirib borish;

-O'zbekistonning har bir fuqarosini Oliy maqsadlarga eltuvchi taraqqiyot modelini asoslash, yuksalish sari intilib borayotgan jamiyatimizda ma'naviy shaxs qanday bo'lishini ham mantiqiy, ham nazariy jihatdan asoslab berish;

-Milliy g'oya ma'naviy hayotni yuksaltirish yo'lida tarbiyaviy vazifalarni ham bajarib borib, u jamiyat a'zolarida axloqiy, huquqiy va estetik me'yorlarni yuksaltirib borishni ta'minlab beradi.

-Milliy g'oya milliy jipslikni ta'minlab berish bilan birga har bir millatning madaniy manfaatlarini ham himoya qiladi.

Milliy g'oya ma'naviy jihatdan etuk bo'lgan barkamol insonlarni voyaga etkazib borar ekan, u inson ma'naviyatiga xos ekanligini asoslab beradi. Bugungi jadal sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan davrda Milliy g'oyaning oldiga muhim ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb vazifalar yuklatilmoqda.

Milliy g'oya hech qachon nazariy tafakkur natijasi bo'lib qolishi mumkin emas. U har bir shaxsning ma'naviy e'tiqodida, amaliy faoliyatida namoyon bo'lishi bilan birga ma'naviy hayotni yuksaltiruvchi omil bo'lib qolishi kerak.

Milliy g'oya jamiyat a'zolarining ongi va qalbiga ma'naviy va tarbiyaviy ishlar birga, singib borish bilan birga, u kishilarda birlik, birdamlik, hamjihatlik, hamkorlik, faollik, fidoyilik shakllarida namoyon bo'ladi.

Milliy g'oyaning ma'naviy hayotdagi ahamiyati onglik, birlik va birdamlik shakllarida namoyon bo'ladi.

Isonniig tashqi olami bilishga bo'lgan intilishi muayyan davrga kelib, falsafiy-nazariy bilimni tarixiy zaruratga aylantirdi. Buning natijasida aqliy va jismoniy mehnat taqsimotining dastlabki shakli vujudga keldi va fanning nazariy jihatlarini o'rganuvchi kishilar toifasi paydo bo'ldi.

Avvalgi mavzuda ta'kidlab o'tganimizdek, olam va odamning yaralishi, mavjudlik va rivojlanish qonuniyatlarini afsona va rivoyatlar asosida tushuntirishni maqsad qilib olgan dunyoqarash soxasi **"Mifologiya"** (mif - afsona, logos - ta'limot) deb ataladigan bo'ladi. Ilohiy va ruhiy qarashlarning o'rni va ahamiyatini mutloqlashtiradigan tafakkurning bir yo'nalishi **"Teologiya"** (teo - Xudo. logos - ta'limot) degan nom oldi.

SHunday qilib, insonning bilish jarayoni takomillashib borgani sari mustaqil fanlar tizimi ham shakllanaverdi. Jamiyat rivojining muayyan bosqichlariga kelib, mifologik, diniy qarashlar olamni bilish talablariga javob bermay qoldi. Falsafadan fanlarning ajralib chiqishi, uning qashshoqlanishini emas, balki rivojlanish xususiyatini ko'rsatuvchi alomatga aylandi.

Insoniyat tarixida odamlar ongiga va shuuriga adolat, xaqiqat, ezgulik, mehnatsevarlik kabi yuksak g'oyalar urug'ini sepgan zot, payg'ambar zardo'sht yaratgan "Avesto" kitobida quyidagi satrlar mavjud: "Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishlar bilan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishni alqayman. O'zimni boru ezgu fikrga ezgu so'zlar (aytish)ga, ezgu ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon fikrlardan, yomon so'zu yomon ishlardan yuz o'giraman". Buyuk yuksak g'oyalar bundan 2700 yil muqaddam yashab o'tgan vatandoshimiz Zardo'shtning o'lmas mafkurasi edi.

Insoniyat doimo yaxshilikni yoqlab, yomonlikka qarshi kurashadi, yaratuvchanlik va bunyodkorlik unga xos bo'lgan buyuk fazilatdir. Sharq xalqlarining buyuk ijodkorligi, bunyodkorligi va qadriyatlari turli davrlar ta'sirida g'arbga, xususan, antik Yunon-Rim madaniyatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ana shunday ta'sir ostida Yunon-Rim madaniyati, ilm-fani, falsafiy tafakkur dunyosi shu qadar yuksaldiki, o'sha davrda yaratilganshoh asarlar va ularning mualliflari merosi hanuz bashariyatning ezgu ishlariga xizmat qilib kelmoqda, Shu ma'noda, komil ishnochi bilan aytish mumkinki, insoniyatning haqiqiy umubashariy madaniyati g'arb tsivilizatsiyasi va Sharq ma'naviyatining qo'shilishi asosida yaratilgan.

Masalan, A.Makedonskiyning ustoz, o'zining bu jahongir shogirdi Osiyoni mahv etgach, unga yuborilgan "Avesto" kitobini chuqur o'rgangan qadimgi Yunon faylasufi va qomusiy olimi

Arastu (Aristotel, mil.av. 384-322 yy.) o'z g'oyaviy qarashlarida ustoz Afrotun (Platon mil.av. 427-348 yy.) g'oyalarni boyitdi va unga muxim o'zgarishlar kiritdi. U jamiyatda bo'lib o'tayotgan barcha voqealarni tabiatga xos deb biladi. Bu bilan jamiyatni tubdan o'zgartirish g'oyalari qarshi chiqadi va jamiyat rivoji tabiiy jarayonlar tarzida kechishi kerak, deb hisoblaydi.

Afrotun esa g'oyalar umumiy tushunchalar sifatida odam aqliga bog'liq emas, balki u ilohiy tushunchalar deb izohlagan edi. Uning asosiy g'oyasi-ezgulik yoki yagonalik edi. Bunda oliy g'oya ko'pincha xudoga tenglashtiriladi. Bu faylasufning ustoz bo'lgan Suqrot (Sokrat, mil.av. 470-399 yy) esa bahs orqali, ya'ni muayyan masalalarni o'rta qo'yish va ularga javob topish yo'li bilan haqiqatni aniqlash mumkin, deb bilgan. U ezgulik-bilim va donishmandlikdir, yaxshilik mohiyatini to'g'ri anglagan insonga yaxshilik qiladi deb tushuntiradi. Suqrot adolatga xilof bo'lgan davlat boshqaruvining hamma shakllarini tanqid qiladi, faqatgina adolatli, demokratik davlat boshqaruvini yoqlab chiqadi.

2.Sharq va Markaziy Osiyoda g'oyalarning nomiyon bo'lishi,ularning gumanistik mohiyati.

Mavorounnahrda (hozirgi O'zbekiston hududida) islom dinining tarqalishi xalqning yagona maslakka birlashtirishdek tarixiy vazifani bajardi. IX-XII asrlarda somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshohlar sulolalari tomonidan mintaqada asos solingan davlatlar nafaqat o'zbek xalqi, balki jahon xalqlari tarixida ham chuqur iz qoldirdi. Muhammad Horazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oni, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy kabi allomalarining o'lmas asarlari jahon fanini boyitdi. Mutasavvuf: Hoja Yusuf Hamadoni, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq g'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro; muhaddislar: Imom Buxoriy, Imom Termizilarning ta'limotida aks etgan komil inson g'oyalari, adolat xaqidagi kurashlar jamiyatning ma'naviy-ahloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu g'oyalar Vatan va xalq manfaati yo'lida fidoiylilik va insonparvarlikni ulug'ladi. Ular milliy-ma'naviy qadriyatlar sifatida xalqimiz madaniyati, adabiyoti va san'atida, jumladan, Mahmud Qashg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yung'ay, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumi, Mirzo Abdulqodir Bedil ijodida chuqur o'rin egalladi.

Bu g'oyalar o'zbek davlatчилиgining rivojlanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qildi. Amir Temurning "Temur tuzuklari", Nizom-ul-mulkning "Siyosatnoma" kitoblari davlat idorasi va ahli fuqaroga munosabatda adolat, insof, diyonat, el-yurt tinchligi va obodligi bosh g'oya sifatida ilgari surildi. Bu g'oyalar Temuriylar davlati g'oyaviy tamoyillarning ustivor yo'nalishi edi.

Islom falsafasida va hadisalarda tabiatni asrash, ilm olish, odamiylilik, vatanparvarlik, hallollik, ruhiy poklik, rahm-shafqatli, mehr-oqibatli va adolatli bo'lish, ota-onani va ayolni ulug'lash to'g'risidagi ezgulik g'oyalarni targ'ib qiluvchi g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Hadislardagi «Ilmga nisbatan go'yo cho'pon kabi posbon bo'linglar, lekin ilmni faqat rivoyat qiluvchi bo'lmanglar», «Ilm o'rganish har bir mo'min uchun farzdir», «Ilmu hunarni Xitoydan borib bo'lsa ham o'rganinglar», «yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqsh kabidir», «Bir-birlaringizga hayr-ehsonli, mehr-oqibatli bo'lib, qo'l berib so'rashib yuringlar, shunda dillaringizdagi g'amu-g'ashlik ketadi», «Vatanni sevish imondandir», «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir», «Bir-birlaringizga ehson qilinglar, chunki ehson dildagi muhabbatni oshiradi», «Jannat onalar oyog'i ostidadir», «Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so'ng otangga yaxshilik qil», «Sizlarning yaxshilaringiz ahloqi yoqimli bo'lganlaringizdir», «Ekmak niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda behosdan qiyomat qoyim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham ulgursangiz uni ekib qo'yavering»,¹ degan da'vatlarda ezgulik va insonparvarlik g'oyalari mujassamlashgan. Sharqda, ya'ni Turon zaminida esa jamiyat rivoji va bunyodkorlik joylari xususida Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy qarashlari o'ziga xos o'rin tutadi. «Al-muallim as-Soni» («Ikkinchi muallim»), Sharq Aristoteli deb nom olgan Abu Nasr Forobiy (873-990 y.y) o'zining «Fozil odamlar shahri», «Fuqarolik siyosati», «Baxt saodatga erishuv

¹ Imom Buxoriy. «Al – Adab, Al- Mufrad, T.: «O'zbekiston» 1990, 46-90-93-116 betlar; Axloq- odobga oid hadis namunalari. T.: 1990, 32-68-90 betlar.

haqida» kabi asarlarida oliyjanob jamiyat, adolatli tuzum haqidagi o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib, o'z davri uchun izchil ta'limot yaratdi. U har tomonlama etuk, barcha aholini baxt-saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi yuksak axloqqa ega ideal jamoa haqidagi g'oyalarni olg'a surdi.

Abu Nasr Forobiy: «Insonning moxiyati xaqiqiy baxt-saodatga erishuv ekan, inson bu maqsadni o'zining oliy g'oyasi va istagiga aylantirib, bu yo'lda barcha imkoniyatlardan foydalansa, u baxt-saodatga erishadi»² deb alohida ta'kidlagan. O'sha davrning buyuk mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning bu boradagi qarashlari ham o'ziga xosdir.

Ular har bir narsani kuzatish va tajriba asosida o'rganishga, keyin xulosa chiqarishga intilganlar, barcha bunyodkorlik insonning mehnatiga bog'liqligini ta'kidlaganlar. Buyuk o'zbek shoiri, mutaffakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy esa o'z asarlari bilan jamiyat taraqqiyotining zamonasiga xos fazilatlarni yoritishga harakat qilgan. U she'rlari va dostonlarida razolatga, beqarorlikka, urushu janjallarga, ma'rifatsizlik, jaholatga qarshi kurash g'oyalarini ulug'laydi. Insonlarni mehnatga, yaratuvchanlikka, adolatga chaqiradi. Ma'rifatga asoslangan jamiyat yaratishni orzu qiladi. Uning bu orzulari «Farhod va Shirin», «Saddi Iskandariy» kabi dostonlarida o'z ifodasini topgan. Shoirning bevosita o'zi ham bunyodkorlik ishlariga bosh-qosh bo'lgan.

Buyuk mutasavvufilar: Xoja Yusuf Xamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abduhioliq Jijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro; muhaddislar: Imom Buxoriy, Imom Termiziylarning ta'limotlarida aks etgan komil inson g'oyalari, adolat iqidagi qarashlari jamiyatning sog'lom ma'naviy-ahloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qildi. Bu g'oyalar Vatan va xalq manfaati yo'lida fidoyilik va insonparvarlikni ulug'ladi.

Ezgu g'oyalar Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Abdulqodir Bedillar ijodida chuqur o'rin egalladi va o'zbek davlatchiligining rivojlanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qildi. Bilim va aql-idrok orqali ezgu ishlar qilish to'g'risida Yusuf Xos Hojibning quyidagi fikrlari e'tiborga molik. «Tabiat kimga zakovat, aql-idrok, bilim bersa, u ezgu ishlar qilishga qo'l uradi»¹, - deb yozgan edi qutadg'u bilig (XI) nomli asarida. Amir Temurning «Temur tuzuklari», Nizomulmulkning «Siyosatnoma» kitoblarida davlat idorasi va ahli fuqaroga munosabatda adolat, insof, diyonat, el-yurt tinchligi va obodligi bosh g'oya sifatida ilgari surildi.

Bu g'oyalar Temuriylar davlati g'oyaviy tamoyillarining ustuvor yo'nalishi edi. Amir Temurning bunyodkorlik g'oyalari va amaliy faoliyati katta ahamiyatga ega bo'lib, uning asosiy maqsadi bunyodkorlik va yaratuvchilik edi. Jumladan, u «Temur tuzuklari»da: «Agar fuqarodan birining uy imorati buzilib, tuzatishga qurbi etmasa kerakli uskunalarini etkazib berib, unga yordam berilsin», deb ko'rsatma beradi. Shu o'rinda, Yurtboshimizning Amir Temur o'z davlatini aql zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan desak adolatdan bo'ladi, degan fikrlari nihoyatda o'rinlidir. Zero, Sohibqiron o'z bunyodkorlik maqsadiga erishish uchun sobitqadamlik bilan harakat qilgan. Jumladan, bu haqda «Temur tuzuklari»da yozganidek, «Biror ishni bajarishni o'ylasam butun zehnim, vujudim bilan bog'lanib, bitirmagunimcha undan qo'limni tortmadim»², - degan so'zlari bugun ham ibratlidir.

Movarounnahr, Xuroson va boshqa joylarda bunyod etgan inshootlari, uning o'zi va Temuriylar sulolasi davridagi madaniyat, fan va adabiyot sohasidagi yutuqlar bunga misol bo'la oladi. Barcha davrlarda va turli xalqlar tarixida milliy joya va mafkura o'zida gumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettirgan taqdirda jamiyatni birlashtirib, uning salohiyati va imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarishda beqiyos omil bo'ladi.

3.G'arb mamlakatlarida g'oyaviy qarashlarning takomil bosqichlari.

² Qarang: Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri». –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993, 188 b.

XI-XIII asrlarda G'arbiy evropadagi ijtimoiy taraqqiyot O'rta asrlar nomi bilan yuritiladi. Bu davr G'arbiy Evropada ham quldorlik munosabatlarining o'rnini feodal munosabatlari egallagan davr edi. Bu davrda din mafkura sohasida ham hukmronlik qiladi, u jamiyatda asosiy mafkuraga aylanib, cherkovning esa siyosiy va mafkuraviy ta'siri ko'pchilik G'arbiy Evropa mamlakatlarida haddan ziyod kuchayib, insoniyat fikrining barcha sohalari – falsafa, huquqshunoslik, sana't va madaniyat sohalari, tabiatshunoslik sohalarida ham diniy dogmatik aqidalar hukmronlik qiladi. Ayniqsa, bu davrda falsafa tajribaviy bilimlardan, amaliyotdan ajralib, dinning hizmatkoriga, sxolastikaga, ilohiyotga aylantiriladi. Bu davrda tabiatni o'rganish gunoh hisoblanib, tabiatni o'rganishga kirishgan kishilar dahriylikda ayblanadilar va quvg'in qilinadilar, hatto ular olovda ham kuydirilar va o'ldirililar edi. Natijada, dunyoviy bilimlar ustidan diniy ta'limotlar hukmronlik qiladi. Din ijtimoiy fikr ustidan cheksiz hukmron bo'ladi.

Lekin dinning qattiq ta'zyiqiga qaramasdan, jamiyat taraqqiy etib, tabiiy va ijtimoiy qarashlar ham rivojlanib, antik davr madaniyati, fan yutuqlari, falsafiy qarashlari o'rganila boshlaydi, natijada, bu davr falsafasida ham yangi-yangi oqimlar, yo'nalishlar paydo bo'la boshlaydi. Ayni shu davrda, ya'ni G'arbiy Evropaning O'rta asrlar davrida, falsafada, skeptitsizm, agnostizm, neoplotonizm, kabi oqimlar paydo bo'ldi. Lekin bu davrda, baribir, katolik cherkovining rasmiy dunyoqarashi tizimini tashkil etgan teologiya va sxolastik falsafa butun O'rta asr davomida hukmronlik qiladi. Bu diniy sxolastik falsafiy qarashlarga nazariy manba bo'lib qadimgi yunon faylasuflari Platon va Aristotelning falsafiy ta'limotlari hizmat qiladi. Bu davr diniy-sxolastik falsafiy oqim-nominalizm va realizm oqimlari vujudga keladi va ular o'zaro bir-birlariga qarshi kurash olib boradi.

Nominalizm o'sha davr shahar savdogarlari va hunarmandlari manfaatlarini ifodalovchi, ularning cherkovning mutlaq hokimiyatiga qarshi kurashini aks ettiruvchi, o'z davrining progressiv falsafiy oqimi bo'ladi.

Realizm esa cherkov va yirik feodallar manfaatini ifoda etuvchi, ular dunyoqarashi bo'lgan sxolastik, reaksion falsafiy oqim hisoblanadi. Bu ikki oqim o'rtasidagi kurash umumiy tushunchalar, «universallar»ning mohiyatini aniqlashdan kelib chiqadi..

Realizmga asos qilib Platonning obe'ktiv idealizmi olingan edi. Uning asosiy vakillari: Anselm (1033-1109), Ioan Skot Eriugen (815-877), Foma Akvinskiylar edi. Ularning fikricha, umumiy tushunchalar, ya'ni kategoriyalar - «universallar» - real mavjud bo'lib, ular mustaqil g'oyaviy mohiyat sifatida predmetlarga, kishilarga nisbatan birlamchidir. Moddiy olamning predmetlari esa shu umumiy tushunchalarning shakliy ifodasi, ikkilamchidir. Umumiy tushunchalar mangu bo'lib, predmet va hodisalar vaqtincha va o'tkinchidir. Realistlar fikricha, «umuman uy» g'oyasi birlamchi bo'lib, uning shakliy ifodasi sifatida yakka-yakka holdagi uylar vujudga keladi.

O'rta asrlar falsafasidagi bu realizm oqimi katolitsizm cherkovi va sxolastik dogmalarning falsafiy asosiy edi. Uning XIII asrdagi ko'rinishi tomizm, deb ataladi. Tomizm Foma Akvinskiy ta'limotini tashkil etadi. Bu ta'limotga ko'ra, dunyoda turli shakllar bor, jon ham shu shakllardan biridir, shakllarning shakli esa, bu-xudodir, jon birlamchi va o'lmasdir. U tanadan chiqishi bilan tana halok bo'ladi. F.Akvinskiy umumiy tushuncha masalasidan chiqib kelib, aqlni ikkiga bo'ladi:

- 1.Tabiatdan tashqari aql yoki «xudo aqli»;
- 2.Tabiatdagi aql yoki kishi aqli, ya'ni inson aqli.

Tabiatdan tashqaridagi aql birlamchi, kishi aqli esa ikkilamchidir.

Boshqacha aytganda, umumiy tushuncha bo'lgan «xudo aqli» birlamchi, tabiatdagi aql, ya'ni inson aqli «xudo aqli»ning mahsulidir. Akvinskiyning bu qarashlari cherkovni nazariy jihatdan mustahkamlashga hizmat qilgan edi va hozir ham xizmat qilmoqda. U hozirgi kunda XX asr falsafasidagi hukmron oqimlardan biri «Neotomizm» nomi bilan yuritiladi.

Nominalistlar, ularning asosiy vakillari: Berengariy Turskiy (1000-1088), Ioan Rastseliy (1050-1112), Uilyam Okkam (1300-1350) ta'limoticha, tabiatdagi yakka-yakka predmet va hodisalar, ularning xususiyatlari real mavjud, ularning in'ikosi bo'lgan umumiy tushunchalar esa ikkilamchidir. Chunki, «umuman o'y», «umuman inson»-bir guruh, o'ylar, bir guruh kishilarning ini'kosidir, xolos.

XIV va XVI asrlar G'arbiy Evropada Uyg'onish davri, deb yuritiladi. Bu uyg'onish dastlab Italiyada, so'ngra Evropadagi boshqa mamlakatlarda vujudga keladi. Bu davrda Evropa mamlakatlarida feodal munosabatlari ichida kapitalistik munosabatlar rivojlana boshlaydi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi tabiatni, undagi predmet va hodisalarning qonuniyatlarini o'rganish tabiatshunoslik bilimlarining rivojlanishiga olib keladi. Ilg'or olimlar va mutafakkirlar dunyoviy ilmlarni din va sxolastika hamda cherkov hukumronligidan ozod qilish uchun kurash olib boradilar. Natijada, feodal reaksiyasiga qarshi burjuaziyaning, dinga qarshi fanning, sxolastik falsafaga qarshi yangi uyg'onish davri falsafasining kurashi yuzaga keladi. Ana shu tarixiy sharoitda o'z asarlari va yangi kashfiyotlari bilan bir qancha ijodkorlar, olimlar va faylasuflar etishib chiqadi.

Ana shunday kishilardan biri polyak olimi Nikolay Kopernikdir. U o'zining 25 yil osmon jismlari ustida olib borgan kuzatishlarining natijasi sifatida 1543 yilda e'lon qilgan «Osmon jismlarining gir aylanishi» nomli kitobida Aristotel va Ptolomeyning cherkov rasmiy ravishda qabul qilgan geotsentrik nazariyasini o'zining ilgari surgan geliotsentrik gipotezasi bilan rad etadi.

Ma'lumki, geotsentrik nazariyaga ko'ra, olamning markazi Er, u harakatsiz, boshqa barcha planetalar, yulduzlar, hatto Quyosh ham uning atrofida harakat qiladi va aylanib turadi. N.Kopernikning yaratgan geliotsentrik gipotezasiga ko'ra, Er olamning markazi emas, uning harakatsizligi noto'g'ri. Aksincha, Er, avvalo, o'z o'qi atrofida harakat qiladi, bu harakat tufayli kun bilan tun yuzaga keladi; ikkinchidan, olamning markazida Er emas, Quyosh turadi, uning atrofida boshqa sayyoralar bilan birga, Er ham aylanadi, natijada, Erda to'rt fasl sodir bo'ladi. Kopernikning bu kashfiyoti tabiatshunoslik fanlarida juda katta voqea bo'lib, bu tabiatshunoslik fanlari rivoji uchun, dunyoviy ilmlarning rivojlanishi uchun tabiiy ona zamin rolini bajaradi.

Uyg'onish davrida paydo bo'lgan, tabiatni o'rganish asosida yuzaga kelgan falsafiy qarashlar O'rta asrlarda paydo bo'lgan diniy-sxolastik falsafiy qarashlar bilan olib borilgan kurashlari natijasida panteistik falsafiy ta'limot vujudga keladi. Bu oqimning shu davrda etishib chiqqan vakillaridan biri Jordano Brunodir. Uning ta'limoticha, moddiy olam birlamchi bo'lib, ong ikkilamchidir; moddiy olam mangu va abadiydir, uni hech kim yaratgan emas, moddiy olam mangu, u so'ngsiz va cheksiz, u cheksiz turlarda ifoda etiladi, undagi barcha predmet va hodisalar bir-birlari bilan bog'liq va aloqadorlikda. Olamda Quyosh sistemasidan tashqari yana sonsiz-sanoqsiz dunyolar mavjud. Olam bepoyon. Er esa ana shu bepoyon olamning zarrasidir. Brunoning bu qarashlari uchun uni Rim katolik cherkovi dahriylikda ayblab, Rimda olovda yondirib o'ldiradi.

Lekin J.Brunoning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari, Uyg'onish davri falsafasi taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Chunki u O'rta asr diniy-sxolastik falsafaga qarshi dunyoviy bilimlarni din iskanjasidan, cherkov hukumronligidan xolos qilish, ozod etish uchun zamin yaratgan edi.

Uyg'onish davrida N.Kopernik J.Bruno izdoshi sifatida maydonga chiqqan buyuk olim, matematik, mexanik, fizik, astronom Galileo Galileyning falsafiy va tabiiy-ilmiy qarashlari ham muhim rol o'ynaydi. U N.Kopernik gipotezasi, ya'ni Er o'z o'qi atrofida va Quyosh atrofida aylanishi g'oyasini qizg'in targ'ib qilib, u haqda o'zining «Dunyoning ikki sistemasi haqida suhbat» asarini yozadi. Bu asarda dinning va cherkovning diniy-sxolastik aqidalarini keskin tanqib qilib chiqadi.

Cherkov inkvizitsiyasi uni ham qamoqqa olib, Rimda sud qilishadi, «tavba qildirishadi». U sud jarayonida, go'yo o'z qarashlari noto'g'ri, ulardan qaytganligini tan oladi. Sud hukmi o'qilib bo'lganidan keyin, sud zalidan, qamalmasdan, chiqib ketishi oldida, odamlarga qarata: «Baribir, Er o'z o'qi atrofida aylanadi» deb chiqib ketadi. Shunday qilib, Uyg'onish davrida tabiatni, olamni bilishning o'sishi, fanning din hukumronligidan ozod bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

XVII -XVIII asrlar G'arbiy Evropa taraqqiyotida yangi davr hisoblanadi. Bu davr Evropa mamlakatlarida O'rta asrchilik feodal munosabatlari tugatilib, kapitalistik munosabatlar to'liq qaror topadi va rivojlana boshlaydi. Kapitalistik ishlab chiqaraish ehtiyoji tabiatni, insonning o'zini, jamiyatni ilmiy o'rganish, bilishni taqazo qiladi va uni o'rganishni tezlashtiradi. Dengizlarda savdo munosabatlarining o'sishi kemasozlikning rivojlanishiga, kemalar Er shari bo'ylab ilmiy ekspeditsiyalarning uyushtirilishi, yangi erlar, yangi qit'alarni ochilishiga olib keladi. Yangi geografik kashfiyotlar qilinadi. Natijada, tabiatshunoslik bilimlari, mexanika,

matematika, fizika, kimyo, astronomiya sohalarida yangi-yangi tadqiqotlar olib borilib, O'rta asr sxolastikasi va diniy aqidalarni ulotirib tashlanadi. Yangi ilmiy dunyoqarash shakllana boshlaydi. Bunda nemis olimi Keplerning sayyoralarning harakati, qonunlarining ochishi, ingliz olimi Isaak Nyutonning olamning tortilish qonunlarini kashf etilish, ingliz faylasufi F.Bekon tomonidan insonning dunyoni bilishdagi muhim rol o'ynovchi induktiv metodni ishlab chiqishi, frantsuz olimi Rene Dekartning inson bilimining hosil bo'lishiga oid detektiv metodni asoslab berishi muhim rol o'ynaydi. Shular asosida bu davr falsafasida metafizik va metamexanistik materializm qaror topadi. Metafizik va mexanistik materializmning namoyondalari F.Bekon, J.Lokk, T.Gobbs frantsuz faylasuflari R.Dekart, P.Kobak, Lametri va Gelvetsiy qarashlarida o'zining yorqin ifodasini topadi.

Bu yangi davrda tabiatni bilishga intilishning kuchayishi natijasida falsafada empirik va ratsionalistik oqimlar vujudga keladi. Empirik oqimning asoschisi F.Bekon hisoblanadi. Uning qarashicha, tabiatni bilishning manbai bu - tajriba, eksperiment, kuzatishdir. Inson sezgi a'zolari orqali tabiat to'g'risida hosil qilingan faktlar, dalillar va ma'lumotlarni tajriba orqali tekshirishi, aniqlashi, undagi hato va kamchiliklarni bartaraf etish zarur. Shu asosda insoning tabiat to'g'risidagi to'g'ri, to'liq bilimlari hosil bo'ladi.

F.Bekonning falsafa va fan tarixidagi eng katta xizmati - uning inson bilishining induktiv metodini ishlab chiqishidir.

Ratsionalistik oqimning asoschisi frantsuz faylasufi Rene Dekartdir. Dekart ta'limoticha, insonning tabiatni bilishining birdan-bir to'g'ri metodi bu aqlga asoslangan deduktiv metoddir.

Dekart o'zining bu qarashlarini «Metod to'g'risida mulohazalar» asarida bayon qiladi. U o'z asarida insonning tabiatni bilishida quyidagi talablarni ilgari suradi:

1. Haqiqat, deb qaralgan bilim faqat aql nuqtai nazaridan aniq, ravshan, shubhalardan holi bo'lgan nazariy xulosalari asosida chiqarilgan fikrlar bo'lmog'i lozim.

2. Har bir murakkab muammo yoki masalani ularning tarkibini tashkil qilgan muammo va masalalarga ajratish, bo'lish lozim.

3. Bilishda isbot bo'ladigan, ma'lum bilimlardan hali noma'lum va isbot qilinmagan bilimlarga o'tib borish zarur.

4. Tadqiqot haqidagi fikrlar - bilimlarni tashkil etgan mantiqiy xalqalardan xulosa chiqarishda birontasi ham tushirilib yoki e'tiborsiz qoldirmasligi lozim. Dekartning qarashlariga ko'ra inson bilishining birdan-bir manbai - bu tafakkur, aqliy salohiyatidir. Uning qarashicha, insonning sezgi a'zolari, tajribalari hamma vaqt ham to'g'ri bilim beravermaydi, shu sababli ularga inson o'z bilish jarayonida to'liq ishonmasligi zarur.

Yangi davr falsafasida tarkalgan okimlardan biri **marksizm** bo'lib, uning asoschisi nemis iktisodchisi va faylasufi K. Marks (1818 - 1883)dir. Uning ijtimoiy falsafasi kapitalizmga sinfiy kurashning mutlak antogonizm darajasiga ko'tarilishi, oxir-okibat proletariat diktaturasining o'rnatilishi va shu yo'l bilan sinfsiz jamiyatga o'tishni targib qiladigan, real xayotni aks ettirmaydigan nazariyadir.

Keyinchalik sobiq ittifoqda xukmron mafkuraga aylangan bu ta'limot dastlab K. Marks va F. Engels yozgan "Kommunistik partiya manifesti"da bayon kilingan, Uning nazariy asoslari K. Marksning "Kapital" F. Engel'sning "Anti-Dyuring" va "Tabiat dialektikasi" asarlarida ta'sirflab berilgan bo'lib, ijtimoiy xayotda salbiy okibatlariga olib keldi. U borlik tushunchasini materiya bilan aynanlashtirgan, ruxni butunlay inkor qilgan, materializm va ateizmni mutlaklashtirgan.

Bu ta'limotning K. Kautskiy, V. Plekhanov boshlik mo'tadil jarafdorlari keyinchalik sotsial-demokratiyaga ko'prok, moyil bo'lishi. Rossiyada V.Lenin boshchiligidagi tarafdorlari esa sinfiy kurash va proletariat diktaturasini mutlaklashtirish yo'lidan bordilar. Bu, o'z navbatida, inkilobiy sakrash yo'lini tanlashga olib keldi va Rossiyani terror yo'lga boshladi. Okibatda esa bu tipdagi dunyokarash jamiyat va xalqlar takdirida g'oyat salbiy o'rin tutishi ma'lum Uldi. Garbda Marksning hozirgi davrdagi tarafdorlari **"neomarksizm"** okimini tashkil etadilar. Ko'pgina neomarksistlar sinfiy kurashni mutlaklashtirmaslik, inkilobiy emas, tadrijiy sakrash yo'lidan borish ustuvor bo'lishi lozimligini e'tirof eta boshladilar. Ammo ularning asl karashlarini jamiyat, millat emas, sinf va ular o'rtasidagi kurash taraqqiyoti belgishshydi, degan o'sha ta'limotga bog'likligicha kolmokka.

Aloxida tatidlash lozimki, yatsingacha sobik ittifok va uning shptifokchilari xududida mutlak xukmron bo'lgan mafkuraning takdirini o'rganish, uning tarixidan xolisona xulosa chikarish, bu ta'limotning kandpy ayanchli natijalarga olib kelganini bilib ko'yish xam foydadan xoli emas. Bu borada lom-mim dvmaslik foyda bermaydi. Zero, talimotlar tarixi insonlar, ularning takdiri, yuksalishi yoki tanazzuli tarixidir. Bu yuksalish yoki tanazzul ko'p xollarda muayyan g'oyalar, mafkuralar ta'sirida ro'y beradi. Goxida minglab, millionlab kishilarni maftun kilgan ba'zi g'oyalar yoki mafkuralar oxir-okibat ana shu millionlarning zavoliga sabab bo'lishi xam mumkin. Biz kiska taxlil kilgan marksizm va keyinrok u paydo bo'lgan xududda shakllangan natsional sotsializm (fashizm) nazariyalari ana shu tarixiy xakikatni isbotlaydi. Bu xakikatning ostida esa biror ta'limot kadriyatlarini mutlaklashtirish, albatta, muayyan "izm" ga, akidaparastlikka olib keladi bu, o'z navbatida, jaxon va kaboxatga eltuvchi yo'ldir, degan umuminsoniy tamoyil yotadi

XX asrga kelib jamiyat tarixiy taraqqiyotiga oid ta'limotlarni umumlashtirish natijasida ijtimoiy taraqqiyotning plyuralistik modeli, "lokal madaniyatlar" xamda "tsivilizatsiyalarning xilma-xilligi" kontseptsiyalari shakllandi. Ularga ko'ra, jamiyat tari-xi - o'ziga xos madaniyatlarining birligi emas, xilma-xilligidan iborat. Shu ma'noda u organik tabiatyaagi xayot shakllarining rang-barangligiga kiyoslanadi. Demak, tabiat qanday xilma-xillikning birligi bo'lsa, jamiyat xam ana shunday rang-baranglikning uygunligidir. Jamiyatda xam xamma va xar bir narsaning o'z o'rni bor.

4.XV-XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va XVIII va XIX asrlardagi yangi zamon g'oyalarning shakllanishi.

XVI asrdan boshlab Mavorounnaxrda uzaro urushlar, nizolar avjga chikdi, Temuriylar davlati inkirozga yuz tutib, mayda davlatlarga bulinib ketadi. Natijada Shayboniixon Ismoil Safaviy lashkarlari tomonidan uldirilganidan sung, markazlashgan davlat inkirozga yuz tutdi.

Shayboniylardan Abdullaxon va uning ugli Abdulmumin vafotidan sung, XVI asr oxirida bu davlat barxam topib, xokimiyat ashtarxoniylar sulolasiga utdi. Imomkulixon (1611-1642) davrida davlat bir muncha mustaxkamlangan bulsa-da, keyingi davrlarda taxt uchun kurashlar davom etdi. Bu esa iktisod, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at ravnakiga uz ta'sirini kursatdi. Ayiksa, tabiiy-ilmiy fanlar rivoji zaiflashdi, dunyoviy bilimda tanazzul ruy berdi.

XVI-XVII asrlarda falsafiy va axlokiy fikr soxasida Poshoxuja, Mirzajon ash-Sheroziy al-Bognaviy, ibn Muxammadjon Yusuf al - Korabogiy, Muxammad Sharif al-Buxoriy va boshkalarning asarlarini kursatish mumkin.

Poshoxuja (1480–1547) Niso shaxrida tugilib, Buxoroda vafot etadi. U "Miftox ul-adl" ("Adolat kaliti") va "Gulzor" xikoyalar tuplamini yaratgan bulib, ularda insof, adolat, diyonat, saxovat, donolik va akl-zakovat, rostguylik, ruxiy komillik, xalollik, mexr-okibat, kamtarlik va boshka ma'naviy axlokiy fazilatlarini taxlil kiladi, salbiy illatlar, insoniylikka zid xatti-xarakatlarni koralaydi.

XVII asrning mashxur mutafakkiri, faylasufi **Yusuf al-Korabogiy** (1563-1647) asli Ozarbayjondan bulib, keyinchalik Buxoroga keladi. U yoshligidan fixx, falsafa, tasavvuf bilan shugullanadi. Uning muxim risolalari "Risolayi botiniya", "Risolayi xilvatiya", "Fi ta'sirifi ilm" va boshkalardir. Bulardan tashkari u Davoniy, Tuftazoniy, Shaxobiddin Suxravardiylarning kitoblariga sharxlar bitgan.

Korabogiy uz salaflari singari dunyoni, butun olamni bir-biri bilan chambarchas boglik bulgan yagona jism deb biladi. Uningcha, olam yagona jism, undagi barcha mavjud narsalar uning a'zolaridir. Olamdagi butun narsalarni Xudo yaratgan, u birinchi sababdir. Borlikdagi xamma narsalar sabab-okibat orkali bir-biri bilan boglangan. Shuningdek, olim xarakat va uning turlari, turt unsur xakida xam uz fikrini bildiradi.

Bu davrda Boboraxim Mashrab, Sufi Olloyor, Turdi Farogiy va boshkalarning ijtimoiy-falsafiy karashlari muxim urinni egallaydi. Bular orasida Mashrabning xur fikrlik ruxi bilan sugorilgan ijtimoiy-falsafiy va axlokiy fikrlari e'tiborga sazovordir.

Boboraxim Mashrab (1640-1711) Namanganda tavallud topadi. U Mulla Bozor Oxunddan diniy-tasavvufiy ta'limot sirlarini urganadi. Keyinchalik esa koshkarlik Ofok Xojaga muridlik kiladi, 1675 yilda Namanganga kaytadi. Mashrab uzining keyingi xayotida Yakin va Urta Shark mamlakatlarining kup joylarida xususan, Toshkent, Turkiston, Samarkand, Buxoro, Andijon, Xujand, Badashxon va boshka erlarda buladi. U umrining oxirida Balxda bulib, Kunduzda Maxmud Katagon tomonidan katl kilinadi.

Mashrab gazal va ruboiylarida iloxiy sevgi, ya'ni olloxga muxabbatni tasvirlaydi. Mashrab tasavvufning kalendarlik tarikatini tanlaydi, xalkni ezgulikka, insof va diyonatga, tugrilikka chakiradi. Umuman olganda, shoir islom akidalarini inkor etmagani xolda, uning ba'zi koidalari mukaddasligiga gumonsirab karaydi. Bular ayniksa, Mashrabning ruza, jannat, duzax, namoz, makka, ka'ba tugrisidagi she'rlarida namoyon buladi.

Mashrabning ijtimoiy-siyosiy va axlokiy karashlarida xukmdorlarni insofga, xalkka yordam berishga da'vat etish yotadi. Insoniylik, pok muxabbatni kuylash, kishilarni dustlikka, vafodorlikka chakirish takabburlik va yolg'on suzlashdan saklanish, nasl-nasabga ishonmaslik, iymon-e'tiqodini sotmaslik ota-onani xurmat kilish kabi g'oyalar Mashrab dunyokarashining magzini tashkil kiladi.

Mashrab murakkab karama-karshiliklarga boy davrda yashadi. Bu xol uning duny karashida xam bilinib turadi. U bir tarafdan adolatli jamiyat, insonning guzal fazilatlarini xakida fikr yuritisa, ikkinchi tomondan yaxshi jamiyatga erishib bulmasligi xakida gapirib, umidsizlikka tarkidunyochilikka beriladi. Bulardan kat'i nazar, uning ajoyib she'rlari va undagi g'oyalar xozir xam uz kimmatini yukotgani yuk.

Uzining ijtimoiy-falsafiy fikrlari bilan Markaziy Osiyo madaniyatiga katta ta'sir kursatgan shoir va faylasuf **Mirza Abdulkodir Bedil** (1644-1721). Mirza Bedil ilmning kup soxalari xususan falsafa, adabiyot, san'atshunoslik buyicha ijod kildi. U xind, arab, eron, kuplab Osiyo xalqlarining ilmiy merosini chukur uzlashtirgan etuk olimdir. Bulardan tashkari Mirza Bedil, Sa'diy, Attor, Jomiy, Xofiz, Navoiylarning she'riyati, dunyokarashini puxta bilgan.

Uning muxim asarlari "Chor unsur", "Irfon", "Ruboiyot", "Gazaliyot" va boshkalardir. Vaxdati-mavjud okimi tarafdorlari tabiatning abadiyligini materiya va ruxning birligini tan olib, xudoni olamning uzida deb biladilar. Mirza Bedil ana shu ta'limot tarafdori edi. Bedil uzining "Chor unsur", "Irfon" asarlarida xamma narsalarning asosida xavo yotadi, deb xisobladi.

Uningcha, xavo abadiy, mutlok xarakatchan, uzgaruvchan, rangsiz va engildir. U yukori va kuyi tomon xarakat kiladi. U ruxlar tugrisida suz yuritib, nozik bug-buxori latif xavodan kelib chikib, tabiiy rux, nabotot ruxi, inson ruxi, xayvoniy ruxni paydo kiladi, deydi. Xullas, u tabiatni ruxlantiradi, ruxlar moddiy dunyodan tashkari emasligini aloxida ta'kidlaydi.

Mirza Bedil bilish xakida fikr yuritar ekan, bilishning birinchi boskichi xis-tuygular bilan boglikligini, bilishda inson tafakkurining kudrati kuchli ekavnligini yozadi. Bedil inson uz kilmishlari, xatti xarakatida erkindir, degan koidani xayotiy misollar orkali asoslab berishga intiladi, mexnat va xunarni ilm va kasb egallashni uluglaydi.

Ma'lumki, tanosux-ruxning kuchib yurishiga ishonish usha davrda Xindistonda keng tarkalgan edi. "Xindlarning tasavvuricha, - deydi Bedil, - rux butunlay mustakil xolatda mavjuddir va xar bir narsaga, jismlarga utish-kuchish kobiliyatiga ega". Shuni aloxida ta'kidlash joizki, Bedil tanosux nazariyasining xakikiy moxiatini ochishga uringan.

Mirza Bedil ijtimoiy-siyosiy karashlarida jamiyat, inson, davlat va uning kelib chikishi, uni boshkarish yullari, dexkonchilik va uning foydasi xakida fikr yuritdi. Ayniksa, u insonni yuksak darajaga kutardi, uning irki, dini va millatidan kat'i nazar xurmatga sazovor ekanligini uktirdi. U odamlardagi vatanparvarlik, mexnatsevarlik, vafodorlik, saxiylik, samimiylikni kadrladi, dangasalik, takabburlik, ochkuzlik, yolg'onchilik, makkorlikni koraladi.

Xullas, Mirza Bedilning insonparvarlik ruxi bilan sugorilgan ijtimoiy va falsafiy g'oyalari usha davrda muxim axamiyatga ega buldi. Olim uzining falsafiy karashlari bilan Uzbekiston va Xindiston urtasidagi madaniy, ilmiy va dustlik alokalarini mustaxkamlashga katta xissa kushdi.

XVIII asrning oxiri XIX asr boshlarida Markaziy Osiyoda 3 davlat - Kukon va Xiva xonligi xamda Buxoro amirliklari paydo buldi, ular davrida ilm fan, adabiyot va san'atni rivojlantirgan ba'zi mutafakkirlar etishdi. Kukon xonligi xududida yashab ijod etgan shoiralar Nodira (1792-

1893), Uvaysiy (1789-1850), Dilshod Barno (1800-1906) va boshkalar ijtimoiy-falsafiy fikr rivojiga munosib xissa kushdilar.

Bular orasida Nodira (Moxlaroyim) aloxida urinni egallaydi. Shoira un ming misradan ortik gazallarning muallifi bulib, ularda zamonasining muxim muammolarini kutarib chikadi. Nodira mamlakatni boshkarishda faollik kursatadi, davlatni tadbir va adolat asosida boshkarishga intiladi, bu borada uz ugliga kumakdosh buladi, unga xomiylik kiladi. Shoira ijodida inson va uning fazilatlarini kuylash asosiy urinni egallaydi: sevgi, muxabbat, xikmat, sabr-kanoat, xayo kabi insoniy kadriyatlar taxlil kioinadi. U uz ijodida dunyoviylik bilan bir katorida tasavvufning nakshbandiya yunalishiga asoslangan bir butunlik bilan insonning jamiyat va tabiatga munosabatini xam, iloxiy muxabbat yulidagi ruxiy dunyosini xam juda guzal va jonli misralarda ifodalab beradi.

Mustakillik sharofati bilan Nodira va boshka shoiralarning ijodiy merosi yana xam chukur urganila boshlandi, she'riy tuplamlari chop etilib, xalkning ma'nafiy xulkiga aylantirildi.

Bu davrda Xorazmda Komil Xorazmiy, Ogaxiy va Munis kabi shoirlar ijod kildilar:

Ogaxiy - Muxammadrizo Erniyozbek ugli 1809 yilda Kiyot kishlogida tugilib, 1874 yilda vafot etgan.

Shoirning muxim asarlari "Gulshani davlat", "Riyozi udavla", "Jome' ul vokiati Sul-toni", "Zubdat ut-tavorix", "Shoxidi ikbol", "Bayozi mutafarrikai forsi", "Firdavs ul-ikbol" va boshkalardir. Bularda tashkari, Ogaxiy, Sa'diy Sheroziy, Nizomiy, Kaykavus, Jomiy va Koshfiyning badiiy, tarixiy, axlokiy-didaktik, falsafiy asarlarini uzbek tiliga tarjima kilingan.

Ogaxiy uzining "Kasidai nasixat" nomli asari va boshkalarda davlatni boshkarish yullarini kursatadi, Xiva xoni Feruzga mamlakatni odilona boshkarishning yul-yuriklarini aytadi. Ogaxiy uzining ijtimoiy karashlarida insonparvarlik g'oyalari ilgari suradi, odamlarni yaxshilik va ezgulikka, xayrli ishlar bilan shugullanishga, ma'rifatparvarlikka da'vat etadi. Uning tarixiy risolalari xakkoniyligi bilan ajralib turadi. Mutafakkir Xiva xonligining 1813-1873 yillar tarixini yozib koldirgan. Xozirgi vakt-da, tariximizni xolisona yaratishga intilish kuchaygan bir sharoitda, Ogaxiy asarlarining axamiyati oshib bormokda.

XIX asrning 2-yarmida Turkiton rus chorizmi tomonidan bosib olindi. Utgan asrning 60-70 yillarida xalkning kattik karshiligiga karamay Rusiya askarlari zuravonlik, kurol ishlatish yuli bilan Turkiston shaxar va kishloklarini ishgol kildilar. Bundan asosiy maksad bu ulkani xom-ashyo bazasiga aylantirish, maxalliy boyliklarni talon-taroj kilish, ularni xorijiy mamlakatlarga sotish va uz sanoatini rivojlantirishda foydalanish edi. Rus burjuaziyasi erli amaldorlar bilan kelishib ish yuritdi. Bu esa xalkning ikki tomonlama ezilishga olib keldi. Rus sanoatining kirib kelishi, kuplab rus axolisining Turkistonga kuchib kelishi, axolini "ruslashtirish" siyosati - bularning xammasi Evropa va rus madaniyati tarkalishiga sababchi buldi. Pochta, telegraf, telefon, elektr, temir yullari kurilishi yulga kuyila boshlagani, banklar ochilgani aslida erli xalkni ezish uni uzligidan judo kilish orkali amalga oshirildi.

Erli xalkning orasida mustamlakachilikka karshi ma'rifatchilik g'oyalari tarkala boshladi, yangi ta'lim-tarbiya shoxobchalari, yangi maktab, maorif, madaniy targibot, jadidchilik xarakati rivoj topdi. Mana shunday sharoitda Turkistonda kuplab ma'rifatchilar etishib chikdi. Ma'rifatparvarlik mafkurasining kuzga kuringan vakillaridan biri **Axmad Donish** (1827-1897) bulib, u falsafa, falakiyot, riyoziyot, adabiyot, tarix soxasida asarlar yozgan.

U mamlakatni odilona boshkarish uchun isloxot zarurligini uktiradi. Davlat, olimning nuktai-nazaricha, xalkning manfaatini ximoya kilishi, xukmdor esa, bilimdon, aklli bulib uz atrofida-gilar bilan kengashib davlatni idora kilishi lozim. Bunday fikrlar, ijtimoiy-siyosiy karashlar olimning "Navodiru-vakoe" va boshka risolalarida uz ifodasini topgan. Olimning asarlari uz tadvikotchilarini kutmokda.

XIX asrning ikkinchi yarmida ijod etgan Korakolpok shoiri va mutafakkiri **Berdok** (1827-1900) "Omonkeldi", "Xalk uchun", "Axmad podsho", "Yaxshirok", "Bulgan emas", "Ernazarbiy" kabi asarlarning muallifidir. Ushbu asarlarda mutafakkir Korakolpok xalkining turmush tarzini, usha tomondagi xayotini moxirona tasvirilaydi. Berdok asarlarida axlok va xulk-odob, nafosat va guzallik, vatanparvarlik, insonparvarlik, tenglik, kaxramonlik va mardlik, mustakillik xakikat uchun kurash kabi milliy va umuminsoniy kadriyatlar keng urin olgan.

Uning ijtimoiy-falsafiy va axlokiy karashlari yoshlar ongida ma'naviyat va milliy mafkurani shakllantirishda muxim tarbiyaviy kuchga ega.

Ma'rifatparvarlik xarakatini yirik namoyondalaridan biri **Furkat**dir (1859-1909). Zokirjon Xolmuxammad ugli Furkat Kukonda dunyoga keladi. U "Ilm xosiyati", "Akt majlisi xususida", "Toshkent shaxrida bulgon nagma bazmi xususida", "Vistavka xususida", "Shoir axvoli va she'r mubolagasi xususida" va boshka kuplab asarlarida ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari suradi.

Furkat uta murakkab davrning ziddiyatli tomonlarini, mamlakat kolokligining tub sabablarini xakkoniyl idrok kiladi. Bu xakkoniylkning asl sababi jaxolatda, urush-janjallarda deb biladi. Xon va beklarning uzaro nizolari, ularning savodsizligi va joxilligi, ochkuz va tamagirliigi, tekinxurligi mamlakat va xalkka ofat va kulfat keltirayotganini u kura bildi.

Furkat jamiyatdagi salbiy illatlar va adolatsizliklarni bartaraf etishda, ma'rifat, ilm-fan, ta'lim-tarbiya muxim axamiyatga ega ekanligini chukur tushinib etdi.

Usha davr ma'rifatparvarlik xarakatining yirik namoyondalari **Mukumiy** (1850-1903), Zavkiy (1853-1921), Anbar Otin (1870-1914), Xamza (1889-1929) ijtimoiy ziddiyatlar kuchaygan davrda yashadilar. Ular jamiyatdagi illatlarni tankid kilish bilan ajralib turadilar.

Mukimiy uz dunyo karashida erkin jamiyat, insof va adolat, insoniylk, imon-e'tiqod erk barkamol inson xakida fikr yuritadi, adolatsizlik, zuravonlikka asoslangan jamiyatni koraladi.

U "Veksel", "Urug", "Asrorkul", "Dodxoxim", "Tuy", "Tanobchilar", "Moskovchi boy" va boshka xajviy asarlarida ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, uzboshimchalik, va zuravonlik, ogir soliklarni xakkoniyl ravishda tasvirlaydi.

Uzbek abadiyoti va madaniyatining yirik vakili Xamza Xakimzoda Niyoziy dunyokarashining shakllanishida Fuzuliy, Navoiy, Xofiz, Furkat va Mukumiylarning adabiy merosi muxim rol uynaydi. Xamza "Maysaraning ishi", "Istibdod kurbonlari", "Zaxarli xayot yoxud ishk kurbonlari" va boshka unlab asarlarning muallifidir. U ma'rifat, bilim egallash, baxtli va faravon xayotga intilish g'oyalarini ilgari suradi. Xamza jaxolat, ilmsizlik, firibgarlikni koraladi, rus amaldorlarining yaramas xatti-xarakatlarini fosh kildi.

Xamza maktab va maorif ishlarida faol katnashib bolalarni bilim egallashi uchun jonbozlik kursatdi, doim xakikat uchun kurash olib bordi. Uning marifatchilik g'oyalari ijtimoiy-falsafiy fikr va ma'naviyat rivojiga muxim xissa bulib kushildi.

Turkistonda ma'rifatchilik xarakatining avj olishi jadidchilik g'oyalarini vujudga kelishida muxim urin egalladi. Lekin shurolar davrida jadidchilik kupincha bir tomonlama talkin kilindi, uning g'oya va maksadlarini soxtalashtirish va xatto uni millatchilik xarakati deb baxolash xollari xam buldi. Mustakillikka erishilgandan sung bu xarakatni xolisona va ilmiy nukta-nazardan tadjik kilish imkoniyati tugildi. Jadidchilik xarakatining yirik namayoondalari Turkistonda mustakillik, milliy taraqqiyot uchun, xalkning manfaatlar uchun kurash olib bordilar. Jadidchilik xarakatining muxim xususiyati uning milliy ozodlik xarakat va Turkistonda milliy burjuaziyani vujudga kelishi bilan chambarchas boglikligi edi.

Usha davrda jadidchilik xarakatining kator vakillari etishib chikdi. Bular Munavvar Kori, Avloniy, Bexbudiy, Fitrat, Chulpon va boshkaldir.

Maxmudxuja Bexbudiy (1875-1919) jadidchilik xarakatining asoschilaridan biri bulib, yangi maktablar kurish, yosh avlodni mustakillik ruxida tarbiyalash, ularni ilmi kilish, ma'rifat va taraqqiyot uchun kurashga katta xissa kushgan mutafakkirdir.

Bexbudiy yangi maktablar uchun "Risolaiy asbobi savod", "Risolay jugrofiyai umroniy", "Kitobat ul atfol", "Amaliyoti islom", "Risolai jugrafiyai rusi" va boshka darsliklarni yozadi. Uning asosiy asari "Padarkush" drammasidir. Bulardan tashkari, Bexbudiy kuplab publistik makolalar yozdi, matbuotda xizmat kildi, nashr ishlari bilan mashxul buldi. Uning makolalarida millat va vatan tagdiri, mustakillik g'oyasi, axlok va ta'lim-tarbiya va boshka masalalar urin olgan.

Jadidchilik xarakatining yirik namayoondalaridan biri Abdulla Avloniydir (1878-1934). U pedagogik faoliyat va badiiy ijodni kushib olib bordi. Avloniy ochgan maktablarda dunyoviy fanlarni bolalarga ukitish yulga kuyildi. Mutafakkir "Ikkinchi muallim", "Birinchi muallim", "Alifbedan sungi ukuv kitobi" kabi darsliklarni yaratdi.

Ayniksa, olimning "Turkiy guliston yoxud axlok" darsligi bolalar dunyokarashi, milliy ongi va mafkurasini shakllanishida muxim axamiyatga ega buldi. Unda bolalarga ilm-fan sirlarini

urgatish, yaxshi xulk-odob koidalarini singdirish Turkiston xalkini asriy koloklikdan kutkarish yullari, iqtisod, tadbirkorlikni rivojlantirish, mamlakatni xomashyo karamligidan xolos etish, ma'rifat va ma'nfviyatni yuksaltirish masalalari yoritildi.

Avloniy "Advakotlik osonmi?", "Biz va siz", "Partugaliya inkilobi", "Ikki sevgi" va boshka dramatik asarlar yozib, uzbek teatri va dramaturgiyasi rivojiga munosib xissa kushdi.

Jadidchilik xarakatining yana bir yorokin vakili Abdurauf Fitrat (1884-1939) bulib, ilmning kup soxalarida ijod kilgan mutafakkirdir. Olim "Sayxa" ("Bong"), "Xind sayyoxining kissasi", "Uchkun" tuplami, "Chin sevis", "Xind ixtilochilari", "Uzbek tili dramatikasi", "Chixatoy adabiyoti" va boshka kuplab asarlar yozdi. Fitratning asarlarida xalkni jaxolat va nodonlikdan kutkazish, ilm ma'rifatga chorlash, milliy mustakillikka erishish, xalkni uzligini tanishi, ongini usishi, kuchli va rivojlangan davlat tuzish, xalkni bilimdon bulib, tijorat va tadbirkorlik bilan shugullanishi, Evropaning fan va texnika yutuklarini urganish kabi g'oyalar ilgari suriladi. Uning yukoridagi millatparvarlik va vatanparvarlik ruxi bilan sugorilgan g'oyalari xozir xam tadbirkorlik, ma'naviyat va ma'rifatni ravnak toptirishda, milliy g'oya va mafkurani shakllantirishda, xalkning uzligini anglashida muxim axamiyatga ega.

5.Mafkuraning XIX asr o'rtalaridan boshlangan takomil bosqichlari va Sovet davrida kommunistik partiya g'oyalarning gegemonlik va uning oqibatlari.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga kelganda Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston xalqlari ilg'or vakillari Rossiyaning mustamlakachilik zulmidan qutilish, o'z milliy davlatchiligini qurish, o'z milliy – iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotiga yo'l ochish zarurligini tushunib etishadi. Bu kishilar o'sha davr tarixiy jarayonning etakchi kuchi milliy va mahalliy savdo va sanoat burjuaziyasi namayondalari hisoblanib, ular juda katta qiyinchiliklar bilan keng xalq ommasining siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qiladigan g'oyaviy oqim – jadidchilar ma'rifatparvarligini shakllantirib, uni har tomonlama rivojlantirdilar. Turkistonda jadidchilik harakati ma'rifatparvarlik asosida O'rta va Yaqin Sharqdagi, Qrim, Qozon, Ufa va Ozarbayjonda yuzaga kelgan diniy islohotchilik va ma'rifatparvarlik g'oyalari hamda jadidchilik harakati ta'sirida vujudga keladi. Bu jadidchilik Turkistonda vujudga kelgan sharqona ma'rifatparvarlikni butun xalqning demokratik va milliy uyg'onishiga yo'naltirilgan umummilliy mafkurasi darajasiga ko'tardi. Jadidchilar Markaziy Osiyo, xususan, Turkistonda uzoq davom etayotgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy inqirozni to'xtatish, jamiyat taraqqiyotini yangi yo'nalishga solib yuborish maqsadida maorif, din, adliya, davlat qurilishi va boshqa qator ijtimoiy-madaniy sohalarida islohotlar o'tkazishni taklif qilishib maydonga chiqishadi. Ular ta'lim-tarbiya, axloq-odob, o'qish-o'qitishni, sog'liqni saqlash sohalarini, xotin-qizlar ahvolini yaxshilash, ijtimoiy-madaniy turmushning barcha jabhalarini tubdan o'zgartirish g'oyalari o'rtaga tashlashdi.

Jadidchilar o'z siyosiy faoliyat sohalarida Turkiston hududiy birligi, Chorizm mustamlakachiligidan qutilish, milliy mustaqillik g'oyalari ilgari surishib, shu g'oyalar uchun kurash olib borishadi. Ular iqtisodiy sohada esa sanoatni, savdoni rivojlantirish, iqtisod va moliya sohalarida boshqa millatlarga qaram bo'lishdan qutilish, milliy savdo va bank tashkilotlarini barpo qilish g'oyalari bilan maydonga chiqadilar.

Biroq jadidchilar faoliyatida madaniy-ma'rifiy soha ustuvor hisobanadi. Jadidchilik harakatining asosiy maqsadi – eski tizimni isloh qilishdan iborat bo'ldi. Jadidchilar milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, siyosiy va iqtisodiy qaramlik va qoloqlikdan chiqish muammolarini echa oladigan zamonaviy bilimlarga ega, savodli va vatanparvar kadrlar bo'lish zarurligini yaxshi anglaydilar. Shuning uchun dunyoviy bilimlarni diniy bilimlar bilan birlikda o'rganish va egallash ishlari, maorif tizimini isloh qilish masalasi jadidchilar ijtimoiy fikrining diqqat markazida bo'ladi. Jadidchilar islohotni maktab va madrasalardan boshlash zarur, chunki millat hayoti ta'lim-tarbiya bilan belgilanadi, deyishadi. Ular mahalliy boylarning o'sha davr ichki va tashqi bozorda sinishlarining asosiy sababi-ularning savdo ilmidan savodsizligi tufayli bo'lmoqda, chunki ular savdo qilish, moliyaviy operatsiyalarni olib borish ishlarini bilmaydilar. Agar biz madaniyat va iqtisod sohalarida boshqa (mamlakatlarga), boshqa millatlarga qaram bo'lishni istamasak, biz milliy sudyalari, advokatlar, o'qituvchilar, davlat arboblari, injener,

savodli tijoratchilarni tayyorlashimiz zarur. «Masala shunday ekan, siz hurmatli vatandoshlar, o'z farzandlaringizni din va millatga xizmat qilmoqlari uchun zamonaviy bilimlarga o'rgatishga harakat qilishingiz zarur, millat va dinga faqat bilim va mablag' bilan xizmat qilish mumkin», deb yozishadi. (M. Behbudiy, "Oyina", 1913 y., 7-son; 1914 y., 31-son; 1915 y., 10-son). Jadidchilar o'z matbuotida: "Barcha millatlar o'z farzandlarini din va millatga sodiq bo'lish ruhida tarbiyalaydilar. Shuning uchun ular maktabga alohida ahamiyat beradilar. Bizda mana shuni his qilish yo'q. Biz din va millatni himoya qiluvchi ishonarli va mustahkam vositaga ega bo'lmoqimiz shart. Bu vosita – maorifdir" (M. Behbudiy, "Oyina", 1914 y., 41-son), -deb yozgan edilar. Ular bular bilan cheklanmasdan, o'z millatdoshlariga o'z farzandlarini xorijiy davlatlariga yuborib, o'qitish zarurligini, toki, ular o'qib kelishib, millat manfaatlarini ijtimoiy hayot sohalari himoya qilishsin, millatimiz taraqqiy etsin, -deya murojaat ham qilishadi. Ularning bu fikri bugungi bizning mustaqillik sharoitimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Jadidchilar maorifni isloh qilish masalalarini o'z matbuotlari sahifalarida har tamonlama muhokama qilishadi. Ular bunda maktab ishining iqtisodiy va moliyaviy tamonlarini, o'quvchilar ruhiyati va adobiga ijobiy ta'sir qiluvchi usullar, o'qitish dasturlari va boshqa ko'pchilik masalalar haqida o'z fikr va mulohazalarini bildirishib boradi.

Jadidchilar o'z maqolalari va asarlarida maorif, ijtimoiy hayot va turmush tarzining ayrim tamonlarini isloh qilish zarurligini aytish bilan cheklanmasdan, yoshlar diqqatini yana xalqimizning o'tmish madaniyatiga, o'tmish ajdodlari ilm-fan sohasida erishgan yutuqlariga qaratib, ularni o'rganishga ham jalb qiladilar.

Jadidchilar o'z faoliyatlarida faqat milliy doiradagina chegaralanib qolmadilar. Ular o'z matbuoti sahifalarida umum insoniy madaniyat yutuqlari, fan va ta'lim-tarbiya haqidagi xorijiy fikriy yangiliklarni ham targ'ib qilishib, bu sohalarda ham katta ishlar qilishadi. Hatto ular o'z matbuotlarida turkiy xalqlar uchun yagona til yaratish muammosi bilan ham chiqishadi.

Jadidlar matbuoti sahifalarida diniy va falsafiy masalalarga ham katta ahamiyat berishadi. Ular o'z maqolalarida, O'rta asrlarda bo'lganidek, fan bilan dinni kelishtirish, ularning uyg'unligini ta'minlash, fan va madaniyat taraqqiyoti yutuqlarini islom diniga bog'lab izohlashga harakat qilishadi. Mohiyat e'tibori bilan olganda, jadidlar falsafiy qarashlari materialistik falsafaga va ateizmga qarshi qaratilgan bo'ladi. Masalan, M.Behbudiy o'zining "Samarqand" ro'znomasida bosilgan maqolalaridan birida oxirgi 500 yil ichida musulmonlar fan va falsafa sohasida boshqa mamlakatlardan orqada qolganliklarini ta'kidlab, materializm va ateizm bilan kurashish uchun fan va falsafaning yangi yutuqlari bilan qurollanish maqsadga muvofiqligini aytadi.

Umuman olganda, jadidlar ma'rifatparvarligining falsafiy-nazariy zaminlari: milliy falsafiy meros, an'anaviy islom, tasavvuf ta'limoti, shariat, Evropada paydo bo'lgan pozitivizm falsafasi qarashlariga borib taqaladi. Markaziy Osiyo, xususan, Turkistonda shakllangan jadidchilik ma'rifatparvarlik g'oyalari milliy mustaqillik, milliy vatanparvarlik g'oyalaridan iborat bo'lib, ular umumbashariy demokratik qadriyatlar bilan yo'g'rilgan edi. Lekin mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan jadidlarning eng ezgu g'oyalari umuminsoniy qadriyatlar sifatida umuminsoniy orzular, ijtimoiy adolat va tenglik haqidagi qarashligiga ko'ra, ularning hammasida bir xil fikr, bir xil qarash bo'lmagan. Bunda xarakterli tomoni shundaki, jadidlarning eng izchil milliy va demokratik mavqeda bo'lgan vakillari: Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon va shu kabilar kommunistik aqidalar va qarashlarni qat'iy inkor etish yo'lida turganlar. Ularning milliy mustaqillik va umumbashariy demokratik qadriyatlar uchun kurashi juda izchil va faol yo'nalishda borgan. Shuning uchun ular fojeaviy taqdir topishgan.

Ko'pchilik adabiyotlarda jadidlarni XX asr boshida shakllanib kelayotgan milliy savdo va sanoat burjuaziyasi mafkurachilari, deyilib xarakterlaydi. Bunday fikr bizningcha, jadidlarning faqat bir qismiga nisbatangina to'g'ri. Boshqa qismlari bundan mustasno. Chunki jadidlar harakati tarkibi boshlang'ich davrda ham, keyinchalik ham ijtimoiy jihatdan bir xil bo'lmay, ular saflarida jamiyatning har xil ijtimoiy tabaqalarining vakillaridan iborat kishilar bo'lishadi. Dastlab ular asosan madrasa talabalari, yangi usul maktab o'qituvchilari, mayda savdogarlardan iborat bo'lishsa, keyinchalik yirik milliy savdogarlar, sanoat burjuaziyasi vakillari ham kelib

qo'shiladilar. Turkistonda milliy-ozodlik harakatining avj olishi bilan jadidlar safiga milliy ziyolilarning aksariyati faol ko'pchilik qismi ham kelib qo'shiladi. Ularning orasida esa ezilgan xalqning manfaatlarini himoya qiluvchi ko'plab ilg'or kishilar etishib chiqadi.

Bizningcha, ba'zi adabiyotlarda "jadidizm mafkura, muayyan qarashlar tizimi sifatida kapitalistik taraqqiyot ehtiyojlarini ifodalari edi", deyilgan qarash ham jadidchilik g'oyaviy harakatini bir tomonlama baholashdir. Jadidlarning tarkibi turli darajadagi ijtimoiy qatlamlardan iborat bo'lganligi tufayli jadidchilik harakati, uning vakillarining qarashlari ham xilma-xil va turlicha bo'lib, turlicha maqsadlarni va manfaatlarini ifodalari edi. Lekin, bari bir, bularga qaramasdan, jadidchilik harakati, jadidchilik g'oyalari va qarashlari Turkistondagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur, siyosiy fikr taraqqiyotida chuqur iz qoldirdi. U XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida shakllangan va yuzaga kelgan Turkistondagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur, siyosiy fikrlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati Turkistonda ta'lim-tarbiyada yangi yo'llarni izlash, yangi usullarni joriy etish, yangi usuldagi maktablar ochib, xalqning savodliligini, bilim darajasini ko'tarish, ijtimoiy-falsafiy fikrda o'z milliy davlatchiligimizni tiklash, til, din, an'anaviy tarixiy birligimizni saqlab qolish; tilimizni yuksak ilm-fan, falsafa va nafis sana'at tiliga aylantirish; zamonaviy va demokratik taraqqiyot yo'liga chiqish; keng xalq ommasining milliy ongini uyg'onishiga ko'maklashishdan iborat bo'ladi. Bu masalani navbatdagi savolda kengroq yoritib beramiz.

Hozirgi kunda mustaqillikka erishganimizdan keyin Vatanimiz va xorijiy olimlarning jadidchilik masalasiga yangicha qarash va yangicha yondoshuvlar asosida olib borilayotgan tadqiqotlari shuni ko'rsatayaptiki, o'z davrining ko'zga kuringan ijtimoiy-siyosiy oqimi sifatida jadidchilik harakati mahalliy xalq ommasining milliy o'zligini anglashining o'sishiga, milliy ozodlik harakatining keng rivojlanishiga, milliy mustaqillik mafkurasining shakllanishi va taraqqiyotiga va eng muhimi, milliy ongning rivojlanishiga juda katta xizmat qiladi.

Jadidchilik ma'rifatparvarlik va demokratik yo'nalishdan kuchli ijtimoiy-siyosiy harakatgacha bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tar ekan, u mustamlakachilik ostida ezilib yotgan xalq ommasining og'ir iqtisodiy ahvoli va Turkistonning jahondagi iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlardan orqada qolish sabablari va uni taraqqiy ettirish choralarini izlab topishga undadi. Vujudga kelgan vaziyatda ilg'or jadidchi ziyolilar Turkistonning taraqqiyot darajasi orqadaligining sabablari: mustamlakachilik zulmi, xalqning g'aflatda, jaholatda qolganligi va ma'rifatsizligida, deb bildilar. Shuning uchun bulardan qutilishning eng to'g'ri va asosiy yo'li maorif va ma'rifat yo'li, maorifni isloh qilish, deb qaradilar. Ular bu islohotlarni amalga oshirishning zarur ekanligini nafaqat nazariy jihatdan asoslab berdilar, balki o'zlari yangi usulda maktablar ochib, kutubxonalar, qiroatxonalar barpo etib, o'quv qo'llanmalari va darsliklar yozishib o'z g'oyalarini amalda qo'llash yo'lida ham ulkan ishlar qildilar.

Jadidlar Turkistonni eski qoloqlik holatidan qutqarib, uning taraqqiyotini yangi bosqichga chiqarish, xalqning milliy ongini uyg'otib, milliy mustaqillikka erishish uchun faqat maorifni isloh qilish g'oyaalari va ishlari bilan cheklanmagan, balki ular o'z matbuoti – ro'znoma va oynomalarini chiqarishib, xalqning siyosiy ongini o'stirishda jonbozlik qildilar. Ular matbuot sahifalarida hatto hozirgi kunda ham kishilarni to'lqinlantiradigan, ularni hayajonga soladigan qator masalalar va muammolar o'z aksini topadi. Bu masalalarga biz insonning ma'naviy barkamollikka etishida dinning, ilm-fanning, ya'ni diniy va dunyoviy ilmlarning o'rnini to'g'ri anglab etish, huquqiy va iqtisodiy munosabatlarda ham tub islohotlar o'tkazib, huquqiy va iqtisodiy bozor makonini tashkil qilish jarayonini tezlashtirish, taraqqiy etgan ilg'or mamlakatlarga xos siyosiy va demokratik ijtimoiy institutlarni joriy etish, o'ziga xos milliy rivojlanish yo'lini tanlash masala va muammolarni keltirishimiz mumkin.

1905 yildagi birinchi rus inqilobi jadidlar faoliyatini ancha jonlantirib, ularning olib borayotgan tadbirlari Turkistondagi islohotchilik harakatlari Toshkentda Munavvar Qori-Abdurashidxon o'g'li, Abdulla Avloniy, Ismoil Obidov, Ubaydulla Xo'jaev; Samarqandda M.Behbudiy, Hoji Muyon, Akobir Shomansurzoda, Yimandxo'ja Siddiqiy; Namanganda Nosirxon To'ra; Qo'qonda Obidjon Mahmudov, Ashurali Zohidiy va Po'lat Solievlar rahbarligida shahar aholisi o'rtasida keng avj oladi.

Jadidlarning faoliyatidagi muhim ko'rsatkich - bu nafaqat ularning yangi usuladagi maktablar ochish, balki ularning nashriyot va matbaa ishlarida, oynoma va yilnomalarning ko'plab nashr etishlarida ham namoyon bo'ldi.

Jadidlar, ayniqsa, 1915-1917 yillarda o'z faoliyatlarida ham siyosiy, ham tashkiliy va ham mafkuraviy jihatdan ancha o'sdilar. I jahon urushi Rossiyadagi fevral demokratik inqilob jadidlarning fikrlash tarzini ancha o'zgartirdilar.

Bu vaqtga kelib, ular parlamentar monarxiya tuzumi haqida fuqarolarning davlat organlarini shakllantirishda, qonun chiqarish ishida, davlatni idora qilishda qatnashuvi va ishtiroki haqida yozdilar. Fevral inqilobiga kelib, Turkiston jadidlarining bir qismi (mo'tadil qismi) bir qator keng siyosiy talablarni ilgari surib chiqdilar. Bu talablar: mahalliy tub aholining huquqlarini kengaytirish, o'lkani idora etishni tubdan isloh qilish, tub aholi uchun Davlat Dumasidan muayyan miqdorda deputatlikka o'rin ajratish, asosiy demokratik erkinliklarni ta'min etish va eng muhimi, milliy matbuot erkinligiga erishish, Chor yakka hokimlik tuzumini konstitutsiyaviy idora etish tuzumi bilan almashtirish kabilar edi.

Albatta, jadidchilarning bu talablari keng xalq ommasiga ta'sir qilmay, ularning milliy ongini o'stirmay qolmas edi. Bu paytga kelib jadidlar o'zlarining milliy siyosiy tashkilot va partiyalarini tuzdilar. Natijada, ularning "Sho'roi Islomiy" va "Ittifoq" partiyasi va tashkiloti paydo bo'ldi. Fevral inqilobidan keyin jadidlar mahalliy aholining turli-tuman ijtimoiy qatlamlarni o'z ortlaridan ergashtirib, ularning ongida, fikrlarida va qarashlarida yaktan, yakdil bo'lib birlashishlari, jipslashishlari zaruriyati hissini tug'dirdilar. Biroq oradan ko'p o'tmay, jadidlar Turkistonda tuzilgan vaqtli hukumatning oldingi Chor Rossiyasi davridagi mustamlakachilik siyosatidan voz kechmaganligining guvohi bo'ldilar; ular mustaqillik va muxtoriyat uchun hayot-mamot kurashi vaqti etib kelganini anglab etib, mustamlakachilikni va vaqtli hukumatni qattiq tanqid qilib chiqa boshladilar. Endi jadidlar o'zlarining oldingi konstitutsion monarxiya tuzumi g'oyalaridan voz kechib, Turkistonga Rossiya demokratik federativ respublikasi tarkibida milliy hududiy muxtoriyat berilishini talab qila boshladilar. Ular davlat mustaqilligi to'g'risidagi o'z g'oyalarini hayotga tadbiq qilishga, uning amalga oshirishini chaqirilajak ta'sis majlisi bilan bog'ladilar.

Jadidlar ta'sis majlisidan o'rin olish uchun juda ko'p urindilar, hatto ular bu jarayonda konservativ qismdan tashkil topgan. "Sho'roi Ulamo" tashkiloti bilan o'zaro birlashish yo'lidan borib, pirovardida "Turk olami markaziyati" partiyasini vujudga keltirdilar. Bularning hammasi xalq ommasining siyosiy ongining o'sishiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Biroq oktabr davlat to'ntarishi - bolsheviklar partiyasining hokimiyat tepasiga kelishi jadidlarning maqsad niyatlarini amalga oshirishiga monelik qiladi. Shunga qaramay, bolsheviklar hokimiyatining: "Har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash" haqidagi deklaratsiyasiga asoslanib, jadidlar Qo'qonda "Turkiston muxtoriyati"ni e'lon qildilar. Atigi uch oy yashagan bu muxtoriyat, nihoyat, bolsheviklar tomonidan qonga botirilib, tugatildi. Jadidlar esa kuchli ta'qib ostiga olinib, uning ko'pchilik ilg'or vakillari 1937-1938 yillarda butunlay qirib tashlandi, qolgan-qutganlari esa 1950 yillarga borib butkul tugatildi.

Umuman olganda, jadidchilikning bizning tariximizdagi o'rni va bugungi kun bizning mustaqilligimizni mustahkamlashdagi ahamiyati shundan iboratki, jadidlar birinchi bo'lib mustaqillik milliy mafkurasiga asos soldilar, ular g'aflat uyqusida yotgan mazlum va ezilgan xalqni uyg'otdi, uning ko'zini ochdi, ozodlik, erk, mustaqillik, milliy g'urur, iftixor, tuyg'ularini paydo qildi; ular buyuk tariximiz, falsafiy merosimiz haqida, buyuk ajdodlarimiz, boy madaniyatimiz va ma'naviyatimiz haqida, mustamlaka va istibdod davrida unitila boshlagan qadriyatlarimizni tiklash haqida jar soldilar. Jadidchilarning buyuk tarixiy xizmatlaridan yana biri - ular etilib qolgan muammolarni hal qilishda rivojlanishning evolyutsion yo'li - islohotlar yo'lini ishlab chiqdilar.

6. Mustaqillik-milliy g'oya faning bosh mavzusi.

«Milliy istiqlol g'oyasi» fanining o'qitilish sabablari: O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 2000 yil 8 iyunda «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblarida mafkura dunyosida bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmasligi, hozirgi paytda ro'y berayotgan ayrim salbiy holatlar,

yovuz ishlar, avvalo, mafkuraviy bo'shliq tufayli sodir bo'layotganligini ta'kidlab o'tgan edi. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasi mazmunini xalqqa, yoshlar tarbiyasi jarayoniga olib kirish bugungi kunning dolzarb masalasi qilib qo'yildi. Bu avvalo 3 jihatni o'z ichiga qamrab oladi:

1) Milliy dasturning asosiy maqsadi barkamol shaxsni shakllan-tirish. Aslida bu Qadrlar tayyorlash Milliy dasturining ham ustuvor jihatidir.

2) Milliy dastur maqsad va vazifalarining amalga oshirilishi huquqiy davlat qurish, tafakkur va munozara madaniyatini rivojlantirish, shaxs ichki dunyosini boyitishdan iboratdir.

3) Milliy istiqlol g'oyasini ijtimoiy ong sifatida shakllantirishni davr taqozo etmoqda.

SHuningdek, Prezident Islom Karimov «Jamiyatni baxt-saodatga, buyuk va yorug' kelajakka boshlab boruvchi yagona kuch - ma'naviyatdir» - degan edilar. Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilar tufayli jamiyat yangilanib, kuchayib, taraqqiy topib boradi. YOshlar ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ularni milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash va Vatanimiz ravnaqiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga etkazish bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarni qayta ko'rib chiqish va yangilarini yaratish bo'yicha respublika muvofiqlashtirish komissiyasi» kengaytirilgan majlisining 2000 yil 30 sentabrdagi «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fanini uzluksiz ta'lim tizimiga joriy etish haqida»gi Qaroriga ko'ra 2000-2001 o'quv yilining 2-choragidan e'tiboran umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quv rejasidagi 7-9-sinflar uchun «Ma'naviyat asoslari» o'rniga «Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari» o'quv fani joriy etildi. 2000 yil 9 oktabrda Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari bu masalani yana bir bor ko'rib chiqib uni hayotga joriy qilish uchun zaruriy ishlarni belgilab oldilar.

2001 yil 18 yanvarda O'zbekiston Prezidentining **«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida**»gi Farmoyishi qabul qilindi¹. SHuningdek, 2006 yil 25 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **«Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida**»² qarori qabul qilindi.

Qarorga binoan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi huzuridagi Milliy mafkura ilmiy targ'ibot markazi o'rniga Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining ilmiy-amaliy yo'nalishda faoliyat olib boradigan, davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladigan Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. YA'ni Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining amaliy targ'ibot yo'nalishida faoliyat olib boradigan Respublika targ'ibot markaziga aylantirildi.

Fanni o'rganish zaruriyati. Insoniyat tarixiy taraqqiyotining tsivilizatsiyalashgan davri biron-bir jamiyatning ezgu g'oyalar va mafkurasiz rivojlana olmasligini tasdiqlab kelmoqda. O'zbekiston o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritgach Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan o'zbek xalqi o'z oldiga ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish kabi maqsadlarni qo'ydi. Ana shu maqsadni amalga oshirish, yurtimizda demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatni barpo etish ehtiyoji tug'ildi. Buning uchun bizga yot va begona g'oya tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol, komil insonlarni voyaga etkazish, bu yo'lda g'oyaviy, mafkuraviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, mamlakatimizning yuksak taraqqiyotini ta'minlash uchun milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishni taqozo etdi.

Mustaqillikning ilk yilidanoq mustabid «kommunistik g'oya»dan voz kechildi. O'zbekiston xalqi o'z milliy g'oyasi negizlariga tayangan holda rivojlanish yo'lini tanladi. Buning o'ziga xos sabablari mavjud bo'lib, ularni quyidagicha izohlash mumkin:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 18 yanvarda qabul qilingan «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida»gi Farmoyishi. «Ma'rifat» gazetasi. 2001 yil 20 yanvar.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustda qabul qilingan «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi qarori. «Xalq so'zi» gazetasi, 2006 yil 26 avgust.

1. Mustaqillik tufayli mamlakatimiz xalqi o'ziga xos yo'lni tanlash huquqiga ega bo'ldi. Bu xalqimizning ma'naviy merosi, qadriyatlarini qayta tiklash imkoniyatini berdi.

2. «Mustabid» totalitar tuzum «kommunistik g'oya»si o'zbek xalqini ma'naviy merosi, urf-odatlarini, qadriyatlarini, ma'naviyatidan begonalash-tirish siyosatini olib bordi. Endilikda ana shu asoratlardan xalos bo'lish ehtiyoji paydo bo'ldi.

3. Har qanday davlat, jamiyat, xalq maqsadsiz yashay olmaydi. U rivojlanish uchun ma'naviy asoslarni belgilab olishi zarur. Bu maqsad xalqning milliy-ma'naviy g'oyalarida aks etgan bo'lib, milliy istiqlol g'oyani o'rganish zaruriyatga aylandi.

4. Jamiyat taraqqiyotida turli xil g'oyalar hukmronlik qilib kelgan bo'lib, g'oyaviy maqsadlar tufayli har xil salbiy oqibatlarni yuzaga keltirgan. Ana shu g'oya bilan g'oyaning, maqsad bilan maqsadning, fikr bilan fikrning farqini bilish uchun milliy istiqlol g'oyasini o'rganish lozim.

5. SHaxs, inson, ijtimoiy guruh, qatlam, xalq, millat, davlat maqsadi, orzu intilishi, qarashlari bir-biridan farq qilganidek, uning qanday maqsad va g'oya ekanligiga qarab baho beriladi.

6. Ayrim g'oyalar ma'lum bir millat, xalqning maqsad, intilishlarini hisobga olmasdan o'z g'oyalarini «singdirishga» urinadi, bunday yot yoki yovuz g'oyalardan ogoh bo'lish uchun milliy istiqlol g'oyasini o'rganmoq kerak.

7. Bugungi kunda dunyoda mafkuraviy kurash, inson ongi va qalbi uchun kurash ketar ekan, ayrim yot g'oyalar yoshlarni o'ziga rom qilib o'z shaxsiy manfaat yo'lida foydalanishga harakat qilayotganliklari boisdan ham milliy istiqlol g'oyasini o'rganish zaruriyatga aylandi. «Kelajagi buyuk davlat»ni barpo etish milliy istiqlol g'oyasini singdirish orqali amalga oshiriladi.

Prezidentimiz Islom Karimov bu borada: «Oldimizga qo'ygan olijanob maqsad-muddaolarimizga etish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, begona va yot g'oyalarning hurujidan himoyalanih, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga etkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda» (Karimov I.A. Asarlar. T.9. 220-bet) degan edi.

Milliy istiqlol g'oyasining mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari Islom Karimov asarlarida asoslab berilgan ta'limotdir. Milliy istiqlol g'oyasining mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishdan saboq chiqarish, o'zlikni anglash mezonini.
2. Xalq maqsadlarini ifoda etib, jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi g'oyaviy vazifani bajaradi.
3. Millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch e'tiborining manbaidir.
4. O'zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam vakillariga birday taalluqlidir.
5. Millat aholisi ongi va qalbida «O'zbekiston - yagona Vatan» degan tushunchani shakllantirishga xizmat qiladi.
6. Turli millat, qatlam, uning vakillari, siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan yuksak fenomen - ijtimoiy hodisa mazmuniga egadir.
7. Biron-bir dunyoqarashni mutloqlashtirmaslik yoki biron-bir kuch, partiya yoki guruh qo'lida siyosiy qurolga aylanmaslik.
8. Har qanday ilg'or g'oyani singdirish va har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olish.
9. Sub'ektivizm, valyuntorizm kabi illatlardan xoli va jamiyatimizning xolis fikriga tayanuvchi ob'ektiv mafkura bo'lish.

So'z bilan ishni, nazariya bilan hayotni birlashtira olish¹.

Davr o'zgarishlariga qarab, o'zi ifodalaydigan g'oya, manfaat, muddaolarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalaridan ijodiy foydalanish.

Milliy istiqlol g'oyasi ana shu qayd etilgan sifatlarga javob bergan taqdirdagina kutilayotgan maqsadlarga erishish mumkin. Ammo, milliy istiqlol g'oyasi o'z-o'zidan inson ongiga, tafakkuriga singib, ishonch va e'tiqodiga aylanib qolmaydi. Bunga har bir inson o'z hayoti davomida erishib boradi.

¹ Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005. 8-11-betlar.

3. Mavzu Milliy g'oya, ijtimoiy taraqqiet va mafkuraviy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi.

1. Milliy g'oya xalqning tarixiy taraqqiyoti asosisi.
2. Milliy g'oya mafkurani rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, huquqiy omillari.
3. Tarixi xotira g'oya va mafkuraning rivojlantirishdagi ijtimoiy ma'naviy omil.
4. Siyosat va mafkuraning o'zaro aloqadorligi va farqi.
5. Milliy g'oyada mentalitetning namoyon bo'lishi.

1. Milliy g'oya xalqning tarixiy taraqqiyoti asosisi.

Milliy g'oya - muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari etaklaydigan fikrlar majmui. U millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini, maqsadlarini ifodalaydi. Milliy g'oya o'z mohiyatiga ko'ra, xalq, millat taqdiriga daxldor bo'lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo'lgan vazifalar va mo'ljallarni ham aks ettiradi. Milliy g'oya millatning milliy o'zligini anglash bilan chambarchas bog'liqdir.

Milliy o'z-o'zini anglash - har bir millat (elat)ning o'zini haqiqiy mavjud sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchi ekanligini, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib etishga milliy o'z-o'zini anglash deyiladi. YOki boshqacha aytganda:

Har bir millat (elat)ning o'zini real mavjud sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchisi, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib etishga **milliy o'z-o'zini anglash** deyiladi.

Milliy o'z-o'zini anglash millat shakllanishining nisbiy yuqori bosqichining mezonidir. Millat o'ziga xos bo'lgan urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarni shakllantirishi va yagona davlat asosida birlashishi mumkin. Ammo uning millat sifatida o'z-o'zini anglashi yanada murakkabroq jarayon hisoblanadi. Chunki millatning aksariyat ko'pchiligining yagona moddiy va ma'naviy boyliklarga egaligi hissiyotining shakllanishi, o'zining juz'iy manfaatlaridan umummilliy manfaatlarni ustuvor qo'ya bilish hissi juda sekinlik bilan namoyon bo'ladi.

Milliy o'z-o'zini anglash milliy **ongdan** farq qiladi. Milliy ong har bir millatning yagona tili, urf-odatlari, an'analari, qadriyatlari va ma'naviyatining pastdan yuqoriga, oddiydan murakkablik tomon rivojlanib borishining muhim mezoni hisoblanadi. O'z navbatida milliy ongning rivojlanib borishi har bir millatni o'z-o'zini anglash darajasiga ko'taradi. **Milliy ong** millatning o'ziga xosligi rivojlanib borishi bo'lsa, milliy o'z-o'zini anglash - milliy manfaatlarni himoya qilishda va rivojlan-tirishda harakatga keluvchi ichki ma'naviy - ruhiy salohiyatdir.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti o'z-o'zini anglash, eng avvalo, insoniy mavjudlikning mohiyatini ma'naviy voqelik, sha'n, qadr-qimmat, obro'-e'tibor, or-nomus orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Hayotning ma'no-mazmuni, maqsadini tushunib etish, o'zlikni anglashdan boshlanadi. Milliy g'oyada uning negizlari mujassam bo'lganligi uchun ham o'zlikni anglashga xizmat qiladi va bir-biri bilan uzviy bog'liq.

Prezident Islom Karimov bayon etishicha, «O'zlikni anglash deganda men tarixiy xotirani tiklash, nasl-nasabimiz kim ekanini, kimlarning vorisi ekanligimizni anglab etishni, shundan kelib chiqib, o'zimizga xos va mos jamiyat barpo etishni tushunaman» (Karimov I.A. T.7. 132-154-betlar).

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini yanada demokratlashtirish, avvalo, har bir fuqaroning va butun jamiyatning oliy maqsadlarini o'zida mujassam etgan milliy g'oya atrofida uyushish, millatning ajralmas qismi ekanligini anglab etishga ham bog'liq. Amir Temur deganidek, «Birliksiz kuch bo'lmas». Millat birligida inson o'zligini anglash jarayoni alohida o'ringa ega. Prezidentimiz fikricha, «CHinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lgan... odam demokratik ne'matlarning oddiy iste'molchisi emas, balki ularning faol yaratuvchisi va himoyachisiga aylanadi... SHundagina inson o'z mamlakatining tom ma'nodagi munosib fuqarosi bo'la oladi» (Karimov I.A. Asarlar. T.11. 34-bet).

Mustaqillik tufayli bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tish davrida o'zlikni anglashning o'ziga xos ko'rinishlarini anglamasdan ma'naviy yuksalish va taraqqiyot darajasini anglab bo'lmaydi. YUksak rivojlangan jamiyat esa o'zligini anglagan shaxslardan tarkib topadi. O'zligini anglagan yoki anglay boshlagan kishigina shaxs darajasiga ko'tariladi. Demak, o'zlikni anglash, avvalo, har bir insonning shaxsi, alohida «meni» bilan bog'liq. Hadisda aytilganidek, «Kimki o'zligini tanisa, robbini taniydi».

O'zlikni anglash haqida SHarq va Farb allomalarining fikrlari milliy g'oya va o'zlikni anglash bilan chambarchas bog'liq. «O'zligingni angla» shiori qadimgi yunon falsafasining o'zak masalasi bo'lib kelgan. Suqrotning ana shu «o'zligingni angla» hikmati donishmandlikning qoidasiga aylandi. Suqrot (mil.avv. 469-399)ning bu fikri 2,5 ming yillik oraliqqa ega bo'lsada, u o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. Suqrot bir guruh kishilarning fitnasi tufayli fuqarolik me'yorlarini, yoshlar tarbiyasini buzganlikda ayblanib, o'lim jazosiga hukm etilgan edi. Suqrot o'z xalqi ommasining ibodat qilishiga qarshilik ko'rsatib, tilda bo'lsa, sayyoralarni huda deb atashdan bosh tortdi. SHuning uchun Afinaning o'z ikkilik qozisidan 11 tasi bir ovozdan uning o'ldirilishiga fatvo berdilar. Suqrot esa haq yo'ldan qaytmaganicha o'lib ketdi. Sudda 220 nafar odam Suqrotning aybsizligini yoqlab, 280 nafar kishi esa unga qarshi ovoz bergan.

«O'zini anglagan inson o'zi uchun nima foydali va nimalarga qodir ekanligini yaxshi tushunadi. U qo'lidan keladigan ish bilan shug'ullanish asnosida o'z ehtiyojini qondiradi va saodatga erishadi. Har qanday xato va baxtsizliklardan xoli bo'ladi. Buning natijasi o'laroq, u o'zga odamlarni qadrlay oladi va ulardan ezgulik yo'lida foydalana oladi. Oqibatda o'zini kulfatlardan asraydi»¹.

Suqrot

Imom Fazzoliy: «Ollohni anglashdan avval o'zni anglamog joiz».

Millat ravnaqini belgilaydigan omillar:

1. Millatning o'z mustaqilligi, tili va hududining mavjudligi.
2. Tarixi, adabiy merosi va qadriyatlari
3. Kelajagimiz bo'lgan yot avlodni sog'lom ruhda tarbiyalash

Millatning milliy o'zligini anglash tushunchasi o'z ichiga quyidagi-larni oladi:

1. Milliy birlikni boshqa etnoslarning mavjudligini tushunib etish.
1. Milliy qadriyatlar: til, tug'ilib o'sgan joy, madaniyatga (keng ma'noda) sodiqlik.
 1. Milliy manfaatlarni tushunib etish.
 2. Milliy mustaqillik va milliy taraqqiyotga intilish.
 3. Vatanparvarlik.

Millatning milliy o'zligini, anglash shaxsning milliy o'zligini anglash bilan uzviy bog'liq.

SHaxsning milliy o'zligini anglash deganda esa:

1. Millatning biron bir (etnos)ga mansubligini anglab etish.
2. Mazkur millatning insoniyat taraqqiyotidagi o'rnini tushunish.
3. Milliy qadriyatlarga sodiqlik.
4. Milliy ehtiyojlar va manfaatlarni anglash, uning rivojlanish yo'llari-ni bilish.
5. Milliy taraqqiyotga vijdonan xizmat qilish.

Aslida milliy o'z-o'zini anglash millatning moddiy hamda ma'naviy manfaatlarini himoya qiluvchi va rivojlantiruvchi omil hisoblanadi. U faqat milliy manfaatlarini himoya qilish bilan cheklanmaydi, u millatni «harakat»ga keltiradi va birlashtirib turadi. Xususan, millat taraqqiyoti jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida yuzaga keladigan muammo-larni hal qilishda milliy o'z-o'zini anglash omili millatni jipslashtiradi va uni umummaqsadlar yo'lida harakatga keltiradi. U har qanday millat uchun zarur asosiy o'ziga xos belgilari tizimida etakchi o'rinni egallaydi. Milliy o'z-o'zini anglash millat abadiyligini ta'minlashning eng muhim omilidir. CHunki bu salohiyat millatning o'ziga xosligini va manfaatlarini himoya qilib turadi. Xitoy faylasufi SHan YAn (mil.avv. 390-338) fikricha, «Nodon xalqni boshqarish oson. Tentak

¹ Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. -T.: «Yangi asr avlodi», 2002. 63-bet.

odamlarni og'ir mehnatga majburlash oson. Aqlli kishilarni esa mashaqqatli mehnatga jalb etish mushkuldir»¹.

Ko'pgina olimlar «millat»ga turlicha ta'sirif berib kelgan va uning umume'tirof etgan belgilarini ko'rsatganlar:

1. hudud, 2. til. 3. iqtisodiy hayot. 4. madaniyatlar, an'analar va turmush xususiyatlari birligi. Bulardan tashqari milliy o'zlikni anglash etnik mansublikni anglash, ruhiyat va xususiyatlari, ilg'or an'alarini ham qo'shish mumkin.

Bugungi kunda milliy masalada va milliy o'zlikni anglashda ikkita tendentsiya mavjudligini ham unutmaslik kerak:

1. Millatlarning uyg'onishi, qo'shilishi (XX asr boshlariga xos edi).

2. Milliy davlatchilikka intilish (XX asr 90-yillaridan to hozirgi kungacha bo'lgan davr kiradi).

O'zbek millati taraqqiyotida milliy o'z-o'zini anglash jarayoni chor imperiyasi o'lkamizni bosib olgandan so'ng o'z mustaqilligimiz uchun kurash-larda, sho'rolar tizimi sharoitida o'zligimizni saqlab qolish uchun bo'lgan harakatlarda namoyon bo'lib keldi. Mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan keyin milliy o'zligimizni anglash ikki yo'nalishda: 1. Sobiq sho'rolar davrida toptalgan urf-odatlarini, qadr-qimmatini, qadriyatlarini tiklash va ma'naviy merosimizni o'zlashtirishga bo'lgan harakatlarda. 2. Adolat, demokratiya va huquq ustuvorligiga asoslangan jamiyat qurish bilan bog'liq bo'lgan islohatlarni o'tkazish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishdagi umummilliy harakatlarda namoyon bo'lmoqda.

Milliy o'z-o'zini anglash u yoki bu millatni o'zga millatlardan ajralib ketishiga olib kelmaydi, balki o'zligini anglagan millatlarning ma'rifatlashgan hamkorliklarining mustahkamlanib borishiga xizmat qiladi. SHuning uchun mustaqillik sharoitida o'zbek xalqining o'z-o'zini anglashini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgandir. O'zbek millatida o'z-o'zini anglash hissini mustahkamlash va rivojlantirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Xon-amirlar davrida va mustamlakachilik yillari o'zbeklarda milliy o'z-o'zini anglash mohiyatan zid bo'lgan bo'lsa, sho'ro tuzumi davrida «sovet xalqi» tushunchasi singdirib kelindi. Bu jarayondagi targ'ibot-tashviqot miyamizni zaharladi, milliy ongimizni bo'shashtirdi, milliy g'urning namoyon bo'lishini millatchilik deb qaraldi. SHu sarqitlardan qutilish - o'zbek millatining o'z-o'zini chuqur anglashining zaruriy shartidir.

«O'zlikni anglash», «milliy o'zlikni anglash» va «umumbashariy o'zlikni anglash» tushunchalari bir-biridan ayri emas, balki bir-biri bilan uzviy aloqador, bir-birini taqozo etadi. Zero, inson ota-ona, oila, millat, ahli bashar, butun borliq bilan munosabatlar asosida o'zining kim ekanligini anglab boradi. Ayni shu munosabatlar zaminida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy g'oya tamoyillari shakllangan va o'z navbatida, milliy g'oya ularni zamon talablari asosida boyitib boradi.

O'zlikni anglashning turli talqinlari. Insoniyat falsafiy tafak-kuri tarixida o'zlikni anglash masalasi turlicha talqin etilgan.

1. Dunyoviy talqiniga (Evropada) ko'ra inson jismining o'tkinchi-ligi, ruhning esa abadiyligi (cherkov otasi Avgustin: «tan ruh uchun qafasdir») masalasini zohiriy talqin etganlar. **2. Diniy talqiniga** ko'ra o'zligini dunyodan yuz o'girib, yolg'izlikda ibodat bilan kun o'tkazgandagina (tarkidunyo) topish mumkin degan fikrga kelganlar. **3. Tasavvuf g'oyaviy talqiniga** ko'ra (SHarqda) «o'zlikni anglash»ning bosh maqsadi insonni insonga, Vatanga, xalqiga bo'lgan, har qanday g'arazdan holi, pok mehrni targ'ib qilganlar Bahouddin Naqshband «dilda yor» (diling Allohda) «dast ba kor» (qo'ling ishda bo'lsin) ezgu ishlarga kirishmog'i lozim. **4. Komillik talqiniga** ko'ra dunyo qaynab turgan qozonga o'xshaydi, inson ana shu qozonda qaynashi (Fariddin Attor) kerakligiga undaydi. **5. Ijtimoiy talqiniga** ko'ra inson o'zligini anglashini ijtimoiy munosabatlar asosida ko'rishni orzu qilgan A.Navoiy buni shunday ifoda etgan:

«Odame ersang demagil odame -
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami»¹.

¹ Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. -T.: Yangi asr avlodi, 2002. 92-bet.

Demak, **1) «O'zlikni anglash»** - mustaqillik tufayli o'zbek xalqining o'z-o'zini anglashini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Deyarli 75 yil davomida hukmronlik qilgan istibdod nazariyasi va mafkurasi o'z-o'zini anglash hissini uyg'otgan edi. Milliy o'zligini anglash masalasi falsafada ishlanmadi. Buning sababi **2) «Milliy o'zlikni anglash»** mustaqillik g'oyasi bilan bog'liq. SHu boisdan ham milliy istiqlool g'oyasi tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishdan saboq chiqarish, o'zlikni anglash mezonini sifatida xalqimizning tub maqsadlari ifodasi va jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi g'oyaga aylanishi mumkin. Demak, **milliy g'oya** - milliy o'zlikni anglatuvchi omil deyish mumkin. Millat o'zini xalq sifatida, el sifatida anglamasa, u o'zining sha'ni, qadr-qimmati, or-nomusi haqida qayg'urib, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini to'la his eta olmaydi.

SHarq donishmandlarining falsafiy g'oyalarida sinkretik (ya'ni turlicha g'oyalarning bir butunlikda joylashuvi) va sinergetik (o'z-o'zini takomillashtiruvchi, keng, ko'p o'lchovli va ochiq tizimli) tafakkur uslubining ustuvorligi yaqqol ko'zga tashlanadi. **3) «Umumbashariy o'zlikni anglash»** tushunchasi dunyoviy ilmlar, komil inson g'oyalari bilan bevosita bog'liqdir.

Demak, «o'zlikni anglash», «milliy o'zlikni anglash» hamda «umumbashariy o'zlikni anglash» tushunchalari milliy istiqlool g'oyasi bilan uzviy bog'liqdir.

Prezident Islom Karimov 1998 yil tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan bo'lgan uchrashuvdagi suhbat *«Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q»*, deb nomlandi. Asarda tarix fanining millat, xalq, mamlakat taqdiridagi o'rni, mohiyatiga yangicha nazar tashlandi, uning taraqqiyot yo'llari belgilab berildi. Suhbat boshida mustaqillik yillari xalqimizning o'z tarixiga qiziqishi ortib borayotgan, O'zbekiston SHarq, umumjahon tsivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini jahon tan olgani ta'kidlab o'tildi. Asarda bu yurtidan buyuk olimlar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan, diniy va dunyoviy bilim asoslari ana shu zaminda yaratilganligi bayon etildi.

Suhbatda tariximizni o'rganishda yaxlit kontseptsiya yo'qligi tanqid qilindi. «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab bo'lmagan bu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur» deyiladi. *«Tarixiy xotirasi bor inson irodali insondir. Uni yo'ldan urush mumkin emas»* deyiladi.

Milliy g'urur - shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan, ajdodlari qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z xalqining jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o'sha, millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha.

Ommaviy axborot vositalarida milliy g'urur, milliy faxr, milliy iftixor tushunchalari keng qo'llanilib, ular asosan, bir ma'noda ishlatilmoqda, ya'ni, milliy iftixor (faxr) bu - **milliy g'ururdir**.

Umuman, milliy ruhiyatni shakllantirishda: «milliy g'urur», «milliy iftixor», «milliy his», «milliy xarakter» kabi tushunchalar ham muhim o'rin tutadi.

1. Milliy g'urur - shaxs g'ururi - bu faxrdir. Har bir shaxs o'z yutuqlaridan mamnuniyat hissini tuyadi, ota-ona farzandlaridan, ustoz iste'dodli shogirdidan, yozuvchi yaxshi asaridan, bog'bon so'lim bog'idan faxrlanadi va hokazo. O'zligicha qola bilgan odamning g'ururi - bu butundir.

2. Milliy iftixor - millat ma'naviy kamolotining barcha jihat-larini, merosi va bugungi qadriyatlarini o'z ichiga oladi. Milliy istiqlool natijasida erishilgan va erishilajak iqtisodiy va ma'naviy yutuqlar ko'paygan sari O'zbekiston bilan faxrlanish hissi - milliy his shunchalik ko'payib boraveradi.

3. Milliy his - bu millat manfaati bilan yashash, o'zi kimligini tanimoq. O'zligini tanimagan insonda milliy iftixor so'nadi. Milliylik, millatga mansublik - bu umumjahon taraqqiyotining Qonuniyatidir, milliy g'urursiz hech bir millat millat sifatida shakllanmaydi.

4. Milliy harakter - o'zbek xarakteri, milliy ruhiyati, milliy o'ziga xos tomonlari asrlar davomida shakllangan hamda asta-sekin ularning qoniga va joniga joylashib ketgan.

¹ Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlool g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005. 150-156-betlar.

Milliy g'urur har bir millat hayotidagi mavjud moddiy va ma'naviy asoslarda, ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida, individual va ijtimoiy darajalarda shakllanib, rivojlanib, o'ziga xos shakl-ko'rinishlarda namoyon bo'luvchi ijtimoiy, ruhiy-ma'naviy hodisadir.

Milliy g'urur quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: millatning yutuqlari, obro'y-e'tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'lish; o'z millatining moddiy, ma'naviy merosini asrab - avaylash; xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o'z millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish.

Sog'lom milliy g'urur o'zga millatga mansub kishilarga hurmat-ehtirom ko'rsatishni taqozo qiladi. Boshqa millat vakillarining izzat va g'ururini kamsitmaydi. Mustaqillik kishilar milliy g'ururini oshirib, uni xalq, Vatan, ajdodlar xotirasi oldidagi mas'uliyatini his qilishdek, mazmun bilan boyitilmoqda.

Milliy g'urur (tor ma'noda) - insonlarga xos his-tuyg'u sifati - tushunchaning ifodasidir. Keng ma'noda milliy g'urur ijtimoiy-ma'naviy xodisa tarzidagi talqindir. Milliy g'urur milliy ong bilan uzviy bog'lik holda shakllanib, rivojlanadi. Demak, milliy g'urur shakllanishi quyidagicha tavsiflanadi:

1. Milliy g'urur milliy ong ta'sirida rivojlanadi.
2. U ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar ta'sirida o'zgarib boradi.
3. Milliy g'urur shaxs(lar) g'ururi shaklida namoyon bo'ladi.
4. Milliy g'urur siyosiy ong, madaniyat bilan bog'liq holda fuqarolik g'ururi shaklida ko'rinadi.
5. Milliy g'urur vatanparvarlik va milatparvarlikda seziladi.

Prezident Islom Karimov mustaqillik - buyuk ne'mat ekanligini ta'kidlab, uni avaylab-asrash ustuvor vazifalardan biri qilib belgilab bergan.

Bugungi kunda milliy masalada ikkita tendentsiya mavjud:

- 1) Millatlarning uyg'onishi, qo'shilishi (XX asr boshiga xos).
- 2) Milliy davlatchilikka intilish (XX asr 90-yillariga va hozirga davrgi xos).

Milliy o'zlikni anglash deganda:

- 1) Milliy birlikni va boshqa etnoslarning mavjudligini tushunib etish.
- 2) Milliy qadriyatlar: til, tug'ilib o'sgan joy, madaniyatga (keng ma'noda) sodiqlik.
- 3) Milliy manfaatlarni tushunish.
- 4) Milliy mustaqillik va milliy taraqqiyotga intilish.
- 5) Vatanparvarlik.

Millatning milliy o'zligini anglash shaxsning milliy o'zligini anglash bilan ham chambarchas bog'liqdir:

- 1) Millat (etnos)ga mansublikni anglash.
- 2) Mazkur millatning insoniyat taraqqiyotidagi tarixiy o'rnini tushunib etish.
- 3) Milliy qadriyatlarga sodiqlik.
- 4) Millatning ehtiyojlari va manfaatlarini angalsh, uning rivojlanish yo'llarini bilish.

1. Milliy taraqqiyotga vijdonan xizmat qilish.

E'tiqod (arab. - ishonmoq, imon, amin bo'lmoq) - inson faoliyati uchun ma'naviy asos, yo'l-yo'riq va mo'ljal bo'lib xizmat qiluvchi, aql, xis va iroda vositasida anglangan bilimlar, g'oya va tasavvurlar ifodasi bo'lgan tushuncha. Milliy istiqlol g'oyasi ishonch va e'tiqodga aylangandagina eski-lik sarqitlarini supurib tashlashi mumkin. Jamiyatda g'oyaning e'tiqodga aylanishi uning amaliyotga o'tishidagi muhim bosqichdir. SHaxs e'tiqodiga aylangan g'oyani ro'yobga chiqarish uchun harakat qila boshlaydi. E'tiqod qan-chalik kuchli bo'lsa, uni amalga oshirish uchun shunchalik ehtiros bilan harakat qiladi. Kuchli e'tiqod yo'lida shaxs bilimini, kuchini, boyliklarini, hatto hayotini ham ayamaydi. Bunga tarixdan misollar ko'p. O'g'izxon, To'maris, SHiroq, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo singari shaxslar shular jumlasidandir. Foyaviy e'tiqodning otasi bilim bo'lsa, onasi his-tuyg'udir. Ulardan biri bo'lmasa, g'oyaviy e'tiqod ham bo'lmaydi.

Foyaviy e'tiqodni shakllantirish ma'rifiy bilimlar bilan cheklanib qolmasligi kerak, uni amaliyotga yo'naltirish lozim. Ongni, tafakkurni o'zgartirish zarur, bo'lmasa, ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi. Millat o'zligini anglagan taqdiridagina buyuk o'zgarishlar qilishga qodir bo'ladi (Karimov I.A. Asarlar. T.8. 465-bet).

2. Milly g'oya mafkurani rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, huquqiy omillari.

Mustabidlik mafkuralari o'z davlatlarida ijtimoiy va shaxsiy xayotning barcha soxalarini to'liq qamrab olishga yagona dunyoqarash tizimi hukmronligini urnatishga intiladilar. Ular yorqin utmishni inkor etadilar, jamiyatni inqilobiy yo'l bilan yoppasiga qayta tuzish zarur deb xisoblaydilar. Masalan: Mustabid sovet tuzumi g'ayriinsoniy mafkurani ilgari surib, xalq manfaatlarini inkor etdi. Bu utopik, xayoliy g'oyalar (kammunizm g'oyasi) real xayot talablariga javob bermas, xalqning an'anaviy turmush tarziga, jamiyat taraqqiyoti qonunlariga mutlaqo zid edi. Ular milliy istiqlolni tan olmas, milliy qadriyatlarni toptar, diniy e'tiqodga qarshi kurash asosiga qurilgan edi. Zuravonlik bilan urnatilgan bu g'oyalar jamiyatni yakkayu-yagona va hukmron mafkurasiga aylandi. Bunda butun OAV, radio, matbuot, TV, madaniyat, san'at, adabiyot ijtimoiy fanlar shu mafkurani targ'ib qilish va singdirishga xizmat qildi, davlat tashkilotlari uning hukmronligini kuch va zo'rlik bilan ta'minlab turdilar.

Islom fundamintalizmi xam tarix g'ildiragini o'rta asr jaxolati davriga qaytarish niqobi ostida « ijtimoiy qazarma» tipidagi birxillashtirilgan mustabid « kelajak» ning uziga xos andazasini taklif etadiki, unda inson fuqarolik xuquqlaridan to'lik maxrum qilinadi, xaqiqatda diniy terrorga duchor etiladi. Mustabid tuzimlarda siyosiy xayot xokimiyatni monopoliyalashtirilishi xosdir. Bunda xokimiyat bitta partiya (yoki siyosiy xarakat) ning qo'lida to'planadi. Xukmron partiyaning davlat aparatiga o'sib chiqishi sodir bo'ladi. Bunda jamiyatning davlatlashuvi, ya'ni davlatdan mustaqil bo'lgan ijtimoiy xayotning yuqotilishi (yoki kamaytirilishi), fuqarolik jamiyatining yo'qotilishi (xukmron partiya bo'ysinmagan boshqa partiya va jamoat tashkilotlarining taqiqlanishi) da o'z ifodasini topadi. Qonun cheklanadi, xokimiyat qonun bilan cheklanmaydigan va qonunga bo'ysinmaydigan vakolatlarga ega bo'ladi.

Axborot monopoliyasi o'rnatiladi, bunda barcha axborot vositalari qattiq nazoratga olinadi. Mustabid davlatlarning o'ziga xos boshqa xarakterlik xususiyati jamiyatning xarbiylashtirilishi, «Harbiy lager», yoki «qamal qilingan qal'a» dan iborat g'oyaviy- psixologik vaziyatni vujudga keltirishdan iborat. Tarixiy xaqiqat shuki, pirovard natijada mustabid tuzumlar xalokatga uchrashi muqarrar.

Fashizm mafkurasiga asoslangan Getler Germaniyasi va bolshevizm mafkurasiga suyagan sovetlar tuzumi ana shunday mustabid tuzumlar edi. Foyaviy kurash tobora yangi-yangi kiyofaga qilmoqda. Islom Karimov ta'kidlaganidek: « Ko'p sinovlar, azobu uqibatlar, xatolar, fojealar, katag'onlarini boshdan kechirgan, asrimiz payoniga etayotgan insoniyat yangi asr busag'asida turgan bugungi kunda turli xil eski va yangi mafkuralarning uzaro kurashi xar kachongidan xam kura shiddatli tus olmoqda. Mana shunday sharoitda O'zbekistonda milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirish yanada muxim vazifa bulib turibdi.

Foya nafakat inson xayotida, balki butun bir xalq, davlat va umuman jamiyat taraqqiyotida muxim urin tutadi. Xush, g'oya nima, nega unga bu kadar katta e'tibor va axamiyat beriladi?

Bu atamaning mazmun moxiyati Farb mamlakatlarida «Ideya» tushunchasi orkali ifodalanadi. «Ideya» grek tilidagi «Idea» suzidan olingan bulib, kadimda «obraz», «tashki kurinishi» degan ma'nolarni anglatar edi. Lekin bu tushunchaning mazmun-moxiyati taraqqiyot davomida uzgarib borgan. Masalan Platon «g'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi» tugrisidagi ta'limotida g'oyalarni dunyoni yaratuvchisi, asosi deb atagan. Demokrit esa olam tarkibidagi mayda, bulinmas zarrachalar –atomlarni ideya deb atagan. Gegel esa ideyani barcha narsalarning ijodkori, dunyoga keltiruvchi va asosiy moxiyati deb tushungan. Keyinchalik «Foya» va «mafura» tushunchalarining mazmuni va ko'lam kengayib borgan. Katta-katta xududlarda yashaydigan xalqlarni birlashtirgan g'oya va mafkuralar paydo bulgan. Bunga misol kilib, ajdodlarimizning bundan kariyb uch ming yil burungi karashlari, g'oyalari va e'tiqodini aks ettiruvchi manba bulgan «Avesto» kitobini olishi miz mumkin. Miloddan oldingi IV asrda yurtimizga bostirib kirgan

Aleksandr Makedonskiy «Avesto» va uni nusxalarini yuk kilib yuborganda, maksadi xalkni e'tiqodi, tarixi g'oyaviy manbalaridan uzish edi.

Tarix shundan dalolat beradiki, markazlashgan yirik davlat va imperiyalarning paydo bulish jarayonida g'oya va mafkuralarning, axamiyati katta bulgan. O'z vaqtida din ham g'oya va mafkura sifatida shunday axamiyat kasb etgan. Masalan: zardushtiylik va axamoniylar imperiyasi, yaxudiy dini va yaxudiy podsholigi, Budda va Ashotlar imperiyasi, xristianlik va markazlashgan rus davlati, islom dini va arab xalifaligi kabilarni olishimiz mumkin.

Foyalarning inson, jamiyat va taraqqiyotidagi urnidan kelib chiqib, **«Insoniyat tarixi – g'oyalar tarixidir»** deb aytishimiz mumkin. Lekin marksizm ta'limoti **«Insoniyat tarixi – sinfiy kurash tarixidir»** degan notugri akidani ilgari surib kelgan edi va bu ta'limotni notugri ekanligini vakt, xayot kursatdi.

Endi «Foya» tushunchasiga kelsak. Inson – ongli mavjudot. Inson tafakkuri vokealikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. Binobarin, g'oyalar – inson tafakkurining maxsulidir. Lekin tafakkur yaratgan xar qanday fikr yoki karash, muloxaza yoki nuktai nazar g'oya bula olmaydi. Fakat eng kuchli, ta'sirchan, zalvorli fikrlargina g'oya bo'la olishi mumkin.

Mazmunan va namoyon bulish shakliga karab, g'oyalarni bir kancha turlarga ajratish mumkin bular:

- ilmiy g'oyalar;
- falsafiy g'oyalar;
- diniy g'oyalar;
- badiiy g'oyalar;
- ijtimoiy – siyosiy g'oyalar;
- milliy g'oyalar;
- umuminsoniy g'oyalar;

shu bilan birga, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bilan bog'liq partiyaviy, sinfiy, etnik g'oyalar, xamda qo'lamiga ko'ra farqlanadigan umumbashariy, mintakaviy va maxalliy axamiyatga ega bo'lgan g'oya shakllari bor. Foyalarning turlarini ko'rib chiqsak.

Diniy g'oyalar deb, xar bir diniy ta'limot va oqimning asosini, diniy iymon –e'tiqodining negizini tashkil etuvchi g'oyalarga aytiladi. Ibtidoiy dinlar (magiya, totem, fetish, animizm) Politeizm – iloxlarining kunligi Monoteistik – yakkaxudolik g'oyasi milliy din- iudaizm Jaxon dinlari –xristianlik, islom..

O'zbekiston xalqining milliy istiqlol mafkurasi jamiyatni jipslashtirishga, buyuk kelajak yulida xamjixatlik bilan xarakat kilishga, barpo etilayotgan erkin fukarolik jamiyatida xar bir yurtdoshimizning uziga xos urni bulishiga erishishga safarbar etadi. Milliy mafkura xar qanday xalkni –xalk, millatni –millat kiladigan, uning yuli va maksadlarini anik-ravshan charogon etadigan mayokdir.

Mafkuralar, ma'no – moxiyatiga ko'ra, falsafiy, dunyoviy, diniy va boshqa turli ta'limotlar asosida yaratiladi xilma-xil ijtimoiy-siyosiy kuchlar uz mafkuralarini yaratishda siyosiy g'oyalar bilan birga, diniy oqimlar va ilm-fan yutuqlariga tayanadi, ulardan nazariy asosiy sifatida foydalanadi. Xar qanday mafkura – g'oyalar tizimidir utmishda eng yovuz boskinchi va eng razil guruxlar xam o'z kirdikorlarini ezgu g'oyalar bilan niqoblashga uringan.

Mafkuraning falsafiy ildizlari – bunda mafkuraning falsafa ilmiy xulosalariga tayanishi tushuniladi. Uyg'onish davri va Evropadagi milliy davlatchilik, Gegel falsafasi va Avstriya – Vengriya imperiyasidan ajralib chiqqan Pruss monarxiyasining davlat mafkurasi bulganligi va x.k.

Mafkuraning dunyoviy ildizlari ma'rifiy dunyoga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar majmuidan iborat. Qonunning ustivorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi xususiyatlar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil etadi.

Mafkuraning diniy ildizlari – u inson ongi va ruxiyati bilan uzviy bog'lik ekani va shu bois uning g'oyaviy ildizlari diniy ta'limotlarga borib taqalishi tushuniladi. Dunyoviy va diniy g'oyalar bir-birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko'tariladi. Masalan: Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Moturidiy va Abu Rayxon Beruniy, Imom Fazzoliy va Abu Nasr Farobiy faoliyatini aytishimiz mumkin. Ilmiy kashfiyotlar – ham mafkura rivojiga katta ta'sir

o'tkazadi Ilm-fan va madaniyat borasidagi yutuqlardan oqilona foydalanish uchun xam jamiyatga sog'lom g'oya, sog'lom mafkura kerak.

Insoniyat tarixi turli g'oyalarning ezgulik va yovuzlik, ozodlik va istibdod, ma'rifat va jaxolatga xizmat qilgan mafkuralar shaklida namoyon bo'lganidan dalolat beradi. Foya mafkuraga asos buladi, mafkura esa muayyan g'oyani amalga oshirishga xizmat qiladi. Qadimgi davrlarda dastlab mifologik dunyoqarash sifatida totemizm, animizm, fetishizm kabi ibtidoiy dinlar yuzaga kelgan. Taraqqiyotning keyingi bosqichlarida milliy asosdagi xinduizm, iuddaizm, konfutsiylik singari diniy mafkuralar shakllangan. Taraqqiyot jarayonida falsafiy g'oyalar xam muayyan tizim shaklini olgan. Masalan, olamning vujudga kelishi, mavjudlik qonuniyatlari, uning asosini nima tashkil etadi degan masalani talkin etish natijasida turli falsafiy oqimlar yuzaga kelgan Masalan: Insoniyat tarixda uz talab-extiyojlarini boshqa xalqlar xisobiga qondirish istagi talonchilik, bosqinchilik, buyuk davlatchilik va tajovuzkor millatchilik, shovinizm, fashizm va ekstremizm g'oyalarini yuzaga keltirgan. Bunday g'oyalar xalqlar boshiga ko'p kulfat va musibatlar solgan. XX asrning 30 yillarida Germaniya va Ispaniyada Fashizm g'oyasi ustivor bo'ldi. O'z tarixini asosan XIX asrdan boshlagan sinfiy kurash g'oyasi asosida kurilgan – sinfiy antagonizm g'oyalarini mutloqlashtirgan va xokimiyatni qurol kuchi bilan egallab olgan zuravon mafkuralardan biri sobiq kommunistik tuzum mafkurasini edi. Diniy aqidaparastlik – yovuz g'oya va unga asoslangan mafkuralarning eng ko'p tarqalgan shakllaridan biridir. Keyingi 15 yilda aqidaparastlar terrori natijasida 140 ming kishi xalok bulgan Jazoir yoki 20 yildan ortiqroq urush iskanjasida bo'lgan Afgoniston mana shunday g'oyalar ta'sirida bo'ldi.

G'oya va mafkuraning inson va jamiyat hayotida ahamiyati juda kattadir. Yuksak g'oyalar odamlarni olijanob maqsadlar sari etaklaydi. Foyasi etuk, e'tiqodli butun, qadriyatlari yuksak insongina mardlik namunalarini ko'rsata oladi. Har bir xalqning tarixi shu xalqdan etishib chiqqan buyuk siymolar, mard qaxramonlar va fidoyi insonlar tarixi asosida bitiladi. Xalqimizning Shirok, Tumaris, Spitamen, Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farzandlari – buyuk g'oya soxiblaridir. Najmiddin Qubro, Jordano Bruno, Nasimiy kabilarning jasorati, g'oyalarini xalq unutmaydi. Jaxon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariy ta'limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat aql-zakovat, iste'dod va teran tafakkur soxiblari mislsiz zaxmat chekkanini ko'ramiz. Sukrot va Platon, Konfutsiy va Zardusht, Alisher Navoiy va Maxtma Gandi kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati buning yaqqol tasdig'idir.

Milly g'oya mafkurani rivojlantirishning huquqiy omillari haqida Prezident Mirziyoyev III avkat Miromonovichning “Qonun ustuvorligi va inson mahfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” nomli ma'ruzasida:- “Hammamiz yaxshi tushunamizki, qonunlarni qabul qilish – bu ishning bir qismi, xolos.

Asosiy masala – qonunlarning mazmun-mohiyatini xalqimizga va ma'sul ijrochilarga o'z vaqtida etkazish, ularning ijrosini to'g'ri tashkil etish hamda qonun talablariga qat'iy amal qilishni ta'minlashdan iboratdir.

Biz “Adolat- qonun ustuvorligida” degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huqubuzarlik holatlariga murosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz”-deyiladi.¹

.3.Tarixi xotira g'oya va mafkuraning rivojlantirishdagi ijtimoiy ma'naviy omil.

Barcha ijtimoiy-ma'naviy hodisalarning, shu jumladan g'oya va mafkuralar rivojlanishining moddiy va ma'naviy asoslari, ob'ektiv va sub'ektiv omillarini, bir tomondan, jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy jarayonlar belgilaydi. Ikkinchi tomondan, g'oya va mafkuralar jamiyatning moddiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan O'zbekistonning bugungi va kelgusi taraqqiyotida mustaqillik yillari shakllanayotgan milliy istiqlool mafkurasini g'oyat muhim o'rin tutadi.

¹ Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: Ўзбекистон, 2016. 11б.

Prezidentimiz I.A.Karimov 2000 yil 6-aprelda Milliy istiqlol mafkurasi kontseptsiyasining asosiy tamoyillarini yaratish masalasiga bag'ishlab ilmiy va ijodiy jamoatchilik vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvda so'zlagan nutqida: «Milliy g'oya oldiga qo'yiladigan asosiy talablar haqida gapirmoqchi bo'lsak, avvalo uning ikki suyangan tog'i – tayanchi haqida fikr yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda, milliy mafkuramiz xalqimizning tarixiy merosi, azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga, bir so'z bilan aytganda, milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning duyoqarashi va tafakkuriga asoslanib, shu bilan birga, zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlangan, ularni o'ziga qamrab olgan holda, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati va farovonligi yo'lida xizmat qilmog'i darkor»¹, deb ta'kidlagan edi.

Shu nuqtai nazardan jamiyatimiz hayotida, kishilarimiz ongi va qalbida milliy g'oyani shakllantirib, rivojlantirishda o'tmish madaniy meros va milliy ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash hamda o'rganib, o'zlashtirish g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham, mamlakatimizda Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi va rahbarligida benihoya boy va rang-barang tarixiy merosimizni tiklash, ulardan jamiyatimizni ma'naviy yuksaltirishda, g'oyaviy-mafkuraviy ishlarni rivojlantirishda samarali foydalanishning umumnazariy-metodologik asoslari hamda amaliy-tashkiliy, tarbiyaviy yo'l-yo'riqlari ishlab chiqildi. Shular asosida bugungi kunda yoshlarni milliy g'oyalarimiz ruhida tarbiyalash, ularda yuksak ma'naviyat, intellektual salohiyat va milliy g'ururni shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimining asosiy vazifasidir. «Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqolab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan.

Bizning vazifamiz — shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash va yanada boyitish»¹.

Ushbu vazifani to'la ro'yobga chiqishida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy moddiy va ma'naviy merosni o'rganib, o'zlashtirish, ularni ma'naviy taraqqiyotimizdagi o'rini teran anglab etish muhim o'rin tutadi.

Shunga ko'ra, hozirgi sharoitda milliy g'oya va mafkurani rivojlantirishda madaniy merosning o'rni quyidagi omillar bilan belgilanadi.

1. Xalqimizning haqqoniy tarixi, boy madaniy merosi va milliy ma'naviy qadriyatlari hamda mustaqillik yillari ularni tiklab, rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning mazmuni va ahamiyatini chuqur anglash.

2. Respublikamiz ta'lim-tarbiya tizimida yaratilgan keng imkoniyatlar va hozirgi davr talablaridan kelib chiqib, milliy istiqlol g'oyasini tarixiy meros bilan uzviy bog'liq jihatlarini o'qitishning zamonaviy uslub-vositalarini yaratish va ulardan samarali foydalanish.

3. G'oyaviy ta'lim-tarbiyada madaniy merosdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va bu boradagi ishlarni milliy taraqqiyot manfaatlari asosida uzluksiz rivojlantirib borish.

Bu omillarning mazmuni va ahamiyati madaniy merosdan g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyada qay yusinda foydalanish mumkin, degan masalalar bilan bog'liq. Dunyodagi har bir inson, millat, jamiyat ma'naviyati va mafkurasining real ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tarixiy asos-manbalari hamda uni rivojlantirish usul-vositalari o'ziga xosdir. Masalan, ba'zi xalqlarning ma'naviyati, ruhiyati, milliy g'ururi, ko'p jihatdan, ular yashayotgan mamlakat (davlat)ning moddiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy kuch-qudratiga asoslansa, boshqa ba'zilariniki, umuman, ma'naviy-madaniy jarayonlar bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan bizning xalqimizda milliy ma'naviyat va mafkuraning shakllanib, rivojlanishida o'tmish va bugungi ma'naviy-madaniy jarayonlar asosiy rol o'ynaydi. Umumlashtirib aytganda, milliy mafkura g'arbda ratsional manfaatdorlikka, Sharqda milliy an'anaviylikka asoslanadi, bo'ysinadi. Keyingi to'rt-besh asrlar mobaynida rus, nemis, frantsuz, ingliz kabi qator millatlarning mafkuralari, asosan, umumiy ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq holda boshqa millatlarga rahna soluvchi ulug' millatchilik va buyuk davlatchilik shovinizm ruhi bilan birga shakllanib, taraqqiy qilgan bo'lsa, Sharqdagi deyarli barcha xalqlarniki an'anaviy milliylikni saqlab, muhofaza qilishga qaratilgan ijobiy ma'nodagi

¹ Karimov I.A. Milliy mafkura – davlatimiz va jamiyatimiz qurilishida biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbai. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T. 8. -T.:O'zbekiston, 2000. –B. 463-466.

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008. –B. 78.

millatchilik hamda milliy mustaqillik va taraqqiyot g'oyalari bilan rivojlanib kelmoqda. Binobarin, har bir xalqning g'oyaviy, ma'naviy-mafkuraviy taraqqiyoti o'ziga xos real ijtimoiy-tarixiy asoslarga ega bo'lib, uning rivojlanib, yuksalishi yoki pasayib, barham topishi to'g'ridan-to'g'ri ana shu omillarga bog'liq. Bunga dunyodagi xalqlarning o'tmishi va bugunidan ko'plab misollar keltirish mumkin. Darhaqiqat, «Qadimiylkda Misrliklardan qolishmaydi»gan (Pompey Trog) xalqimizning madaniy merosi va milliy ma'naviy qadriyatlari hamisha jahondagi ko'pchilik olimlarning diqqat e'tiborini tortib kelgan. Buning asosiy sababi - biz xaqiqatan ham ulkan va boy madaniy-ma'naviy merosga egaligimizdadir. Shuning uchun ham, turli tarixiy davrlarda dunyodagi har xil olim-mutaxassislar o'tmish merosimizni o'rganishga katta qiziqish bilan qarashgan. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan so'ng bu jarayon yanada kuchaymoqda. Shu tariqa tariximiz, milliy madaniyatimiz turlicha nuqtai nazarlardan turib, har xil talqin qilingan ko'plab manbalar yuzaga kelgan. Biroq, bu o'rinda, ushbu manbalarning aksariyatida xalqimizning o'tmishi (qolaversa, buguni ham) va madaniyati hamisha ham to'liq yoritilib, ob'ektiv baholanmaganligini ta'kidlash joiz. Ya'ni, ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojida butun Sharq xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqi madaniy taraqqiyotini kamsitib, erga urgan «Ovropamarkazchilar», Sharq madaniyatini ma'lum ma'noda ideallashtirgan «Osiyomarkazchilar» ham, shuningdek, dunyoning turli joylarida muayyan maqsad-muddalarni ko'zlab tariximizni yozgan boshqa ayrim olimlar yoki o'tmishimizni soxtalashtirgan mustamlakachi sho'rolar zamonidagi fanlar ham milliy madaniy-ma'naviy merosimizni ko'p hollarda to'liq va xolis yoritmagan. Bu xususda Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, «Xulosa shuki, olis-olis joylarda xalqimiz, mamlakatimiz o'tmishi haqida aytilayotgan mulohazalarning aksariyat qismi soxta, g'ayriilmiydir»¹. Bu boradagi ishlar faqat mustaqillik yillarida to'g'ri izga tushdi. Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi va rahbarligida xalqimiz tarixiy merosini tiklash bo'yicha benihoya ulkan ishlar amalga oshirildi. O'tmish merosimizga mustamlakachilik davrlaridagi g'ayriilmiy mafkuraviy yondoshuvlarga barham berildi. Zero, xalqimizning boy o'tmish madaniy merosi va milliy ma'naviy qadriyatlari kishilarimiz ongi va qalbida milliy g'oyani shakllantirib, rivojlantirishning g'oyat muhim manbaidir.

Madaniy meros - har bir xalqning ajdodlari tomonidan yaratilib, avlodlari hayotida yanada rivojlanib boruvchi moddiy va ma'naviy boyliklar majmuidir. «Har bir davr va avlod o'ziga xos madaniy meros yaratadi. Madaniy merosga qarab davr va avlodlar haqida hukm chiqariladi. Madaniy meros qanday bo'lsa, davr va avlodlar ham shunday»² bo'ladi. Shu bois madaniy merosning inson, millat, jamiyat hayotidagi o'rni, ahamiyati va qadri, ularga nisbatan munosabatlar bilan bog'liq bo'lib, bu meros har bir avlod tomonidan rivojlantirilib, boyitib borilsa, millatning kelgusi taraqqiyoti yuksalib borishi; unutilib yoki yo'q qilib yuborilsa, milliy madaniyat, binobarin millat ham barham topishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, milliy g'oyani shakllantirishda madaniy merosning o'rni kishilarimizning bu merosga nisbatan munosabatlari bilan belgilanadi. Chunonchi, sho'rolar zamonida mustamlakachilik manfaat va ehtiyojlaridan kelib chiqib, madaniy merosga g'oyaviy-mafkuraviy nuqtai nazardan yondoshishga, butun tariximizni soxta mafkuraviy mezonlar asosida baholashga alohida e'tibor qaratildi. O'tmish merosimizga ob'ektiv yondoshish o'sha davrdagi kompartiyaning mafkuraviy manfaat va maqsadlariga mos kelmas edi. Chunki buyuk va boy o'tmishga ega bo'lgan xalqni undan ajratib, tarixiy xotirasini so'ndiribgina puch g'oyalarga ishontirish va ergashtirish mumkin bo'lardi. Shuning uchun mustamlakachilik tuzimi tariximizni o'z manfaatlariga mos keladigan tarzda, soxtalashtirib, qayta yozib, undan mafkuraviy maqsadlarda foydalanish yo'lini tutgan.

Shuning uchun ham mustaqillik yillari xalqimizning o'zligini o'yg'otib, ruhiy-ma'naviy yuksaltirish va milliy taraqqiyotimizni ta'minlash uchun o'tmish merosimizni tiklash va rivojlantirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Endilikda ulug' ajdodlarimiz yaratib qoldirgan g'oyat boy va rang-barang moddiy hamda ma'naviy meroslar tiklanib, xalqimiz hayotiga yangi mazmun baxsh etmoqda. Xususan:

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. T. 7. --T. : O'zbekiston, 1999. --B. 138

² Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. -T.:Sharq, 1998. --B. 102.

-xalqimizning o'tmish hayoti, milliy ongi, madaniyati va tafakkuri aks etgan «Avesto», «O'rxun-Enisey bitiklari», «Qutadg'i bilig», «Devonu-lug'atit turk», «Hibbatul haqoyiq», «Devoni hikmat», «Temur tuzuklari», Alisher Navoiyning 20 jildlik to'la asarlari to'plami, «Boburnoma», «Turkiy guliston yoxud axloq» singari ma'naviy merosimizning ko'plab durdonalari, «Alpomish», «Guro'g'li», «Ravshan», «Avazxon» kabi o'nlab dostonlar hamda turli ertaklar, maqollar, matallar, latifa, qiziqchilik asarlaridan iborat xalq og'zaki va yozma ijodiyotining yuksak namunalari;

-o'z davrlarida barcha ilm sohalarini beqiyos rivojlantirib, jahon ilm-fani, madaniyati va tafakkuri taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Imom Moturidiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Burxoniddin Marg'inoniy, Bahovuddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Abdulla Qodiriy va boshqa buyuk allomalimiz yaratgan boy ilmiy, falsafiy meros;

-ajdodlarimizning yuksak badiiy didi va mahoratlari bilan yaratilgan hunarmandchilik, amaliy va tasviriy san'at asarlari, raqslar, kuy-qo'shiqlar, teran milliy qadriyatlar, urf-odat, an'analar;

-o'z hayotlarini yurt ozodligi va xalq farovonligi uchun kurashga bag'ishlagan To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Mahmud Tarobiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Dukchi (Madali) Eshon, Nomoz botir kabi milliy qahramonlarimiz haqidagi asl haqiqatlar;

-dunyo me'morchilik san'atining o'ziga xos yuksak ko'rinishini aks ettirgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz, Toshkent, Farg'ona vodiysi va boshqa hududlardagi noyob tarixiy yodgorliklar, yangidan bunyod etilayotgan xotira obidalari hamda moddiy madaniyatimizning yana ko'plab nodir namunalari qayta tiklanib, yangi bosqichlarda rivojlanmoqda. Ular biz uchun faqat o'tmishdan qolgan yodgorliklarga emas, balki ajdodlarimizning mehnati, aql-idroki va tafakkurining ulkan yutug'i, bebaho boyligimiz, ma'naviyatimiz va milliy mafkuramiz shakllanishining bitmas manbai hamdir.

Shunga ko'ra, o'z taraqqiyotida juda qadimiy ildizlarga ega:

- ona tilimiz va u bilan bog'liq og'zaki va yozma ijodiyotimiz namunalari – adabiy merosni;

- jahon ilm-fani va tafakkuri taraqqiyoti tarixida katta o'rin tutuvchi ilmiy, falsafiy merosni;

- turli tarixiy davrlarda yaratilgan moddiy madaniyatimizning nodir namunalari, ya'ni moddiy merosni;

- xalqimizning ruhiy-ma'naviy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega diniy qadriyatlarni;

- ko'p asrlar davomida shakllanib, mustaqillik yillari yangi bosqichlarda rivojlanayotgan yuksak milliy urf-odat, an'analarni hamda ma'naviy madaniyatimizni kishilarimiz tomonidan chuqur o'rganib, o'zlashtirishi milliy g'oya va mafkuraning rivojlanishida g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ko'p millatli O'zbekiston davlatining yuksak taraqqiyot bosqichlariga erishishidan bu erda yashayotgan kishilarning hammasi manfaatdordir. Shuning uchun mamlakatimizning ham moddiy-iqtisodiy, ham ruhiy-ma'naviy jihatdan qanday rivojlanishini shu erni vatan qilgan barcha xalq va etnik birliklarning, xususan o'zbek xalqining ma'naviy-ma'rifiy darajasi, intellektual salohiyati belgilaydi. Ya'ni, O'zbekistonning bugungi va kelgusi taraqqiyoti, ko'p jihatdan, o'zbek xalqining ma'naviy-intellektual salohiyatiga bog'liq bo'lib, bunga esa, avvalo, milliy ma'naviy-madaniy merosni, yuksak umuminsoniy qadriyatlarni, zamonaviy ilm-fan va texnika yutuqlarini chuqur o'rganib, o'zlashtirish orqali, yangi qadriyatlarni yaratibgina erishish mumkin. Binobarin, O'zbekistonda yashayotgan xalqlarning hamisha farovon turmush kechirishlari uchun ming yillar davomida bu erda yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyatni; tarix, til, milliy qadriyatlarni barcha fuqarolarimiz tomonidan keng o'rganib, o'zlashtirish, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lib, yanada rivojlantirish zarur.

4.Siyosat va mafkuraning o'zaro aloqadorligi va farqi.

Siyosiy mafkura xakidagi masala - politologiya fanining eng muxim va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu masala ilga-ridan kishilar o'rtasida ehtirosli, kizg'in, qarama-

karshi fikr -mulohazalar, bahslar va munozaralarga saob bo'lib kelgan va bugun-gi kunda ham shundayligicha qolmoqda. Agar g'oyalar tizimi to'la shakllanib, takomiliga etsa, mafkuraga aylanadi. Boshqacha aytganda, oldin g'oya paydo bo'ladi, undan keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim. siyosat paydo bo'ladi. Biz mazkur mavzuda ana shu masalaning mazmun-mohiyati va asosiy ko'rinishlari haqida to'xtalib o'tamiz.

1. Xo'sh, siyosiy mafkura nima? U qanday vazifalarni bajaradi?

Siyosiy mafkura - siyosiy fanning eng murakkab masalalari-dan biri hisoblanadi¹. Bu haqda adabiyotlarda xilma-xil karashlar mavjud. «Mafkura» atamasi yunoncha ideya va logos so'zlarining bi-rikmasidap tashkil topgan bo'lib, g'oyalar xakidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi. Bu atama, ilk bor 1797 yildagi frantsuz ikqilo-bi davrida Destut de Tressi tomonidan ilmiy muomalaga kiritil-gan.

Qisqacha qilib aytganda, siyosiy mafkura - bu muayyan ijtimoiy guruhning hokimiyatga intilishini yoki undan foydalanishipi aso-slovchi va siyosiy harakatning u yoki bu strategiyasini ko'zda tutuvchi g'oyaviy tizimdir.

Siyosiy mafkura ijtimoiy hayotda muayyatt funktsiyalarni baja-radi. Ulardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1) **Mo'ljallash funktsiyasi.** Bu funktsiya shunday ifodalanadiki, mafkura jamiyat, ijtimoiy ravnak, shaxs, hokimiyat xaqidagi fundamental tasavvurlarni o'ziga qamrab olib, u inson faoliyatining ma'no-mazmuni tizimi va mo'ljali ko'rsatib beradi.

2) **Safarbar etish funktsiyasi.** Fozil jamiyat idealini taklif kila turib, siyosiy mafkura siyosiy faoliyatning bevosita motivi sifatida chikadi va uni amalga oshirish uchun jamiyat hamda ijtimoiy guruhlarini safarbar qiladi.

3) **Birlashtirish funktsiyasi.** Takyaif etilayotgan dunyoning undamental manzarasi chegarasida siyosiy harakatga ma'no-mazmun bera turib, siyosiy mafkura unga shunday ahamiyat beradiki, u o'z miqyosi bilap har qanday individual ski guruhii manfaatdap ustun turadi. Sissiy mafkura xususiy manfaachlarga qarshi turadi va shu bilan birlashtiruvchi omil bo'lib yuzaga chikadi.

4) **Amortizatsiyalash funktsiinsi.** Siyosiy mafkura jamiyat, guruxlar, individ ehtiyojlari va ularpi kopdirishning real imkoniyatlari o'rtasida nomunofiqlik vujudga kelgan vaziyatdagi ijtimoiy keskinlikni yumshatishga xizmat kiladi.

5) **Muayyan ijtimoiy guruh manfaatlarinn ifoda etish va himoyalash funktsiyasi.** Buning ma'nosi shuki, siyosiy mafkura u yoki ; bu ijtimoiy guruh manfaatlari asosida vujudga keladi va ularni boshqa guruxlar manfaatlariga karama-qarshi qo'yishga da'vat etadi.

Siyosiy mafkuraning amal qilish **darajalari** bir xil emas. U **nazariy-kontseptual, dasturiy-direktivalik va xulq-atvorlik darajalarida** amal qiladi. **Nazariy-kontseptual darajada** u ski bu sinf, ijtimoiy qaxlam, millat, davlashing manfaatlari va ide-allarini ochib beruvchi asosiy qoidalar karor toptiriladi; **dastu-riy-direktivalik** darajada ijtimoiy - falsafiy printsiplar va ideallar siyosiy elitaning aniq dasturlari, shiorlari va talablari-ga aylantiriladi hamda boshqaruv qarorlarini kabul qilish, omma-ning siyosiy xulq-atvorini rag'batlantirish uchun g'oyaviy asos bo'lib xizmat kiladi. Mafkura amal kilishining ushbu darajasi «siyosat-ning yaratuvchi elementi» deb talqin etiladi.

Xulq-atvorlik darajada mazkur mafkura maksadlari va prin-tsiplari fuqarolar tomonidan o'zlashtiriladi hamda uning jamiyat siyosiy hayotida ishtirok etishi u yoki bu shakllarda o'z ifodaoini to-padi. Bunda mafkura kishilarning xatti-harakatiga aylanib, ularni jipslashtiradi, birlashtiradi, muayyan yo'lga yo'ialtiradi, safarbar etadi.

Siyosiy mafkuralarning asosiy ko'rinishlari

SiyosiY mafkura zamon va makondan tashkarida bo'lgan mavhum ruhiy hodisa emas. U muayyan tarixiy sharoit bilan bogliq - anik ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan ma'naviy hodisadir.

Har bir tarixiy davr o'ziga xos va mos mafkuraviy oqimlarni ilgari suradi. Bundan hozirgi zamon ham mustasno emas. U ham ko'plab mafkuraviy oqimlarni yuzaga keltiradi. Biz quyida hozirgi zamonning eng yirik mafkuraviy okimlarini: liberalizm, konseravatizm, sotsial-demokratiya va boshqalarni ko'rib chikamiz.

1. Liberalizm. Hozirgi zamonning eng yirik va ko'p tarqalgan mafkuraviy oqimlaridan biri - **liberalizmdir.** Bu atama lotincha «liberalis» so'zidan olingan bo'lib «erkin» degan ma'noni anglatadi.

Liberalizm XVI-XVII asrlarda ma'rifatparvarlik g'oyalari nsgizida tarix sahnasiga chiqib kelasttan burjuaziya sinfining mafkurasi sifatida shakllandi. Bu mafkuraning asosiy qoidalari J.Lokk, T.Gobbs, Sh.Monteskre, A.Smit, "T.Jefferson, D.Mill va boshkalarning asarlarida asoslanib berildi.

Liberalizmning poydevorini shaxs erkinligi, uning barcha ja-miyat institutlariga nisbatan eng oliy qadriyat ekanligi, shaxsning ham o'z oldida, xam jamiyat oldida mas'ulligi, barcha kishilarning o'zini o'zi ro'yobga chiqarish huqukini tan olishligi kabi printsiplar tashkil etadi. Bu mafkura parlament tuzumining, muhim siyosiy mu-ammolarni hal etishda murosayu-madora, kelishuvning tarafdoridir. U davlatning o'sib ketgan iqtisodiy va sotsial funktsiyalariga nisbatan salbiy munosabatdadir.

Erkinlik printsiiii librsalizm tarafdorlari tomonidan dav-lat cheklashlaridan erkin bo'lishlik sifatida talkin etiladi. Bu g'oyani angliyalik mutafakkirlar J.Lokk va D.Mill yaxshi ifoda etadilar. Jumladan, D.Mill bu g'oyani kuyidagicha izoxlaydi: «In-son o'ziga nima kerakligiii har qanday hukumatdan ko'ra o'zi yaxshi biladi».

Liberalizm tarafdorlari erkinlik uchun kurash insonning iq-tisodiy, jismoniy va intellektual erkinligi yo'lidagi barcha to'siq, cheklashlarni tugatish uchun kurashni anglatadi, deya uktiradilar.

Liberalizm mafkurasi uchun shaxsning erkin rivojlanishi va o'zinr! o'zi tasdiklash g'oyasi xarakterli bo'libgina kolmay, balki erkinlikni bozor talkini, xususiy tadbrfkorlik erkinligi sifatida xarakterlash xosdir. Bu mafkura erkinlik va xususiy mulkning o'xshashligiga asoslanadi. Unda xususiy mulkga inson er-kinligining kafolati va o'lchovi sifatida qaraladi. Iqtisodiy er-kinlikdan siyosiy va fuqarolik erkinligi kelib chikadi.

Neoliberalizm. Mafkuraning har qanday ko'rinishi o'zgarmasdan kola olmasligi kabi liberalizm ham o'zgarmasdan ko'l-madi. U ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning ta'siri ostida XX asrning 30-yillarida **neoliberalizmga** o'sib o'tdi. Bu yangi mafku-raviy oqimning paydo bo'lishini tadkikotchilar AQSh Prezidenti Franklin Ruzveltning «Yangi yo'l»i bilan bog'laydilar. Ruzvelt liberalizm mafkurasiga asoslangan siyosatga kator muhim tuzatish-lar kiritdi. Bu tuzatishlar davlatning iqtisodiy va sotsial roliniqaytadan ko'rib chiqish bilan bog'liqdir. Neoliberallar davlatning iqtisodiy munosabatlarini tartibga solish, faol ijtimoiy siyosat

olib borish zarurligini tan oladilar. Neoliberallar siyosiy dastu-rining negizini boshqaruvchi va boshkarilayotganlarning o'zaro keli-shuvi, siyosiy jarayonda ommaning ishtirok etishi zarurligi, siyosiyqarorlarni kabul qilish amaliyotini demokratiyalashtirish tashkiletadi.

Liberalizm g'arb demokratiyasining g'oyaviy asosidir. Bu mafku-ra bayrog'i ostida AQShda «okilona davlat», «Yalpi farovonlik dav-lati» deb ataladigan model yaratilgan. Bugungi kunda neolibera-lizm AQSh Demokratik partiyasi va boshka demokratiyaga asoslangan mamlakatlardagi siyosiy partiyalar faoliyatining g'oyaviy-pazariy ne-lizi bo'lib qolmoqda.

3.Konservatizm. Hozirgi zamonning eng yirik mafkuraviy okimlaridan yana biri - **konservatizmdir.** Bu atama lotincha «kon-servare» so'zidan kelib chikqan bo'lib, u saqlash, ko'riqlash degan ma'noni anglatadi. Konservatizmning asosiy qoidalari XVIII asrda angliyalik mutafakkir va siyosatchi E. Berk, Frantsiyaning jamoat arboblari J.de Mestr va L. de Bonaldlar tomonidan asoslab berildi. Bu qoidalarning negizida tabiiy ravishda qaror

topgan narsalartartibining buzilmasligi, oila, millat, din, tabaqaviy bo'linishibilan boglik bo'lgan an'anaviy kadriyatlarni saqlab qolish g'oyasiyotadi. Ana shundan kelib chiqib, konservatorlar ijtimoiy taraqqiyotda yangiliklarga nisbatan vorislik ustuvorligini yoqlab chiqadilar. Ularning fikricha, siyosiy printsiplarni urf-odatlariga, milliyan'analarga, qaror topgan ijtimoiy-iktisodiy va siyosiy institut-larga moslashtirish lozim. Ularda zinapoya tarzidagi ijtimoiy tuzilishning yukoridan o'rnatilganligiga hech qanday shubxa yo'q va shu-ning uchun uni inson tomonidan o'zboshimchalik bilan o'zgartiribbo'lmaydi, Bundan kelib chikadiki, tenglik printsiipi inson tabiati-ga zid keladi va uni jamiyat tuzilishining negiziga ko'yib bo'lmaydi.

Konservatorlar har doim egalitarizm bilan bog'lik bo'lgan «haddan tashqari demokratizm»ga karshi chiqadilar.

Tarixiy taraqqiyot natijasida konservatizm ham liberalizm singari muhim o'zgarishlarga yuz tutdi. U burjua munosabatlari ka-ror topishi bilan yirik kapital manfaatlarini qimoya kiluvchi g'oya-ga aylandi. Konservatorlar ham liberallar singari bozorda rakobat erkinligi ta'minlanishi, iktieodistga davlat aralashishini chek-lashni talab kildilar.

4. Neokonservatizm. XX asrning 70-yillarida konservatizm-ning tarixida yangi faza - neokonservatizm (D.Bell, Z.Bjezinski, N.Podgorets, N.Kristoll, A.Xaysk)dan boshlanadi. Bu yangi oqimning paydo bo'lishini tadqiqotchilar AQShda Ronald Reygan boshchiligi-da respublikachilar, Buyuk Britaniyada Margaret Tetcher boshchiligi-da konservatorlar, GFRda Gelmut Kol boshchiligida XDX-XSS blokining hokimiyatga kelishi bilan bog'laydilar.

Neokonservatizmning karar topishi tasodifiy emas. U neoli-beralizm va sotsializmga karshi turish maqsadida shakllandi. Ne-oliberalizm davlatning iqtisodiy faoliyatga aralashishi zarurli-gini tan olali va davlat ijtimoiy dasturlarni rivojlantirishni ko'llab-quvvatlaydi. Neokonservatizm esa davlatning iktisodiyotga aralashishini cheklashni talab qiladi.

Antietatizm davlatning ijtimoiy vazifalarini cheklash - ne-okonser-vatizm g'oyaviy-siyosiy ko'rsatmalarini bslgilovchi alomat-dir. Nsokonservatorlar karashlariga ko'ra «eng yaxshi hukumat shuki, u kamrok boshqaradi».

Neokonservatorlar aholining kam ta'minlangan katamlari foydasiga resurslarni kayta taksimlash maksadida yirik kapitalga solinayotgan soliklarga qarshi chiqadilar. Ular teng taqsimlashning ashaddiy dushmani sifatida davlatning ijtimoiy dasturlarini kisqartirishni talab etadilar. Neokon servatorlarning fikricha, hozirgi davlat kishilar uchun natijalar tengligini emas, balki im-koniyatlar tengligini yaratib berishi zarur. Davlatning «sog'iladi-gan sigir»ga aylanishi insonni buzadi, ishdan chiqaradi, har bir kishi o'z faoliyatida davlatga emas, balki o'zining kuchiga, yaqinlari va fuqarolarga tayanishi zarur.

Shunday kilib, konssrvatizm mafkurasida oila, din, axloq ay-rim ijtimoiy guruhlarning imtiyozli o'rni hakidagi eski davrning kadriyatlari, yangi burjua munosabatlari davrining qadriyatlari -individualizm, bozor erkinligi bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

Bu mafkura liberalizm bilan qarama-karshi turib g'arb mamlakatla-rining ommaviy ongiga kagga ta'sir o'tkazadi.

5. Sotsial-demokratiya. Hozirgi zamonning eng ta'sirli mafkuraviy okimlaridan biri — sotsial-demokratiyadir. Bu mafkura markazda turuvchi kuchlarning siyosiy doktrinasini hisoblanadi.

Sotsial-dsmokratiya mafkurasi XIX asrning oxirida nemis mu-tafakkirlari va jamoat arboblari K.Kautskiy va E.Bernshtein to-monidan asoslab berildi. Bu mafkuraga binoan yangi jamiyatga inqi-lobiy yo'l bilan emas, balki tinch, evolyutsion yo'l bilan - burjua jamiyatini asta-sekin isloh qilish orkali o'tiladi. Sotsial-demokratlar bu ko'rsatmalarni amalga oshirishni davlatni yo'qsillar foydasiga qayta taqsimlash, iktisodiyotning davlat sek-torini va ko'plab davlat ijtimoiy dasturlarini rivojlantirish bilan bog'laydilar.

Jahonda sotsial-demokratiya mafkurasi negizida turli-tuman «sotsializm modellari» shakllandi. Bular ichida shved va german mo-deli eng obro' qozondi. Germaniya va Shvetsiyada sotsial-demokratik partiyalar boshqaruvi davrida hayotning yuqori darajasi va sifatiga erishildi.

Ammo, XJ asr 80-yillarning oxirida bu mamlakatlarning ik-tisodiyotida davlat monopoliyasi va byurokratizm. xususiyl tadbir-korlik uchun rag'batlantirishning pasayishi bilan bog'lik bo'lgan negativil tendeniyyalar kuchaydi. Bu tendentsiyyalar ushbu mamlakatlar-ning taraqqist sur'atlarini pasaytirishga olib keldi. Natijada, sotsial-demokratlar ko'pchilik saylovchilar tomonidan ko'llab-quvvatlanmadi va hokimiyatni konservativ mafkura vakillariga be-rishga majbur bo'ldilar. XIX 90-yillarning oxiriga kelib sotsial-demokratlar saylovlarda g'alaba qozonib yana xokimiyatni konserva-torlardan qaytarib oldilar.

Sotsial-demokratiya - qozirgi zamonning eng ta'sirli mafkura-laridan biri hisoblanadi. U ijtimoiy islohotlarni amalga oshi-rish yo'li bilan jamiyatni rivojlantirishni va xalqning farovon-ligiga erishishni ko'zda tutadi.

6. **Milliy mafkuralar.** Hozirgi zamonning mafkuralari qa-torida **milliy mafkuralar** ham muxim o'rinni egallaydi. Ular ke-lib chikishi va mazmun-moxiyatiga ko'ra boshka mafkuralardap fark qiladi.

Birinchidan, milliy mafkuralar dunyo mustamlakachilik sis-temasining emirilishi, yosh mustakil milliy davlatlarning tashkil topishi va ularni qaramlik doirasidan chikarish, rivojlantirish zaruriyati bilan maydonga keldi. XIX asrning oxiri XX asriing boshlarida G'arbiy Evropa milliy mafkuralarning gurkirab rivojlanishini o'z boshidan kechirgan edi. Xrzirgi kunga kelib bu tsnden-tsiyalar sobiq SSSR va boshqa sotsialistik mamlakatyaar o'rnida tash-kil topgan respublikalarda yuz bermoqda.

O'zbekistonda milliy mafkurani rivojlantirish va takomillashtirish masadalaril Prezident Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqloil va taraqqiyot yo'li», "Jamiyatimiz mafkurasil xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin",-"Milliy istikdol mafkurasil-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir"va boshka asarlarida asoslab berilgan kontseptsiyada o'z schimini topdi.

Mazkur kontseptsiyada Prszident milliy istikdol g'oyasini ish-lab chikishga juda katta hissa qo'shdi, uni yangi, fundamental-nazariy qoidalar, xulosalar bilan boyitdi.

Prezidsnt Islom Karimov mafkuraga shunday ta'sirif beradi: «Odamlarning ming yillar davomida shaklyaangan dunyoqarashi va mintalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalk, shu mamlakatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'riini aniq-ravshan belgi-lab berishga xizmat kiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bulishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasil deb bila-manShu boisdan x,am milliy mafkura har qanday xalqni - xalk, millatni - millat kiladigan, uning yo'li va maqsadlarini aniq-ravshan charog'on etadigan maeqdir.

Bu qoidalar mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar sis-satining g'oyaviy-mafkuraviy negizini tashkil etadi,

Ekologik-siyosiy mafkuralar. Ekologik-siyosiy mafkuralar urushdan keyingi yyallarda vujudga keldi va XX asrning 70-80-yillarida ksng rivoj topdi. Bunga rivojlangan mamlakatlardagi og'ir ekologik vaziyat sabab bo'ldi.

Ekologik-siyosiy mafkuralar inson yashaydigan atrof-muxit himoya qilish uchun hukumat va qonun chiqaruvchi organlariga ta'sir ko'rsatish orkali ekologiyani yaxshilashni o'z oldiga maqsad kilib ko'yadi. Hozirgi vaktida bu okimlar ko'plab mamlakatlarning parla-mentlari va xukumatlarida o'z vakillariga ega.

Diniy siyosiy mafkuralar. Diniy-siyosiy mafkuralar di-niy aqidalarga tayanadi. Ularning bosh maqsadi nafaqat hokimiyatga ta'sir ko'rsatish, balki o'zlarining hokimiyatini o'rnatishdan ibo-ratdir. Buni ayrim mamlakatlarda, xususan Yaqin Sharq va Osiyoda .. (Eron, Pokiston, Afg'oniston, Saudiya Arybistoni) va boshqa mamla- ; katlar misolida ko'rish mumkin.

Shunday qilib, hozirgi zamonning mafkuraviy oqimlari rang- -barangdir. Ular xilma-xil ijtimoiy guruxdar manfaatlarini ifo- , da etadi va jamiyatni tarakkqiy ettirishning turli-tuman yo'llarini ilgari suradi.

XXI asr bo'sag'asiga kelib dunyoning siyosiy manzarasi tubdan o'zgardi, ikki qutbli dunyo barham topdi, nisbiy muvozanat buzildi. -Dunyodagi ikki qutbning biri bo'lgan sobik sotsialistik lager tarqa-lib ketdi. Uning eng katta va totalitar tuzum xukmron bo'lgaya aso siy davlati - sobik ittifoq o'tmishga aylandi. Bu davlatning o'rnida mustaqil mamlakatlar yuzala keldi.

Mustabid mafkura g'oyalaridan -, xalos bo'lgan xalqlar o'z milliy davlatchilik an'alarini tikladi.

Demak, dunyoning siyosiy, iktisodiy, madaniy kiyofasi bo'lgani .. kabi, mafkuraviy manzarasi ham mavjud. **Dunyoini! mafkuraviy . manzarasi deganda odamlarning qalbi va ongini egallash uchun olib borilayotgan kurash kaerda, qanday kechayotgani, bu yo'lda qaysi joyda qanday usul va vositalar qo'llanayogganini tushu-namiz.** Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasida inson kalbi va , ongiga ta'sir o'tkazuvchi turli xil vositalar bilan kurash olib bo-... ruvchi mafkuraviy poligonlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. «Mafkura- . viy poligon» tushunchasini birinchi marta Prezidentimiz Islom .; Karimov «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga bergan javoblarida ishlatgan.

Hozirgi davr mafkuraviy poligonlarda g'arzali geosiyosiy maqsadlarga erishish yo'lida mafkuraviy ta'sir o'tkazish uchun eng avvalo «**bo'lib tashla va xukmronlik qil**» degan qadimiy tamoyilga amal qilishga urinilmoqda.

5.Milliy g'oyada mentalitetning namoyon bo'lishi.

Jahon keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakka-yu yagonadir. O'zbekiston deb atalmish yurtning yagonaligi uning betakror tabiati, boy tarixi, mehnatkash insonlari bilan bir qatorda bu zaminda turli millat va elat vakillarining yagona oila farzandlaridek yashashlarida namoyon bo'lmoqda. Bunday ahillik, do'stlik va hamkorlik o'zining chuqur tarixiy ildizlariga va asosiga ham ega. Bu asoslar mamlakatimiz Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan.

Xususan, uning 18-moddasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir»¹, - degan qoida ana shu bag'rikenglikning zamonaviy siyosiy-huquqiy ifodasidir.

Mazkur qoidada milliy hayotga, fuqarolarning milliy his-tuyg'u-lariga daxldor muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qator tamoyillar belgilab qo'yilgan.

Birinchidan, fuqarolarning milliy mansubliklaridan qat'iy nazar qonun oldida tengligi mustahkamlangan.

Ikkinchidan, fuqarolarning diniy e'tiqodidan qat'iy nazar bir xil huquq va erkinliklarga egaligi ta'kidlangan. Diniy qadriyatlar millat ma'naviyatining ajralmas qismi ekanini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur qoidaning amaliy ahamiyati oydinlashadi.

Uchinchidan, fuqarolarning irqiy tengligi qayd etilgan. Irqchilik-dan g'ayriinsoniy mafkura va amaliyotning tariximizda umuman kuzatil-maganini alohida qayd etish lozim. Ammo ayrim mintaqalarda tajovuzkor millatchilik g'oyalari bilan qurollangan ayrim guruhlar diniy aqidapa-rastlik va irqchilik qarashlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga urinayotganini ham unutmaslik zarur. Demak, muayyan hollarda ular uyushgan shaklda ham chiqishi mumkin. Islom dinini siyosatga aylantirayotgan, yovuzlik va terrorchilik mafkurasini yaratayotgan ko'plab radikal va ekstremistik markazlarning, birinchi navbatda, yoshlar ongini zaharlab, zombiga aylan-tirib, ulardan terrorchilar tayyorlash bo'yicha konveyer tashkil etayotgan, xalifalik tuzishdek turli xomxayollarni amalga oshirishga urinayotgan qabih kuchlarning ildizini qirqib tashlash kerak¹.

Axborot globallasuvi kuzatilayotgan bugungi kunda turli g'oyalar hech qanday chegaralarni tan olmay kirib kelishini e'tiborga oladigan bo'lsak, ushbu tamoyilning ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Milliy-madaniy markazlar - xalqlarning ma'naviy yaqinligi man-baidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida «O'zbekiston xalqini, millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», deb aniq belgilab qo'yilgan. «O'zbekiston xalqi» tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlik uchun ma'naviy

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2003.

¹ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: O'zbekiston, 2005. 64-65-betlar.

asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari Konstitutsiyamizda «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi», deb ta'kidlangan. Bu borada hayotimizda ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda 136 millat, elat, xalq va etnik guruhlarining vakillari yashaydi. Ularning har biri o'z milliy madaniy urf-odatlarini, an'analarini, tiliga, konstitutsiyaviy huquqiy tenglikka ega.

Respublika Baynalmilal Madaniyat Markazi (RBMM) va milliy madaniyat markazlari (MMM)ning faoliyati bu erda yashovchi xalqlarning milliy an'analarini, urf-odatlarini va marosimlarini qayta tiklash, ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan. Turli millatlarga mansub fuqarolarimizning katta umumxalq bayramlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish, mamlakat madaniy turmushidagi shonli voqealarni nishonlashda faol ishtirok etayotganliklari samimiy sahovat va mehr oqibat muhitini yaratmoqda. Bu muhit bizga yagona oila tuyg'usini qayta-qayta his etish «O'zbekiston umumiy uyimiz» degan so'zlar zahiridagi chuqur ma'noni anglab olish imkonini beradi.

Dastlabki milliy madaniyat markazlari koreyslar, qozoqlar, yaxudiylar, armanlar tomonidan Respublika viloyatlarida 1989 yilda tuzildi. O'sha paytda ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turish maqsadida O'zbekiston hukumati qaroriga binoan Madaniyat ishlari vazirligi huzurida Respublika millatlararo madaniyat markazi tashkil etildi. Ammo bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi 1991 yildan mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. 1992 yilning yanvarida Prezident I.A.Karimovning tashabbusi bilan Respublika millatlararo Baynalmilal markazi qoshidagi Madaniyat ishlari vazirligi Respublika «baynalmilal madaniyat» markaziga aylantirildi.

1992 yilda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyatini birlashtirgan bu jamoat tashkiloti - «Baynalmilal madaniyat» 2005 yilga kelib 120 ga yaqin markazlar ishini muvofiqlashtirib kelmoqda. Bugungi kunda ana shunday markazlarni tuzish bo'yicha 15 ta tashabbuskor guruh ish olib bormoqda.

RBMM to'g'risidagi nizomda uning mustaqil muassasa ekanligi belgilab qo'yilgan. Markaz milliy-madaniy markazlarning faoliyatiga rahbarlik qiladi. O'zbekistonda yashovchi milliy guruhlarining madaniy ehtiyojlarini qondirishda davlat idoralariga va jamoat tashkilotlariga ko'maklashadi.

Respublika Baynalmilal Madaniyat Markazining moddiy texnikaviy baza bilan ta'minlanishi RBMM va MMM ishlarini faollashtirdi, ularning barlashuvi va samarali hamkorlik qilishi uchun keng istiqbollar ochdi.

O'zbekistonda barcha millat vakillariga teng huquqli munosabat davlat qonuni bilan mustahkamlangan. Buning ijobati maktablarimizda 9 ta milliy tilda o'qitish ishlari, 20 tilda ommaviy axborot nashrlari faoliyat ko'rsatayotganligida ko'rinmoqda.

Mazkur milliy-madaniy markazlarning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlashdagi roli beqiyosdir. Milliy madaniy markazlarning asosiy vazifalari 3 yo'nalishga ega:

1) Har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlarini va rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatan bilan aloqa va munosabatlarni jonlantirish, milliy his-tuyg'ularning namoyon bo'lishiga keng yo'l ochish.

2) Mustaqil O'zbekistonni o'zining haqiqiy vatani deb bilish va unga beminnat hamda sadoqat bilan xizmat qilish.

3) Vatan bilan mushtarak hayot kechirish, uning madaniyati, turmush tarzi va tilini o'rganish, mustaqil davlatga nomi berilgan millat bilan do'stlikda, hamkorlikda va totuvlikda yashash.

Ana shu 3 yo'nalishda olib borilayotgan ishlar yil sayin yangidan- yangi shakllarda, turlarda, yo'nalishlarda rang-barang bo'lib bormoqda. SHU jumladan:

- o'z milliy tarixini, madaniyatini, tilini, urf-odatlarini o'rganish to'garaklari ishlanmoqda;
- O'zbekiston tarixini, madaniyatini va tilini o'rganish to'garaklari faoliyat ko'rsatmoqda;
- milliy musiqa, raqs va hunar to'garaklari o'z ishini kengaytirmoqda;
- milliy bayram kunlariga bag'ishlab tadbirlar o'tkazmoqda, festi-vallar tashkil qilmoqda;

- tarixiy Vatanning rassomlari, yozuvchilari, shiorlari, oqimlari va baxshilari, madaniyat va siyosat arboblari bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil qilinmoqda;

- tarixiy Vatandan kelgan siyosiy arboblar va madaniyat namoyondalari bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda va h.k.

Umuman, milliy madaniyat markazlari O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashga katta hissa qo'shmoqdalar.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarining o'z ona tilida o'qishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgani, oliy o'quv yurtlari va maktablarda bunga amal qilinayotgani, ko'plab tillarda gazeta va jur-nallar chop etilib, teleko'rsatuv va radioeshittirishlar olib borilayotgani va boshqa ishlar ham bu borada samarali faoliyatning yaqqol dalilidir.

Qaerdaki millatlararo totuvlik g'oyasining ahamiyati anglab etilmasa, jamiyat, hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga kelsa, bu jarayon - tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahonning ayrim mintaqalarida sodir bo'layotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

Turli millat vakillarining ijodiy tadbirlari, badiiy ko'rgazma-lari, bir tomondan, ayni millatning O'zbekiston fuqarosi sifatida o'z o'rnini borligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, shu zaminda yashovchi barcha millat-larning O'zbekiston xalqi - O'zbekiston fuqarosi ekanligini namoyon etuvchi, mustahkamlovchi milliy g'oya atrofida birlashuviga olib boradi.

Bashariyat tushunchasi rango-rang millatlar va elatlar, shuningdek, turli din va irqqa mansub insonlarni o'ziga qamrab oladi. Demak, har bir inson bashariyat va ayni vaqtda o'z xalqi, o'z Vatanining farzandi hamdir. Har bir kishida o'z xalqining tili, ruhiyati, ana-analari, qadriyatlari barq urib turadi.

Milliy istiqloq g'oyasi o'z mazmun-muhoyatiga ko'ra barcha millatlar-ning umumiy manfaatlarini ro'yobga chiqaradi. Mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik hamda ijtimoiy barqarorlik muhitini ta'minlashga xizmat qiladi.

Zotan, har qanday polietnik davlatda turli millatlar o'rtasidagi munosabatlar davlat va jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratuvchi omillardan hisoblanadi.

2). Bag'rikenglik g'oyasini quyidagi sxema asosida tasvirlash mumkin.

3) Milliy-diniy bag'rikenglik g'oyasi hamda uning tarixiy va huquqiy asoslari. «Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi - xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi»¹. Din qadim-qadimdan aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi.

Milliy va diniy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayot-gani ham ularning bir-birlari bilan yaqin mushtarak maqsadlarga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Chunki dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlariga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat va bag'rikenglikka da'vat etadi. Hozirgi zaminda bu g'oya ezgulik yo'lida, nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Masalan, azal-azaldan diyorimizda turli diniy ta'limotlar yonma-yon yashab kelgan. Asrlar davomida yirik shaharlarimizda masjid, cherkov, xonaqohlarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig'idir. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagani xalqimizning dinlararo bag'rikenglik g'oyasiga amal qilib yashab kelayotgan-liklaridan dalolat beradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda 15 ta konfessiyaga mansub diniy tash-kilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning o'z faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida ishtirok etishi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunda o'z ifoda-sini topgan. Ana shu asoslar mamlakatimizdagi barcha din vakillarining hamkor, hamjihat bo'lib, ulug' va mushtarak g'oyalar yo'lida harakat qilishi uchun imkon yaratadi.

¹ Ergashev I., Nabiev E. va boshqa. Milliy istiqloq g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. – T.: «Akademiya», 2005, 271- bet.

4) O'zbekistonda milliy-diniy bag'rikenglik va dunyoviylik. Din-larning umuminsoniy mohiyati, maqsadi bir bo'lib, ular aslida bir-birlariga zid emas. Aslida diniy bag'rikenglikning mohiyati shundan kelib chiqadi. Jamiyat tarixidan turli dinga mansub kishilarning yonma-yon yashab kelganligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Bizning mamlakatimiz hududida ham islom, ham nasroniylik, iudaizm kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan, diniy amallar erkin ijro etilgan. O'sha davrlarda ham ziyolilar, olimlar hayot saboqlarini bir-biridan o'rganganlar, ustoz-shogird bo'lishgan. Ularning turli dinlarga mansubligi bunday munosabatlarga halal bermagan.

Hozirgi vaqtda O'zbekistondagi turli konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar o'z faoliyatini o'zaro teng huquqlilik, hamdo'stlik va hamkorlik asosida amalga oshirmoqda. Diniy bag'rikenglik turli dinlarning, turli dinlarga mansub kishilarning hamdo'stlik munosabatlarinigina nazarda tutmaydi, balki e'tiqodidan qat'iy nazar barcha kishilarning tengligi, umumiy ezgu maqsad yo'lida hamkorlikni ham qamrab oladi. Diniy qarashga ko'ra ham, madaniy, jumladan, ilmiy qarashga ko'ra ham inson eng oliy mavjudotdir.

Diniylik dunyoviylikka xizmat qilishi mumkin deganda, dunyoqarashning ezgulik, yaxshilik, halollik, tinchlik, do'stlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashni nazarda tutamiz. Haqiqatan ham diniy ta'limot-lar, u dunyo hayotini tasvirlash vositasida bu dunyoda yuksak fazilatlarga ega bo'lishga undaydi.

Diniy bag'rikenglikning qaror topishi, mustahkamlanishi, rivojlanishi barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar milliy g'oya va mafkurani amalga oshirish yo'lida birlashtiradi. U mafkurani milliy g'oya va kishilar ongi hamda qalbiga joylashishiga yordam beradi.

Aksincha, diniy bag'rikenglikni tor ma'noda tushunish, bir tomonlama talqin qilish umumiy maqsadlardan chalg'itib, kishilarni o'zaro guruhlariga bo'lib yuborishi mumkin. SHuningdek, ayrim guruhlarining g'arazli manfaat-lariga xizmat qiluvchi diniy niqobni yuzaga keltiradi.

Bu haqida mamlakat Prezidenti I.A.Karimov shunday yozadi: «Afsus-ki, insoniyat taraxida diniy ongning ajralmas qismi bo'lgan odamlardagi e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki vayron qiluvchi kuch, hatto **fanatizm** (o'ta ketgan mutaassiblik) sifatida foydalanilganligini ko'rsatuvchi misollar ko'p. Fanatizmning o'ziga xos xususiyati va ko'rinish-lari, avvalambor, o'z dinining haqiqiylikligiga o'ta qattiq ishonish, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lishdan iboratdir. Aynan fanatizmga yo'liqqan odamlar yoki ularning guruhlari jamiyatda beqarorlik to'liqini keltirib chiqarishga qodir bo'ladilar»¹.

O'zbekistonda yangi demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishga kirishilgan hozirgi o'tish davrida diniy bag'rikenglik qanchalik muhim bo'lsa, diniy bag'rikenglik uchun milliy mafkura ham shunchalik muhimdir. Milliy mafkuraning yuksak g'oyalari, o'z navbatida, dinning haqiqiy mohiyatini jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini anglab olishga yordam beradi. Diniy bag'rikenglik g'oyasini to'g'ri tushunishga yordam berib, barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar birlashtiradi. Milliy istiqlol mafkurasi kishilar ongi va qalbiga singganda diniy mutaassiblikka, ayirmachilikka hech qanday o'rin qolmaydi.

Respublikamiz aholisining milliy qiyofasi faqat SHarq emas, balki, Farb tsivilizatsiyasiga mos umuminsoniy tamoyillar, islom, xristianlik va boshqa dinlarga e'tiqod, an'ana va urf-odatlar, rang-barang turmush tarzidan iborat ma'naviy mezonlarni o'zida aks ettiradi.

Hozirgi kunga kelib respublikamiz bo'yicha jami 2104 ta diniy tashkilot, shu jumladan, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Rus pravoslav cherkovi, Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasi, Evangel xristian baptistlar cherkovlari Ittifoqi, Rim katolik cherkovi, To'liq injil xristianlar markazi, O'zbekiston bibliya jamiyati, 1906 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 7 ta yahudiylar jamoasi, 7 ta bahoiylar jamoasi, 2 ta Krishnanani anglash jamiyati va 13 ta diniy o'quv yurti (1 ta Islom masjidi, 10 madrasa va 1 ta pravoslav va 1 ta to'liq injil xristianlari seminariyasi) davlat ro'yxatidan o'tgan.

O'zbekistonda dunyoviylik bilan diniylik o'rtasida andoza sifatida qo'llash mumkin bo'lgan yangi nisbatning shakllanishi natijasida dinlararo bag'rikenglik va millatlararo

¹ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. -T.6. -T.: O'zbekiston, 1998, 54-bet.

totuvlikning ta'minlangani, qolaversa, tabarruk zaminimizning azaldan umumjahon tamadduni markazlaridan biri bo'lgani barchaga ayon.

Dunyodagi musulmon mamlakatlarini 3 guruhga bo'lish mumkin:

3. Islom mamlakatlari.

4. Islom davlat dini mamlakatlari.

5. Huquqiy demokratik musulmon davlatlari (Din davlatdan ajratil-gan) O'zbekiston ana shu 3-turdagi huquqiy demokratik musulmon davlatlari qatoridan joy olgan. Davlatimiz diniy tashkilotlar bilan quyidagi tamoyillar asosida ish olib bormoqda:

- Dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish.
- Diniy e'tiqodlarini fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish.
- Diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni taqib qilishga yo'l qo'ymaslik.
- Ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zarurati.
- Dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmas-ligini e'tirof etish kabilardir.

Bugun O'zbekiston diniy bag'rikenglik (tolerantlik) va dinlararo murosasida faqat MDH davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda. Bu haqda Moskva va Butunrus Patriarxi Aleksey II, AQSH senatori Xillari Klinton xonim, AQSHning sobiq davlat kotibi Madlen Olbrayt va Iordaniya qirolligi shahzodasi Hasan ben Talol yurtimizga ziyoratlari vaqtida ta'kidlab o'tganlar. Albatta, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bu xislat o'zining uzoq tarixiga ega.

So'nggi yillarda butun dunyo, shu jumladan, mintaqamizda kuchayib borayotgan **diniy aqidaparastlik** va jangarilik islomning asl mohiyati bo'lgan bag'rikenglikka zid bo'lgan harakatlarga sabab bo'lmoqda. Bu harakat va g'arazli oqimlarning nomlari va shiorlari turlicha bo'lishiga qaramay, maqsadlari bir - dindan niqob sifatida foydalanib, davlat siyosatiga aralashish, hokimiyatni qo'lga kiritishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida, jumladan, shunday deydi: "Biz din bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilish tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshu-noslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz". (Karimov I.A. Asarlar. T.6. 59-bet).

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, milliy bag'rikenglik - turli millatga mansub kishilarning bir-birlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urf-odati va an'analarini, milliy-madaniy merosini hurmat qilishni, ularning sha'ni, qadr-qimmatini, or-nomusini qadrlash orqali amalga oshadigan o'ziga xos ma'naviy kenglikni (bag'rikenglikni) anglatadi. Milliy bag'rikenglik bunga zid bo'lgan, milliy manfaatga ziyon etkazish hisobiga ta'minlanmaydi. U turli millat manfaatlarini uyg'un ko'rish va ta'minlash asosida mustahkamlanib boradi.

Diniy bag'rikenglik ham dinlararo hamda har bir dinning ichidagi turli xil yo'nalishlar va mazhablarning ezgu g'oyalarini qadrlash, bir-birlarini hurmat qilish asosida amalga oshadi.

Bu milliy g'oya amal qiladigan ustuvor g'oyalar sifatida milliy bag'rikenglik va dinlararo bag'rikenglikka asoslanish turli xalqlar va millatlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik, totuvlikni ta'minlash orqali erkin va farovon hayot qurish yo'lida, insonlarning tub hayotiy maqsadlari bilan mushtarakdir.

Demak, millatlararo totuvlik - umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning, bir mamlakat doirasida milliy manfaatlarni teng qondirish, ular rivojini ta'minlashning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Millatlararo totuvlik g'oyasi - bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va

hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Bu g'oya - har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

“Islom qadari” kontseptsiyasi. Bu risola Malayziya davlati Bosh vaziri, moliya va ichki xavfsizlik vaziri Abdulla Ahmad Badaviyning Malayziya birlashgan milliy tashkilotining 2004 yil 23 sentabrda (Malayziya poytaxti Kuala-Lumpur shahrida) bo'lib o'tgan 55-umumiy yig'ilishidagi ma'ruzasi bayoni. O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning 2005 yil 2-4 oktabr kunlari Malayziyaga davlat tashrifi davomida unga Malayziya Bosh Vaziri A.Badaviy tomonidan tuhfa etildi.

O'zbekiston va Malayziya davlatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar do'stlik, manfaatli hamkorlik aloqalari asosida izchil rivojlanib bormoqda.

Hozirgi murakkab va tahlikali davrda jahonda ayrim siyosiy doiralar xalqaro jamoatchilikni chalg'itib, o'z manfaatlarini ko'zlagan holda, islom dinini g'arazli maqsadlarda talqin qilish, uning asl insoniy mohiyatini soxtalashtirish va shu tariqa dunyo musulmonlari orasini buzish, ular o'rtasida qarama-qarshilik, ziddiyat, turli nizo va adovatlar tug'dirishga uriniyotgani ko'pchilikni tashvishga solmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov yuqorida bayon etilgan bunday tahdidlardan keng jamoatchilikni doimo ogoh etib kelmoqda. Ayniqsa davlat rahbarining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid. Barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «Olloh qalbimizda, yuragimizda» kitoblarida, ko'plab chiqishlarida bunday xavf-xatarlarning ildizlari xar tomonlama chuqur ochilib, ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib berilgan edi. SHu asosda mamlakatimizda din va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishning ma'naviy-ma'rifiy mezonlari ishlab chiqildi, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash olib borishning usullari shakllandi. (“Ma'rifat”, 2005 yil 29 oktabr).

Arabcha “hadari” so'zi shahar tsivilizatsiyasi, shahar madaniyati degan ma'nolarni anglatadi. “Islom hadari” iborasi esa islomiy madaniyat, islom tsivilizatsiyasi ma'nolarini bildiradi. SHu bois “Islom hadari” kontseptsiyasi “Madaniy, taraqqiyparvar islom kontseptsiyasi” deb ataladi.

“Islom hadari” kontseptsiyasi o'n qoida printsipga asoslanadi:

- 1) ollogha iymon-e'tiqodli bo'lish;
- 2) xukumatning xalq ishonchini qozongan, adolatli bo'lishi bo'lishi;
- 3) ozod va mustaqil xalq;
- 4) ilm-fanni egallash;
- 5) barcha sohalarda mutanosib iqtisodiy rivojlanish;
- 6) yuksak hayot darajasi;
- 7) milliy ozchilik va xotin-qizlar huquqlarining himoya qilinishi;
- 8) madaniy va axloqiy muhitning yaxlitligi;
- 9) atrof-muhitni asrash;
- 10) yuksak mudofaa qudrati.

Malayziya Bosh vaziri A.Badaviyning “Islom hadari” risolasida ilgari surilgan g'oya va qarashlar ko'p jihatdan muqaddas islom dinini asrash, uning o'lmas an'ana va qadriyatlarini bugungi taraqqiyot bilan uyg'unlashtirish borasidagi bizning intilishlarimizga mos keladi. Malayziya aholisining ko'pchiligini musulmonlar tashkil qiladi. SHuningdek, bu mamlakatda turli etnik qatlam va diniy konfessiya vakillaridan iborat ko'pmillatli davlatdir. “Islom hadari” kontseptsiyasida zamonaviy ilmu hunarlarni egallash, doimo mehnat qilib yashash, halollik va adolatli boshqaruv targ'ib qilinadi, musulmonlar jamoasi har tomonlama rivojlanishga, bag'rikenglikka, uzoqni ko'zlab ish tutishga da'vat etiladi, yoshlarning dunyoviy bilimlarini chuqur egallashi, shu tariqa o'z munosib o'rnini topishi qo'llab-quvvatlanadi.

4 Mavzu G'oyaviy tahdidlarning yo'nalishlari.

Reja.

1. XX1asrda mafkuraviy munosabatlar keskinlashuvining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, sabablari.
2. Vayronkor g'oyalarning reaksion mohiyati va ularga qarshi kurashning tarixiy zaruriyati.

3. Maxalliychilik, millatchilik, urug' aymoqchilik, korruptsiyaga qarshi kurash mafkuraviy mustaqillik kafolati.
4. Evroosiyo va Sharq mafkurasining xususiyatlari.
5. Jaxon moliyaviy inqirozining mafkuraviy jarayonlarga ta'siri.

Birinchi masalaning bayoni. Jahonda ro'y berayotgan g'oyaviy jarayonlar, mavjud mafkura shakllari, ularning mohiyati, maqsadlari va o'zaro munosabatlari bilan bog'liq holat, xususiyat va faoliyatini yaxlit tarzda aks ettiruvchi tushuncha. Bugungi dunyo yaxlitlikni tashkil etsada, undagi mintaq va davlatlar, millat va xalqlar tarixiy shart-sharoit, jo'g'rofiy joylashuvi, geostrategik holatiga ko'ra turli mavqega ega. Hozirgi davr – dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davr. Shunday ekan, ularning o'ziga xos manfaatlarini ifodalaydigan mafkuraviy ta'sir usullari bo'lishi shubhasiz. Jahon siyosiy xaritasida ko'plab davlatlar mavjud bo'lib, ularda turli siyosiy kuchlar, partiyalar, din va diniy oqimlar, mazhablar, guruh va qatlamlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ular o'zaro farqlanadigan, ba'zan bir-biriga zid bo'lgan manfaatlarga ega. Aynan mana shu manfaatlar o'zga xalqlar, turli mintaqalar, davlatlarning aholisi yoki ijtimoiy guruhlar ongiga, turmush tarziga ta'sir o'tkazish, ularni bo'ysundirish uchun yo'naltirilgan maqsadlarni shakllantiradi. Bundan ko'zlangan asosiy maddao esa muayyan joydagi kishilarga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va diniy qarashlarni singdirish orqali o'z manfaatlarini ta'minlashga intilishdir. Bunday ta'sir o'tkazishning tinch yo'li ko'zlangan maqsadga olib kelmaganda boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashish, mavjud vaziyatni ataylab keskinlashtirish, kuch ishlatish yo'li bilan bo'lsa ham, ijtimoiy beqarorlikni yuzaga keltirishga harakat qilinadi. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasiga nazar tashlansa, aksariyat ilg'or davlatlarda umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslangan mafkuralar amal qilmoqda. Ularda tinchlik va taraqqiyot, inson va jamiyat kamolotiga xizmat qiladigan umuminsoniy g'oyalar ustuvordir. Shu bilan birga, inson ongida yangicha dunyoqarash va tafakkur tarzi shakllanayotgan hozirgi davrda muayyan kuchlarning mafkura maydonida hukmronlik qilishga, o'z ta'sir doirasini kengaytirishga qaratilgan intilishi kuchayib bormoqda. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va terrorizm, irqchilik va ekstremizm mafkurlari shular jumlasidandir. Xususan, turli shakllarda namoyon bo'layotgan terrorchilik kuchli moddiy asosga ega bo'lib, mafkuraviy xavfi ortib bormoqda. Bundan tashqari, e'tiqod umumiyligiga asoslanish (mas. panislomizm), etnik birlikka urg'u berish (mas. Panslavizm, paneronizm, panturkizm) va yagona ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy makonda yashash natijasida yuzaga kelgan bog'liqlik asosida (mas. pansovetizm) yakka mafkuralar hukmronligini ta'minlash va shu yo'l bilan jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olinishga urinishlar ham ko'zga tashlanmoqda. Lekin bular bugungi dunyodagi mafkuraviy jarayonlarni to'la-to'kis aks ettira olmaydi. Chunki globallashuv sharoitida bu jarayonlar yangicha tus va shakllarda namoyon bo'lib, g'oyaviy-mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib bormoqda. Bunday tahdidlarning xatarli jihati shundaki, I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, **“... agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab olish nihoyatda qiyin”**. Shuning uchun dunyoning mafkuraviy manzarasida yuz berayotgan o'zgarishlar mohiyatini teran anglash, tahlil etish va zarur xulosalar chiqarish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda geosiyosiy jarayonlar, ularning mintaqamiz va mamlakatimizga ta'siri masalalari, bu borada respublikamiz amal qiladigan tamoyillar Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida ayniqsa, “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” kitobida atroflicha tushuntirib berilgan. Mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatiga xos asosiy geosiyosi tamoyillar ana shu asosda amalga oshirilmoqda

Jahon hamjamiyatida O'zbekistonning er usti va er osti boyliklari, G'arb va Sharq orasidagi aloqalar markazi bo'lmish imkoniyati, Markaziy Osiyoda aholi, ishlab chiqarish imkoniyatlari, ilmiy salohiyat va boshqa jihatlardan etakchi mamlakat ekanligi rivojlangan mamlakatlarning geosiyosatida O'zbekiston bilan hisoblashish, u bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarni uzoq maqsadni ko'zlab o'rnatish zaruratini tug'dirdi.

Hozirgi dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasi, turli mafkuralar tortishuvi.

Geopolitika – tashqi siyosatda biron bir davlat yoki mintaqaning hududiy oʻrni, kommunikatsion imkoniyatlarini hisobga olib yuritiladigan qarashlar asosidagi faoliyat. U dastlab jamiyat taraqqiyotida geografik shart-sharoitlarning oʻrni yuqori darajaga koʻtarish tarzida namoyon boʻldi. Natijada ayrim davlatlarda “tabiiy sarhadlarni kengaytirish zarurati” tarzida ekspansiyani asoslovchi siyosiy kontsepsiya, deb qarashga olib keldi.

XX asr boshlarida geopolitika Germaniya, Italiya va Yaponiya kabi davlatlarda mustamlakachilik siyosatini oqlashga, milliy ozodlik harakatlarini bostirishga qaratilgan asosiy doktrinaga aylandi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin ayrim davlatlar dunyodagi qator mamlakatlarni oʻz manfaatlarini taʼsiriga kiritib, bu mamlakatlarda mustahkam oʻrnashib olish orqali oʻz taʼsir doiralarini kengaytirishdir. Oqibatda dunyo siyosiy xaritasida qarama-qarshi ikki qutb vujudga keldi. XX asrning 60 – yillariga kelib geopolitika, koʻproq AQSh va sobiq Ittifoq orasidagi kurashni asoslashga yoʻnaltirildi. Sovuq urush siyosati geosiyosiy yoʻllar va usullarga ham oʻz taʼsirini oʻtkazdi.

Ikkinchi masalaning bayoni.

Vayronkor gʻoyalar - bunyodkor gʻoyalarga zid boʻlgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan gʻoyalar majmuini ifoda etadigan tushuncha. Jamiyatni tubanlikka etaklab, odamlarni gʻarazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan gʻoyalar (oʻzining shaxsiy yoki ijtimoiy manfaatlarini oʻzgalar hisobiga qondirish, bosqinchilik, talonchilik va boshqalar. Vayronkor gʻoya insonparvarlik tamoyiliga zid boʻlgan, bir millatni boshqasidan ustun qoʻyadigan, oliy irq daʼvosida boshqa xalqlarni qirgʻin qilishga chaqiradigan, jamiyatni qarama-qarshi qutblarga ajratib, boʻlib tashlashga sabab boʻladigan gʻoyalar majmuidir. Aqidaparastlik va jangari irqchilik (rasizm), buyuk davlatchilik shovinizmi va ashaddiy millatchilik, fashizm, bolshevizm, terrorizm kabi mafkuralar vayronkor gʻoyalar jumlasiga kiradi.

EKSTREMIZM (*lot, extremus* – “ashaddiy”) — siyosatda ashaddiy qarash va choralarga moyillik. *Ekstremizm*ni vujudga keltiradigan omillar koʻp va xilmaxil. Ular orasida bir tuzumdan ikkinchi tuzumga oʻtish davrida yuz beradigan ijtimoiy tuzilmalarning buzilishi, aholi katta guruhlarining qashshoqlashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy tanglik kabi omillarni koʻrsatish mumkin. Bu omillar aholi turmush sharoitlarining yomonlashuviga olib keladi. Davlat hokimiyatining zaiflashuvi, davlat organlarining obroʻsizlanishi, ijro intizomining pasayib ketishi, qadriyatlar tizimining emirilishi, aksil ijtimoiy kayfiyat va harakatlarning kuchayib borishi ham *ekstremizm*ni vujudga keltiradigan sabablardan hisoblanadi. *Ekstremizm* aholining siyosiy va ijtimoiy kayfiyatidan mavjud ijtimoiy tuzilmalarni vayron qilish maqsadida foydalanadi. Ekstremistik tashkilotlar Konstitutsiya va boshqa qonuniy hujjatlarga zid tarzda faoliyat yuritadi. Shu maʼnoda, *ekstremizm* — huquqiy nigilizmning bir koʻrinishi hisoblanadi. XX asrning 80-90 - yillarida siyosiy *ekstremizm*ning namoyon boʻlish koʻlami kengaydi. Bu davrda odamlarni garovga olish, siyosiy qotilliklar, siyosiy partiyalar aʼzolariga qurolli hujumlar uyushtirish, anarxistik, shovinistik va neofashist guruhlarining faollashuvi kuzatildi. *Ekstremizm* siyosiy, psixologik, maishiy va boshqa koʻrinishlarda boʻlishi mumkin. *Siyosiy ekstremizm*ning ashaddiy koʻrinishi — terrorizmdir. Ekstremistlar odamlarga qiyinchiliklarni tezda bartaraf qilish, tartibni kafolatlash, ijtimoiy taʼminotni yaxshilash singari vaʼdalar beradi. *Siyosiy ekstremizm* "soʻl" va "oʻng" koʻrinishlarga ega. Soʻl ekstremistlar marksizm, leninizm, sul radikalizm, anarxizm va shu kabilar, mafkuralar bayrogʻi ostida harakat qiladi. Soʻl *ekstremizm*ga misol tariqasida Italiyadagi "Qizil brigadalar", Kampuchiyadagi polpotchilar, Rossiya Federatsiyasidagi E. Limonov boshchilik qilayotgan natsional bolsheviklar, singari oqimlarni keltirish mumkin. Oʻng ekstremistlar aksilkommunizm, avtoritarizm, millatchilik va shovinizm ruhida harakat qiladi. Oʻng ekstremistlar qator xalqaro tashkilotlar — Evropa ishchi partiyasi, Evropa oʻng kuchlari, Qora Internatsional, Frantsiyadagi "Milliy front" kabilarga birlashgan. Oʻng va soʻl ekstremistlar olib borayotgan faoliyat vakillik demokratiyasi manfaatlariga ziddir. Shuning uchun ham Gʻarb siyosatshunosligida "Yagona Ekstremizm", "Ikki Ekstremizm" va "Uch Ekstremizm" konseptsiyalari mavjud. "Yagona Ekstremizm" kontseptsiyasi kommunistik va fashistik diktaturalarning mavjudligidan kelib chiqadi. "Uch Ekstremizm" kontseptsiyasiga koʻra, fashizm –

tsengristlar ekstremizmi, kommunizm – sullar ekstremizm, gollizm esa – o'nglar ekstremizmidir. Portugaliyadagi Salazar rejimi o'nglar rejimi hisoblanadi. Diniy asoslarda vujudga kelgan ekstremistik guruh va oqimlar G'arbda ham, Sharqda ham mavjud. O'rta Osiyo mamlakatlarida, jumladan, O'zbekistonda "Hizb ut-tahrir", «Akromiya», «Nurchilar» singari diniy ekstremistik oqimlar vakillari qonunga zid holda faoliyat olib borishga urinmokda.

Musulmon davlatlarini yagona xalifalikka birlashtirish maqsadi - aqlga sig'maydigan safsata ekanligi. Vahhobiylik, "Hizb ut-tahrir", "Akromiylar ", "Tablig'chilar".

Vahhobiylik xatarli, reaksion diniy oqimdir. Ular odatda terror yoki davlat to'ntarishi yo'li bilan hokimiyatni olishga intiladi. Vahhobiylik tarafdorlari fikricha, faqat Alloh ma'bud, islomning manbai faqat Qur'on va Sunnadir. Muqaddas joylarni ziyorat qilish, aziz avliyolardan duolarda shafokat tilash shirk (butparastlik) hisoblanadi. Musiqa, qo'shiq va umuman ma'naviy taraqqiyotning boshqa ko'p ko'rinishlari "bid'at" sanaladi. Vahhobiylar "dinni tozalashga – Muhammad davridagi asl holiga keltirish" ga harakat qiladi.

Vahhobiylikda g'ayridinlarga, "ilk islom ahkomlaridan chekingan" musulmonlarga qarshi kurash alohida o'rin tutadi. Ularning da'vatini qabul qilmaganlarning barchasi go'yo "kofir" dirlar. Dastlabki vahhobiylar iymon masalasida o'ta mutaassibli, bilan ajralib turganlar. Vahhobiylik ta'limoti o'sha paytdayoq (XV asrda) norozilik tug'dirgan. Muhammad ibn Abdulvahhobni tug'ilgan joyi Uaynadan quvib chiqarishgan. Ammo bu ta'limot Arabiston yarim orolining markaziy qismida o'sha davrdagi mavjud muhit uchun qo'l kelib qoldi. Zero bu erda bir necha mayda sulolalar tomonidan boshqarilgan amirliklar doimo o'zaro nizolashib keldilar. Shunday sulolalardan biri – saudiyalar – taxminan IV asrdan beri ad-Dariyoni o'zlariga markaz qilib olib, atrofdagi amirliklarni birlashtirishga harakat qilardilar. Muhammad ibn Saud va uning o'g'li Abdulaziz vahhobiylar bayrog'i ostida Arabiston yarim orolining katta qismini kuch bilan egallab, birinchi Saudiylar davlatini barpo qildilar. Ammo bu davlat XIX asr boshida misrliklar istilosi natijasida quladi. Vahhobiylar Imom Sannusiy vositasida Jazoirda, Muhammad Abduh yordamida Misrda, Sharqiy Afrikaning Zanzibar mamlakatida tarqala boshladi. Sayid Ahmad esa Panjob va Shimoliy Hindistonda vahhobiylar davlatini barpo qilishga uringan. Ayni vaqtda vahhobiylar Arabiston yarim orolidan tashqarida – Hindiston, Indoneziya, Sharqiy va Shimoliy Afrikada siyosiy boshladi. XX asr boshida Abdulaziz ibn Abdurahmon Saudiylar davlatini tiklash uchun boshlangan harakatga rahbarlik qildi va hozirgi Saudiyat Arabistoniga asos soldi. 1979 yil noyabr oyida saudiyalik vahhobiychi Juxayman al-Utaybiy guruhi musulmonlarning eng muqaddas – Makkai mukarrama shahridagi "Masjid al-Haramni" bosib oldi. Masjidni egallagach, bu erga kelishi kutilgan podshoh Xolidni bandilikka olish, oralarida bo'lgan Mahdiy rahbarligida umumiy qo'zg'alon ko'tarish, dastlabki Saudiya Arabistoni, so'ng boshqa mamlakatlarda ham "haqiqiy" islom g'alabasiga erishish rejalashtirilgan edi. Saudiya hukumati qisqa muddatda bu harakatni bostirdi.

Vahhobiylik muayyan ko'rinishda O'zbekistonda ham paydo bo'ldi. Birinchi bo'lib ular 1989 yil Namangan shahridagi "Otavalixon" masjidini o'zlariga qarorgoh qilib oldilar, so'ng 1989-1990 yillarda Qo'qon va Andijon shaharlarida "Jome" masjidlarini zo'ravonlik yo'li bilan egalladilar. 1995 yil bu ikkala masjid faoliyati Adliya boshqarmalari tomonidan to'xtatilgach, vahhobiylar respublika bo'ylab siyosiy ketdilar. O'zbekistondagi vahhobiylar uzun saqol qo'yish, baland ovozda "omin" deyish bilan xanafiylik mazhabidagilardan ajralib turadilar. 1997 yil dekabrda Namangan shahrida sodir etilgan qotilliklar ularning amaliy "ish uslublari" sifatida namoyon bo'ldi. O'zbekiston hukumatining izchil siyosati tufayli vahhobiylik ko'rinishidagi aqidaparastlik harakati siyosiyilishining oldi olindi. arda

"Hizbut tahrir" – norasmiy diniy harakat.

"Hizbut tahrir" (to'la nomi "Hizbut tahrir al islomiy" – "Islom ozodlik partiyasi") – norasmiy siyosiyilashgan tuzilma (oqim). 1953 yilda Isroilda paydo bo'ldi. Asoschisi Taqiyo'ddin Nabahoniy (1909- 1979y.) "Hizbut tahrir" tuzilma jihatidan piramida ko'rinishida tashkil topgan. "Doris"lardan tarkib topgan "xalqa"dagi 4,5 kishi guruh rahbari – "mushrif"dan saboq oladi. Bunday kichik "xalqa" larga bo'linish, tashkilot asoschilarining fikricha, fosh bo'lish imkoniyatini mumkin qadar kamaytiradi. Mashg'ulot haftada kamida 1 marta o'tkazilishi shart. Bunday "darslarda" nomigagina diniy dars berilib, asosiy e'tibor yoshlar tarbiyasidagi ma'naviy bo'shliqdan foydalanib, ularning ongiga g'arazli siyosiy fikrlarni joylashga qaratiladi. Halqa a'zolari bir-birlarini faqat ismi yoki taxallusi orqali biladi.

Tashkilotga a'zo bo'layotgan nomzod har qanday sharoitda ham hizb faoliyati haqida ma'lumotni sir saqlashga qasam ichadi. Mintaqaviy rahbar – “mu'tamad”, butun dunyo bo'yicha “Hizbut tahrir” harakati rahbari, ya'ni “amir” tomonidan belgilanadi va viloyat darajasida ishlaydigan “mas'ul” hamda tuman miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi “musoid”ga rahbarlik qiladi. “Hizbut tahrir” ko'pgina musulmon davlatlari, jumladan, Misr, Iordaniya, Tunis, Iroq, Jazoir, Sudan, Yaman va boshqa davlatlarda o'z faoliyatini yashirin olib bormoqda. Bu tuzilmaga 2003 yilgacha falastinlik Abdulqadim Zullim, 2003 yildan boshlab Ato Abu Rushta rahbarlik qilmoqda. Mazkur diniy tashkilot 1992 yildan O'zbekistonda maxfiy faoliyat yurita boshladi. Hizbchilarning maqsadi tinch, osoyishta davlatda fuqarolar urushini boshlash, mamlakat iqtisodiy faoliyatini izdan chiqarish, millatlararo va dinlararo nizolarni keltirib chiqarish, mamlakatga qurol-yarog' va giyohvand moddalarni olib kirib, fuqarolarning tinch hayotiga raxna solish, mustaqil davlatni qurol-yarog' ishlab chiqaruvchi xorijiy mamlakatlarga qaram qilishdir. Bu diniy tashkilotning 3 kurash bosqichi bor. Bular:

1) tasqif – tushuntirish ishlari. O'ngi to'liq shakllanmagan yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirish. Fikri zaif, ta'sirga beriluvchan huquq tartibot organlari, hokimiyatlardagi mas'ul shaxslarni o'z tarafiga og'dirish;

2) tafoul – birgalikda harakat qilish, fikriy kurash orqali “ummatning oyoqqa turishi, fikriy ongliligi” yo'lida fikriy inqilobga etishish;

3) inqilob – to'ntarish, hukumatni ummat orqali qo'lga kiritish. “Hizbut tahrir”ning g'oyasi islom ta'limotidan uzoq hamda demokratik huquqiy davlat konstitutsiyasiga ziddir. U vijdon erkinligini suiste'mol etib, siyosiy hokimiyatga intilish yo'lini tutgan. “Hizbut tahrir” 1989 yildan turli tillarda “al-Va'y” (Ong) nomli oylik jurnal chiqarib, maxfiy ravishda tarqatib keladi. “Hizbut tahrir”ning rasmiy faoliyati arab davrlarida ta'qiqlangan. “Hizbut tahrir” tashkilotining markazi Londonda joylashgan.

“Tablig'chi” lar jamoasi kimlar?

“Tablig'” – tom ma'noda Allohning kalomini odamlarga etkazishni anglatadi. Bu oqimga XX asrning 20-yillarida Hindistonda Muhammad Ilyos tomonidan asos solingan. Oqimning maqsadi kishilarni islomga chorlash, islom arkonlarini to'liq amal qilishlari lozim ekanligini etkazish va ularning Alloh oldidagi mas'uliyatini oshirish. Har o'n “tablig'”chi uchun bir amir saylanadi, amirga bo'ysunishlik vojib hisoblanadi.

Hozirda ushbu oqim Pokistonda, ayniqsa, Karachi shahrida keng tarqalgan. Uning vakillari XX asrning 90-yillaridan O'zbekistonda ham o'z faoliyatlarini olib bordilar. Jumladan, Toshkent shahrining S.rahimov tumanidagi “Langar” masjidida “tablig'chilar” faoliyat olib bordi. Ular siyosatga aralashmasliklarini izhor etadilar. Biroq quyidagi sabablarga ko'ra mintaqa va xususan yurtimiz uchun xatarlidir.

1. Oqim islom arkonlarining bajarilishiga qaratilgan keskin da'vatlari, milliy urf-odatlarimizga zid beuxshov soqol qo'yib, uzun ko'ylak kiyishlari, namoz va boshqa ibodatlarni bajarishda yurtimizda ming yillar davomida ildiz otgan hanafiya mazhabiga qarshi harakatlar qilishlari fuqarolarning noroziliklariga sabab bo'ldi.

2. Oqim ko'rsatmalariga ko'ra, har bir “tablig'”chi yilda bir oy, oyida uch kun, haftada bir kunni Allohning yo'lida da'vatga sarf etishi kerak. Bu oqimga qo'shilib qolgan kishilarning o'z oila va ota-onalarini tashlab yuqoridagi muddatlarda viloyatlarga da'vat qilish uchun chiqib ketishlari yana bir qator noroziliklarni keltirib chiqarishi tabiiy.

3. Oqim da'vatchilari sayoz bilimga ega bo'lsalar-da, kishilarni islomga chaqirish uchun ilmiy asoslanmagan dalillarni ham keltiraveradilar. Bunday harakat kishilarda islom masalasida ham salbiy holatlarga olib kelishi mumkin.

4. Jamiyatda bunday keskin taassubga berilgan guruhlarining faoliyat yuritishi milliy va diniy nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Xalqaro terrorizm.

Terrorizm - siyosiy ekstremizmning ashaddiy ko'rinishi sifatida.

TERRORIZM (*lot, terror* – “qo'rquv”, “dahshat”) — yuksak ma'naviy tamoyillarga zid ravishda yovuz maqsadlar yo'lida kuch ishlatib, odamlarni garovga olish, o'ldirish, ijtimoiy ob'ektlarni portlatish, xalqni qo'rquv va vahimaga solishga asoslangan zo'ravonlik usulini anglatuvchi tushuncha. Qo'rqitish va dahshatga solish orqali o'z hukmini o'tkazishga urinish *terrorizmga* xosdir.

U siyosiy, iqtisodiy, diniy, g'oyaviy, irqiy, milliy, guruhiy va individual shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Ta'qib, zo'ravonlik, qo'poruvchilik va qotillik *terrorizmning* har qanday ko'rinishi uchun umumiy xususiyat bo'lib, bularning barchasi insonparvarlik g'oyalari, demokratiya, adolat tamoyillariga ziddir. Shuning uchun *terrorizm* qanday niqob ostida amalga oshirilmasin, mohiyatan, insoniyatga, taraqqiyotga, ezgulikka qarshi jinoyatdir. *Terrorizmga* hozirgi kunda aniq, hamma uchun tushunarli va mukammal ta'sirif berish oson emas. Chunki u o'ta murakkab fenomendir. Bundan tashqari, terrorchi kuchlarga bo'lgan turlicha munosabat unga aniq ta'sirif berishni ham qiyinlashtirmoqda. Terror usullaridan konservativ, inqilobiy, diniy, millatchi ruhdagi kuchlar ham foydalanishi mumkin, lekin ularning asosiy mohiyati va maqsad-muddaolari siyosiy tusga egadir. *Terrorizmning* umumiy jihatlari va asosiy ko'rinishlarini o'rganishda, avvalambor, uning ta'sirifini nisbiy bo'lsa ham, aniqlashtirib olish kerak. *Terrorizm* muayyan guruhning ruxsat etilmagan holatda ongli ravishda kuch ishlatishidir. Bunda terrorchilar aniq, maqsadni ko'zlaydi va o'zini to'la xaq deb biladi. Bundan shu narsa aniq bo'ladiki, terrorchilardagi mavjud kuch maqsadni amalga oshirishda ijtimoiy-siyosiy muhit bilan bevosita aloqadorlikda bo'ladi. Shuning uchun biron-bir sababga asoslangan yovuz maqsad *terrorizmga* olib boradi. *Terrorizm* ko'p holatlarda keng miqyosdagi harbiy kuchlar bilan aloqador bo'ladi va bunday misollar tarixda bir necha bor kuzatilgan. Bundan tashqari, u ba'zi davlatlarning o'zi tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda ikki xil shaklda kuch ishlatiladi: jazo berish organlari yoki harbiy kuchlar tomonidan. Bunda terror siyosiy maqsadlarni amalga oshirish yoki aniq bir rejimni joriy qilish uchun amalga oshiriladi. «**Terrorizm**» tushunchasi hamisha terroristik harakatning tez sur'atda amalga oshirilishini bildiradi. Bunday hodisa siyosiy, etnik, diniy va boshqa ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. **G'oyaviy terrorizm** siyosiy etakchilar tomonidan yaratiladi. Bunga rasmiy tor doiradagi istisno qilingan ichki sabablar ko'rsatiladi. **Etnik terrorizm** sub'ekti g'oyaviy bo'lmasdan, jamiyatning milliy va etnik jihatlari bilan uzviy bog'liqdir. **Diniy terrorizm** muayyan bir diniy sekta yoki guruh ta'limotining jamiyatda mutlaqlashtirilishi oqibatida paydo bo'ladi. Bunda ushbu g'oya tarafdorlari boshqalar fikri va g'oyalarini keskin tanqid ostiga olib, rad etadi va g'oyaviy mafkuraviy parokandalikni keltirib chiqaradi. **Diniy terrorizmning** xatarli jihati u qo'llaydigan amaliy choralarda ko'rinadi. Chunki **diniy terrorizm** tarafdorlari aksariyat hollarda qo'lida kurol va ba'zan harbiy guruhlarga tayanib harakat qiladi. Bugungi kunda yadroviy, biologik, bakteriologik qurollarning terrorchilar qo'lga tushib qolishi ehtimoli eng katta xavfdir. Hozirgi tahdikali zamonda kishilar boshiga mislsiz kulfat solayotgan va ularning hayoti, farzandlari, mol-mulkiga tahdid qilayotgan **jinoiy terrorizm** kundan-kunga kuchayib bormoqda va jahon hamjamiyatida jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Iqtisodiy manfaatlarni ko'zlaydigan va moddiy boyliklarni o'zlashtirishni maqsad qilib olgan bu **terrorizm** korrupsiya kabi katta jinoiy tizim bilan uzviy bog'lanib ketgan. Unda raqiblari yoki ularning yaqinlarini o'ldirish, o'g'irlab ketish, zo'ravonlik, tajovuz bilan qo'rqitib, o'z hukmini o'tkazishga urinish, mol-mulkini o'zlashtirib olish yo'llaridan foydalaniladi. Buning yana bir tomoni - ba'zan bu terror siyosiy, etnik, ba'zan esa diniy xarakter kasb etmokda. Mana shunday vaziyatda terrorchilarning maqsadi hokimiyatni egallashga ham qaratilib, piramidasimon xarakterga ega bo'lib bormoqda. **Individual terrorizmning** sub'ekti, boshqa *terrorizm* harakatlaridan farqli o'laroq, jamoa emas, yagona shaxsdir. Individual terror ham o'ta xavfli kuch xisoblanadi, negaki u jamiyatning boshqa a'zolariga ta'sir qilishi va buning oqibatida terrorning ommaviy turlarini keltirib chiqarishi mumkin. U o'z g'oyalarini singdirish orqali boshqalarni ham jamiyatga qarshi qo'yishi mumkin. Keyingi yillarda hatto ommaviy axborot sohasida ham *terrorizm* elementlaridan foydalanilmoqda. Muayyan mafkuraviy poligonlar tarqatayotgan axborotlardagi yovuz va zararli g'oyalar oqimi, teleekranlar orqali uzluksiz namoyish etilayotgan jangari filmlar, bolalarga mo'ljallangan, buzg'unchi g'oyalar asosida yaratilgan o'yinlar, kompyuter tarmoqlari dasturlarini ishdan chiqaradigan viruslar tarqatish shular jumlasidandir. O'zining yovuz niyatlariga erishish uchun hokimiyatni qo'lga kiritishni ko'zlaydigan kuchlarning zo'ravonligi va qo'poruvchiligi siyosiy terrorga misol bo'ladi. **Siyosiy terrorizm** nafaqat jinoyatchi guruhlar, hatto ba'zi tajovuzkor ruhdagi rasmiy reaksion siyosiy doiralar va kuchlar tomonidan uyushtirilishi va qo'llanishi ham mumkin. Chorizm imperiyasining kolonial va shovinistik siyosati, sovet imperiyasining g'oyaviy qatag'onlari xalqimizga qarshi o'ziga xos terror edi. Bugungi kunda ham mustaqil rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatimizga nisbatan g'araz niyat bilan qarovchi yovuz kuchlar *terrorizm* yo'li bilan taraqqiyot yo'limizdan chalg'itishga, bizni yana qaramlik va asoratga

solishga urinmokda. Ular vatanfurush xoinlardan ham, *terrorizmni* kasb qilib olgan, buyurtma bo'yicha qo'poruvchilik va bosqinchilik bilan shug'ullanadigan yollanma xalqaro terrorchi, jinoyatchi guruhlardan ham foydalanmoqda. Bugun jahon hamjamiyati bu baloqazolarning echimini topish ustida bosh qotirmoqda. Prezident Islom Karimov bu borada shunday degan edi: **"Men madaniyat va ma'rifat dunyoni jaholat va vahshiylikdan, diniy va milliy ekstremizmdan, etnik qarama-qarshilik, mintaqaviy mojaro va urushlardan saqlay olishiga ishonaman"**. *Terrorizmga* qarshi kurash hozirgi davrda muhim vazifa, tinchlik va barqarorlikni saqlash omiliga aylandi.

Uchinchi masalaning bayoni. **Xudbinlik, hasad, loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, korruptsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etishning ahamiyati.**

Bu o'rinda ana shunday salbiy xususiyatlarning eng xunuk ko'rinishi bo'lmish hasad to'g'risida to'xtalib o'tish joiz deb o'ylayman. Odamzot va jamiyat hayotida og'ir asoratlarni qoldiradigan hasad tuyg'usi avvalambor boshqalarni ko'rolmaslik, ularning yutug'idan quvonish o'rniga, qandaydir kuyinish, ichiqoralik oqibatida paydo bo'ladi.

Shuning uchun ham muqaddas kitoblarimizda hasad insoniylikka mutlaqo zid bo'lgan jirkanch odat sifatida qattiq qoralanadi. Jumladan, muborak hadislarda «Birovga hasad qilishdan saqlaning, chunki olov tinni qanday kuydirib tugatsa, hasad ham qilgan savob ishlaringizni xuddi shunday kuydirib tugatadi», deb aytilgani bejiz emas.

Azal-azaldan ochiq ko'ngil, samimiy va mehnatkash, yaxshilikni yuksak qadrlaydigan xalqimiz bunday illatlardan doimo hazar qilib keladi. Lekin, ming afsuski, umr yo'llarida hasad balosiga ko'p duch kelamiz. O'lis va yaqin tariximizda ne-ne buyuk zotlar hasad va baxillik, ko'rolmaslik tufayli qanday azob-uqubatlarni boshidan kechirgani, sog'lig'i, hatto hayotidan judo bo'lganini achchiq misollarda ko'rish mumkin.

Yosh avlodimizni turli ma'naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda, nafaqat xalqimizni ulug'laydigan buyuk xususiyatlar, ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, eski zamonlardan qolib kelayotgan noma'qul odatlar haqida ham ochiq so'z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, korruptsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish to'g'risida o'ylashimiz lozim. Men bu o'ta muhim vazifa keng jamoatchiligimizning, ayniqsa, ziyolilarimiz, olim va adiblarimiz, san'at va madaniyat ahli, o'zini ma'naviyat sohasiga bag'ishlagan barcha insonlarning doimiy diqqat markazida bo'lishini istardim. (119-120-betlar)

"Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmokda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli baloqazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda", — deydi Yurtboshimiz, — "Bu haqda fikr yuritganda, bizning ulug' ajdodlarimiz o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o'rinli, deb bilaman. Ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadi, desak, o'ylaymanki, xato qilmagan bo'lamiz" ("Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch", T.: "Ma'naviyat", 2008 y., 117-118-6.).

To'rtinchi masalaning bayoni. Ma'naviy mezonlarning nisbiyligi yaxshilik va yomonlikning turli jamiyatlarda turlicha tushunilishi bilan bog'liq. Ma'lumki, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida ko'pgina G'arb mamlakatlarida ma'naviy buzg'unchilik (pala-partish jinsiy munosabatlar, giyohvandlik, nikohsiz oila, ommaviy behayo kliplar, axloqsizlik, zulm va zo'ravonlikni targ'ib etuvchi filmlar va boshqalar) jamiyat hayotining barcha jabhalarida yaqqol namoyon bo'la boshladi. Amerikalik yapon millatiga mansub olim F. Fukuyama «Buyuk uzilish» (2003) asarida G'arb og'ir kasallikka yo'liqqan, uning ilk alomatlari 1960 yillarda paydo bo'lgan, degan xulosaga keladi. F. Fukuyamaning nazarida, uning asosiy alomatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: 1. Jinoyatchilikning o'sishi. «Jinoyatchilikning urushdan keyingi to'loqining ko'tarilishi taxminan

1963 yillarga to'g'ri keladi, o'sha vaqtdan beri u yanada shiddat bilan tezlashdi». 2. Oila inqirozi. «Nikoh va bolalar tug'ilishi kamayib ketdi; ajralishlar soni ko'paydi; AQShdagi har uchta boladan bittasi nikohsiz tug'ilmokda, butun Skandinaviyada esa tug'ilayotgan bolalarning yarmidan ko'pini nikohsiz tug'ilganlar tashkil etadi". 3. Aholi sonining kamayishi (depopulyatsiya). Demografik portlash muammosi faqat «Uchinchi dunyo» mamlakatlariga xosdir, ayni paytda «barcha rivojlangan mamlakatlarda umuman qarama-qarshi muammo – ular aholisining qisqarishi masalasi kun tartibida turibdi», uzoq umr ko'rish jamiyatning nafaqaxo'rlardan iborat bo'lib qolishi va ularni ta'minlash masalasini keltirib chiqaradi. 4. Ijtimoiy tarqoqlik – shaxsning hayotdan ajralib qolgani, munosabatlarning keskinlashuvi, kishilar o'rtasida yolg'iz yashashga moyillik kuchayishi. F. Fukuyama G'arb jamiyati duch kelgan kasallikning sabablari haqida to'xtalib, ular oilaning inqirozga uchragani bilan bog'liq, degan xulosaga keladi.

"Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmokda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda", — deydi Yurtboshimiz, — "Bu haqda fikr yuritganda, bizning ulug' ajdodlarimiz o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o'rinli, deb bilaman. Ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadi, desak, o'ylaymanki, xato qilmagan bo'lamiz" ("Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch", T.: "Ma'naviyat", 2008 y., 117-118-6.).

G'arb jamiyatida axloqiy buzuvchilikning kuchayishi, internet, kabel TVsi orqali behayo filmlarning namoyish etilishining salbiy asoratlari: gomoseksualizm, sadizm va mazoxizmning targ'ib qilinishi.

D. Vilkersonning «His etish» kitobida G'arb jamiyatida «axloqiy buzuvchilikning kuchayishi», kabel TVsi orqali behayo filmlarning namoyish etilishi, gomoseksualizm, sadizm va mazoxizmning targ'ib qilinishi tobora keng o'rin olayotgani ta'kidlanadi. Bularning barchasi, avvalo, yoshlarning dunyoqarashi, axloq-odobi, ma'naviyatiga salbiy ta'sir etishi shubhasiz. G'arb ommaviy madaniyati, g'arbona qarash, g'ayriaxloqiy xatti-harakatlarni targ'ib etishda yirik kinokorporatsiyalar, xususan, Gollivudning ham "xizmatlari" yo'q emas, albatta. Prezidentimiz Islom Karimov "ommaviy madaniyat" niqobi ostida bizning yurtimizga ham kirib kelayotgan bunday xavf-xatarlardan doimo ogohlantirib keladi.

Loqaydlik.

Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qaerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha erda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha qaerda xushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha erda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi,-deb yozadi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" kitobida.

Haqiqatdan ham XXI asr mo'jizaviy taraqqiyot asri, texnika va texnologiyalar sohasida inqilobiy o'zgarishlar yasagan yuzyillik bo'lib qolishiga shubha yo'q. Ayni paytda insonning o'zligidan, bir-biridan, bir-birining tashvishidan misli ko'rilmagan darajada yiroqlashish asri bo'lishi ham ehtimoldan holi emas. Atrofimizda har kuni yuz berayotgan ko'plab katta-kichik voqea-xodisalar, beparvolik va loqaydliklar shundan dalolat berib turibdi.

Bir bolaga etti mahalla ota-ona, degan ko'hna maqolimiz bor. Demak har birimiz shu Vatan, shu yurt uchun, uning musaffo ertasi uchun mas'ulmiz. Donolardan biri "beparvolik tufayli dunyoda hiyonat va qotilliklar mavjud" degan edi. Yurtboshimiz ham o'zlarining "Ma'naviyat – engilmas kuch" asarida bu haqda shunday yozadilar: **"Men har qanday yovuzlikni sotqinlikdan ko'raman. Ezgulik va haqiqatga sadoqati bo'lmagan, ularga ishonmagan odam qo'rqinchlidir"**. yonidagi bemorga e'tiborli bo'lish, xayr-saxovatni unutmagan, ota-onasi, ajdodlari qabrini ziyorat qiladigan odam ezgulikni kasb qilgan odamdir. Farzandlarimizga ezgulik sifatlarini yuqtirmasak, ajdodlarimizning bu boradagi oliyanobligini aytib turmasak, ular loqayd va beparvo bo'lib ketaverishi mumkin.

Daunshifting (ingl. downshifting, avtomobil tezligini pasaytirish, u yoki bu jarayonni sekinlashtirish, sustlashtirish). Termin «o'zi uchun yashash», “boshqalar bilan bog'liq maqsadlarni rad etish” falsafasining maqsadini ifodalaydi.

Daunshifterlar jamiyat tomonidan qabul qilingan qadriyatlardan yuz o'girgan, umum manfaatlaridan, jamiyat farovonligi, tinchligi kabi qadriyatlar uchun mehnat qilish o'rniga o'zi uchun yashashni ustun qo'yadi.

Boshqacha qilib aytganda daunshifting bu — doimo bir tomondan daromad bilan stress, ikkinchi tomondan — kam zo'riqish evaziga erishiladigan halovat o'rtasidagi tanlovdan iborat. Daunshifterlar biznes yoki zo'riqtiradigan, asabiylashtiradigan ishni tashlab, o'zi yoki oilaviy hayot uchun ko'proq vaqtga ega bo'lishni afzal ko'rishadi.

Daunshifting mafkurasi va tushunchasi XX—XXI asrlarda G'arbiy Evropada paydo bo'ldi. Keyinchalik Rossiyaga kirib keldi. Hozirgi kunda Rossiyada daunshifterlar hamjamiyati faoliyat yuritmoqda. Mafkuraviy jihatdan xippiga, falsafiy jihatdan nyu-eyj, buddizmga yaqin oqim bo'lib hisoblanadi.

Daunshifting vakillari o'zlarini “iste'mol jamiyati” ideallariga qarshi protest bilan chiquvchilar deb biladilar. “Iste'mol jamiyati”ni insonni shaxs sifatida rivojlanishiga qarshi turishda — “odamning odamiylikdan begonalashtirishda” ayblaydilar.

«Daunshifting» tushunchasi birinchi marta 1994 yili nyu-yorkdagi Trends Research Institute nashrida paydo bo'ldi. Keyinchalik u Buyuk Britaniyada, Avstraliyada va AQShda keng tarqalib ketdi.

Tarixda ayrim kishilarning o'z ma'naviy kamolotlari yo'lida kar'eradan, ijtimoiy statusdan, boylikdan voz kechganligiga misollar ko'p uchraydi. Misol uchun bundan 2500 yil ilgari Shakya - Muni urug'i vakili shahzoda Siddxartxa Gautama (Budda), monaxlik uchun o'z uyi, oilasi, merosi, mulkidan voz kechib, azoblardan qutulish yo'llarini o'rganishga o'zini bag'ishlagan.

Daunshiftingga misollardan biri sifatida yozuvchi Genri Devid Toroning “Uolden, yoki o'rmondagi hayot” kitobida tasvirlangan hayotni keltirish mumkin.

5 MAVZU MAFKURAVIY TAJOVUZ VA AXBOROT XAVFSIZLIGI.

REJA.

1. Mafkuraviy tajovuz va unga qarshi milliy xavfsizlikni ta'minlash zarurati. Mafkuraviy gegemonizmning vujudga kelishi.
2. Mafkuraviy xurujlarning namoyon bo'lishi va unga qarshi ximoya (profilaktika) vositalari.
3. Internet mafkuraviy xuruj ob'ekti. Virtual mafkuraviy xurujning oqibatlari.
4. Geosiyosiy manfaatlar axborot xavfsizligi omili. Biosiyosatda axborot xurujlariga irsiy munosabatning namoyon bo'lishi.

1. Mafkuraviy tajovuz va unga qarshi milliy xavfsizlikni ta'minlash zarurati.

Mafkuraviy gegemonizmning vujudga kelishi.

“ Mafkuraviy tajovuz” tushunchasi muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tuzumni zaiflashtirish va buzishga yo'naltirilgan, shaxs va jamiyat xavfsizligi, ma'naviy, ruhiy dunyosiga tahdid soluvchi g'oyaviy-nazariy qarashlar va shunga asoslangan amaliyot majmuini ifodalaydi. Uning mazmun-mohiyati, zararli oqibatlari va ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish zarurligi Prezident Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat — engilmas kuch» asarida har tomonlama va ishonchli dalillar asosida ko'rsatib berilgan. Ushbu asarda ta'kidlanganidek, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlar ma'naviy tahdid hisoblanadi. Ma'naviy tahdid vayronkor kuchlarning o'z moddiy, siyosiy

manfaatlarini ko'zlagan holda har xil markazlar tomonidan biron-bir mamlakatga nisbatan ichkaridan yoki tashqaridan turib bevosita amalga oshiriladigan ma'naviy buzg'unchilikning muayyan shaklidir. Ular o'z maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning ma'naviy-ruhiy hissiyotlari, milliy tuyg'ulari, har qanday jamiyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy muammolardan, shuningdek, zamonaviy texnologiya, telekommunikatsiya, OAV, Internetdan ustalik, g'irromlik, noxolislik bilan foydalanishga harakat qiladi. Hozirgi davrda ma'naviy tahdid deganda, aholining ayrim qatlamlari, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbiga ta'sir qilib, ularning qarashlarini o'zlariga ma'qul yo'nalishda o'zgartirish, diniy ekstremizm, vayronkorlik, buzg'unchilik, axloqsizlik g'oyalarini zimdan targ'ib-tashviq etib singdirish kabi g'arazli maqsadlar anglanadi. Ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tajovuz, tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligi, uning milliy manfaatlari, jismonan va ma'nan sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin. Ma'naviy tajovuzkorlar ko'pincha turli niqoblar, jozibali shior va g'oyalar niqobi ortida ish ko'radi. Bunday kuchlar ixtiyorida juda katta moddiy, moliyaviy resurslar va imkoniyatlar mavjud bo'lib, ular puxta o'ylangan hamda davomli maqsadlariga xizmat qilmoqda. Hozirgi davrda dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida katta ma'naviy yo'qotishlar yuz bermoqda, millatlarning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqmoqda, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolmoqda. Eng yomoni, bunday ma'naviy xurujlarning pirovard maqsadi odamni o'zi tug'ilib o'sgan yurti va xalqidan tonishga, vatanparvarlik tuyg'ularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayd bo'lgan shaxsga aylantirishga qaratilgan. Xudbinlik va loqaydlik, mahalliychilik, korruptsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik, hasad, sotqinlik singari illatlar ham ma'naviy tahdidlar tarkibiga kiradi. Prezidentimiz ogohlantirgani kabi, hozirgi davrda turli eski va yangi g'oyalar kurashi har qachongidan ham ko'ra shiddatli tus olmoqda. Rang-barang, ba'zan bir-biriga mutlaqo zid dunyoqarashlar siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o'rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib, qonli to'qnashuvlar, ommaviy qirg'inlarga sabab bo'lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg'u-kulfatlar solmoqda. Bu tortishuvlardan ko'zlangan asosiy maqsad – inson, avvalambor, yoshlar qalbini egallash, muayyan mamlakatyoki mintaqadagi biror mamlakatyoki xalqning ongiga, uning sezgi-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish, uni o'z dunyoqarashiga bo'ysundirish, ma'naviy jihatdan zaif va tobe' qilishdan iboratdir. Ma'naviy tahdid va xatarlarga qarshi o'z vaqtida qat'iyat va izchillik bilan kurash olib borilmasa, turli zararli oqimlar O'zbekistonga ham shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlarni o'z girdobiga tortib ketishi, oqibatda ular ota-ona, el-yurt oldidagi burchi va mas'uliyatini o'ylamaydigan, faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan xudbinlarga aylanib qolishi mumkin. Bizga ma'naviy-mafkuraviy tahdid solishi mumkin bo'lgan ayrim tashkilotlar o'rta asrlarda mavjud bo'lgan musulmon xalifaligini tiklash yo'lida faoliyat ko'rsatmoqda. Albatta, bundan o'n to'rt asr burungi voqelikni bugun amalda qayta tiklab bo'lmazligi ayon. Lekin ularning niyati – yagona ma'naviy-mafkuraviy makon barpo etib, islom dinini siyosiyashtirish va shu asosda hukmronlik qilish, hokimiyatni qo'lga kiritishdan iborat. Hozirgi davrda xalifalik kabi, «erkin demokratiya» va turli «ochiq jamiyat modellari»ni eksport qilish, jamiyat va davlat qurilishining «universal loyiha»larini tashqaridan import qilish yoki tiqishtirish yo'lidagi urinishlar ham ma'naviy tahdid sifatida baholanmog'i lozim. Aslida, insoniyat tarixida barchaga birdek ma'qul bo'ladigan boshqaruv modeli hech qachon bo'lmagan. Ma'naviy tahdidning «ommaviy madaniyat» niqobi ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish va shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan shakllari ham mavjud. Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar taraqqiyot va yoshlar tarbiyasiga tajovuz qilmoqda. Ma'naviy tahdid shakllarining aksariyati informatsion xuruj va uydirmalarni tarqatish orqali yuz bermoqda. Bugungi kunda tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashimiz zarur. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin. Hozirgi davrda har birimiz ma'naviy tahdidlarga

nisbatan loqaydlik, beparvolik va beg'amlik illatidan xalos bo'lishimiz, har bir fuqaro yurtimizda, jahonda sodir bo'layotgan har qanday voqea, hodisa, jarayonlar menga, mening taqdirimga bevosita daxldor deb hisoblamog'i darkor. **«Shu bois hozirgi o'ta murakkab bir zamonda xalqaro maydonda sodir bo'layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga etib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo'lish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi»¹** Ma'naviy tahdidlarning oldini olishda shu sohadagi targ'ibot va tashviqot muhim o'rin egallaydi. Bu avvalo, muayyan guruh, millat, jamiyat, irq, etnik guruh, hudud xalqlariga ma'naviy tizim va tamoyillarni singdirishga qaratilgan tizimli va maqsadli ma'rifiy faoliyatni ifodalaydigan jarayondir. Shu bilan birga «Ma'naviy targ'ibot» yurtimizdagi turli millat, ijtimoiy toifa, kasbu korga mansub bo'lgan kishilarni ma'naviy tajovuzlardan ogohlikka chorlash, mavjud xavf va tahdidlarning mohiyatini anglab etish, ular haqida jamoatchilik fikrini shakllantirish, eng muhimi, milliy g'oya asosida xalqni birlashtirish, jipslashtirish, yosh avlod ongi va qalbida ezgu g'oyalarga sadoqat tuyg'ularini tarbiyalashga qaratilgan usul va amaliy harakatlar majmuini anglatadigan tushuncha hamdir.

Odamlar qalbi va ongida yuksak insoniy tuyg'ularning qaror topishi, jamiyatda olijanob fazilatlar ustuvor bo'lishida «ma'naviy targ'ibot» tushunchasi muhim ahamiyatga ega. «Ma'naviy targ'ibot» tushunchasi aslida ta'lim-tarbiyaning muhim ko'rinishidir. «Targ'ibot» atamasining o'zagini «rag'bat» so'zi tashkil etgani bois, u insonni biror harakatga rag'batlantirishni nazarda tutadi. «Tashviqot» tushunchasining o'zagi esa «shavq» so'zidan olingan bo'lib, u kishida biror narsaga shavq, ishonch tuyg'ularini uyg'otishga yo'naltirilgan. Demak, targ'ibot-tashviqotdan ko'zlangan asosiy maqsad – nafaqat bilim orttirish, balki kishini biror-bir xatti-harakatga undashdan iborat. Kishilar ongini eski tuzum asoratlaridan xalos etish, ular qalbiga yangicha tafakkur, yangi g'oyalarni singdirish uzoq davom etadigan jarayondir. Ma'naviy targ'ibot-tashviqotning ikki an'anaviy yo'li mavjud. Birinchisi – insoniy fazilatlarini ulug'lash, yuksak ma'naviyatli kishilar hayoti va faoliyatini ta'sirflash, ularni ibrat, namuna qilib ko'rsatish orqali kechadi. Ikkinchi yo'l esa illatlarni qoralash, ulardan xalos bo'lishga da'vat, targ'ib-tashviq orqali amalga oshadi. Bu vosita birinchisiga nisbatan samaraliroq. Shu sababli ham erishilgan yutuqlarni xolisona e'tirof etib, yo'l qo'yilgan kamchiliklar tanqidiy n.nazardan baholanishi lozim. Jamiyatni ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi qator muhim masalalardan iborat. Ushbu bunyodkor g'oyalar ongi va qalbiga singdirilgan jismoniy va ma'naviy sog'lom avlodni voyaga etkazish esa bir yillik yoki o'n yillik ish emas, bunga hatto bir avlod umri ham kamlik qiladi. Buni anglab etmaslik, qandaydir xomxayollar bilan engil-elpi targ'ibot-tashviqot yuritish ko'zda tutilgan katta maqsadlarni obro'sizlantirib qo'yadi. Barkamol farzand sog'lom oilaviy muhitda voyaga etadi. Bunga erishish uchun – birinchi navbatda, ma'naviy targ'ibot-tashviqot ishlarini ota-onalar ongi, ularning farzandlariga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga yo'naltirmoq lozim. Ma'naviy targ'ibot-tashviqotda ulug' ajdodlarimizning hayot yo'li, qoldirgan merosini bir yoqlamalikka berilmay, to'g'ri va haqqoniy aks ettirmog'imiz darkor. Lekin, bunda faqat o'tmishdagi siymolar bilan cheklanib qolmay, bugungi kun qahramonlari, ilg'or zamondoshlarimizdan o'nak olish ham muhim ahamiyatga ega. Toki, ular yoshlar uchun tom ma'noda ibrat namunasi bo'lsin. Chunki, targ'ibot-tashviqotda faqat o'tmishdan misol keltirish bilan cheklanib qolinsa, bu – kechagi kun bilan yashash bo'ladi. Ma'naviy targ'ibot-tashviqot borasida eski davrdan qolgan quruq, siyqasi chiqqan va'zxonlikdan voz kechib, yurt bugun boshidan kechirayotgan murakkab va mashaqqatli hayot haqiqatiga tayanib, jamoatchilik fikrini shakllantirishning eng zamonaviy, ta'sirchan usul-uslublaridan foydalangan holda ish olib borishni hayotning o'zi talab qilmoqda. Shu sababli ham ma'naviyat targ'ibotchilari, ijtimoiy soha olimlari, mutaxassislar, ilg'or fikrli ziyolilar milliy g'oyaning asosiy maqsadlarini xalqqa sodda, haqqoniy, tushunarli tarzda ifodalab berishlari muhim ahamiyatga ega. Buning uchun nima, qanday targ'ib qilishni aniq va puxta tasavvur etmoq ma'naviy oziq nimadan iborat bo'lishini, uni odamlar ongiga qay tariqa etkazish usullarini ishlab chiqmoq darkor. Ma'naviy oziqning mezoni haqiqat va faqat haqiqat bo'lishi zarur. Ya'ni, xalqqa bor haqiqatni ochiq aytib, shunga ko'ndirish, ishonchini qozonish va shu asosda uni yangi

maralarga intilishga rag'batlantiriladi. Har qanday tarbiyada, hatto yuksak rivojlangan demokratik tarbiya tizimida ham ozmi-ko'pmi bajarilishi shart bo'lgan belgilar mavjud. Masalan, bola go'dakligidan biror ezgu fazilatga o'rgatilmasa, kerak bo'lsa, majbur qilinmasa, yuz-qo'lini yuvmaslik, kattalar gapini bo'lish singari qusurlar unga odat bo'lib qoladi. Xalqimizga azaldan xos bo'lib kelgan andisha, ota-onaga hurmat, ilm-ma'rifatga intilish kabi olijanob fazilatlar ham o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Ma'naviy targ'ibot-tashviqot ishlarida har bir ixtisos, har bir yo'nalish bo'yicha mutaxassislardan foydalanish kerak. Shundagina har bir ko'rsatuv, eshittirish, ma'ruza, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mazmun-mohiyati bilan odamlar qalbiga va ongiga etib boradi. Ma'naviyat targ'iboti o'tkinchi, mavsumiy holga aylanib qolmasligi ham lozim. Bugungi murakkab ma'naviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganligini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, ma'naviy tajovuzlar mohiyatini ochib berish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Faqat ana shunday asosda aholi, ayniqsa, yoshlarni o'z fikriga ega, ma'naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir, irodali, fidoyi, vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin. Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyat ma'naviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari hamda targ'ibotchi-tashviqotchilar uchun tegishli tavsiya va qo'llanmalarni tayyorlash bu boradagi muhim vazifalar tarkibiga kiradi. Ma'naviy targ'ibot-tashviqotda keng qamrovlilik, uzluksizlik, bosqichma-bosqichlik, me'yoriylik, shaxsiy ibrat singari tashkiliy tamoyillarga amal qilingan taqdirdagina ko'zlangan samaraga erishish mumkin.

Gegemonizm (*yunoncha, gegemoniya – “etakchilik”, “boshqarish”*) — turli sohalarda, jumladan, ma'naviy sohada ham ustunlik va o'z hukmiga bo'ysundirishni anglatuvchi tushuncha. *Gegemonizm* mohiyatan dunyo barqarorligini ta'minlash yoki uni mustahkamlashga qaratilgan siyosatga zid hodisa bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot, jamiyat barqarorligi va xavfsizligini izdan chiqaradi. Ba'zi davlatlarning barcha sohalarda ustunlik qilish va dunyoni o'z hukmiga buysundirishga intilishi insoniyat tarixining turli bosqichlarida salbiy oqibatlarni keltirib chiqargan. *Gegemonizm* biron-bir qudratli kuchning manfaatlarini ustuvor darajada, bir tomonlama ta'minlash maqsadini ko'zlagani sababli u boshqa tomonning manfaatlariga zid bo'lib, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanishga putur etkazadi. Bunday adolatsizlik etarli imkoniyatga ega bo'lmagan davlatlar va millatlarning xalqaro jarayonlarda to'laqonli ishtirok eta olmasligiga sabab bo'ladi. Natijada, tabiiy ravishda bunday mamlakatlar xalqlarida gegemonlikka intilgan davlatlar va xalqlarga nisbatan nafrat, norozilik kayfiyati paydo bo'ladi, dunyo hamjamiyatining barqaror rivoji davlatlararo munosabatlarga salbiy ta'sir etadi.

Mafkuraviy tahdidlar. Bu turga kiruvchi tahdidlar keng qamrovligi va uzoqni ko'zlovchi xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Mafkuraviy tahdidlarning bugungi kunda quyidagi ko'rinishlari ko'zga tashlanmoqda: milliy qadriyatlarni kamsitish, milliy axloq qoidalarini inkor qilish, mo'tadil qarashlarni pisand qilmaslik va bularning o'rniga muayyan mafkuraviy markaz yo'riga yurish, kosmopolit qoidalarini maqtash, yot va begona g'oyalarni, dunyoqarashni mutlaq haqiqat sifatida targ'ib qilish. Diqqat qilinsa, ijtimoiy ongda zararli maqsad-muddaolarni, tuyg'u va fikr-mulohazalarni hosil qilish mafkuraviy tahdidlarning negizini tashkil qiladi.

Mafkuraviy tahdidlar **“biz uchun mutloqo begona mafkura va dunyoqarashni avvalo beg'ubor yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir”**.¹ Misol uchun, biz uchun begona *dunyoqarashlardan biri* – mutaassiblikdir. Unga ko'ra, shaxs o'z tushunchalarini mutlaq haqiqat deb qabul qiladi va o'zga qarashlarni esa asossiz inkor etadi.

Zero, biz uchun yot bo'lgan mafkuralarda axloqsizlikni ideallashtirish va biz uchun yot bo'lgan dunyoqarashlarda esa mutassiblik, aqidaparastlikni tiqishtirish ko'zga tashlanadi. Bir so'z bilan aytganda, yot mafkuralarda ma'naviyatni zaiflashtirib gegemonlik qilish va yot dunyoqarashlarda esa dogmatik fikrlar vositasida shaxs ongini diniylashtirish ustuvor darajada namoyon bo'lmoqda.

¹ Shu manba. 14-bet.

2. G'oyaviy tahdidlar. Bu turga kiruvchi tahdidlar inson ma'naviy olamida yot g'oyalar, qarashlar va maqsad-muddaolarni shakllantirishga intiladi. Bugungi kunda g'oyaviy tahdidlarning quyidagi ko'rinishlari namoyon bo'lmoqda: axloqiy buzqlik, zo'ravonlik, egotsentrizm, individualizm, "ommaviy madaniyat", milliy davlatning taraqqiyot modeliga ishonchsizlik uyg'otish, milliy nizolar keltirib chiqarishga urinish, iqtisodiy tanglik joriy qilish, qo'shni davlatlarni bir-biriga qayrash, yoshlar ongini zaharlash. Bundan ko'zlangan maqsad rivojlanayotgan davlatning moddiy va ma'naviy boyliklariga egalik qilishdir. Chunki g'oyaviy tahdidlar oxir-oqibatda davlatni inqirozga olib keladi, nega deganda, buning natijasida fuqarolarda xudbinlik, loqaydlik, manfaatparastlik, hasad, sotqinlik, irodasizlik, beparvolik kabi ijtimoiy-axloqiy illatlar kelib chiqadi.¹

3. Informatsion tahdidlar. Bu turdagi tahdidlar insonning ijtimoiy ongini noto'g'ri shakllantirish va shu tariqa o'zligiga ega bo'lmagan olomonni tarkib toptirishni ko'zlaydi. Bugungi kunda informatsion tahdidlar asosan Internet vositasida chetdan turib uyushtirilmoqda va uning asosiy ko'rinishlari quyidagilardir: davlatning milliy siyosatini atayin tanqid qilish, soxta xabarlar tarqatish, kichik muammoni katta (yirik) muammo sifatida tasvirlash, muxoliflarni gij-gijlash, rahbarlarni zolim qilib ko'rsatish, milliy qadriyatlarni noto'g'ri talqin qilish, yoshlarni chalg'itish. Informatsion tahdidlar – ba'zida *axborot xuruji* deb ataladi – shaxsni ikkilantiradi, uni muammolar girdobiga tashlaydi. Natijada fuqarolarning ijtimoiy ongi zaharlanib, jamiyatda ijtimoiy xastalik vujudga keladi.²

Shunday qilib ma'naviy tahdidlarning mazmun-mohiyati, ko'rinishlari va xususiyatlarini anglab olish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Shundagina jamiyatda ularga qarshi kurashish ruhini tarkib toptirish mumkin.

Ma'naviy tahdidlarni bartaraf qilib borishga doir bir qator qarashlar tizimi mavjud. Albatta, ijtimoiy-falsafiy va ilmiy adabiyotlarda *ma'naviy tahdidlar* tushunchasi davr taqozosi va tarixiylik nuqtai nazardan "tahdid", "xavf-xatar", "qo'rquv" kabi bir necha atamalar bilan tilga olingan. Buni e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. Bu o'rinda ma'naviy tahdidlarni bartaraf qilishga doir eng muhim qarashlarni tahlil qilish bilan cheklanamiz.

Ma'naviy tahdidlarni bartaraf qilish muammosi Prezidentimiz Islom Karimovning doimiy diqqat-e'tiborida bo'lib kelmoqda. Davlatimiz rahbarining kontseptsiyasiga ko'ra, ma'naviy tahdidlarni "fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya va jaholatga qarshi ma'rifat bilan" bartaraf qilish mumkin.³ Bu muhim qarash bo'lib, hozirgi ma'naviy-mafkuraviy faoliyatimizda metodologiya vazifasini o'tamoqda.

1. Fikrga qarshi fikr.

Har bir kishida haqqoniy va asosli mustaqil fikr hamda dunyoqarashni shakllantirish kerak. Buning uchun uning bilim va ma'lumotlilikini oshirish muhim ahamiyatga ega. Inson Internet xabarlarini o'qish, DVD, CD ko'rish bilan bilimli va zamonaviy madaniyatli bo'lib qolmaydi. Avvalo, ilmiy-nazariy bilimlarni egallash talab etiladi. Qadimiy obidamiz "Avesto"da "Bilim – ko'zning chirog'i", –deb uqtirilgan.⁴ Buning ma'nosi shuki, faqat bilim vositasida insonning ko'zi ochilishi, ya'ni mustaqil fikr va dunyoqarashga ega bo'lishi mumkin. Faqat mustaqil fikrga va dunyoqarashga ega bo'lgan odam biryoqlama, g'arazli va zararli fikrlarni farqlay oladi. Bu – "fikrga qarshi fikr" tamoyilining mazmunidir.

2. G'oyaga qarshi g'oya. Inson ongida uning o'zi va o'zgalarga manfaat keltiradigan tushunchalar tarkib topishi kerak. Biror shaxs insonda ezgulikka nisbatan yovuzlikning ustuvor bo'lishini isbotlab berolgan emas. Aksincha, insonning beg'ubor bolalik davrini boshdan kechirishi uning ongida ezgulik ustuvor ekanini ko'rsatadi. Shuning inson ongi yovuz va johil g'oyalardan himoya qilinishi kerak. Jamiyatimizda bu ish milliy g'oya asosida amalga

¹ Yana qarang: Kuchuradi I. *Filosofiya pered litsom mirovix problem.* // Voprosi filosofii. 2004. № 3. –s. 5-11. Faniev A. *Farb olamidagi axloqiy muammolar.* –T.: "Voriz". 2007 va h.k.

² Yana qarang: Grinin L.E., Korotaev A.V. *Sotsialnaya makroevolutsiya i istoricheskiy prtsess.* // Filosofiya i obshestvo. 2007. № 2. –s. 19-66. Jyraev T. *Milliy davlatchilik va xavfsizlik.* –T.: "Akademiya". 2007. va h.k.

³ Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.* –T.: "Ma'naviyat". 2008. 119-bet.

⁴ Izvedat dorogi i puti pravednix. *Pexlevskie nazidatelnie teksti.* Pod red. O.M. Chunkovoy. –M.: «Nauka». 1991. – s.21.

oshirilmoqda. Demak, milliy g'oya asosida inson ongida ezgulik, adolat, haqiqat va mas'uliyat g'oyalarini shakllantirish bilan uni yovuzlik, jaholat, nodonlik va befarqlik kabi illatlardan himoya qilish mumkin. Milliy g'oyaga ega inson yovuz g'oyalarni farqlay oladi, bu "g'oyaga qarshi g'oya" tamoyilining mazmunidir.

3. Jaholatga qarshi ma'rifat. Inson bu dunyoning sir-asrorlarini etarli darajada anglashi, o'zining kim ekanini bilishi va hayot mazmunini tushunishi kerak. Bugungi kunda buning yagona yo'li professional shaxs sifatida voyaga etish bo'lib qoldi. Professional shaxs bo'lish uchun o'z nafsini tiya bilish, kasb mahoratini egallash va odam bo'lib yashash ko'nikmasini hosil qilish kerak. Bularning barchasi bir so'z – **bilmoq** (ma'rifat) zahirida jo bo'lgan. Bilimli kishi jaholat, nodonlik va yovuzlikka qo'l urmaydi. Bu - "jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyilining mazmunidir.

Ma'lum bo'lmoqdaki, fikr, g'oya va ma'rifat har qanday shaxsni, jamiyatni himoya qila oladi. Shu sababli Prezidentimiz *ma'naviy qadriyatlar* masalasiga alohida diqqatni qaratadi. Unga ko'ra, ma'naviy qadriyatlarga tayanib milliy o'zlikni saqlab qolish mumkin.¹ Negaki, "biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarni, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qoidalarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi".² Xalqimiz ma'naviy va axloqiy qadriyatlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy iftixor, bag'rikenglik kabi xususiyatlar ustuvordir. Ularni izchil targ'ib qilib borish bilan ma'naviy tahdidlarga g'oyaviy zarba berish mumkin. Chunki "o'zbek xalqi ruhining tiklanishi, millat ma'naviy-axloqiy ideallarining shakllanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik chambarchas bog'liq bo'lgan hodisadir. O'zbekistonda yashayotgan xalqlar o'ziga xoslikni yo'qotmagan holda, umumiy ruhiyatga, xulq-atvor falsafasiga ega bo'lmoqdalar".³

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda, Islom Karimovning ma'naviy tahdidlarni bartaraf qilish haqidagi qarashlarini quyidagi tartibda tasavvur qilish mumkin:

Dunyo falsafiy-tarixiy va ma'naviy merosda ma'naviy tahdidlarni bartaraf qilishga doir muhim fikr-mulohazalar bildirilgan. Ayniqsa, buyuk yunon faylasufi Platonning bu boradagi qarashlari e'tiborga sazovordir. Faylasufning fikricha, insonning ma'naviy olamini shakllantirish uchun uning ruhini (ongini) va qalbini himoya qilib borish kerak.⁴ Negaki, inson ruhida boylik va manfaatparastlikka qarshi mulohazakorlik va adolatlik g'oyasi mavjud bo'ladi, qalbida esa beqiyos jasorat va beqiyos qo'rquv tuyg'usi mavjuddir.⁵ Demak, bu qarashga ko'ra, *ma'naviy tarbiya* vositasida ma'naviy tahdidlarni bartaraf etish mumkin. Ma'naviy tarbiya inson ruhiyatida ezgu maqsad-muddalarni shakllantirish, uning qalbida esa ma'naviy jasoratni hosil qilishdir. Platonning bu fikri hayotiy asosga egaligi bilan diqqatni tortadi.

Platonning inson ma'naviyatiga doir qarashlari reallik va ideallikni uyg'un qabul qilishi bilan o'ziga xos xususiyatga egadir. Bu masalaga diqqat qilish ma'naviy tahdidlarni bartaraf etishning ijtimoiy asoslarini kashf qilish imkonini beradi. Faylasufning fikricha, insondagi ne'matlar ikki turli bo'ladi: insoniy va ilohiy. *Insoniy* (ya'ni, tug'ma – Sh.T.) ne'matlar salomatlik, go'zallik, quvvatlik va aqllilikdan iborat; *ilohiy* (ya'ni, o'zlashtiriladigan – Sh.T.) ne'matlar ma'naviyatlik, ruhiyatlik, adolatlik va mardlikdir.⁶ Bizning nazarimizda, Platonning bu qarashi bugun ham muhim muhim ahamiyatga ega. Chunki insonning tug'ma xislatlarini rivojlantirish va unga ezgu sifatlarini o'rgatish bilan uni ma'naviy tahdidlarga bardoshli qilib voyaga etkazish mumkin. Platon insonda ezgulikning tantana qilishiga oxir-oqibatda yovuzlik ikkilamchi xarakterga ega ekanligiga qat'iy ishonadi. Shu sababli u inson faqat adolat, ezgulik va go'zallik qonuniyatlari asosida baxtli yashashi mumkin, degan xulosaga keladi.

Ma'naviy tahdidlarni bartaraf qilishga doir muhim yo'nalishlar milliy falsafiy merosimizda ham etarli darajada ishlab chiqilgan. Bu o'rinda biz faqat **pandnomalar** misolida fikr yuritib

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T.: "O'zbekiston" 1997. 137-bet.

² Shu joyda.

³ Shu manba . 143-bet.

⁴ Aflotun. Qonunlar. T.: "Yangi asr avlodi". 2002. 10-bet. U.Otajonov tarjimasi.

⁵ Shu manba. 17-bet.

⁶ Shu manba. 16-bet.

o'tish bilan cheklanamiz.¹ Ayniqsa, V-VII asrlarda bitilgan pandnomalarda ezgulikning yovuzlik ustidan tantanasi masalasi keng talqin qilingan. Jumladan, "Donishlar o'giti" pandnomasida bunday deyiladi: "Aql va e'tiqod vositasida quyidagilarni anglash mumkin: "Men bu olamga ma'naviy olamdan keldim, moddiy olamdan emas. Menda ezgulik ustuvor, yovuzlik emas".² Demak, inson Aql va E'tiqod vositasida yaxshilik va yomonlikni farqlashi mumkin. Bunday farqlash oxir-oqibatda uning ongida ma'naviy tahdidga qarshi immunitetning hosil bo'lishiga olib keladi.

Milliy falsafiy merosimizda ezgulik va yovuzlikni farqlash bilan ma'naviy himoyalash masalasiga alohida urg'u beriladi. Unga ko'ra, barcha narsaning asosida ikki kuch bo'ladi: biri bunyodkorlik, ikkinchisi vayronkorlik.³ Ya'ni, inson bunyodkorlik kuchiga tayansa – ezgulikni, vayronkorlik g'oyasiga tayansa – yovuzlikni yuzaga keltiradi. Ammo inson ko'p hollarda bunyodkorlikni tanlashga moyil bo'ladi. Shunday ekan, ma'naviy tahdidlarni bartaraf qilishning eng maqbul yo'llaridan biri – insonni ma'naviy-axloqiy jihatdan to'g'ri tarbiyalashdadir. Bu masalada pandnomalarda bunday deyiladi: "Inson emizikli go'dakka o'xshaydi va u umri davomida xulq-atvor jihatidan shakllantirilib borilishi kerak".⁴ Buning ma'nosi shuki, inson butun umri davomi ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirilib borilishi lozim.

Keltirilgan misollardan ma'lum bo'ladiki, ma'naviy tahdidlarni bartaraf qilib borishga doir o'ziga xos qarashlar tizimi mavjud. Ulardan unumli foydalanish mumkin.

Tahdidlarni bartaraf qilish usullari. Mafkuraviy immunitet.

Mafkuraviy immunitet – shaxs-ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlaridan himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi. Immunitet (lot, immunitats – ozod bo'lish, qutilish) tibbiy tushuncha bo'lib, organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o'zini turli ta'sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmui tushuniladi. Sodda qilib aytganda, immunitet – kishi organizmining turli kasalliklardan himoya qila olish qobiliyatidir. Yuqoridan farqli o'laroq insonning umumiy immunitet tizimi tug'ma bo'lsa, *mafkuraviy immunitet*ni shakllantirib borish zarur. Ikkinchidan, u har bir avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina jamiyatda mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlash mumkin. *Mafkuraviy immunitet* tizimining asosiy va birinchi elementi - bu, bilim. Ammo, bilimlarning turi ko'p. Buyuk davlatchilik shovunizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasi tarafdorlari ham muayyan "bilimlarga tayanadilar, albatta. Shunday ekan, *mafkuraviy immunitet* tizimidagi bilimlar ob'ektiv bo'lishi, voqeylikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyitishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Ular, o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, Vatan va millat manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak. *Mafkuraviy immunitet* tizimining ikkinchi asosiy elementi ana shunday ilg'or bilimlar zahirida shakllanadigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Zero, bilimlar qanchalik ob'ektiv va chuqur bo'lsa, uning zahirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, qadriyatlar tizimi *mafkuraviy immunitet*ning imkoniyatlarini belgilab beradi va zararli g'oyalar yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi. Ammo bilimlar va qadriyatlar tizimi mavjudligining o'zi *mafkuraviy immunitet*ning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi. Zero, bu ikki element *mafkuraviy immunitet*ning uchinchi muhim elementi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy - ma'rifiy sohalaridagi maqsadlar tizimi bilan bog'liq. Ana shunday aniq maqsadlar tizimi bo'lmas ekan, inson, millat yoki jamiyat goh oshkora, goh pinocha mafkuraviy tazyiqlarga duchor bo'laveradi.

Mafkuraviy profilaktika.

Mafkuraviy profilaktika – ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g'oyaviy - tarbiyaviy, ma'naviy - mafkuraviy ishlar majmui bo'lib, u butun g'oyaviy tarbiya tizimini qamrab oladi. *Mafkuraviy profilaktika* g'oyaviy bo'shliqni tugatish, mafkuraviy

¹ *Pandnoma* – falsafiy-axloqiy risola.

² Donishlar o'giti. // Izvedat dorogi i puti pravednix. 69-70-betlar.

³ Shu manba. 70-bet.

⁴ Shu manba. 80-bet.

parokandalikni oldini olish yoki biror-bir hudud, qatlam, guruhni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda g'oyaviy ta'sirning xilma-xil usul va yo'llaridan foydalaniladi, turli vositalar qo'llaniladi.

Mafkuraviy profilaktikaning tezkor va qisqa, asta-sekin, bosqichma-bosqich sur'atlari.

Mafkuraviy profilaktika tezkor va qisqa sur'atlarda yoki asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin. Birinchi holatda zudlik bilan chora-tadbirlar qo'llash lozim bo'lsa, ikkinchi holda, doimiy va sobit qadamlik bilan ish olib borish ko'proq natija beradi. Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda ham *mafkuraviy profilaktikaning* o'rni katta. Zero, u mohiyatan yot g'oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora tadbirlarga tayanadi. Ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot tizimi *mafkuraviy profilaktikani* amalga oshirishga yordam beradi. Sog'lom mafkurani xalq qalbi va ongiga singdirishga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmalar, oila, maktab, mahalla, davlat va jamoat tashkilotlari ham unda o'z o'rniga ega. Shuningdek, Vatan, xalq manfaatlarini, do'stlik va birodarlikni, o'zaro hurmat va bag'pikenglikni targ'ib-tashviq etuvchi ertaklaru dostonlar, qo'shiqlaru raqslar, turli ko'rinish va mazmundagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mafkuraviy profilaktikani amalga oshirish shakllaridir.

Targ'ibot (arab. Qiziqtirish, tarqatish) – 1) keng ma'noda, ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo'lib, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida ilmiy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy g'oya va qadriyatlarni targ'ib etishdir. Targ'ibot jarayonida fan, san'at, siyosiy va mafkura yutuqlari keng ommalashtiriladi, boyitiladi va yanada rivojlantiriladi. 2) tor ma'noda, mafkura va siyosatni targ'ib etishga qaratilgan faoliyat. Targ'ibot ilmiylik, konkretlik, obektivlik, ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'liqlik tamoyillariga asoslanishi, tashkiliy jihatdan uyushgan bo'lishi lozim.

Targ'ibot – biror g'oya, ta'limot, fikr va qarashni aholi o'rtasida keng siyosiyish, kishilar ongiga singdirishga qaratilgan, aniq maqsadni ko'zlab olib boriladigan tushuntirish va da'vatni, odamlarni muayyan bir vazifani hal qilish, ma'lum bir tartib-qoidalar asosida yashash, mehnat qilishga ma'naviy-ruhiy tayyorlash, g'oyaviy ruhlantirish, safarbar qilishni anglatadi.

Tashviqot – odamlarga ta'sir o'tkazish maqsadida yozma va og'zaki qilinadigan ishlar; undash, da'vat qilish, shu asosda ularning qalbida zavq-shavq, muhabbat yoki nafrat uyg'otishni o'z ichiga oladi. Tashviqot (lot. Agitation – harakatga keltirmoq) – ma'lum bir ijtimoiy guruh yoki ommani ko'zlangan maqsad sari faollikka undaydigan targ'ibot faoliyatidir. Tashviqotning og'zaki, nashriy va audio-vizual turlari mavjud bo'lib, u g'oyat ta'sirchan ijtimoiy-siyosiy kurash vositasi hisoblanadi.

Barcha zamon va makonlarda ham har qanday o'z xalqi kelajagini o'ylagan mamlakatda aholi davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat, islohatlar, o'zgarishlardan ma'lum darajada xabardor qilib borilgan. Bu esa jamiyatni birlashtirish, umummilliy maqsadlar yo'lida safarbarlikni ta'minlab, davlat va jamiyat birligiga erishishdek ezgu maqsadlarga xizmat qilgan.

Mafkuraviy tizim.

Mafkuraviy tizim – mafkuraviy ishlarni boshqarish, jamiyatning turli ijtimoiy institutlari: oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, mehnat jamoalari, mahalla kengashlari, jamoat tashkilotlari, madaniy-ma'rifiy uyushmalar tarbiyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solish, ularni yagona maqsad tomon yo'naltirish omillari (ish vaqti va ishdan keyingi bo'sh vaqt) va vositalari (fan, adabiyot, san'at, matbuot, radio, televidenie, kino, muzey va h.k.), uslublari (tushuntirish, ishtirish, majbur qilish) va usullarining (alohida, jamoaviy, ommaviy) yaxlit bir butun uyushmasi. Shuningdek, *mafkuraviy tizim* mafkuraviy ta'sir yo'nalishlari (aqliy, ahloqiy, huquqiy) va uning asosiy sohalarini (mehnat, jismoniy, estetik, ekologik, jinsiy va hokazo) ham o'ziga qamrab oladi. *Mafkuraviy tizim* bir butun yaxlit uyushma bo'lib, doimo o'zgarib turadi. Ushbu tizim samaradorligi mafkuraviy ta'sir jarayonining uzluksizligiga, tabaqalashganligiga, kompleks yondashuvga bog'liq. Mafkuraviy ishlar ta'sirchanligi, hozirjavobligini oshirishda aholi turli tabaqalarining o'ziga xos milliy-psixologik, regional, kasb-kor, yoshlik xususiyatlarini inobatga olish ham muhim ahamiyatga egadir.

Uchinchi masalaning bayoni. Internet. TCP/IP (Transmission Control Protocol / Internet Protocol - Uzatish jarayonini boshqarish protokollari). onlayn hayotda “yashash”.

Internet (*lot, inter - “aro” va net (work) - “tarmoq”*) — 1) katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini oʻzaro bogʻlaydigan butun jahon kompyuter tizimi, butun dunyo boʻylab faoliyat koʻrsatadigan xalqaro axborot almashuvining global kompyuter tarmogʻi; 2) turli-tuman masalalar va sohalar boʻyicha maʼlumotlarni qamrab oladigan, uzoq, masofalardan turib aloqani amalga oshirish, elektron tijorat, masofaviy taʼlim, audio, video, tele, tasvir ayirboshlash va umuman, koʻpdan-koʻp yangilik va maʼlumotlarni jamlaydigan elektron axborot vositasi va dasturini anglatuvchi tushuncha. *Internet*da geografik joy, zamon va makondan qatʼi nazar, ayrim kompyuter va mayda tarmoqlararo oʻzaro hamkorlik uning global informatsiya infratuzilmasini tashkil etadi.

«Internet» tushunchasi XX asrning 60-yillaridan shakllana boshlagan. 1969 yilda ARPA (Ilgʻor tadqiqot loyihalari) agentligi toʻplamlar kommutatsiya qilinadigan eksperimental tarmoq yaratish maqsadida tadqiqot boshlaydi. Tarmoq yaratilib, u gʻoyat oddiy hamda qisqa nom — ARPANET, yaʼni agentlik tarmogʻi nomini oladi. Tarmoq aloqa tizimida maʼlumotlar oqimini mustaqil uzatish texnologiyalarini oʻrganish uchun barpo etilgan edi. Tadqiqot loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshadi. Uni yaratishda qatnashgan koʻpgina tashkilotlar bu tarmoqdan oʻz kundalik maqsadlarida foydalana boshlaydi va 1975 yilda mazkur eksperiment ishchi tarmoqqa joriy qilinadi. Bunda tarmoq uchun javobgarlik DCA (AQSh Mudofaa aloqasi agentligi) zimmasiga yuklanadi. Ayni vaqtda mutaxassislar TCP/IP (Transmission Control Protocol / Internet Protocol - Uzatish jarayonini boshqarish protokollari) Internetprotokol asoslarini ishlab chiqishga kirishadi. Aynan ana shu vaqtning oʻzida "Internet" atamasi (Interconnected Networks — birlashtirilgan tarmoqlar soʻzlarining qisqartmasi) koʻllana boshlaydi. Holbuki, bu vaqtda ARPANET ikkita alohida tarmoqqa: MILNET (Gʻarbiy tarmoq) — Maʼlumot uzatish mudofaa tarmogʻining nomaxfiy qismi (DDN) va yangi (hajmi kichraytirilgan) ARPANETga boʻlingan edi. Oʻsha vaqtda bir yoʻla har ikkala tarmoq, nazarda tutilishi kerak boʻlgan hollarda esa, Internet atamasi qoʻllangan.

Oʻtgan asrning 90-yillarda «Jahon oʻrgimchak toʻri» — Worldwide Web gipermatn sahifalari tizimi vujudga keladi. CERN (Shveysariya) kompaniyasi xodimi Tim Berners-Li hujjatlarni gipermatnli chegaralash tili — HTML tilini ishlab chiqadi. 1993 yilda NCSA (National Center for Supercomputing Application) xodimlari Mark Andressen va Erik Bina ilk brauzer — «Mosaic X»ni ishlab chiqishadi. Keyinchalik Mosaic Communications Internet sahifalari brauzerining birinchi versiyasi — Netscape Navigator 1.0 versiyasini taqdim etadi. Shuni aytib oʻtish joizki, 90-yillarda Maykrosoft kompaniyasi butun dasturiy taʼminot bozorini boshqaradi, Netscape Navigator dasturi esa oʻzining onlayn imkoniyatlari orqali Windows bilan raqobatlashishi mumkin edi. Shunda Bill Geyts ularning raqobatchi ekanini anglab, xodimlariga bu kompaniyani darhol "oʻyin"dan chiqarish toʻgʻrisida buyruq beradi. Shu tariqa brauzerlar qarama-qarshiligi boshlanadi. 1995 yil 7 dekabrda Maykrosoft Internet Explorer (IE) brauzerini ishlab chiqadi. 1997 yil sentabr oyida brauzerlar qarama-qarshiligi Maykrosoft kompaniyasining gʻalabasi bilan tugaydi. Oʻsha vaqtda Luis Mone Alta Vista qidiruv tizimini ishlab chiqadi. Shu vaqtning oʻzida esa Sietldagi boʻlajak «Internet doʻkonlar qirolligi» — Amazon ish boshlaydi. 90-yillar oxirlariga kelib, Compaq kompaniyasi Alta Vista qidiruv tizimini 3 million dollar evaziga sotib oladi. Oʻshanda dastlabki *internet* auksionlar, portallar, shuningdek, *internet* tarmogʻida birinchi marta MRZ formatidagi musiqiy fayllar paydo boʻladi. Oradan bir yil oʻtgach, 1998 yilning mart oyida Netscape kompaniyasi jahon navigatorining boshlangʻich kodlarini ochadi va butun dunyodagi kompyuter ixlosmandlari birlashib, Mozilla Organization deb nomlangan hamjamiyat - kichik loyihaga asos soladi. Keyinchalik u Mozilla Foundation deb qayta nomlanadi. Hozirgi kunda *internet* brauzerlar juda koʻpayib ketgan. Ular orasida eng ommalashganlari, albatta — Internet explorer, Flock, Netscape, Mozilla Firefox, Avant browser va boshqadir.

Maʼlumki, 90-yillarning oʻrtalarida *internet* tarmogʻiga tijorat nuqtai nazaridan qaralmas edi. Ammo 1995 yilning oxirlarida Yahoo kompaniyasi birinchi boʻlib *internet*da reklama targʻibotini boshlaydi va *internet* orqali daromad koʻrish mumkinligini tushunib etadi. Tez orada Yahooning raqiblari ham paydo boʻladi. Ularning orasida eng xavfli talabalar tomonidan yaratilgan Excite edi. Ammo Yahooga qaraganda Excite takomillashtirilgan tizimdan foydalanar edi. Oʻsha kezlarda koʻproq

daromad topish maqsadida Yahoo va Exciteda reklamalar, foydali maslaxatlar, pochta servislari va chatlar tobora ko'payib, bu qidiruv tizimlari ko'ngilochar portallarga aylana bordi. Yahoo va Excite o'rtasidagi raqobat shafqatsiz edi, ammo qidiruv tizimlari o'zlarining dastlabki yo'nalishlari bo'lgan ma'lumot qidirishni unutib qo'ydi. Zarur ma'lumotni topish lozim bo'lganda Yahoo va Excite keraksiz narsalarni chiqarib berardi. Ba'zan kerakli ma'lumotlarni izlab topish uchun bir kunlab vaqt ketardi. Shu bois keskin tarzda farqlanuvchi yangilik zarur edi va buning javobi Stenford universitetida topiladi. Sergey Brin va Larri Peyjlar 1998 yilning birinchi yarmida yangi, istiqbolli texnologiyani rivojlantirib, bu yangi qidiruv tizimiga Google deb nom berishdi. O'sha paytda Stenford universitetining yotoqxonasiidagi Peyjning xonasi ma'lumotlarni qayta ishlash markazini, Brin xonasi esa ishchan ofis vazifasini bajarar edi. Og'aynilar o'z g'oyalarini sotmoqchi bo'lishganida muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shunda ular biznes reja tayyorlab, o'z kompaniyalarini tashkil etish uchun mablag' izlashga tushadi. Natijada dastlabki investitsiyalar hajmi 1 million AQSh dollarini tashkil etadi. Bu pullar qarindosh va do'stlardan, shuningdek, investorlardan to'planadi. Jumladan, Sun Microsystems kompaniyasi tashkilotchilaridan biri Endi Bextolsxaym g'oya mualliflariga 100 ming AQSh dollariga chek beradi. Google qidiruv tizimi kuniga 10 mingta so'rovga javob beradi va PC Magazine jurnali tomonidan 1998 yilning eng yaxshi 100 ta *internet* sayti qatoriga kiritiladi. Bugungi kunda Google eng mashhur va muvaffaqiyatli qidiruv tizimlaridan biri hisoblanadi, uning asoschilari Brin va Peyjning daromadi esa bir necha milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Bugun kompyuter texnologiyalari hayotimizda mustahkam o'ringa ega, kompyuter savodxonligi ko'rsatkichi esa ko'p hollarda insonning saviyasini belgilab beradigan omilga aylanib bormoqda.

Endilikda kompyuterda ishlashni bilmaydigan xodimni yaxshi mutaxassis deysiz qiyin. Agar o'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida yoshlarning eng sevimli mashg'ulotlari musiqa tinglash va teleko'rsatuvlar ko'rish bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda esa kompyuter va internet avvalgi qiziqishlarni yosh avlod hayotidan siqib chiqardi. Zamonamiz yoshlarining 70 foizi o'z qiziqish va sevimli mashg'ulotlari haqida so'z yuritganda sport, do'stlar bilan suhbatlashish, ma'naviy va madaniy hordiq chiqarish bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalari, *internetga* bo'lgan qiziqishini birinchi o'rinda tilga oladi. Nielsen/Net Ratings kompaniyasi o'tkazgan so'nggi ilmiy tekshiruv natijalariga ko'ra, butun dunyo tarmog'iga ulanayotgan yosh bolalarning soni kun emas, soat sayin oshmoqda: birgina 2007 yili Evropada yosh avlod vakillarining uchdan bir qismi onlayn tizimidan foydalangani kuzatilgan. 2008 yili dunyo axborot tarmog'ida 10 million yosh "sayr" qilgan bo'lsa, hozirda ularning soni allaqachon 13 milliondan oshib ketdi. Bu ko'rsatkich kundan-kunga ko'paymoqda. Bunday onlayn hayotda yashaydigan yoshlarning katta qismi — 4,5 millioni Buyuk Britaniyaga to'g'ri keladi. Ular har kuni elektron manzillarini tekshiradi, turli xil saytlardan ma'lumot izlaydi va chat (global tarmoqdagi suhbatxona)lar orqali muloqotda bo'lishadi. Germaniyada hozircha 3 million, Frantsiyada esa 1,5 million yosh vaqtini asosan onlayn tizimida o'tkazadi. Bir yildan so'ng bu ko'rsatkich ikki barobarga oshishi kutilmoqda. yosh avlodning kompyuter savodxonligi yuqori, bugun hatto olti yashar bolalar ham blutus (bluetooth) va spam nimaligini kattalarga nisbatan yaxshi biladi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biri Kanadada o'n etti yoshgacha bo'lgan 6 ming bola o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot natijasiga ko'ra, internetdan faqat axborot olish maqsadida foydalanilmas ekan. So'rovda ishtirok etganlarning 99 foizi *internetdan* foydalanishini, ularning har o'ntasidan sakkiz nafari uyda ulanish imkoniyatiga ega ekanini bildirgan. Kanada yoshlarining yarmidan ko'pi *internet* va kompyuter texnologiyalarini ota-onalaridan yaxshiroq bilishini aytgan. Ularning 80 foizi mustaqil ravishda *internetga* ulanishini, ota-onalari kompyuterga himoya vositasi bo'lgan filtrlash dasturini o'rnatib qo'ymagani va farzandlari qanday saytlarga kirishini nazorat qilmasligini tan olishdi. Umuman olganda, aksariyat ota-onalar, aniqrog'i, ularning 65 foizi farzandlari internetdan faqat uy vazifasini tayyorlash uchun foydalanadi, degan fikrda, yoshlar esa ilm olishni eng oxirgi o'ringa qo'yar ekan. Ular asosan *internet* orqali musiqa tinglaydi, elektron manzilni tekshiradi, xullas, vaktichog'lik qiladi. yoshlarning uchdan ikki qismi internetga yangi dustlar orttirish va kim bilandir suhbatlashish maqsadida ulanadi, ularning 15 foizi bu munosabatlarni keyinchalik real hayotda davom ettirar ekan.

Ekstremistik sekta va uyushmalar, virtual firibgarlik tahdidi.

Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda *internetdan* foydalanish ko'nikmalari fakultativ dars sifatida maktab dasturiga kiritila boshladi. Buni ham grifingga qarshi kurashishning o'ziga xos usuli

sifatida ko'rsatish mumkin. Negaki, fakultativ darslar orqali bolalar internetdan olinadigan ma'lumotlarning qanchalik haqqoniy va to'g'ri ekanini tekshirishga o'rgatiladi. Bunday darslar, ayniqsa, o'smirlar uchun zarur. *Internet*da grifingdan tashqari o'smir yoshlar uchun yana bir qancha xavflar ham bor. Ya'ni bolalar va internet muammosi tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda, ekstremistik xarakterdagi sekta va uyushmalar saytlarining foydalanishga ochiqligi, virtual firibgarlikka keng yo'l qo'yilganini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bolalarning qiziquvchan tabiati ularni yuqorida tilga olingan turdagi saytlarga etaklashi, bu veb sahifalarda ularning ruhiy yoki jismoniy sog'ligiga xavf soluvchi ma'lumotlarni ko'rishiga olib kelishi tabiiy.

Elektron pochta manzillari orqali olingan xabarlar kuchli ruhiy ta'sir o'tkazib, bolalarni *internet* doirasida va undan tashqarida ham jinoyatga undashi hech gap emas. Bank yoki kredit kartochkasidagi hisob raqamlarni bilgan bolakaylar onlayn savdolarida qatnashish imkoni bilan birga kichik o'yinchoqdan tortib to eng so'nggi rusumdagi mashina sotib olish xuquqiga ham ega bo'ladi. Bu esa ularni virtual firibgarlarning nishoniga aylantiradi. Shu sabab, global tarmoqdan foydalanuvchilar ko'p bo'lgan Belarusda bu kabi muammolar qator yangi kasblarning vujudga kelishiga ham turtki bo'lgan. Yangi turdagi mazkur mutaxassislarining vazifasi oilada internetdan foydalanish madaniyatini joriy etadigan hamda bolalarga psixologik, ma'naviy hamda jismoniy zarar etkazmaydigan ochiq va xavfsiz axborot makonini yaratishdan iborat.

Shuningdek, ko'plab jamoat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar va xususiy kompaniyalar o'z faoliyatini *internet*ning bolalarga ta'siri va undan bo'ladigan zararning oldini olish usullarini o'rganishga qaratgan. Jumladan, *internet* mazmunini baholash assotsiatsiyasi (ICRA) mustaqil xalqaro tashkilot bo'lib, asosiy vazifasi ota-onalarni ularning farzandlarini tarmoqda kutayotgan ko'ngilsizlik va xavfli munosabatlar haqida ogohlantirish, kibermakonda bolalarni noto'g'ri axborotlardan himoyalash va so'z erkinligini ta'minlashdan iborat. Ota-onalarga mavjud muammolar yuzasidan maslaxat, ko'mak beradigan kiberfarishtalar (Cyberangels) - *internet*da bolalar huquqini himoya qilishga yo'naltirilgan Evropadagi ilk tashkilotga 1995 yili asos solindi va ayni paytda unga AQSh va Kanada kabi davlatlar ham a'zodir. Muammolar chuqurlashgani sayin bu kabi tashkilotlar xam keng ko'lamda tadqiqotlar o'tkazish va mavjud xavf-xatarlarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishni kuchaytirmokda. Xususan, Bolalarni asraylik (Save the Children) xalqaro huquqiy tashkiloti o'tkazgan so'rovnomalar natijasida ma'lum bo'ldiki, AQShdagi 15-17 yashar o'smirlarning 85 foizi, Kanada yoshlarining 93 foizi muntazam ravishda internetdan foydalanadi. Kommunikatsiya vositalari tadqiqoti assotsiatsiyasi (Association for the Research of Communication Media) olgan natijalarga ko'ra esa, o'smirlar katta yoshlilarni 2004 yildayoq *internet*dan foydalanish bo'yicha ortda qoldirgan.

Virtual ta'qib.

Muloqotning bu kabi shakllari yaxshi, albatta. **Biroq masalaning ikkinchi tomoni ham borki, unga chuqurroq nazar tashlash lozim.** Alohida e'tibor talab etadigan jihat - *internet* orqali ta'qib deb nomlanadi. Bugungi kunda virtual ta'qib nihoyatda ommalashib bormoqda. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ldiki, hozirda maktab yoshidagi bolalar *internet*dan tobora erta foydalanishga kirishmoqda. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari bimalol maktab yon-atrofidagi kafe yoki klubga kirib, *internet*dan foydalanishi mumkin. Shu bois ular uyda ham *internet*ga ulanish imkoni bo'lishini xohlashi tabiiy. Lekin, mutaxassislarining fikricha, yoshi o'nga etmagan bola odatda mustaqil ravishda *internet*dan foydalanish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash va shu asosda ma'lumotlarni farqlash, ularni ajrata bilish, boshqacha aytganda, «filtrlash» qobiliyatiga ega emas. Shu sababli *internet*dan yolg'iz qolganda ham foydalanish ehtimoli bo'lgan bolani qattiq nazorat ostiga olish kerak, unga o'zi haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni internet orqali tanishgan odamlarga aytmalikni o'rgatish zarur.

Grifing.

So'nggi paytlarda internet orqali ta'qib etish yoki ilmiy tilda aytadigan bo'lsak, **grifing** holatlari ko'p kuzatilmoqda. Bu kabi tarmoq bezoriligining eng birinchi qurbonlari aynan yoshlar qatlami, xususan, o'smirlar hisoblanadi. Bir qarashda beozor tuyulgan chat xonalar yoki maxsus muloqot dasturlari orqali kechadigan suhbatlar tafakkuri endi shakllanayotgan bolalarni ba'zan jinoyatgacha etaklab borayotgani hayotiy haqiqat. Grifing bilan shug'ullanadiganlar yoki *grifyorlar* zamonaviy yoshlarning qiziqishlaridan juda yaxshi xabardor bo'lib, onlayn konferentsiya, forum

xonalarida istalgan mavzuda suhbat yuritishi, o'zlarini ularning muammolarini tushunadigan odamlar sifatida ko'rsatishi mumkin, buning ustiga veb tarmoqda anonimlikni saqlash xususiyati qisqa fursat ichida ishonchga kirib olishga imkon yaratadi. Grifing bilan kurashishning eng oddiy usuli — kompyuterga maxsus taqiqlov dasturlari (eng mashhurlari Kiberpatrul yoki Kidskontrol)ni o'rnatish. Shunda zararli manbalardan keladigan barcha xabarlar avtomatik tarzda filtrlanadi yoki dasturga ota-onalar tomonidan kiritilgan cheklov tufayli bolaning o'zi qiziqib nojo'ya axborotni olmoqchi bo'lganda, avtomatik taqiqga tushadi. Ayni paytda mazkur dasturlar ham to'liq xavfsizlikni kafolatlay olmaydi, chunki ba'zida ular foydali axborotni cheklab qo'yishi yoki keraksizini o'tkazib yuborishi mumkin.

“Kibernetik do'st”.

Zamonaviy texnologiyalarning tez sur'atlarda o'sishiga qaramay, ba'zan odamlar ulardan qanday oqilona foydalanish kerakligini to'liq anglab etmaydi. Kompyuter va internetgacha bo'lgan davrda o'sib ulg'aygan aksariyat ota-onalar va muallimlar agar bola internetdan foydalana boshlasa, albatta, foydasidan zarari ko'proq, deb o'ylaydi. Bolani kompyuter yoki internetdan chalg'itish harakati zahirida aslida boshqa bir muammo, ya'ni kattalarning bu masalada nisbatan savodsiz ekani aniqlandi. Biroq agar ular o'zlari avval texnologiyalar savodsizligi masalasiga jiddiyroq yondashib, uni bartaraf etishsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Negaki, savodsizlik masalasidan qochish orqali bolani texnologiyalardan ajratib qo'yish to'g'ri emas. Buning ustiga yana bir jihat e'tiborga loyiq: bolalarda kibernetik do'stga nisbatan munosabat aynan kattalarning tutgan yo'lidan kelib chiqqan holda shakllanadi. Shubhasiz, internet bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi, biroq tarmoqqa joylashtiriladigan katta hajmdagi axborotning barchasini ham ishonchli va foydali deb bo'lmaydi. Foydalanuvchilar ma'lumotlarning to'g'riligini aniq ajrata bilishi uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etilardi. Buning uchun bolalarga internetda xohlagan odam o'z sahifasini ochishi, unga har qanday ma'lumotni joylashtirishi, bu borada unga hech kim to'sqinlik qila olmasligini vaqtida tushuntirish zarur. Bolalarni keng doiradagi manbalardan foydalanishga yo'naltirish jarayonida faktlarni fikrlardan farqlashga, to'g'riligi tasdiqlanmagan axborotdan himoyalaniishga ularni o'rgatish ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Kiberterrorizm.

Kiberterrorizm (*lot, cyber terrorism; cyber - “kiber”, terror – “qo'rquv”, “dahshat”*) – zamonaviy, ilg'or texnologiyalar, kompyuter va boshqa imkoniyatlardan foydalangan holda yovuz kishilarning o'zining g'araz niyatlariga erishishdan iborat.

Kiberterrorizm (kompyuter terrorizmi) ostida g'arazli niyatda, siyosiy maqsadlarda amalga oshirilgan kompyuter tizimi va tarmog'idagi axborotga qilingan hujum tushunilib, u odamlar hayoti va sog'lig'iga xavf paydo qilib, jamoatchilik tinchligini buzadi, aholini qo'rqitib, harbiy nizo keltirib chiqarishga intiladi. *Kiberterrorizm* insoniyat uchun jiddiy xavf bo'lib, uni yadro, bakteriologik va kimyoviy qurolga tenglashtirish mumkin. Hatto u o'z yangiligi tufayli to'la-to'kis o'rganib ulgurilmagan quroldir.

Masalan, kompyuter tarmoqlari orqali bank tizimlariga kirish va u erdan pul mablag'larini o'marish. Misol sifatida kredit kartalari bilan amalga oshirilayotgan afera (g'irromlik)lar har yili 400 million dollar atrofida zarar keltiradi. Viruslardan ko'rilgan zarar esa 12 milliardni, mualliflik huquqining buzilishi 250 milliardga yaqin zarar keltiradi.

Turli kompyuter tizimlariga kirish bilan kiberterrorchilar har xil, shu jumladan yashirin axborotga ham yo'l topadilar. Zamonaviy kiberterrorchilikka 1998 yili AQShda amalga oshirilgan qotillik ham misol bo'la oladi. Internet orqali AQSh klinikalaridan birining tarmog'iga kirib olgan terrorchi (u erda FBR himoyasida og'ir ahvoldagi muhim guvoh davolanayotgan edi) qator to'siqlardan o'tadi va kardiostimulyatorni ishdan chiqarib, oqibatda mijozi halok qilishga erishadi.

To'rtinchi masalaning bayoni.

Xar qanday davlatning boshqa bir davlat va xudud davlatlari bilan o'zaro munosabatlari mavjud. Bu munosabatlar tenglik, bir tomonning ustunligi yoki butunlay xukmronligi tarzida xam bo'lishi mumkin. Ushbu jarayonlar xalqaro munosabatlarda “davlatlararo munosabatlar”, “tashqi aloqalar”, “o'zaro aloqalar” kabi tushunchalar orqali ifodalanadi.

Ana shular qatorida hozirgi xalqaro munosabatlarda “ geosiyosat” (geopolitika) iborasi xam tez-tez qo`llanilmoqda. **“Geosiyosat” tushunchasi o`zida er va siyosat ma`nolarini ifodalaydi. “Geosiyosat” atamasida geosiyosiy muddaolar , turli xil davlat va xalqlarning manfaatleri tizimi, u yoki bu davlatning xududiy joylashuvi salohiyatiga bo`lgan maqsadlar o`z ifodasini topgan.**

Geosiyosat hozirgi davrda dunyo malakatlari xalqaro siyosatida, siyosat falsafasida keng qo`llanilmoqda. U ko`p qirrali tushuncha bo`lib, turli davlatlarning o`z manfaatlarini ko`zlagan xolda ma`lum xududga nisbatan yuritadigan siyosatinibildiradi. Masalan, O`zbekistonni olsak , u bilan o`zaro iqtisodiy va boshqa soxalarda aloqa qilishni o`lga qo`ymoqchi bo`lgan xar bir davlat O`zbekistonning Markaziy Osiyoda eng yuqori salohiyatli, er usti va er osti boyliklari , ishchi kuchlariga boy ekanligini , Evropa va Osiyoni O`zaro bog`lovchi yo`lning tugun nuqtasi ekanligini , uning mintaqada tutgan tinchliksevar siyosati, iqtisodiy va siyosiy barqarorligini nazarda tutgan xolda siyosat yurgizadi.

Mamlakatimizning Markaziy Osiyoda tutgan o`rni nixoyatda o`ziga xos. O`zbekiston Markaziy Osiyodagi eng yirik ,axolisining soni eng ko`p va iqtisodiy, ilmiy, ijtimoiy salohiyati yuqori bo`lgan mamlakatdir. Buning ustida O`zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o`tishni muvvafoqiyatli modeli ishlab chiqarilgani va amalga oshirilishi, mamlakatda ishonchli, tinchlik barqarorlikning mavjudligi, uning xalqaro msalalarni xal qilishdagi faolligi shunday natijaga olib keldiki, Markaziy Osiyo mintaqasidagi biror jarayonda O`zbekiston ishtiroki nazarga olinmay iloji yo`q.

Tinchlik va xavfsizlik masalalari , avtomobil va temir yo`l , aloqa kommunikatsiyalarini bunyod etish, terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash masalalarida O`zbekiston etakchi rol o`ynashi tabiiy.

O`zbekistonning Evropani Xitoy bilan bog`lovchi ,yoki Markaziy Osiyoni Kavkaz orqali Evropa bilan bog`lovchi yo`llar qurilishi loyixasida qatnashayotgani, Shanxay xamkorlik tashkilotida a`zo bo`lishi, boshqa xalqaro tashkilotlardagi o`rni uning nufuzini yanada yuqori ko`taradi.

Bugungi kunda geosiyosiy maqsadlar ko`proq mafkuraviy siyosat bilan xamoxang bo`lmoqda. Mafkuraviy ta`sir ko`rsatish geosiyosatning eng ta`sirchan vositasiga aylanmoqda. Ya`ni ba`zi kuchlar dunyo xalqlarining turli qatlamlari , xususan yoshlar ongi va tafakkuriga mafkuraviy ta`sir ko`rsatish orqali, ularning faoliyatini shaxsiy va g`arazli manfaatlarga yo`naltiradigan mafkuraviy muxit yaratishni ko`zlamodalar.

Ana shu sababdan Prezidentimiz mafkuraviy poligonlar yadro poligonlariga qaraganda xavfliroq, deya alxida ta`kidlaganlar. Buning xavfiligi shundaki, mafkuraviy ta`sirni ko`z bilan ko`rish , o`fl bilan ushlash qiyin. Ba`zida uni sezish , tasavvur qilish xam qiyin. Qaysi davlatning kuchi qanchaligi , armiyasining soni va yadro poligoni qaerda joylashganini ,uning quvvatini , qanday maqsadga yo`nalganligini muayyan darajada aniq bilish mumkin. Ammo yovuz

Axborot vositalari orqali amalga oshirilayotgan mafkuraviy tazyiqlar.

Axborot texnologiyalari (AT) — axborotlarni yig`ish, qayta ishlash, saqlash, ifodalash, tizimlash, uzatish, iste`molchi uchun foydalanishga qulay holga keltirish jarayoni kompyuter va telekommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshiriladigan, tartibga solingan va tashkillashtirilgan tizim va amaliy dasturlar majmuasidir. AT va ulardan oqilona foydalanish tufayli insonning ishlab chiqarish faoliyati, kundalik muloqot sohasi, ongu tafakkuri kengayib boradi. Zamonaviy xisoblash texnikasi va aloqa vositalari asosida axborotlarni to`plash. saqlash va kerakli manbalarga uzatishning zamonaviy kompyuterlashtirilgan usullari bugun tobora rivojlanib bormoqda. Axborot texnologiyasi fani (ATF) — axborotlarni yig`ish, saqlash, qayta ishlash va rejalashtirilgan maqsadni amalga oshirish uchun texnik vositalardan foydalanishni o`rgatadigan fan. ATF ta`lim va kadrlar tayyorlash jarayonini axborotlashtirishning optimal variantlarini topishda asosiy intellektual manba bo`lib hisoblanadi.

Axborot(informatsion) urushi (*ingl, information war; information – “axborot”, war – “urush”*) – o`zga davlat tinch aholisi va (yoki) harbiylariga muayyan axborot (informatsiya) tarqatish yo`li bilan ta`sir o`tkazish. *“Axborot-ruhiy urushi”* atamasi AQSh harbiy doiralari

lug'atidan qabul qilingan. Ushbu atama ingliz tilida shu bilan birga "Axborotlar qarama-qarshiligi" tushunchasini ham anglatib keladi.

Axborot (arab, axbor — xabarlar, ma'lumotlar) — muayyan voqea-hodisalar to'g'risidagi xabar yoki ma'lumot, ularni tushuntirish, tushunish va idrok etishda qadim zamonlardan buyon qo'llanib kelinayotgan, kibernetika va informatikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vaqtda yangi, keng ma'no kasb etayotgan tushuncha. OAV orqali e'lon qilinadigan ko'rsatuv va eshittirishlarning nomi, jurnalistika sohasidagi maxsus janr ham shunday ataladi. Biron voqea haqidagi batafsil ma'lumot, davlatlar o'rtasidagi muzokaralar natijasida tuzilgan bitim yoki shartnomalar to'g'risidagi rasmiy xabar ham axborot deyiladi. Xalqaro huquqda ikki va undan ortiq davlat o'rtasida olib boriladigan diplomatik muzokaralar natijasida tuzilgan bitimlar, shartnomalar yoki qabul qilingan boshqa qarorlar haqidagi xabar ikki yoki undan ortiq davlatlar tomonidan e'lon qilinadi. Ikki davlat o'rtasida olib boriladigan muzokaralar haqidagi axborot odatda qo'shma axborot deb ataladi. Kundalik hayotda biror narsa (jarayon, ish, hodisa) to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun kerak bo'ladigan ma'lumot yoki yangiliklar ham axborotdir.

O'tgan asrning oxiri va hozirgi asr boshida axborot vositalarining jadal rivojlanishi XXI asrning "Axborot asri" deb atalishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari, Axborotlashgan jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda axborot asosida ta'lim-tarbiya jarayoni olib borilmoqda, ijtimoiy hayot samarali boshqarilmoqda. Hozirgi kunda hayotning biror-bir sohasini axborotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Axborotlar banki (AB), Axborot texnologiyalari kishilik faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Axborotlarni aniq maqsadda yig'ish, saqlash, tizimlarga ajratish va ulardan ommaviy tarzda foydalanishda texnik, dasturiy, algoritmik ishlar va ularning tashkiliy vositalari beqiyos ahamiyatga ega. Axborotlashtirilgan jamiyatning har bir bo'g'inida ABga murojaat qilinadi va shu asosda zamonaviy ta'lim texnologiyalari yaratiladi va ta'lim-tarbiya jarayonlarini optimal boshqarish imkoniyati vujudga keladi. Axborotli modul — ta'lim maqsadini belgilashga qaratilgan, rejalashtirilgan natijalar bilan chegaralangan, fanlararo va fan ichidagi bog'liklikni hisobga olib tuzilgan hamda yakuniy nazorat tizimini qamrab oladigan o'quv fani mazmunining muntazam va tugallangan qismidir. Axborot resurslari ma'lumotlar bazalari va banklari, turli xil arxivlar, kutubxonalar, muzeylar fondi va ularni o'z ichiga oladi. Resurs — biror narsa yoki hodisaning zaxirasini belgilaydi, ayni vaqtda u axborot tizimidagi alohida xujjatlar va ularning butun bir majmuidir. axborot resurs markazi (ARM) — ixtisoslashgan muassasada to'plangan hamda markazlashtirilgan bosma va audio-vizual materiallar majmuasidir. ARM kompyuter va aloqa vositalari yordamida qo'shimcha aloqa manbalari va materiallariga kirish imkonini beradi. ARMning asosiy dasturi ta'lim beruvchi va oluvchilar tomonidan o'quv dasturiga muvofiq to'plangan audiovizual materiallarni o'z ichiga oladi. ARM dasturidagi individual va texnologik manbalar ta'lim beruvchilar, mediateka mutaxassislari hamda ta'lim oluvchilar o'rtasidagi o'zaro muntazam aloqani ta'minlaydi. ARM ta'lim muassasasidagi yangiliklarni siyosiyishda o'quv muassasasi bilan jamiyat o'rtasidagi asosiy aloqa tarmog'i bo'lib hisoblanadi va shu orqali u ta'lim oluvchilarni zarur axborotlar bilan ta'minlaydi. Ta'lim muassasasining ARMi uchun kitoblar, davriy nashrlar, mikrofilmlar, slaydlar, gramplastinkalar, kompyuterli tizimlar, audio va video yozuvlar asosiy manbadir. Axborot tarmog'i (AT) — aloqa tizimlarida kompioterlar yordamida axborotlashishga xizmat qiluvchi qurilmalarning bir-biri bilan bog'langan holati.

Axborotni faksimil uzatish (AFU) odamlar o'rtasidagi axborot almashinuvi bo'lib, uning yordamida matn, gazeta, oddiy qulyozma, grafika, fotografiya kabi xujjatlarni bir ob'ektdan ikkinchi ob'ektga asl nusxasidek aniq etkazib berish jarayonidir.

Axborot olish kafolatlari va erkinligi har bir shaxsning o'zi istagan axborotni izlash, olish va tarqatishga haqli ekanini bildiradi. Mustaqillik yillarida yurtimizda bu borada mustahkam huquqiy poydevor yaratildi. O'zR Konstitutsiyasining 30-moddasida barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar fuqarolarga ularning xuquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjat, qaror va boshqa xil axborotlar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozimligi belgilab qo'yilgan. 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi qonunga ko'ra, mamlakatimizdagi har bir fuqaro o'z manfaatlariga daxldor axborotlarni olish imkoniyatiga ega. Hozirgi globallashuv jarayonida axborot g'oyaviy ta'sir o'tkazish vositasiga aylanib bormoqda.

Ayrim mafkura poligonlari o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishishda axborot xurujlaridan foydalanmoqda.

Axborot urushida oddiy urushda qo'llanadigan qirg'in vositalari ishlatilmaydi. Uning ob'ekti – omma yoki alohida shaxslar ongidir. Qarama-qarshi taraflarni qiziqtirgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladigan shaxslar (prezident, bosh vazir va h.k.) alohida ta'sir ostiga olinishi mumkin.

Axborot urushi vositalari vazifasini ommaviy axborot vositalari, pochta, hatto g'iybat tarzida tarqatilgan gap-so'zlar ham bajarishi mumkin. *Axborot urushida* faktlar buzib ko'rsatiladi yoki ularning ta'sir ko'rsatayotgan tarafga foydali tomonlari bo'rttiriladi.

Axborot urushining tarkibiy qismlari

1) **psixologik operatsiyalar** – dushman askarlari ishonchiga ta'sir ko'rsatish maqsadida axborotni qo'llash;

2) **elektron urush** – dushmanga aniq axborot, ma'lumotga ega bo'lish imkonini bermaydi;

3) **dezinformatsiya** – dushmanni o'zining kuchi va niyatlari to'g'risida soxta ma'lumot bilan ta'minlaydi;

4) **jismoniy vayron qilish** – axborot tizimlarining elementlariga ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'lganida axborot urushining bir qismi bo'lib kelishi mumkin;

5) **xavfsizlik choralari** – dushman shu taraf imkoniyat va niyatlaridan xabardor bo'lishining oldini olish;

6) **to'g'ridan-to'g'ri axborot hujumlari** – axborot mohiyatini saqlagan holda uning ko'rinishini o'zgartirib yuborish.

Bugungi dunyoning taraqqiyoti ichki va tashqi omillar ostida yuzaga kelmoqda. Ichki va tashqi omillar asosan axborot vositasi bilan ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari – radio, televizor, gazeta, jurnal va internet orqali axborot ayirboshlash rivojlanib bormoqda. Hatto, ba'zida mobil telefonlarni internetga ulash hodisalari ham uchray boshladi. Olimlarning fikricha inson 85 foiz axborotni *ko'rish* orqali oladi va qolgan 15 foiz axborotni *eshitish* orqali olar ekan. Demak, bu o'rinda televideniya va internetning roli har qachongidan ortadi. Misol uchun, 2002 yilgi Sidneyda (Avstraliyada) bo'lib o'tgan Olimpiada o'yinlarining ochilish marosimini dunyo aholisidan 3 milliard 600 million kishi to'g'ridan-to'g'ri tomosha qilgan. Rossiyalik olim Yu. B. Kashlevning mana bu ma'lumotlariga e'tibor bering: XXI asrga insoniyat 2,2 million radiopriemnik, 1 milliard 200 million televizorga ega sifatida kirib kelgan. Bundan 30-40 yil oldin buni tasavvur qilib ham bo'lmas edi.

Asrimiz boshlariga kelib *Internet* nomli magnat paydo bo'ldi. 1995 yili Internetdan foydalanuvchilar soni dunyoda 900 ming kishi edi, 1999 yilga kelib undan 171 million kishi foydalana boshladi va 2002 yilga kelib Internet abonentchilari soni 500 millionga etdi. 2005 yil so'ngiga kelib Internetdan dunyoda 1 milliard kishi foydalan boshladi. O'zgacha aytganda, dunyoda biror shaxs, jamiyat, davlat yoki voqea, hodisa haqida sanoqli daqiqalarda xabar topish imkoni paydo bo'ldi. Bir paytlar qo'shni davlat ahvoli haqida ma'lumot olish uchun oylab kutilar edi. Bugun esa Mariananing Nil daryosi bo'yiga qanday aksa urganligi yoki Azizbekning Amudaryo bo'yida **qanday so'kinganligi** haqida bir lahza ichida xabar topish mumkin. **Mediavirus** (*ingl, media virus; media – “ommaviy axborot vositalari (OAV)”*, *virus – “zararli element”*) – ommaviy axborot vositalari sohasi bo'yicha mutaxassis - amerikalik Duglas Rashkoff tomonidan jamiyat hayotida bevosita yoki bilvosita o'zgarishlarga sabab bo'ladigan OAV bilan bog'liq hodisalarni anglatish uchun kiritilgan atama.

Duglas Rashkoff fikriga ko'ra reklama beruvchilar hamda davlat dotatsiyalari hisobiga kun ko'radigan ommaviy axborot vositalari, o'zlari bilgan yo bilmagan tarzda iste'molchilik qadriyatlarini ilgari surib, jamoatchilik fikrini shakllantirib boradilar.

Mediaviruslar – axborotlar bilan bog'liq sohalarida tarqatiladigan *memlar*, ma'lumotlar majmui bo'lib, u odamlarning yirik va mahalliy tusdagi voqea-hodisalarga nisbatan fikri, ularni anglashini tubdan o'zgartirib yuboradi.

Muayyan maqsad bilan yaratilgan mediaviruslar, “etaklovchi” viruslar, o'z-o'zidan paydo bo'ladigan viruslar.

Mediaviruslarning uch turi mavjud:

Atayin, muayyan maqsad bilan yaratilgan mediaviruslar, ular biron tovar yoki mafkurani tarqatishga ko'maklashish maqsadini ko'zlaydi. Masalan, reklama tryuklari va mediafaollarning aksiyalarini misol qilib keltirish mumkin.

"Olg'a etaklaydigan" viruslar, ular to'satdan paydo bo'lishiga qaramay, zudlik bilan manfaatdor guruhlar tomonidan o'z qarashlarini tarqatish uchun qurol qilib olinadi. Misol: OITS epidemiyasi (konservatorlar tomonidan besoqolbozlarni ayblash maqsadida qo'llangan) va h.k.

O'z-o'zidan paydo bo'ladigan viruslar, bu o'z holicha, bironing buyurtmasiz yuzaga kelib, qiziqish tug'diradi va shu kabi o'z holicha tarqaladi. Ularga yangi texnologiyalar yoki ilmiy kashfiyotlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

AQSh ning sobiq prezidenti Bill Klinton va Monika Levinski o'rtasidagi ishqiy munosabatlar oqibatida kelib chiqqan janjalni ham *mediavirus* misoli sifatida ko'rsatish mumkin. Chunki u o'sha paytda respublikachilar partiyasi tomonidan o'z manfaatlari yo'lida, demokratlar pozitsiyasini kuchsizlantirish maqsadida qo'llangan edi. **Manba:** www.wikipedia.org; Hornby A.S. "Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English". Rashkoff D. «Media virus. Taynie poslaniya v populyarnoy kulture», 2003

Tashviqot klisesi – tashviqot adabiyotlarida maqtash yoki erga urish maqsadida ko'p takrorlanadigan yasama so'z (ibora), so'z birikmasi yoki o'zlashtirilgan so'z (ibora). *Tashviqot klisesi* so'z va iboralarning maxsus ko'pligi sifatida qaralishi ham mumkin. Gyodelning noto'liqlik to'g'risidagi Ikkinchi Nazariyasidan kelib chiqadigan qarama-qarshiliklar *Tashviqot klisesini* har qanday to'liq nazariyada istalgan fikrni (shu jumladan o'zaro qarama-qarshilarini ham) isbotlash imkonini beradi. Matematika va fizikada odatda o'z-o'zini ichiga olgan ko'plikdan uzoqlashishga intiladilar (chunki bir muayyan nazariyaning ziddiyatli emasligini boshqa, kuchliroq formal nazariya vositalari yordamida isbotlash mumkin bo'ladi). Siyosatda esa buning iloji yo'q. Shu sababli bahs mobaynida tomonlardan birortasi *tashviqot klisesi* birikmasini qo'llashiga alohida e'tiborli bo'lish lozim.

Atama tashviqot va bosmaxona klisesi so'zlari qo'shilishidan tashkil topgan.

Tashviqot klisesi juft standart (bir xil hodisaga ikki xil yondashuv) hollaridan biri hisoblanadi. Tashviqot klisesi bosmaxona klisesi (harflari) kabi siyqalanib boradi. Masalan, dissident, birodarlarcha yordam, baynalmilal burch, terrorizmga qarshi kurash iboralari hozirga kelib o'zining dastlabki ijobiy yoki salbiy ma'nosini yo'qotgan. **Manba:** www.google.com; Hornby A.S. "Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English"

Manipulyatsiya (*lot, manipulus* – "qo'l harakati") - 1) qo'l mashqi, qo'l harakati, shu jumladan, qo'l mahoratiga tayangan fokus namoyish qilish; 2) maxinatsiya, aldov, tovlamachilik, qalloblik orqali g'arazli maqsadga erishish; 3) odamda ma'lum motivatsion holatlarning (hissiyotlar, attityudlar, stereotiplar) faollashuviga olib keladigan kommunikatsion ta'sir. Bu ta'sir odamni har qanday xatti-harakatga undashi mumkin. Ayrim mutaxassislarning ta'kidlashicha, *manipulyatsiya* - psixologik ta'sir turlaridan biri hisoblanib, kishini ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishga bilvosita undash orqali bir tomonlama yutuqqa erishish maqsadida foydalaniladi. *Manipulyatsiyaning* xatarli jihati shundaki, u ichki parokandalik, shaxs yaxlitligining buzilishi. Uning tashqi ta'sirga berilib ketishiga sabab bo'ladi. Amerikalik psixolog R.Chaldini *manipulyatsiyaning* bir necha turlarini ajratib ko'rsatadi: masalan yordam so'rash; sotuvchining, reklamaning xaridorga ta'siri; siyosiy targ'ibot; bolalarni tarbiyalash va hakoza. Uning fikricha turli xil fondlar uchun mablag' yig'uvchilar; ko'chada savdo qiluvchilar; ishbilarmonlar; biznesmenlar; savdo agentlari; reklama xodimlari ham *manipulyatsiyadan* keng foydalanadi. *Manipulyatsiyaning* ta'siri va oqibatlari ayniqsa soxta diniy tashkilotlar, aqidaparast guruhlar faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda avvalo odamlarning ongiga ta'sir etib, ularning xatti-harakati (individual jismoniy hayotni boshqarish, tobelik va bo'ysunuvchanlik shakllantirish), olayotgan ma'lumotlar haqiqiy holatni yashirish yoki buzib ko'rsatish, tanqidiy ma'lumotlarni taqiqlash, tafakkurni (tashkilot g'oyasini majburan singdirish, voqelikda hodisa voqealarni ana shu g'oya nuqtai nazaridan "yaxshi" va "yomon"ga ajratish, hissiyotlarini (shaxs hissiyotlarini zaiflashtirish, aybdorlik tuyg'usini singdirish, gunoh, kamchilik va xatolarni rasman tan olishga undash, qo'rquv hissidan foydalanish) nazorat etish orqali har qanday vazifa yoki topshiriqni bajaradigan, muayyan g'oya va mafkura tobe etilgan, o'zligidan mahrum bo'lgan kimsalar shakllantiriladi.

Dezinformatsiya (fran, des - “salbiy” va information - “axborot”) muayyan guruh va doiralarning gʻarazli maqsadlariga erishish yoʻlida soxta maʼlumotlardan foydalanish asosida ijtimoiy fikrni chalgʻitish maqsadida matbuot, radio va TVda qoʻllanadigan usul, vosita. Masalan, Ikkinchi jahon urushi davrida u tashviqotda keng qoʻllangan. *Dezinformatsiya* turlari: a) soxta axborot, ovoza va shovshuvlar tarqatish; b) konfidentsial maʼlumotlar "oqib ketishi"ni tashkil qilish; v) muayyan faktlarni boʻrttirib yoritish, ziddiyatli xabarlarini tarqatish. *Dezinformatsiyaning* tarixi, avvalo, OAVning paydo boʻlishi va shakllanishi bilan uzviy bogʻliq, uning mazmun-mohiyati asosan siyosiy, gʻarazli maqsadlarni koʻzlagan intilishlarda namoyon boʻladi. I. A. Karimov globallashuv jarayoni mafkuraviy taʼsir oʻtkazishning nihoyatda oʻtkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatiga xizmat qilayotganini taʼkidlab, **"bugungi kunda inson maʼnaviyatiga qarshi yoʻnaltirilgan, bir qarashda arzimas boʻlib tuyulgan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, koʻzga koʻrinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab boʻlmaydigan ulkan ziyon etkazishi"** mumkinligi haqida ogohlantiradi. Biz bunday xatarlarga doimo sergak, ogoh va xushyor boʻlib yashashimiz, ularga qarshi har tomonlama chuqur oʻylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan maʼnaviy tarbiya bilan javob berishimiz zarur. Ana shundagina aholimiz, ayniqsa, yoshlarimiz voqelikka ochiq koʻz bilan qarab, jahonda va yon-atrofimizda mavjud boʻlgan, tobora kuchayib borayotgan maʼnaviy tahdid va xatarlarni, tarqatilayotgan turli maʼlumot va axborotlarni toʻgʻri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboq chiqara oladi. **Manba:** www.wikipedia.org; Hornby A.S. “Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English”; Nazarov Q. “Maʼnaviyat asosiy tushunchalar izohli lugʻati”. – T.: -2009y. Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

6-Mavzu: Mafkuraviy faoliyat-milliy gʻoyani amalga oshirish vositasi.

REJA:

1. “Mafkuraviy munosabatlar” tushunchasi, uning mazmun mohiyati va namoyon boʻlish shakllari.
2. Bunyodkor gʻoyalarni amalga oshirishga qaratilgan mafkuraviy faoliyat tamoyillari; yaratuvchanlik, gumanizm, plyuralizm, tolerantlik, ezgulik tamon xarakter.
1. Vayronkor gʻoyalar asosidagi buzgʻunchilik, aqidaparastlik, ekstremiz va terrorizmga moyillik kabi mafkuraviy faoliyat tamoyillariga qarshi kurashning zarurligi.
2. Ommaviy axborot vositalari, internet va boshqa axborot vositalarining mafkuraviy faoliyatdagi oʻrni.
3. Mafkuraviy faoliyatda milliy gʻoyani aholi ongiga singdirish. Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq faravonligi gʻoyalarining namoyon boʻlishi.

1. **Mafkuraviy faoliyat** bu - muayyan gʻoyani amalga oshirish, uni roʻyobga chiqarish, uni aholini ongi va qalbiga singdirish yoki bulardan teskari maqsadni koʻzlaydigan shu sohadagi amallarni, inson ongidan u yoki bu gʻoyani chiqarib tashlash kabi hatti –harakatlar majmuini ifodalaydi. Har qanday mafkuraviy faoliyat insoniyatga xos boʻlgan ijtimoiy faoliyatning bir qismi boʻlganligi uchun ham bu boradagi barcha qoidalar, talablar unga ham umumiy xususiyat kasb etadi. Har qanday mafkuraviy faoliyat muayyan gʻoyani amalga oshirish yoki shu asosdagi amaliy jarayondir. Mafkuraviy faoliyatning oʻziga xos xususiyatlari:

1. Mafkuraviy faoliyatni muayyan gʻoya asosidagi maqsadga qaratilganligi.
2. Mafkuraviy faoliyatning maxsus rejalashtirilganligi va avvaldan maqsadning aniqligi.
3. Mafkuraviy faoliyat mezonlari va meʼyorlariga soʻzsiz boʻysunish lozimligi.
4. Bu faoliyatning kimga va nima uchun qaratilganligi aniq belgilanganligi.
5. Faoliyat nitajalaridan foydalanish miqyosining aniqligi va xususiylashganligi kabilar bu boradagi asosiy jihatlarni anglatadi.

Har qanday mafkuraviy faoliyat biror kishining ongidagi muayyan gʻoyalarni boshqalarga etkazish. Shu odamlarning ongiga kirgan gʻoyalar ularni ham ularning safiga kiradigan qilishi zarur.

“Mafkuraviy munosabatlar” tushunchasi, uning mazmun –mohiyati va namoyon boʻlish xususiyatlari. Milliy gʻoyaning ijtimoiy subʼektlar orasidagi hamkorlik va hamjihatlikni

mustahkamlashdagi ahamiyati. Mafkuraviy faoliyat tizimi, uning elementlari. Mafkuraviy faoliyatni tashkil qilishning usullari va yo'llari. Mafkuraviy faoliyatni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalari. Ommaviy axborot vositalari, internet va boshqa axborot vositalarining mafkuraviy faoliyatdagi o'rni.

Hozirgi davrdagi mafkuraviy faoliyatning dolzarb masalalari. Milliy g'oyani aholi ongiga singdirish, Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g'oyalarini amalga oshirishning ustivor vazifalari.

Mamlakatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik qonunlari va aniq tarixiy sharoitlardan kelib chiqqan holda mafkuraviy faoliyatning asosiy vazifalari, mustaqillik tafakkurini tarbiyalash yo'llari belgilangan. Bu - xalqimizda milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish, axloqiy tarbiya, millatlararo totuvlik va vatanparvarlikni rag'batlantirish, shaxsning har tomonlama uyg'unlikdagi rivojlanishi va mafkuralar tahdidlarini bartaraf qilish demakdir.

Mafkuraviy faoliyatning rivojlanishi turli qatlam va tabaqalarning manfaatlarini umumiy g'oya doirasida muvofiqlashtirish texnologiyasiga, intellektual asoslariga, shart sharoitlariga bog'liq bo'ladi.

Ilmiy asoslangan mafkura – maqsadlarga real tarzda erishishning maxsus nazariyasini, texnologiyasini, institutsional tuzilmasini shakllantiradi.

Uning vazifasi – nazariy xulosalarni, to'plangan tajribalarni tizimlashtirish; muqobil mafkura yo'nalishlarini amaliyot bilan muvofiqlashtirish; mafkuraviy tarbiya usullarini, vositalarini, mexanizmlarini yaratishdan iborat bo'lib, umumiy maqsadi- insonning jamiyatni o'zgartirish faoliyatini muayyan manfaatlarga bo'ysundirishdan iborat bo'lib, uning mazmuni shujamiyatning ijtimoiy siyosiy munosabatlari xarakteriga bog'liqdir.

Mafkuraviy faoliyat dasturlarini milliy istiqlolning bosh g'oyasiga asoslanib amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Mafkuraviy ishlar dasturi - jamiyatning mafkura sohasidagi faoliyati, xalqimizni milliy istiqlol hojalari ruhida tarbiyalashning istiqbolli rejasidir. Shu orqali Ma'naviy mafkuraviy faoliyat jamiyat orasida milliy g'oyani tarqatuvchi, odamlar miyasida saqlab turuvchi doimiy mexanizmga aylanadi. Bu ishda ma'naviyat va ma'rifat markazlari, davlat va nodavlat tashkilotlari rahbarlari zimmasiga alohida mas'uliyat yuklanadi. Bunday uchrashuvlarda odamlar shuaziz vatan barchamizniki ekanini, uning taqdiri, kelajagi, ravnaqi uchun har bir fuqaro mas'ul ekanini his etishlari lozim.

Bugun milliy g'oya va milliy mafkura asoslarini xalqimizga keng,atroflicha va ommabop qilib tushuntirishdabirgina OAVlari kuchiga tayanish kamlik qiladi. Endi xalq ichiga yurishvaqti keldi.Hammazamonlarda hm mafkura targ'ibot- tashviot yulibilan kishilar ongiga singdirilgan.Buning uchun bevosita muloiotlar, suhbat, uchrashuv, bahs munozaralar, savol javoblar uyushtirilishikerak bo'ladi.

Milliy g'oya va mafkuralarning rivojlanish darajasi ijtimoiy munosabatlarni, muayyan mafaatlal doirasida, uyg'unlashtirishdan iborat mafkuraviy faoliyatni (nazariy hamda amaliy jihatlardan) tashkil etish xarakteriga mos keladi. Zero, uning pirovard natijasida, jamiyat ijtimoiy—siyosiy munosabatlarining barqaror rivojlanishiga olib keladigan yangi progressiv g'oyalarga asos bo'lib, ularni amalga oshirishning muayyan shart—sharoitlarini, uslub va vositalarini ta'minlaydigan mafkurani taqozo qiladi. Shu nuqtai nazardan, ideologiyani jamiyatning g'oyaviy—mafkuraviy munosabatlarini o'rganuvchi fan sifatida — insonning muayyan ehtiyojlarini (umuminsoniyat manfaatlariga mos kelishidan qat'iy nazar) qondirish, maqsadlariga erishish yo'li, deyish mumkin.

Jamiyat taraqqiyotining har qanday bosqichlarida «inson sifati»ni, jamiyat xarakterini belgilaydigan g'oyaviy—mafkuraviy munosabatlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Boshqa ijtimoiy munosabatlarning yo'nalishlari shu jarayonning xarakteriga mos kelgan. Shu jumladan, hozirgi davrda mafkuraviy jarayonlarning intensivlashib, universallashtirib va globallashtirib borishi bilan, «inson sifatlari»ni (jamiyat mazmunini belgilovchi ma'naviy—madaniy omillar tizimida) o'rganishda ideologiyaning ahamiyati o'zgacha xarakter kasb etmoqda.

Har qanday g'oyaning konkret shakli, ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlaridan kelib chiqib, jamiyat va inson munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi omilga — mafkuraga aylanishi uchun ob'ektiv shart—sharoitlarni taqozo qiladi. Shuning uchun g'oyalarni jamiyat borlig'idan, uning tarixiy rivojlanish darajasidan ajratib tahlil qilish g'aliz xulosalarga olib keladi. Ayniqsa, ayrim ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy g'oyalar determinantligini, dominantligini mutlaqlashtiruvchi qarashlar ijtimoiy—iqtisodiy taraqqiyot manfaatlaridan ajratilgan mavhum, utopik xarakterga ega bo'lgan. Binobarin, butungi kunga kelib, jamiyatdagi muqobil g'oyalarning, umuman ijtimoiy—siyosiy va ma'naviy—madaniy jarayonlarga, xususan milliy taraqqiyotga ta'sir kanallarini, harakatlantiruvchi mexanizmlarini tahlil etish — jiddiy ilmiy tadqiqotlarning ob'ektiga aylanishi, hamda Ideologiyaning mustaqil fan sifatidagi maqomini belgilashi lozim.

Muayyan ijtimoiy—siyosiy muhitda milliy g'oyani rivojlantirish uchun, doimiy ravishda, inson amaliy faoliyatining asosiy shakllarini umuminsoniyat manfaatlari asosida qayta tashkil etish zarur. Boshqacha aytganda, «inson—inson», «inson—jamiyat», «jamiyat—jamiyat» (ularning turli xususiyatlari va rivojlanish darajalari global miqyosda nazarda tutilmoqda) g'oyaviy—mafkuraviy munosabatlarining ijtimoiy makon va tarixiy zamondagi uzluksiz rivojlanishi - inson omilini, ya'ni uning ma'naviy—madaniy faoliyatini takomillashtirib boradigan ideologiyani ilmiy—nazariy asosga qo'yishni taqozo qilmoqda. O'z navbatida, konkret madaniy muhitdagi, tarixiy sharoitdagi ijtimoiy—siyosiy faoliyatning tarkibiy qismi bo'lgan g'oyaviy—mafkuraviy munosabatlarning rivojlanish darajalarini umuminsoniyat barqaror rivojlanish manfaatlariga moslashtirishning qonuniyat tarzida namoyon bo'lishi ham, bu zaruriyatni yanada kuchaytirmoqda.

O'zbekistonda mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishning ustuvor yunalishlari quyidagilardan iborat

- belgilangan tadbirlarning yuqori darajada uyushqoqlik bilan utkazilishini ta'minlash
- milliy istiqloq g'oyasining targ'iboti sifatini muntazam oshirib borish;
- davr talablaridan kelib chiqqan holda mafkuraviy ishlarni tashkil etishning yangi, samarali yullarini izlash
- bu sohada eski uslublarning mutlaqlashtirilishiga, andozalashtirishga yo'l quymaslik;
- mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda ijtimoiy muhitni hisobga olish
- mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda uchraydigan rasmiyatchilikva majlisbozlik kurinishlariga barham berish;
- mafkuraviy faoliyatning qanchalik samarali olib borilayotganini bilish maqsadida uning monitoringini tashkil etish.

G'oyaviy tarbiya Bu –inson ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayonidir. Har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra g'oyaviy tarbiyadir.

Dunyoqarash—tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvur va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni jamiyatda o'zligini saqlagan holda munosib o'rin egallashga chorlaydi.

Mustaqillik yillarida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyat va an'analarga muhabbatni, o'z yaqinlariga mehribonlikni tanlagan yo'li- kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash va yangicha tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqod mahsulidir. Bunda quyidagilar muhim rol o'ynaydi:

a) **ijtimoiy—siyosiy, ma'naviy—ma'rifiy muhit.** yoshlarda sog'lom e'tiqod va yuksak dunyoqarashning shakllanishi uchun ma'lum muhit ham zarur. ijtimoiy va siyosiy institutlar davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, iqtidorli yoshlarni qo'llab -quvvatlovchi jamg'armalarning tashkil etilishi o'ziga, xos ijtimoiy muhitni shakllantirdi. Bu esa o'z navbatida yoshlarning buyuk kelajak bunyodkori bo'lib voyaga etishda muhim o'rin tutmoqda.

b) **siyosiy ong va huquqiy madaniyatning** o'sishida siyosiy partiyalarning o'rni va ahamiyati katta. Ular o'z faoliyati bilan fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etish g'oyasining amalga oshishiga xizmat qiladi.

v). **Odatiy an'anaviy fikrlash tarzidan yangicha**, ilg'or fikrlashga o'tish mafkuraviy yangilanishlar jarayonining muhim xususiyatidir.

Shuning uchun milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillarining keng omma qalbi va ongiga singishi birdaniga, tez va bir tekisda ro'y bermaydi. Bu-murakkab, bosqichma-bosqich amalga oshadigan jaryon bo'lib, bu jarayonda, boshqa ijtimoiy qatlam vakillaridan farqi o'laroq yoshlar tashabbuskorlik ko'rsatishi va dunyoqarashi va e'tiqodi bilan boshqalarga ta'sir ko'rsatishi kerak.

Muloqot madaniyati –insonga xos ma'naviy ehtiyoj bo'lib, undagi umumiy madaniy saviyaning muhim ko'rsatgichidir. Inson o'zining his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, o'y-fikrlarini bevosita muloqot jarayonida namoyon qiladi. Mafkuraviy tarbiyaning eng ta'sirchan vositalaridan biri ham muloqot hisoblanadi.

Milliy istiqlol mafkurasining funktsiyalari:

1. **Odamlarni muayyan g'oyaga ishonitirish.** Mafkura g'oyalar sistemasi sifatida biron bir g'oyani targ'ib etish, kishilarni shu g'oyaning to'g'ri hayotiy va ilg'or ekanligiga ishonitirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Mafkuraviy targ'ibot ishlarining muvaffaqiyatini belgilaydigan shunday hayotiy qonuniyat bor: boshqalarni bir g'oyaga ishonitirmoq uchun, avvalo unga o'zing yurakdan ishonishing, boshqalarni yondirmoq uchun o'zing yonishing, boshqalarni g'aflat uyqusidan uyg'otmoq uchun o'zing uyg'oq va bedor bo'lishning shart

2. **G'oya asosida kishilarni uyushtirish.** jamiyatning g'oyat xilma-xil qatlamlarini umumiy manfaatlar atrofida jipslashtirish, odamlar o'rtasida hamjihatlik, totuvlik, o'zaro yordam xislatlarini shakllantirish ham izchil mafkuraviy tarbiya vositasida amalga oshiriladi

G'oyani amalga oshirish uchun safarbar etish. Mafkuraning bunyodkorlik funktsiyalaridan biri ilg'or g'oyani amalga oshirish uchun kishilarni safarbar etishdir.

Mafkurada ifoda etilgan g'oya va maqsad jamiyatdagi ko'plab partiyalar, ijtimoiy harakat va tashkilotlarning faoliyat dasturiga asos bo'ladi, ijtimoiy rivojlanishga kuchli turtki beradi.

Mafkuraning safarbar etuvchilik funktsiyasi, ayniqsa, mafkuraviy kurashlar jarayonida to'laroq namoyon bo'ladi.

4. **Kishilarni ma'naviy-ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash.** Mafkura milliy taraqqiyotning eng og'ir murakkab davrida, ayniqsa, bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan yangisiga o'tish jarayonida keng xalq ommasini ma'naviy –ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi, ularda kelajakka ishonch tuyg'ularini uyg'otishga xizmat qiladi.

5. **G'oyaviy tarbiyalash.** Jamiyatdagi mavjud g'oyalarga faol munosabat, faol hayotiy pozitsiyani tarbiyalash mafkuraning yana bir muhim maqsadidir. G'oyaviy tarbiya axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Har qanday axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiya muayyan g'oyani himoya qilish, targ'ib etish va rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

6.**G'oyaviy immunitetni shakllantirish.** G'oyaviy tarbiya jarayonida kishilarda yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Bu uzoq davom etadigan jarayondir.

7. **Harakat dasturi ekanligi.** Mafkura jamiyatda ijtimoiy- siyosiy harakatning o'ziga xos dasturilamali bo'lib xizmat qiladi.

Milliy mafkura jamiyatdagi barcha sotsial qatlamlar va guruhlarining umumiy harakat dasturi, ularni faollikka da'vat etuvchi vosita hisoblanadi. Mafkuraviy maqsad-g'oyaviy faoliyatni amalga oshirishdan kutiladigan ideal natijadir.

Targ'ibotiga AQSh hukumati yiliga 2,5 milliard dollar sarflashi bejiz bulmasa kerak. Frantsiya ham uz siyosatini aholiga tushuntirish ishlariga yiliga 100 million frankni bekorga sarflamydi.(Mafkura targ'iboti. Tafakkur. №3, 2001. N.Umarova 13 bet))

AQSh nimaning evaziga fan va texnologiyalar sohasida boshqalardan uzib ketdi? Bu savolning ham javo6i bor Amerikada erkin va ijodiy fikr qadrlanadi hamda uzgacha fikr-laydiganlarga nisbatan 6ag'rikenglik qapop toptirilgan. Lekin amerikalik fuqaroni tarbiyalashning

eng asosiy jihati boshqa bir g'oyada yashirin. U ham 6ulsa, har bir insonni noyob iste'dod egasi deb bilish, har bir shaxsga hazrati inson sifatida murojaat qilishdir. Insonga bunday munosabat, suzsiz, uning salohiyatini yuzaga chiqarishga imkon beradi. Aynan shu g'oya ta'sirida amerikaliklar orasida uzini «urtamiyona odam» de6 6iladigan yoxud «men bir oddiy odam» de6 gapiradigan kishilar nihoyatda kam uchraydi. Amerika fuqarolari adolatni ham uziga xos tarzda tushunadilar shaxs nimagaki erishsa, qanday maqomni egallasa, bunga faqat uz aqli va iste'dodi bilangina etishadi. Shunday qilib, har bir amerikalik bolaligidanoq kimgadir va nimagadir opqa qilishga emas, balki uz kuchiga tayanishga Urgatiladi. Lekin, eng asosiysi, har bir amerikalikda kelajakka ishonch uyg'otiladi. Xuddi ana shu «amerika orzusi» kishilarni yangi maqsadlar sari rag'batlantiradi, yangi g'oyalarni amalga oshirishga shavq uyg'otadi. Xulosa yasaydigan bulsaq demokratiya qoidalari va erkinlik Amerika mafkurasining poydevorini tashkil etadi. Bunday tarbiya natijasida faqat uz kuchiga ishonish, ruhiy ozodlik va mustaqil fikrlash kabi xislatlar amerikaliklarning qon-qoniga singi6 ketgan.

Albatta, yuqorida keltirilgan fikrlar «AQShda 6u borada muammo yuq ekayu» degan xulosa uchun asos bulmaydi. Oxirgi paytlarda erkinlikka hadeb ypg'u beraverish oqibatida amerikaliklar erkinlikni jamiyat oldidagi majburiyatlardan ham ozodlik sifatida idrok eta boshladilar. Shu bois hozirgi kunda AQShning ziyolilari tomonidan yangi mafkura - «liberal-natsionalizm» mafkurasini yaratish zarurligi haqdagi fikr urtaga tashlanmoma. Bu mafkura milliy va irqy jihatdan bulinib ketgan kup sonli ijtimoiy guruhlarni «AQSh - millatlar hamjamiyatidir» g'oyasi atrofida birlashtirishni nazarda tutadi. E'tibor beradigan bulsaq yangi mafkurada milliy omilning ustuvorligi urnatilmogda. Demaq gap AQShda asta-sekinlik bilan yagona milliy vujudni shakllantirish, xalqing birdamligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi mafkurani yaratish haqda borayotir. Sharqninr eng ilg'or mamlakatlaridan biri - Yaponiyada fuqaroni tarbiyalashninr enr samarali va ta'sirchan usulidan foydalaniladi. Bunday tarbiyaning asosiy maskani sifatida maktab tanlangan. Chunki maktabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Kunchiqar mamlakatda fuqaro tarbiyasi «axloqiy tarbiya» tizimi doirasida amalga oshiriladi. Rasmiy hujjatlarda «axloqiy tarbiya» tizimi quyidagicha nomlanadi «xarakterni shakllantirishga yunaltirilgan ta'lim», «davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat», «fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash». Aslida, bu tizim millatni tarbiyalash tizimi vazifasini utaydi. Undan qudratli g'oyaviy ta'sir vositasi sifatida ham foydalaniladi. Ko'pchilik olimlarning fikricha, aynan «axloqiy tarbiya» tizimi mamlakat iqtisodiy ravnaqining g'oyaviy asosini tashkil qiladi. Chunki bu tizim ishlab chiqarishda ma'naviy salohiyatdan unumli foydalanishga yunaltirilgan.

Milliy g'oya va O'zbekiston tajribasi ko'tarilgan masalaning muhimligi. O'zbekistonda ham bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil kilishga undaydi. E'tibor berib karaydigan bo'lsak bizda "fuqaro tarbiyasi" haqida kam gapiriladi. Lekin bizda bu vazifa o'z holiga tashlab qo'yilgan emas. O'zbekistonda fuqaro tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lib, asosan ikki ynalishda Qadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida va milliy istiqlol g'oyasini singdirish vositasida amalga oshirilmogda. Ko'rinib turibdiki, bizda ham fuqaro tarbiyasini amalga oshiruvchi maskan sifatida maktab tanlangan.

Milliy istiqlol g'oyasini o'qitishdan ko'zlangan maqsad -zamon talablariga mos insonni tarbiyalashdan iborat.

Targ'ibot tushunchasining o'zagini «rag'bat» so'zi tashkil etgani bois ham, u insonni biror harakatga rag'batlantirishni nazarda tutadi. **“Tashviqot”** tushunchasining o'zagi esa “shavq” so'zidan olingan bo'lib, u kishida biror narsaga shavq uyg'otishga yo'naltiriladi. Targ'ibot-tashviqotdan maqsad-bilim ortirish emas, balki kishini biror harakatga undashdan iborat.

Masalaga ana shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, «milliy istiqlol g'oyasi» haqida ma'lumot berish bilan cheklanmasdan, mafkuraviy maqsadlarni aniq vazifalar shakliga keltirishimiz, milliy istiqlol mafkurasidagi asosiy g'oyalarning amaliy harakatlarga aylanishiga erishishimiz zarur. Chunki milliy g'oya chuqur e'tiqodga aylangan taqdirdagina u ulakan kuch va qudratga ega bo'ladi.

Milliy g'oyani singdirish usullari, texnologiyalari, ustuvor yo'nalishlari 21 asrda insoniyat o'z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi pallasiga qadam qo'ydi. MIG'ni xalq qalbi va ongiga

singdirish muayyan texnologiya asosida olib borilganida tadbirlarning ketma-ketligi, miqyosi va me'yori, davomiyligi va tamoyillari singari jihatlar qamrab olinadi.

Mafkura targ'ibotida yangi texnologiyalarni qullashda jahoning qator davlatlarida bu borada tuplangan ilg'or tajribalardan foydalanish ayni muddao bulur edi.

Masalan, jahonda keng tarqalgan «to'rt qadamli» universal modeldan ham mafkura targ'ibotida foydalanish mumkin. Shu bois uning moqyatini batafsil yoritishga hapakat qilamiz

1-qadam Muammoning quyilishi. Mafkura targ'ibotida singdirilishi zarur bulgan g'oyalar belgilab olinadi. Bundan tashqari, «Nima uchun aynan bu g'oyalarni singdirishga ehtiyoj to'g'ildi», «Bo' g'oyani singdirish ishlariga qaysi tuzilmalar jalb qilinishi kerak?», «Bu g'oyalarni singdirish jarayonida qaysi ijtimoiy guruhlar qamrab olinadi?» kabi savollarga javob topish lozim. Tuplangan ma'lumotlar asosida singdirilishi zarur g'oyalarga jamiyatdagi ehtiyoj, jamoatchilikning fikri, ommaviy axborot vositalarida bu masalalarning qay darajada yoritilganligi va umuman, shu kungacha qilingan ishlar aniqab olinadi.

2-qadam Rejalashtirish va dasturlashtirish bo' bosqich uzoq muddatga muljallangan kommunikativ (muloqot) vazifalar strategileini ishlab chiqishni nazarda tutadi. G'oya targ'ibotida, avvalo, kishilarning milliy g'oyaga munosabatlari, uni qay darajada tushunishlari, ularning qadriyatlari o'rganib chiqiladi. Bundan tashqari, kishilarni milliy istiqlool mafkuraeining muayyan g'oyasi haqda doimiy xabardor qilib turuvchi axborot manbai yaratiladi. Singdirib borilayotgan g'oyalarga kishilarning munosabati urganilib, bu axborotlar chuqur tahlil qilinadi. Davlat idoralari va fuqarolar urtasidagi muloqotlar muntazam ravishda muvofiqlashtirib boriladi. Umuman bu bosqichda, dasturning maqsadi (harakatlar qanday maqsadga xizmat qiladi), ta'sir kursatish auditoriyasi (kimlarga asosiy, e'tibor beriladi), kutilayotgan natijalar (har bir auditoriya bilan ishlashdan kuzlangan aniq maqsad) belgilab olinadi. Milliy istiqlool g'oyasi targ'ibotida auditorilni segmentlash, ya'ni uni bir necha guruhlariga ajratib o'rganish, shu guruhga ta'sir kursatish samarali usullarini ishlab chiqsh zarur. Bu guruhlariga qadriyatlari va manfaatlari bir-biridan farq qiluvchi qatlamlarni, masalan, Talabalarni, askarlarni, tadbirkorlarni, nafaqaxurlarni, ziyolilarni, erkaklarni, ayollarni, yoshlarni yoki keksalarni kiritish mumkin. Tabiiyki, milliy g'oyani singdirishda ziyolilarga muljallangan axborotlar bilan tadbirkorlarning kayfiyatlariga ta'sir kursatib bo'lmaydi. Shuning uchun vatanparvarlik tuyg'ularini singirishda talabalarga ham, harbiy xizmatchilarga ham, ziyolilarga ham, dehqonlarga ham bir xil munosabatda bulish, bir xil usullardan foydalanish kutilgan samara ni bermaidi. Chunki turli ijtimoi guruh vakillarining dunyoqarashi, manfaatlari va qadriyatlari bir-biridan farq qiladi. Mafkura targ'ibotida ainan mana shu qadriyatlarga, manfaatlarga mos g'oyalarni ilgari surish ko'proq samara berishi mumkin. Umuman olganda, ushbu bosqichda kishilarning ongida, ularning harakatlarida uzgarishlar yasash uchun nimalar qilish kerakligi aniqlab olinishi zarur.

Z-qadam Muloqotga kirishish milliy istiqlool mafkurasi targ'ibotini samarali tashkil etish uchun asosii kommunikativ vazifalar rejalashtirilgan va aniq maqsadlar sari yo'naltirilgan bulishi lozim. Buning uchun, birinchi navbatda, kommunikator (axborot beruvchi) va auditoriyaning qarashlari bir-biriga yaqinlashtirilishi lozim. Ushbu yo'nalishdagi ishlarda quyidagi omillarga e'tibor qaratish zarur 1) auditoriya fikrini eng kup ifoda etayotgan ommavii axborot vositalari turiga e'tibor qaratish; 2) auditoriya ishonchini eng kuy qozongan ommavii axborot vositasi turidan keng foidalanish; 3) biror muammo xususidagi kommunikator va auditoriyaning qarashlaridagi farqlarni kamroq kursatish zarur (jumladan, mavjud muammolarni xolis eritish va auditoriyaning ishonchini qozonish); 4) voqea-hodisalarni yoritishda auditoriyaning manfaatlaridan kelib chiqib yondashish; 5) kommunikatorning pozitsiyasini kupchilikning pozitsiyasi sifatida talqin etish; 6) jamiyatdagi ijtimoi guruhlarining manfaatlariga mos holda alohida yondashish axborotni etkazishning e'tiborli jihati shundaki, u yangiliklar kurinishida bulsada, faqat bir tomonlama maqtoov shaklida emas, balki ko'pchilikni qiinayotgan muammolarning echimi sifatida, barchaga tushunarli tilda bayon etilishi lozim. Shundai qilib, uchinchi bosqich uz ichiga quiydagi elementlarni qamrab oladi harakat strategiyasi, kommunikativ strategiya, dasturni amalga oshirish rejasi.

4-qadam yakuniy xulosalar yasash yakuniy xulosalar yasash ikki yo'nalishda baholash mezonini ishlab chiqish va qaita aloqa kanalidan olingan. Ma'lumotlarni o'rganish shaklida

amalgaga oshiriladi. Baholash mezonini ishlab chiqishda kishilarga singdirilgan g'oya ularga qai darajada ta'sir etganligini aniqlashning ob'ektiv mezonlari belgilansa, qaita aloqa kanallardan olingan materiallarni urganishda berilgan axborotlar soni, unga nisbatan javob reaksiyasi singdirilgan g'oya natijasida kishilar uz harakatlarini qai daraja uzgartirganliklari tahlil qilinadi, ularning mafkuraviy ta'sirga javob reaksiyasi o'rganiladi. Milliy istiqloq mafkurasini singdirishning samaradorligini ta'minlashda bu bosqich muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kishilarning fikrlari, voqealarga beradigan baholari, munosabatlaridagi uzgarishlarni doimiy urganib borish g'oyaviy ta'sirning samaradorligini «ulchash» imkonini beradi. Bundan tashqari, insonlarni bezovta qiladigan muammolar haqida doimiy axborot tuplanib, shunga mos ravishda targ'ibot yo'nalishini uzgartirish yoki muayyan g'oyalarning tashviqotini faollashtirish buyicha tavsiyalar beriladi. Jamoatchilik fikridagi bu kabi uzgarishlarni muntazam ravishda urganib borish mafkurani singdirish borasidagi kelgusi ishlar uchun zamin bulib xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek Milliy istiqloq mafkurasini singdirishda yangi texnologiyalardan foydalanish auditoriyani segmentlanishi (turkumlarga ajratilishi) taqozo etadi. Auditoriyani segmentlash quyidagi omillar asosida amalgaga oshiriladi

- Geografik makonga kura. Kishilarning yashash joyi, mintaqada joylashgan urni bir-biridan farq qilishi tufayli milliy istiqloq g'oyasini singdirishda ularning yashash joyiga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Masalan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari aholisining qarashlari, urf-odatlar Tashkent shahri yoki Qoraqalpokiston Respublikasi aholisining qarashlari va urf-odatlaridan ancha farq qiladi.

- Demografik omilga kura. Kishilarning yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli bir-biridan farq qilgani bois ularning qarashlarida va qadriyatlarida ham muayyan tafovutlarni uchratish mumkin. Milliy istiqloq g'oyasi targ'ibotining samaradorligini oshirishda bu omillarni ham nazardan qochirib bulmaydi.

- Psixologik omilga kura. Kishilarning ruhiy holati ancha uzgaruvchan bulsa-da, bu omil mafkura targ'ibotida katta ahamiyat kasb etadi. Milliy istiqloq g'oyasini insonlar ongi va qalbiga singdirishda ularning ruhiy holati, jamiyatimizda kechayotgan islohotlarga munosabati, qullab-quvvatlash darajasiga, voqea-hodisalarga munosabati va kayfiyatlarini hisobga olish darkor.

- Ijtimoiy maqomiga kura. Kishilarning jamiyatda tutgan ijtimoiy maqomi ularning axborotni qay darajada qabul qilishlariga, bu axborotga qanday munosabat bildirishlariga sezilarli ta'sir kursatadi.

- Obro'-e'tiboriga ko'ra. Targ'ibotda yangi texnologiyalarni qo'llashda fikr etakchilaridan foidalanish axborot etkazishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Shu bois kishilarga ta'sir qo'rsatishda ularning obro'-e'tiborli kishilarga bo'lgan ishonchidan mohirona foidalanish talab etiladi. Negaki, muayyan guruhning manfaatlarini ifoda etishda, avvalo, fikr etakchisini aniqlash va u orqali axborot etkazish targ'ibotining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

- A'zolikka ko'ra. Kishilar u yoki bu partiyaning, jamoat birlashmaeining a'zosi ekanligi mafkura targ'ibotida qo'l keluvchi omil sanaladi. Odatda, bitta guruhga mansub kishilarning qarashlarida umumiiqlik o'xshashlik bo'ladi. Bu esa mafkura targ'ibotini bir qadap engillashtirishga xizmat qiladi.

- Qarorlar qabul qilishdagi ishtirokiga ko'ra. Kishilarning ijtimoi-siyosiy hayotdagi ishtiroqari va faolliklari ularning axborotni qabul qilishlariga ta'sir ko'rsatgani bois bu omil millii istiqloq g'oyasi targ'ibotida hisobga olinishi lozim. Qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etishni xohlovchilar yoki o'zini hech narsani hal qilmaidigan «kichkina odam» deb hisoblaidigan kishilar bir xil mazmundagi axborotni qabul qilishda turli nuqtai nazar bilan yondashadilar.

Milliy istiqloq g'oyasi targ'ibotida auditoriyani segmentlash, kishilarni alohida guruhlarga bo'lib ta'sir ko'rsatish katta ahamiyat kasb etadi. Aksincha, bir vaqtning o'zida juda keng auditoriyani va ko'p ob'ektlarni qamrab olishga intilishning samaraei kam bo'ladi.

Milliy istiqloq g'oyasini fuqarolar ongini singdirishning quyidagi shakllari hozirgi paytda yaxshi natija bermoqda.

- Oila, mahalla, ta'lim-tarbiya muassasalarida talaba yoshlarni, fuqarolarni Duneqarashini rivojlantirishga, ongliligini oshirishga, Vatan ravnaqi uchun kerak bo'lgan sifatlarni kamol toptirishga yo'naltirish.
- Fan va ilmiy muassasalar hamda ularda yaratilayotgan darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy tavsiyanoma va ko'rsatmalar orqali;
- Madaniy ma'rifiy muassasalar tomonidan olib borilayotgan ommaviy tadbirlar;
- Adabiyot va san'at asarlari orqali hamda ularning teatrlashtirilgan ko'rinishlari, shuningdek, hujjatli filmlar;
- Hadis ilmida komillikka intilish g'oyalarining bugungi hayotimizdagi talqini miosllari;
- Sport musobaqalarini tashkil etish orqali;
- Ommaviy axborot vositalaridagi eshittirishlar;
- Nodavlat tashkilotlarining ma'rifiy faoliyati, ma'rifiy ko'rsatuv va boshqalar.

Milliy istiqlol g'oyasini fuqarolar ongiga singdirish vositalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- Ta'lim dargohidagi yoshlarga ularning yoshiga qarab, milliy istiqlol g'oyasini singdirish o'quv dasturini yaratish;
- Milliy istiqlol g'oyasini teran aks ettiruvchi o'quv dasturlari, darslik, ko'rgazmali qurollar;
- Bugungi taraqqiyotni olijanob umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot, kino, musiqa, san'at asarlari, muzey, me'moriy obidalar;
- g'oyaviy ta'lim tarbiyada informatsion texnikalar (EHM, masofaviy ta'lim, Internet kabilar);
- ilmiy ko'rgazmalilik;
- Milliy istiqlol g'oyasi m'Aqsad va vazifalari asosidagi bahs. munozara, davra suhbat, saxna ko'rinishlari tashkil etish;
- OAV yordamida axborotlar oqimini muntazam ravishda kuzatib, tahlil qilib bori shva kerakli joylarda ularning jamiyatimiz taraqqiyotiga ta'siri haqida chiqishlar qilish.

Ommaviy axborot vositalari va g'oyaviy ta'sir ko'rsatish mexanizmlari

Ommaviy axborot vositalari eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasidir. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'ib-tashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari doimo demokratiya va so'z erkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib kelgan. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi.

Xayotiylik - bugungi kunda ommaviy axborot voeitalarining faoliyatiga quyilayotgan asosiy talab. Berilayotgan axborotlarning asosan yutuqlarni ko'rsatish, maqtovlardan iborat bo'lishi targ'ibotga qanchalik foydali yoki zararli ekanini chamalab ko'rish lozim. Hayot bor ekan, muammolar, kamchiliklar, nuqsonlar bulaverishi tabiiy Bu - isbot talab qilmaydigan aksioma. Shunday ekan, muammolarning mavjudligiga fojea sifatida emas, odatdagi narsa deb qarashga o'rganish kerak. Ularning borligini ko'rib, uzini ko'pmaganlikka olish bilan faqat zarar keltirishi mumkin. Demak muammolarni o'z vaqtida tan olish, ularni hal qilishga kirishish lozim.

Ta'kidlash joizki, targ'ibotning negizida faqatgina g'oyaga ishonch emas, g'oyani targ'ib qilayotgan insonga ishonch ham yotadi. Shu bois, maqtash targ'ibotning yagona va hatto eng to'g'ri usuli ham emas. Demaq mafkurani hayotni faqat maqtash, uni benuqson tasvirlash orqali targ'ib qilish mumkin emas.

G'arbda ommaviy axborot vositalariga qo'pol bulsa ham **jamiyat manfaatlarini "qo'riqlovchi ko'priki"**, deb nisbat beradilar. Etuk demokratik davlatlarda ular jamiyatning "ko'zlari", "quloqlari" vazifasini bajaradilar. Ogohlantiruvchi tizim sifatida ular jamiyatdagi illatlardan xabar beruvchi, muammolarni dadil kutarib chiqib, ularning turli echimlarini taklif qiluvchi qudratli kuchga aylangan. Ta'kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari faoliyatining plyuralizm tamoyili asosiga qurilishi demokratiyaning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Buning uchun qapamaqarshi nuqtai nazarlardan iborat bulgan dasturlarni yaratish, muqobil fikrlar to'qnashuviga

erishish lozim. Shundagina ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish va rag'batlantirishga qodir bo'ladi.

Biz demokratiyani qanday tushunsak, ommaviy axborot vositalariga ham shunday vazifalarni yuklaymiz. Biz demokratiyani mustaqillik erkinlik va mas'uliyat deb tushunar ekanmiz, ommaviy axborot vositalaridan ham mustaqillik, erkinlik va mas'uliyatni kutamiz. Demak, jurnalistlar bu tushunchalarini anglashi, ularga ehtiyoj sezishi, ularni qadplashi, ulardan foydalana bilishi va ular uchun kurashishi zarur.

Ommaviy axborot vositalari orqali milliy istiqlol g'oyasini singdirishning yana bir muhim jihati mavjud. Bu jihat - axborot terroriga, mafkuraviy tahdidlarga munosib javob berish, ma'naviy-mafkuraviy jihatdan xalqimizni tobe etishga intilishlarning payini kesish va o'zbekiston fuqarolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq Ommaviy axborot vositalarining ta'sir kuchini kursatadigan shunday bir gap bor **"har qanday puch g'oya, uydirma haftasiga uch martadan turt yil davomida takrorlansa - "haqiqat" tayyor buladi, odamlar unga chippachin ishonadilar"**.

Oxirgi paytlarda informatsion hurujlarning tez-tez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabatning uzgarganligidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. **Bu qurol - axborotdir.** Bunday qurol yordamida olib boriladigan informatsion urushlarda insonning ongi va qalbi nishonga olinadi. Garchi u daydi o'q singari insonni jismonan yo'q qila olmasa-da, uning qo'poruvchilik kuchi, keltiradigan talofotlari har qanday ommaviy qirg'in qurolinikidan kam emas. Chunki bu qurol yordamida onga berilgan zarbalar kishini adashtiradi, uni uz manfaatlariga zid harakat qilishga undaydi va demaq insonni boshqarish, uning ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi. Aslida, axborot maqcadga erishishning eng arzon vositasi ham sanaladi. Haqiqatan ham, informatsion hurujlar uyushtirish uchun u qadap ko'p mehnat, u qadap ko'p harakat, u qadap ko'p harajat talab etilmaydi. Garchi bunday mafkuraviy ekspansiya otishmalar va qon tukishlarni keltirib chiqarmasa-da, milliy uzlikni anglashni zaiflashtirish evaziga tanazzulga olib keladi.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, 6unday informatsion quporuvchilikdan maqcad - mamlakatimiz aholisiga axborot orqali va mafkuraviy yul bilan tazyiq utkazish, jahon afkor ommasida o'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur to'g'dirishga intilishdan iborat. "Milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasidagi ba'zi fikrlar ham bugungi hurujlarning maqsadini oydinlashtiradi. Ushbu risolada aytilishicha, geopolitik maqsadlar - davlatning uzga qududlarda o'z mavqeyi va ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan siyosatdir. Ochig'i, bu ta'sirif ayrim ommaviy axborot vositalarining faoliyati nimaga yunaltirilganligini fosh etib qo'ymoqda.

Yirik siyosatchilardan biri Buyuk Britaniya sobiq Bosh vaziri Margaret Tetcher **"Ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun kislorod vazifasini utaydi", degan. Bu gapning mag'zini chaqan odam "ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun havodek zarur ekan", degan xulosaga keladi.** Bir qarashda bu fikr mantiqsizday tuyuladi. Chuqurroq uylab kursak-chi? Aslida, terrorchilar bir qancha insonlarni shafqatsizlik bilan uldirish orqali millionlarda qo'pqyv va daqshat uyg'otishga intiladilar. Demaq ularning maqqadlari - uldirish emas, jamoatchilikka kuchli ta'sir qilishdir. Taassufki, ba'zi ommaviy axborot vositalari uzlari bilmagan holda terrorizmning buzg'unchilik qo'poruvchilik ta'sirini yanada oshirishga "xizmat" qilib qo'yadilar. Ularning terror oqibatlarini haqidagi vaqimali axborotlari insonlardagi qurquvni, daqshatni, himoyasizlik hissini yanada kuchaytirib yuboradi. Bu kabi axborotlarga qarshi aksiltarg'ibotni uyushtirish zarurati to'g'iladi.

2. Bunyodkor g'oya deb, insonni ulug'laydigan, uning kuch-g'ayrati va salohiyatini oshirib, xalqi, Vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etadigan, o'zida mehnat, taraqqiyot, do'stlik, tinchlik, adolat, halollik kabi ezgu maqsadlarni mujassam etadigan g'oyaga aytiladi.

Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat tsivilizatsiyaga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda. Prezident Islom Karimovning «O'zbek tom ma'noda bunyodkordir» degan so'zlarida ham ana shu boqiy g'oyalarning ma'no-mazmuni o'z ifodasini topgan. Bunday bunyodkorlik xalqimizga ota-bobolaridan merosdir.

Insoniyat tarixida odamlar ongi va shuuriga adolat, haqiqat, ezgulik, mehnatsevarlik kabi yuksak g'oyalar urug'ini sepgan zot, payg'ambar Zardo'sht yaratgan «Avesto» kitobida quyidagi satrlar mavjud: «Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishlar bilan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishni alqayman. O'zimni bori ezgu fikrga, ezgu so'zlar (aytish)ga, ezgu ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon fikrlardan, yomon so'zu yomon ishlardan yuz o'g'iraman». Bu yuksak g'oyalar bundan 2700 yil muqaddam yashab o'tgan vatandoshimiz Zardushtning o'lmas mafkurasini edi.

Qadimgi Dune bunyodkor g'oyalari:

1. Qadimgi SHarq bunyodkor g'oyalari va ta'limotlari (Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo):

Asosiy turlari, xarakterli xususiyatlari:

4. Buddizm, braxmanlik.
5. Zardushtiylik (Zardo'sht).
6. Konfutsiy, daosizm (Lao-tsz) Mo-tsz.

2. Qadimgi YUnon va Rum bunyodkor g'oyalari va ta'limotlari:

- 1) Gomer, Gesiod, Demokrit (er.avv. VI-V asr).
- 2) Aflotun (er.avv. 427-347 y.).
- 3) Arastu (er.avv. 344-322 y.).
- 4) Seneka (er.avv. 465 y.). Neoplatonizm (Plotin, Porfiri, Prokl) (er.avv. IV-III asr).

Insoniyat doimo yaxshilikni yoqlab, yomonlikka qarshi kurashadi, yaratuvchanlik va bunyodkorlik unga xos bo'lgan buyuk fazilatlaridir. SHarq xalqlarining buyuk ijodkorligi, bunyodkorligi va qadriyatlari turli davrlar ta'sirida g'arbga, xususan, antik YUnon-Rim madaniyatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ana shunday ta'sir ostida YUnon-Rim madaniyati, ilmfani, falsafiy tafakkur dunyosi shu qadar yuksaldiki, o'sha davrda yaratilgan shoh asarlar va ularning mualliflari merosi hanuz bashariyatning ezgu ishlariga xizmat qilib kelmoqda. SHu ma'noda, komil ishonch bilan aytish mumkinki, insoniyatning haqiqiy umumbashariy madaniyati g'arb tsivilizatsiyasi va SHarq ma'naviyatining qo'shilishi asosida yaratilgan.

Hayotning, borliqning mohiyatini anglash to'g'risidagi **buddizm** dini-ning asoschisi Siddxartxa Gautama qarashlari muhim o'rin tutadi. Har qan-day insoniy tuyg'u, hissiyot, ehtiros va istak azob-uqubatlarni chuqurlashti-radi. Hayot mazmunan tug'ilish, sevish, o'lim, azobdan iborat. «Borliq girdobi»dan chiqib olish uchun g'aflatdan uyg'onish, dunyo mohiyatini anglash, hayotga chanqoqlikdan, ko'ngilxushliklarga, lazzatlarga, hokimiyatga, boylikka intilishlardan voz kechish lozim. Faqat shundagina «najot topish yo'li»ga kirish mumkin. Inson beshta axloqiy talabga amal qilishi lozim: har bir kishi yomonlik qilishdan, yolg'on gapirishdan, o'g'irlik qilishdan, xis-tuyg'ularga ortiqcha berilishdan, ichkilikdan o'zini tiyishi kerak. S.Gautama quyidagi 8 ta ongli xarakatni ilgari suradi:

- 9) E'tiqod to'g'ri shakllangan bo'lishi.
- 10) Maqsad sari qat'iy xarakat qilishi.
- 11) To'g'ri tafakkur va nutq bo'lishi.
- 12) To'g'ri fe'l-atvor bo'lishi.
- 13) To'g'ri turmush tarzi bo'lishi.
- 14) Kuch-g'ayratning to'g'ri maqsadga qaratilgan bo'lishi.
- 15) Fikr, maqsadning to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi.
- 16) Diqqat-e'tiborni to'g'ri orzu-niyat qilishga qaratish kerakligi ta'kidlanadi¹.

Suqrot (Sokrat, mil. av. 470-399 yy.) esa bahs orqali, ya'ni muayyan masalalarni o'rta qo'yish va ularga javob topish yo'li bilan haqiqatni aniqlash mumkin, deb bilgan. U ezgulik - bilim va donishmandlikdir, yaxshilik mohiyatini to'g'ri anglagan insongina yaxshilik qiladi, deb tushuntiradi. Suqrot adolatga xilof bo'lgan davlat boshqaruvining hamma shakllarini tanqid qiladi, faqatgina adolatli, demokratik davlat boshqaruvini yoqlab chiqadi.

¹ Jo'raev U., Saydjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. -T.: «Sharq», 1998. 77-bet.

Masalan, A.Makedonskiyning ustoz, o'zining bu jahongir shogirdi Osiyoni mahv etgach, unga yuborilgan «Avesto» kitobini chuqur o'rgangan YUnon faylasufi va qomusiy olimi **Arastu** (Aristotel, mil. av. 384-322 yy.) o'z g'oyaviy qarashlarida ustoz Aflotun (Platon, mil. av. 427-348 yy.) g'oyalarini boyitdi va unga muhim o'zgartishlar kiritdi. U jamiyatda bo'lib o'tayotgan barcha voqealarning tabiatiga xos deb biladi. Bu bilan jamiyatni tubdan o'zgartirish g'oyalariga qarshi chiqadi va jamiyat rivoji tabiiy jarayonlar tarzida kechishi kerak, deb hisoblaydi.

Suqrotning shogirdi Aflotun esa g'oyalar umumiy tushunchalar sifatida odam aqliga bog'liq emas, balki u ilohiy tushunchalar deb izohlagan edi. Uning asosiy g'oyasi - ezigulik yoki yagonalik edi. Bunda oliy g'oya ko'pincha xudoga tenglashtiriladi.

Xitoy va hind mutafakkirlarining jamiyat rivoji haqidagi qarashlari va bunyodkorlik g'oyalari ham Osiyoning «sharqona» ma'naviyatida o'ziga xos o'rin tutadi. Jumladan, buyuk Xitoy mutafakkiri **Konfutsiy (mil. av. 551-479)** g'oyalari hanuzgacha Xitoy xalqi mafkurasida etakchilik qilib kelmoqda. Bu g'oyaning asosi jamiyatni har qanday ijtimoiy larzalardan asrab qolish va insonlar manfaatini yuqori qo'yishga qaratilgan. Allomaning maqsadi xalqni mavjud tartib-qoidalarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash bo'lgan. Bu g'oyaga ko'ra, insonlar jamiyatning tabiiy taraqqiyotiga qarshi chiqmasligi, ya'ni inqilobiy yo'lni tanlamasligi kerak. Konfutsiy insoniyat haqida fikr yuritgan ekan, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqeyi orqali emas, balki odamiylik, adolatparvarlik, haqg'oylik, samimiyat, farzandlik izzat-hurmati kabi yuksak ma'naviy fazilatlarga erishish tufayli kamolatga etishuvi mumkin deb, hisoblaydi. Bunday «sharqona demokratiya»ning tamoyillarini o'zida aks ettirgan g'oyalar butun-butun davlatlarning uzoq yillar davomida barqaror yashab qolishiga sabab bo'lgani, SHarq xalqlarining tarixiy, ijtimoiy, siyosiy taraqqiyotiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatgani shubhasiz.

SHarqda, ya'ni Turon zaminda esa jamiyat rivoji va bunyodkorlik g'oyalari xususida Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy qarashlari o'ziga xos o'rin tutadi. «Al-muallim as-Soni» («Ikkinchi muallim»), SHarq Aristoteli deb nom olgan **Abu Nasr Forobiy (873-990 yy.)** o'zining «Fozil odamlar shahri», «Fuqarolik siyosati», «Baxt saodatga erishuv haqida» kabi asarlarida olijanob jamiyat, adolatli tuzum haqidagi o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib, o'z davri uchun izchil ta'limot yaratdi. U har tomonlama etuk, barcha aholini baxt-saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi ideal jamoa haqidagi g'oyalarni olg'a surdi.

O'sha davrning buyuk mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning bu boradagi qarashlari ham o'ziga xosdir. Ular har bir narsani kuzatish va tajriba asosida o'rganishga, keyin xulosa chiqarishga intilganlar, barcha bunyodkorlik insonning mehnatiga bog'liqligini ta'kidlaganlar. Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy esa o'z asarlari bilan jamiyat taraqqiyotining zamonasiga xos fazilatlarini yoritishga harakat qilgan. U she'rlari va dostonlarida razolatga, beqarorlikka, urushu janjallarga, ma'rifatsizlikka qarshi kurash g'oyalarini ulug'laydi. Insonlarni mehnatga, yaratuvchanlikka, adolatga chaqiradi. Ma'rifatga asoslangan jamiyat yaratishni orzu qiladi. Uning bu orzulari «Farhod va SHirin», «Saddi Iskandariy» kabi dostonlarida o'z ifodasini topgan. SHoirning bevosita o'zi ham qator bunyodkorlik ishlariga bosh-qosh bo'lgan.

Ko'hna Turon o'z boshidan buyuk tarixiy voqealar ichida Amir Temurning bunyodkorlik g'oyalari va amaliy faoliyati katta ahamiyatga ega. U garchi fotihlar qatoridan o'rin olib, behisob jangu-jadallarni boshidan kechirgan bo'lsa-da, asosiy maqsadi bunyodkorlik va yaratuvchilik bo'lgan. Jumladan, u «Temur tuzuklari»da: «Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi etmasa, kerakli uskunalarini etkazib berib, unga yordam berilsin», deb ko'rsatma beradi. SHu o'rinda, yurtboshimizning Amir Temur o'z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan, desak, adolatdan bo'ladi, degan fikrlari nihoyatda o'rinlidir. Zero Sohibqironning Movarounnahr, Xuroson va boshqa joylarda bunyod etgan inshootlari, uning o'zi va temuriylar sulolasi davridagi madaniyat, fan, adabiyot sohasidagi yutuqlar bunga misol bo'la oladi.

O'rta asr bunyodkor g'oyalari:

I. O'rta SHarq bunyodkor g'oyalari va ta'limotlari:

- 1) Islom diniy ta'limoti. Qur'on va Payg'ambar Muhammad oliy hissalomning Hadislari.
- 2) Al-Xorazmiy (783–850 yi.).

3) Al-Fargʻoniy (IX asr 861 y. vafot etgan).

4) Imom al-Buxoriy (809–869 yy.).

5) Abu Nasr Forobiy (873–950 yy.).

3. Buzgʻunchi gʻoyalar xalqlar boshiga soʻngsiz kulfatlar keltiradi. Bunga olis va yaqin tarixdan koʻplab misollar keltirish mumkin. Inson va jamiyat bor ekan, ezgu gʻoyalarning ziddi boʻlgan zulm va zoʻravonlik, qabohat va jaholat yangi-yangi shakllarda namoyon boʻlishga urinadi. Lekin ular odamzotning adolat, tinchlik va birodarlik, taraqqiyot va farovonlik gʻoyalariga tayanib, oliy maqsadlar sari intilishlarini aslo toʻxtata olmaydi.

«Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan koʻra vahshiylik, ur-yiqit instinktlari, yaʼni xatti-harakatlarini qoʻzgʻatib yuborish osonroq» (I.A.Karimov).

7-Mavzu: Globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetni shakllantirish vazifalari.

REJA:

- 1.Xozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi.
- 2.Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash usullari va vositalari.
- 3.“Ommaviy madaniyat” uning oqibatlariga nisbatan immunitetni shakllantirish zaruriyati.
- 4.Mafkuraviy poligon tushunchasi, uning namoyon bo'lish shakllari.
- 5.O'zbekiston xalqaro mavqeyini mustaxkamlashning mafkuraviy, ijtimoiy tarixiy ahamiyati.

Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. Hozirgi davr - dunyo g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir. Butun Er yuzi odamzod uchun yagona makon bo'lib hisoblanadi. Ammo tarixda mavjud chegaralarni o'zgartirish, muayyan hududlarni bosib olish uchun son-sanoqsiz urushlar bo'lgan. Bu jarayonda esa urush qurollari muntazam takomillashib borgan. Mazkur urushlar to XX asrgacha asosan ko'proq bir yo ikki davlat yoxuj mintaq o'rtasida bo'lgan. XX asrda ro'y bergan ikkita jahon urushida o'nlab davlatlar, bir necha qit'a mamlakatlari ishtirok etgan.

Xullas, urush qurollari takomillashib boraverdi. Bugungi kunda ular boshqa hududni bosib olish u yoqda tursin, balki butun Er sayyorasidagi hayotni bir necha marta yo'q qilib tashlashga etadi. Insoniyat XX asr oxiriga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolarga duch keldi. Urush va tinchlik, ekologik falokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm kabi muammolar ana shular jumlasidandir.

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasida o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la ihtotalanib olgan birorta ham davlat yo'q. Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq.

Hozirgi davrda g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar globallashib, er yuzidagi barcha mintaq va mamlakatlarni qamrab olib, quyidagi xususiyatlarini namoyon qilmoqda, ya'ni: *Birinchidan*, xalqaro miqyosda **integratsiyalashish** ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy hayotning barcha sohalarini qamrab olib, milliy chegaralarni shartli qilib qo'ymoqda. *Ikkinchidan*, xozirgi davrda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning **globallashish** xususiyati ob'ektiv jarayon bo'lib, jamiyat hayotining hamma sohalariga istisnosiz ta'sir ko'rsatishi bilan xarakterlanadi. *Uchinchidan*, jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari milliy rivojlanishning modellarida **differetsiyalashish** jarayonlarini namoyon qilib, insoniyat taraqqiyotida umumiy qonuniyatlarni milliy darajada konkretlashtirmoqda. *To'rtinchidan*, xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy munosabatlarning texnik-texnologik, intellektual asoslari, aloqa kommunikatsiya vositalari rivojlanishi natijasida g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarning **intensivlashuvi** bilan xarakterlanadi.

XX asrning oxiri - XXI asr boshlarida dunyoda ana shu jarayonlar bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Ilgari oddiy fuqarolar, hatto mutaxassislar tasavvur etolmagan hodisalar sodir bo'lishi tufayli dunyoning siyosiy qiyofasi o'zgarib, barcha davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy sohalarida yangi sifat o'zgarishlariga sabab bo'ldi. Xususan, aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik teleradioaloqa tizimlarining texnik-texnologik vositalari kuchayib ketishi bilan axborot almashuvi, binobarin g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda.

G'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki yo'nalish, tendentsiya namoyon bo'lmoqda. Birinchidan, insoniyat tsivilizatsiyasi tarixida erishgan har qanday moddiy va ma'naviy qadriyatlarining umuminsoniy jihatlar tarixiy makon doirasidan chiqib, baynalminallashib, universallashib bormoqda. Boshqacha aytganda, milliylik va umuminsoniylik tamoyilining integratsiyalashuv jarayoni kechmoqda. Ikkinchidan, millatlar va davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishidagi beqarorlik, ular manfaatlaridagi o'ziga xoslikni mutlaqlashtirish insoniyatga, shu jumladan, o'z millatining kelajagiga xavf tug'diradigan salbiy hodisalarning mafkuralashgan holda globallashuviga olib

kelmoqda. Bu xalqaro terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm va narkobiznes hodisalarida namoyon bo'lmoqda. Biron–bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga siyosiyilmoqda.

Bunday holatning asoslari ham, paydo bo'lish sabablari ham ko'p. Ammo, eng muhimi 70 yildan ortiqroq hukm surgan ikki ziddiyatli, bir-biriga qarama-qarshi qutblarning barham topishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. «Totalitar tuzum emirilgandan keyin, - degan edi I. Karimov, - dunyoning qutblarga bo'linishi barham topdi. Lekin shu tufayli u xavfsizroq, barqarorroq, sobitqadamroq bo'lib qoldimi?». Darhaqiqat, masalaning shu tarzda qo'yilishida juda katta mantiq bor. Zero, XX asr oxirida «ro'y bergan ulkan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ikki qutbli dunyoning barham topishi natijasida nisbiy muvozanatning buzilishi jahonning mafkuraviy manzarasini o'zgartirib yubordi». Chunonchi, hozirgi kunga kelib:

1. Alohida olingan mamlakatlar, davlatlar ittifoqi yoki harbiy bloklar o'rtasidagi urushlar xavf nisbatan kamaydi
2. SSSR deb atalgan imperiya va jahon sotsialistik lagerining barham topishi oqibatida dunyoda ikki qutbli g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlar o'rniga ko'p qutbli holat vujudga keldi.
4. Dunyo xaritasining o'zgarishi bilan siyosiy iqlim mo'tadillashuvi g'oyat nisbiy xarakter kasb etdi, ya'ni an'anaviy ziddiyatlar o'rniga yangi – noan'anaviy ziddiyatlar vujudga keldi va ular tobora keskinlashmoqda.

5. Global muammolarni hal qilishda siyosiy munosabatlarning integratsiyalashuvi tendentsiyasi qonuniyat maqomiga ega bo'lib, turli davlatlar, xalqlar, millatlarning rivojlanish istiqbollari shu qonuniyatga bog'liqligi anglab etilmoqda. Qurol kuchi bilan bo'ladigan urushlar o'rnini mafkuraviy agressiya va tajovuzlar egallamoqda.

XX asrning oxirlarida insoniyat tsivilizatsiyasiga yangi jiddiy xavflar vujudga keldi. Xalqaro terrorizm, global narkobiznes, jahon korruptsiyasi, fundamentalizm, ekstremizm kabi hodisalar ham integratsiya, globalizatsiya, universallashtiruv va intensivlashuv jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Xususan, insoniyatning o'tmish tarixi shundan dalolat beradiki, urushlar - ijtimoiy taraqqiyotning kushandasi, rivojlanishning to'sig'idir.

Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, o'tgan 5 ming yil mobaynida insoniyat hammasi bo'lib 292 yil urushsiz, tinchlikda yashagan. Qolgan vaqtda 14 mingdan ortiq urushlar bo'lgan va ular 3 mld. 64 million kishining yostig'ini quritgan. Ushbu urushlarga ketgan mablag'larni oltin bahosida hisoblaganda qalinligi 10 metr, eni 161 km. ga to'g'ri keladigan va er sharini to'la aylanib chiqishga etadigan oltin kamar yasash mumkin edi.

XX asrda ro'y bergan jahon urushlarining birinchisi 10 mln., ikkinchisi esa 60 mln. dan ortiqroq kishining halok bo'lishiga, millionlab kishilarning boshpanasiz qolishiga, minglab shahar va qishloqlarning vayron bo'lishiga, pirovard natijada esa insoniyat hayotida ulkan yo'qotishlarga sabab bo'ldi.

Sotsialistik «lager»ning barham topishi bilan uchinchi jahon urushi xavfi tamomila yo'qoldi, degan siyosiy xulosa, hozircha o'zining qat'iy isbotini topgan emas. Biroq, hozirgi davrga kelib, xalqaro ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarning yuqorida ko'rsatilgan jarayonlari quyidagi umumiy xulosalarga asos bo'lishi mumkin:

- tinchlik umuminsoniy g'oya va qadriyat ekanligi to'g'risidagi ijtimoiy fikr global ahamiyat kasb etmoqda;
- olamshumul muammolarni hal etishda, bahsli vaziyatlar echimida muzoqaralar va diplomatik murosa yagona ma'qul usul ekanligi tan olinib boshlandi;
- har bir davlatning milliy manfaati jahon hamjamiyati manfaati bilan uyg'unlashgandagina ma'lum yutuqqa erishish mumkinligi aniq bo'lib qolmoqda.

Boshqacha aytganda, hozirgi kunga kelib dunyoning siyosiy qiyofasi o'zgardi. Global muammolar keskinlashuvining oldini olish uchun aniq shart-sharoit va imkoniyatlari paydo bo'ldi. Ilgari bir-biri bilan g'oyaviy-mafkuraviy nuqtai nazardan dushmanchilik kayfiyatidagi davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch, bir-birini hurmat qilish, milliy manfaatlariga tajovuz qilishdan tiyilish, xullas dunyoda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda integrativ faoliyat zarurligi anglab etilib, uning universal usullari va vositalarini qidirishda hamfikrlik yuzaga kelmoqda.

Ammo, shu bilan birga, hozirgi paytda g'oyaviy-mafkuraviy agressiya, tazyiqlarning kuchayishi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, ma'naviy-mafkuraviy tajovuzlarning yangi-yangi yo'nalishlari vujudga kelib, ular globallashtirib bormoqda. Bu tajovuzlar ma'lum millat (yoki ular guruhi)ning ijtimoiy barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tuzumni zaiflashtirish va buzishga yo'naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi g'oyaviy-nazariy qarashlar hamda unga asoslangan amaliyot tarzida namoyon bo'lmoqda.

Mafkuraviy tajovuzlarning hozirgi kundagi miqyosi va keskinligi shu darajada ortib ketdiki, uni bir davlat miqyosida, alohida olingan bir mamlakat darajasida hal etish amalda mumkin bo'lmay qoldi. Ayniqsa, buzg'unchi g'oyalar, diniy ekstremizm, axloqsizlik g'oyalarini singdirish mafkuraviy tajovuzning asosini tashkil etmoqda. Bunday mafkuraviy tajovuzlarning maqsadi, aholining ma'lum qatlamlarida, ayniqsa yoshlar o'rtasida parokandalikni keltirib chiqarish, ularda rasmiy davlat va konstitutsion tuzumga nisbatan norozilik kayfiyatini o'yg'otishdan iboratdir.

Fuqaro tarbiyasini tashkil etish: dunyo tajribasi va muammolari. Ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo - saodat - yo falokat masalasidir» deganlarida avvalo **farzand** tarbiyasini, **avlod** tarbiyasini, qolaversa **millat tarbiyasini** nazarda tutib aytgan edi.

Darhaqiqat, har bir davlat o'z fuqarolari bilimli, haq-huquqini taniydigan, ma'naviy barkamol, bir so'z bilan aytganda, **komil inson** bo'lib voyaga etishi haqida qayg'uradi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov bu xususda shunday deydi:

«Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. **Komil inson deganda, biz**, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz».

yashashga ishtiyoq, mustaqillikni qadrlash tuyg'usi shakllantiriladi.

AQSh ning fan va texnologiyalar sohasida boshqa davlatlardan o'zib ketgan-ligining sababi shundaki, avvalo Amerikada erkin va ijodiy fikr qadrlanadi hamda o'zgacha fikrlaydiganlarga nisbatan bag'rikenglik qaror toptirilgan. Lekin amerikalik fuqaroni tarbiyalashning eng asosiy jihati boshqa bir g'oyada yashirin. U ham bo'lsa, har bir insonni noyob iste'dod egasi deb bilish, har bir shaxsga hazrati inson sifatida murojaat qilishdir.

Insonga bunday munosabat, so'zsiz, uning salohiyatini yuzaga chiqarishga imkon beradi. Aynan shu g'oya ta'sirida amerikaliklar orasida o'zini «o'rtamiyona odam» deb biladigan yoxud «men bir oddiy odam» deb gapiradigan kishilar nihoyatda kam uchraydi. Amerika fuqarolari adolatni ham o'ziga xos tarzda tushunadilar: shaxs nimagaki erishsa, qanday maqomni egallasa, bunga faqat o'z aqli va iste'dodi bilangina etishadi.

Shunday qilib, har bir amerikalik bolaligidanoq kimgadir va nimagadir orqa qilishga emas, balki o'z kuchiga tayanishga o'rgatiladi. Har bir amerikalikda kelajakka ishonch uyg'otiladi. Huddi ana shu «Amerika orzusi» kishilarni yangi maqsadlar sari rag'batlantiradi, yangi g'oyalarni amalga oshirishga shavq uyg'otadi. Umuman, demokratiya qoidalari va erkinlik Amerika mafkurasining poydevorini tashkil etadi. Bunday tarbiya natijasida faqat o'z kuchiga ishonish, ruhiy ozodlik va mustaqil fikrlash kabi xislatlar amerikaliklarning qon-qoniga singib ketgan.

Albatta, «AQSh da bu borada muammo yo'q ekan» degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Oxirgi paytlarda erkinlikka hadeb urg'u beraverish oqibatida amerikaliklar erkinlikni jamiyat oldidagi majburiyatlardan ham ozodlik sifatida idrok eta boshladilar. Shu bois hozirgi kunda AQShning ziyoli-lari tomonidan yangi mafkura - **«liberal - natsionalizm»** mafkurasini yaratish zarurligi haqidagi fikr o'rta tashlanmoqda. Bu mafkura milliy va irqiy jihatdan bo'linib ketgan ko'p sonli ijtimoiy guruhlarini **«AQSh - millatlar hamjamiyatidir»** g'oyasi atrofida birlashtirishni nazarda tutadi. E'tibor beradigan bo'lsak, yangi mafkurada milliy omilning ustuvorligi o'rnatilmoqda. Demak, gap AQShda asta-sekinlik bilan yagona milliy vujudni shakllantirish, xalqning birdam-ligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi mafkurani yaratish haqida borayotir.

2. Yaponiyada milliy mafkura tarbiyasi. Sharqning eng ilg'or mamlakatlaridan biri Yaponiyada fuqaroni, yoshlarni tarbiyalashning eng samarali va ta'sirchan usulidan foydalaniladi. Bunday tarbiyaning asosiy maskani sifatida **maktab** tanlangan. Chunki maktabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Kunchiqar mamlakatda **fuqaro tarbiyasi «ahloqiy**

tarbiya» tizimi doirasida amalga oshiriladi. Rasmiy hujjatlarda «axloqiy tarbiya» tizimi quyidagicha nomlanadi: 1) «xarakterni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim»; 2) «davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat»; 3) «fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash».

Aslida, bu tizim millatni tarbiyalash tizimi vazifasini o'taydi. Undan qudratli g'oyaviy ta'sir vositasi sifatida ham foydalaniladi. Ko'pchilik olimlarning fikricha, aynan **«axloqiy tarbiya»** tizimi Yaponiya mamlakati iqtisodiy ravnaqining g'oyaviy asosini tashkil qiladi. Chunki bu tizim ishlab chiqarishda ma'naviy salohiyatdan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. Shu boisdan ham ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588-1679) «Davlatning qandayligi haqida xulosa chiqarish uchun avvalo odamlarning axloqi, qiziqishlari va fe'l-atvorini o'rganish joizdir» degan edi.

Ikkinchi jahon urushidan xaroba bo'lib chiqqan Yaponiya mamlakatining 30-40 yilda ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'ringa chiqib olgani ko'pchilikning xayratini uyg'otadi. «Kichik bir orolning bunday qisqa vaqtda hunarmandchilik ustaxonalaridan avtomatlashgan sanoatgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tganligini qanday tushuntirish mumkin?». Mazkur savolga yaponlar quyidagicha javob beradilar: *«Salohiyat insonlarda yashirin»*. Yaponiya menejmentining oltin qoidasiga ko'ra, **insondan qimmatroq boylik yo'q. Yapon kishisida quyidagi qadriyat va sifatlar qaror toptiriladi:**

mehnatsevarlik, intizomlilik va jamoaviylik yapon milliy xarakteriga xos xususiyatlar sanaladi. Biroq, davlat bu bilan qanoatlanmay, o'z fuqarolarida ushbu sifatlarni mustahkamlash va kuchaytirish vazifasini ***maorifga*** yuklaydi. Natijada, maktablarda ***guruhiy birdamlikni tarbiyalashga*** alohida e'tibor qaratiladi. Bunda kollektivning yutug'i ham, mag'lubiyati ham guruhning har bir a'zosiga bog'liq ekanligi haqidagi g'oya singdiriladi, o'z rolini aniq bilish va shunga yarasha mas'uliyatni his qilish talab etiladi. Bunday tarbiya ko'rgan fuqaro jamoa muammolarini o'zining shaxsiy muammolari sifatida qabul qiladi. Olimlarning fikricha, aynan shunday guruhiy birdamlik (yaponchada «aydagarasyugi») tufayli mamlakat misli ko'rilmagan iqtisodiy yutuqlarga erishdi.

Mehnat yapon kishisi uchun axloqiy qadriyat sanaladi. Uning qadriyat darajasiga ko'tarilishida «axloqiy tarbiya» tizimining roli beqiyos. Gap shundaki, yapon kishisiga maktabdayoq quyidagi g'oyalar singdiriladi: 1) «Fa-qat tirishqoqlik va mehnat bilan muvaffaqiyatga erishish mumkin», 2) «O'z ustingda tinimsiz ishla - shunda birovdan kam bo'lmaysan». Bu kabi g'oyalar ta'sirida ulg'aygan yapon kishisi o'zining barcha harakatlarini quyidagi mantiqqa bo'ysundiradi: ***«Bor imkoniyatlaringni ishga sol!»***

Shunday qilib, davlat o'z fuqarolarida tirishqoqlik va hafsala, qunt va g'ayratni maqsadli ravishda qaror toptiradi. Intizomdan jamiyat manfaatlarida foydalanish borasida esa yaponlar boshqalarga o'rnak bo'la oladi. **«Ahloqiy tarbiya»** natijasida Yaponiyada fuqarolar mehnat intizomining buzilishini shunchaki salbiy illat deb hisoblamay, balki uni Vatanga hiyonat deb qabul qiladilar. Yaponiyada ***fuqaro tarbiyasi zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirib boriladi***. Aynan shu tufayli yapon fuqarolari jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi qudratli kuch deb biladilar. Ko'rinib, turibdiki, millat kelajagini o'ylaydigan hech bir davlat fuqaro tarbiyasi masalasini e'tiborsiz qoldira olmaydi.

3. O'zbekistonda «fuqaro tarbiyasi». Milliy g'oya va O'zbekiston tajribasi ko'tarilgan masalaning muhimligi O'zbekistonda ham bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilishga undaydi. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, bizda **«fuqaro tarbiyasi»** haqida kam gapiriladi. Lekin bizda bu vazifa o'z holiga tashlab qo'yilgan emas. O'zbekistonda fuqaro tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lib, asosan ikki yo'nalishda:

1) Qadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida va 2) Milliy istiqlol g'oyasini singdirish vositasida amalga oshirilmoqda. Ko'rinib turibdiki, bizda ham fuqaro tarbiyasini amalga oshiruvchi maskan sifatida **maktab** tanlangan. Chunki maktabda bola

bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Demak, **maorifga** millat fuqarosini tarbiya-lashdek mas'uliyatli vazifa yuklangan. Maorif, xalq ta'limi yo'li bilan komil inson qiyofasini yaratish zarur.

Avvalo har jihatdan faol insonni tarbiyalashga e'tibor qaratish, g'oyaviy tarbiya vositasida **shaxsning salohiyatini** maksimal darajada yuzaga chiqarishga erishish, har bir bolaning

iqtidorini rivojlantirishga urg'u berish zarur. Buning uchun insonni passiv ijrosilikdan emas, balki faol tashabbuskorlikdan ko'proq manfaatdor ekanligiga ishonitirish kerak. O'quv jarayonida bu vazifani hal qilish uchun ta'lim jarayonini «yodlash»dan xalos qilish va uni muammolarni hal qilishga yo'naltirish zarur. Shaxsning ijodiy fikrlashini rivojlantirish ham aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi. Foyaviy tarbiyani tashkil qilishda nazariy fikrlarga amaliy shakllar berish, bilimlarni harakatlarga aylantirish muhim sanaladi. Buning uchun pragmatik fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy istiqlol g'oyasini o'qitishdan ko'zlangan **asosiy maqsad** - zamon talablariga mos insonni tarbiyalashdan iborat. Buning uchun fuqarolarda quyidagi sifatlarni shakllantirish, qadriyatlarni singdirish kerak:

- 1) Faol insonni tarbiyalashga e'tibor berish.
- 2) Shaxsning salohiyatini maksimal yuzaga chiqarish.
- 3) Har bir bola iqtidorini rivojlantirish.
- 4) Manfaaddorlikka ishonitirish.
- 5) Muammolarni hal qilishga yo'naltirish.
- 6) Shaxs ijodiy fikrlashini yuksaltirish.
- 7) Nazariy fikrlarga amaliy shakllar berish.
- 8) Bilimlarni harakatga aylantirish.
- 9) Pragmativ fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash.
- 10) Mehnatga ishtiyoq uyg'otish, tirishqoq va serg'ayrat shaxsni tarbiyalash.
- 11) Shaxsni o'z ustida qunt bilan ishlashga o'rgatish.
- 12) O'z ishonchini qaror toptirishdan manfaaddorlikka undash.
- 13) Milliy g'ururi baland, mas'uliyatli, intizomli shaxsni rivojlantirish.
- 14) Kelajakka ishonch uyg'otish.
- 15) Milliy istiqlol mafkurasini yurakka yaqin g'oyalar orqali singdirish va h.k.

Mehnat jamoalari. Prezidentimiz Islom Karimov 2000 yil 6 aprelda milliy istiqlol mafkurasini kontseptsiyasining asosiy tamoyil-lariga bag'ishlab ilmiy va ijodiy jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvda «Milliy mafkura - davlatimiz va jamiyatimiz qurilishida biz uchun ruhiy - ma'naviy kuch-quvvat manbai» mavzuida so'zlagan nutqida bu borada dolzarb masalalarni ilgari surdi. Fikri erkin odam, u qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar, o'z hayotini o'zi tashkil qilish imkoniga ega bo'ladi. Yurtboshimiz 1998 yildayoq «Foyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qashri faqat fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan bahsga kirishiish, olishish mumkin»ligini bayon etib, bu masalaning 3 jihatiga e'tibor qaratgan edi:

- 1) yot g'oyaga qarshi biz o'z olijanob g'oyamizdan foydalanish uchun,
- 2) Odamlarni erkin fikrlashga o'rgatish zarur. Ya'ni, fikrga qarshi fikr bo'lishi kerak.
- 3) Jaholatga qarshi ma'rifat. Bu o'rinda XX asr boshida xalqni ma'rifat va milliy uyg'onishga chorlagan jadidchilik harakati namoyondalari hayotini, ijodini, intilishlarini o'rganish zarur.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda 9 ming 900 dan ko'proq maktablarda 550 ming o'qituvchi faoliyat ko'rsatmoqda. 63 ga yaqin oliy o'quv yurtlarida esa 18,5 ming professor-o'qituvchilar (ularning 52 foizi fan doktori va nomzodlari) ishlamoqda, yoshlarga ziyo taratmoqda. 5,3 milliondan ortiq farzandlarimiz maktablarda, turli bilim yurtlarida ta'lim olmoqda. 160 mingdan ko'proq yoshlar esa oliy ta'lim tizimida o'qimoqda. Ular tarbiyasi haqida o'ylashimiz, yoshlarimiz baxtli kelajagi uchun qayg'urishimiz, yosh naslimizni milliy g'oya va milliy mafkura bilan qurollantirishimiz kerak.

Demak, **mehnat jamoalari** inson umrining asosiy qismi o'tadigan, uning tafakkuri, hayotga munosabati shakllanadigan ijtimoiy-ma'naviy muhitdir. Ular kishida jamoa ruhi, mehnatsevarlik, omilkorlik, adolat tushunchasi, mehr-oqibat tuyg'ularini tarbiyalaydigan o'ziga xos maskan bo'lib hisoblanadi.

Milliy g'oya, milliy mafkurani odamlarning erkin hayot, obod va ozod Vatan qurish yo'lidagi intilishlarini umumlashtiradigan davlat va nodavlat, mustaqil tashkilotlar imkoniyatidan to'la foydalanish va ularni tashkil etish zarur. Bu borada Prezidentimiz tashabbuslari bilan:

1) «**Toki bu tashkilotlar** har qanday manfaatdan yoki ta'sirdan xoli bo'lib, bizga real hayot haqida muayyan ijtimoiy hodisa va voqealarni keltirib chiqaradigan omillar haqida achchiq bo'lsada, xolisona, haqqoniy xulosalar»¹ chiqarmoqda.

2) **Viloyat va tuman** hokimliklarining bevosita ko'magida respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazining joylardagi bo'limlari qoshida ma'rifiy targ'ibot kengashlari tuzildi.

3) **Maktablar**, litsey va kollejlarda bevosita ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanadigan mutasaddi mutaxassislar lavozimlari joriy etildi.

4) **Maktab, litsey** va kollejlarda bolalar ongini yuksaltirish, ularni ijobiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qiladigan turli tashkilot va to'garaklar tuzildi.

O'zbek xarakteri. Farb mamlakatlari xalqlari uchun ijtimoiy bir-lashuv jarayonlariga ularning hulqidagi ratsionalizm, individualizm xalaqit berib tursa, o'zbeklar azaldan ma'naviy integratsiyaga, ijtimoiylashuvga moyil xalqdir. O'zbekning har bir odati, ma'raka va marosimlari kishilarni birlashtirish orqali yuz beradi. O'zbek mentalitetidan mafkura masalalarida foydalanish uchun bu **mentalitetning** tarkibi, tarixi, hozirgi holati va o'ziga xosligini puxta hisobga olish zarur. Bular:

1) Fe'l-atvor tizimida 4 ta superetnos (turkiy, forsiy, arabiy, rus-slavyan) tizimida ana shu xalqlar tabiati va mafkuraviy ta'siri ko'rinib turadi.

2) Jamoaviylik, e'tiqodda mustahkamlik, urf-odat, marosim orqali o'zlikni ifodalash fazilatlaridan unumli foydalanish lozim.

3) Ijtimoiy loqaydlik, befarqlik kabi salbiy noqis xususiyat-larini bilish darkor.

4) Psixologiyasida aniq xarakterga ega emaslik omili yotadi.

5) Ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy sohalarida aqliy - emotsional me'yorlarga rioya etmaslik katta qusuri, xususiyati ham bor.

6) Kitob o'qish darajasining pasayganligi, bu vorislik an'analariga jiddiy putur etkazadi.

Shunday sharoitda jamiyatning harakatlantiruvchi kuchlari bo'lgan ziyolilardan, nafaqat siyosiy-ma'rifiy, balki axloqiy-tarbiyaviy ta'sir ko'lamini kengaytirish kerak

Donolardan qolgan o'gitga ko'ra, maqsadni emas, maqsadga olib boruvchi yo'lni izlash kerak. Tarbiya-tarbiya uchun deb hammamiz tarbiyachilikni maqsad qilib olganmiz. Lekin ana shu biz berayotgan bilim, ma'ruzalar bolalar qalbiga kirib borayaptimi yoki ichki ruhiy qarshilik paydo qilib, tarbiyalanuvchilarning ko'ngliga urayaptimi? yoshlar qalbiga ham quloq solish kerak.

Adabiyot va san'at. Bu sohada ijod ahlining g'oyaviy-badiiy salohi-yatini komil inson tarbiyasiga yo'naltirish ustuvor yo'nalish bo'lishi darkor.

Ijodkorlarni murakkab va shonli tariximizning yorqin sahifalari-ni, bugungi hayot voqeligini, olijanob orzu-umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot, kino, musiqa va tasviriy san'at asarlarini yaratishga har tomonlama rag'batlantirish. yoshlarga ibrat bo'ladigan barkamol insonlar, zamonaviy qahramonlar timsolini barpo etish.

Milliy g'oyani tarannum etishga, istiqlol mafkurasiga zid g'oyalarning zararli mohiyatini ochib berishga ayniqsa e'tiborni kuchaytirish zarur. Hayot va ijoddagi mahdudlik hamda fikr qashshoqligiga qarshi kurashish, bahs-munozara, tanqid va tahlillar orqali mafkura muhitining sog'lom bo'lishiga erishish.

Din. Eng nozik va murakkab bo'lgan bu sohada, avvalo, din ma'naviyat va madaniyatning ustunlaridan biri ekanini, barcha zamonlarda milliy g'oya va mafkura diniy qarashlar bilan uyg'un rivojlanishini nazarda tutish lozim. Din o'z mohiyatiga ko'ra, poklik, mehr-oqibat kabi ezgu tuyg'ular orqali milliy istiqlol mafkurasining g'oyalarini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdiradi. Muqaddas dinimiz sog'lom va mo'tadil munosabatni shakl-lantirish - bu boradagi eng muhim mafkuraviy vazifadir

Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan **urf-odat, marosim va bayramlar** ham milliy mafkuraning asosiy g'oyalarini singdirishda muhim omil bo'ladi. Xususan, Mustaqillik, Navro'z, O'qituvchilar va murabbiylar, Xotira va qadrlash

¹ O'sha joyda, 29-30-betlar.

kuni kabi yangi bayram va marosimlarimizdan jamiyat hayotiga zamonaviy mazmun baxsh etish yo'lida oqilona foydalanish zarur. Bugungi kunda urf-odat va an'analarimizning jamiyatni birlashtiruvchi xususiyatlaridan yanada to'liqroq foydalanish lozim.

Milliy an'analarni o'rganish, targ'ib etish bilan bir qatorda to'y-marakalarni, odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofgarchilik va dabdababozlikka yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratish darkor.

Ma'naviy-ma'rifiy muassasalar. Prezidentimiz Islom Karimov «Jamiyat taraqqiyotining asosi, - degan edi, - uni muqarrar halokatdan qut-qarib qoladigan yagona kuch - ma'rifatdir». «Tarix - xalq ma'naviyatining asosidir».

Qadrlar tayyorlash milliy dasturida *«Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar»ga* alohida e'tibor berilgan. yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirilib boriladi.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlari ta'kid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar.

Shu ma'noda, bunday xavf-xatarlarga qarshi asosiy qurol sifatida yurtimizda yashayotgan har bir inson, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo'lib voyaga etishi uchun keng jamoatchilik va aholimiz o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir».

1999 yil 3 sentabrda tuzilgan «Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengishini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Prezident Farmonida kengashning asosiy maqsadi ham - «Jaholatga qarshi ma'rifat» g'oyasiga tayangan holda o'zbek xalqining ongini va qalbini mustabid o'tmish asoratlaridan forig' etish, barkamol avlod, komil insonni kamol toptirishdan iborat qilib qo'yildi. «Biz barcha mamlakatlarda bo'lganidek, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish tarafdorimiz», - degan edi Yurtboshimiz. (Karimov I.A. Asarlar. 8 - tom, 24 - bet).

Demak, **madaniyat va madaniy - ma'rifiy muassasalar** mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirishda katta imkoniyatlarga ega. Bunda kutubxona, teatr, klublar, madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa muassasalar faoliyatidan keng foydalanish, kishilar dunyoqarishini yuksaltiradigan, odamlarga ruhiy-ma'naviy oziq beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

Bu dargohlarda turli anjumanlar, davra suhbatlari, bahs-munozaralar, uchrashuvlar uyushtirish, milliy istiqlool mafkurasining mazmun-mohiyatini har bir ijtimoiy qatlamga tushunarli tarzda izohlab beradigan qo'llanma va tavsiyalar tayyorlash ayniqsa muhim.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar yoshlarni haqiqiy san'at, chinakam badiiy go'zallik ruhida tarbiyalash maskanlari bo'lmog'i lozim.

Madaniyat va san'at sohalari faoliyatining butunlay tijorat asosida tashkil etilishiga, g'oyaviy-badiiy jihatdan sayoz, milliy qadriyat-larimizga yot asarlarning etakchi o'rinni egallab olishga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyatga ega.

Davlat, nodavlat tashkilotlarning o'рни. «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish» g'oyasini bugun amalga oshirish ma'lim ma'noda mafkuraviy ishlarimizning qat'iy tizimi doirasiga bog'liq. Shuningdek, o'qitish texnologiyasi, darslik, ijtimoiy fan salohiyatiga, ularni amalga oshirish omillariga bog'liq.

Siyosiy partiyalar - o'z faoliyati bilan fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilma-xilligiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etish g'oyasining amalga oshirishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda har bir partiya o'z dasturiy qarash va maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha huquqiy asos va qonuniy kafolatlarga ega. Har bir partiyaning o'z dasturiy g'oyalarini hayotga tatbiq etish jarayonida milliy istiqlool mafkurasining asosiy tamoyillariga amal

qilishi siyosiy hayotning bosh mezonidir. Chunki xalq manfaatlarini, istiqloq g'oyalari, qaysi siyosiy va mafkuraviy kuchga mansubligidan qat'iy nazar, barcha yurtodosh-larimiz uchun muqaddasdir.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida faoliyat ko'rsatayotgan **nodavlat tashkilotlar** mafkuraviy jarayonlarda ham faol ishtirok etishi lozim.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi bu boradagi amaliy ishlarni muvofiqlashtirib borishi, Inson huquqlari milliy markazi, Ma'rifatparvarlar jamiyati, Oila ilmiy markazi, Faylasuflar milliy jamiyati, O'zbekiston Faylasuflari jamiyati, Ijtimoiy fikr markazi kabi tashkilotlar o'z faoliyatini milliy istiqloq mafkurasini bilan uyg'un holda tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, milliy g'oya va milliy istiqloq mafkurasini joriy etishga moddiy, texnikaviy va ma'rifiy jihatdan ko'mak beradigan «Sog'lom avlod», «Kamolot», «Umid», «Ulug'bek», «Oltin meros», «Amir Temur», «Imom Buxoriy», «Ustoz», «Mahalla», «Iste'dod» jamg'armalari va boshqa jamoat tashkilotlari imkoniyatlaridan foydalanishga jiddiy e'tibor qaratish zarur.

Demak, milliy istiqloq g'oyasini yoshlar ongiga singdirish sohalari va yo'nalishlari xilma-xil bo'lib, ulardan samarali va to'g'ri, o'rinli foydalanishni talab etadi. Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur va muhimdir. Mafkura bo'lmasa xalq, millat, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Mafkura jamiyat, xalq va millatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyotiga maqsad va yo'nalish beradi. Milliy g'oya, milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirishda:

1) Nodavlat, mustaqil tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, ularning imkoniyatlaridan to'la foydalanish zarur.

2) Mustaqillikni mustahkamlab, ma'naviy, ma'rifiy-mafkuraviy ishlarni yanada jadallashtirish, yangi bosqichga ko'tarish, bu sohada barcha ishlarni muvofiqlashtirib, yagona maqsad yo'lida safarbar etishni taqozo etadi. Ayniqsa fuqarolarni kamol toptirishga yo'naltirilgan va tuzilgan ma'naviyat va ma'rifat Respublika Kengashi targ'ibot-tashviqot ishlarini uzluksiz olib borishni davr taqozo etmoqda.

3) Maktablar, litseylar, kollej va oliy o'quv yurtlarida bevosita ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanadigan mutassaddi mutaxassislar lavozimlarini joriy etib, ular hayotini yanada faollashtirish lozim.

4) Oila, mahalla, umumiy o'rta, umumiy maxsus, kasb-hunar ta'limi, maktabdan tashqari muassasalar, oliy ta'lim tizimida bolalar, o'smirlar, talaba yoshlar ongini yuksaltirish, ularni ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qiladigan turli xil tashkilot va to'garaklar tuzish, ongni fikrlashga o'rgatish, ularning tafakkurida bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Bugungi kunda dunyodagi sog'lom manaviyatli insonlarni tashvishga solib kelayotgan illatlar sifatida buzg'unchi kuchlar tamonidan targ'ib – tashviq qilinayotgan «ommoviy madaniyat», individualizm, egotsentrizm singari illatlarni misol keltirishimiz mumkin.

Shu o'rinda «ommoviy madaniyat» tushunchasining kelib chikishiga bir nazar tashlasak, ushbu tushuncha XIX asr oxiri XX asr boshlarida g'arb mamlakatlarida paydo buldi. «Ommoviy madaniyat» insonning intim xoxishlarini va ko'proq lazzatlanish g'oyasini targ'ib etishga asoslanadi. U sevgi, moda va ko'ngilxushlik vositalari yordamida insonning nafsoniy tuyg'ularini qondirishni nazarda tutadi. Masalan, XX asrning 50 – 60 yillariga qadriyat sifatida qaraldi. Oqibatda g'arbnig o'zida bir qator muommolar paydo buldi: tug'ilishning keskin kamayib ketishi, oilaning muqaddasligiga putur etishi va ayolga bo'lgan hurmatning yuqolishiga olib keldi. Bugun g'arbda «ommoviy madaniyat» tasirida oila degan muqaddas dargohga ziyon etmokda. Hatto bir qator g'arb mamlakatlarining «qariyotgan mamlakatlar» qatoridan joy olishida ham «ommoviy madaniyat»ning tasiri, hissiy yo'q emas.

Er yuziga balo – qazodek siyosiyilib, yopirilib borayotgan, afsuski, minglab yoshlarni o'z domiga tortayotgan, milliy axloq va demokratik qadriyatlarga zid g'oyalar, hatto insoniylikka teskari illatlar va hatti - harakatlarni o'zida mujassam etgan, g'arbona tilda aytganda «ommoviy madaniyat» bugun turli munozara mavzusidir. «Olimlar va ziyolilar» bu iborani ijobiy va salbiy manoda ishlatadilar. Ijober manoda bu tushuncha xalq og'zaki ijodi,

anana va qadriyatlarining ko'rinishini ifodalaydi. Salbiy manoda esa g'araz kishilar tamonidan o'ylab topilgan g'oyalar, meyorlar, odatlar majmui bo'lib, u o'zgalar ongiga zo'rlab tiqishtiriladi. Shu manoda « ommoviy madaniyat » tushunchasi qo'shtirnok ichida ishlatilganda manaviy tahdidlarni qamrab oluvchi omil sifatida tushuniladi ».

I. Karimov « ommoviy madaniyat » tushunchasiga izoh berar ekan: « ommoviy madaniyat » niqobi ostida axloqiy buzuvchilik, zo'ravonlik, individualizm va egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik anana va qadriyatlari, turmush tarzining manaviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlardir », – deganda haq gapni aytgan edi.

“ Ommoviy madaniyat “ning eng xunuk illatlari, olg'a surgan g'arazli g'oyalaridan biri bu, ko'ngilxushlik g'oyasidir. **Ko'ngilxushlik g'oyasi** deganda, insonning turmush tashvishlaridan bir oz bo'lsa-da chalg'ish, o'zining bosh vaqtini mazmunli o'tkazishni tushunish ham mumkin, agar buni xolis, samimiy izohlasak. Har qanday sog'lom manaviyatli insonlar o'z hayotining har bir daqiqasidan oqilona foydalangani holda, o'zi va boshqalarga foyda keltiradigan faoliyat bilan shug'ullanishga intiladi. Sof niyatda, ezgu mashg'ulotlar bilan o'zining bosh vaqtini fayzli, o'z talant, qobiliyatidan unumli foydalanishga harakat qiladilar. Ammo biz ushbu mavzuda tilga olayotgan ko'ngilxushlik g'oyasi tamomila boshqa, insonning insonligiga zid, manaviy olamini tubanlikning eng chuqur jarliklari sari etaklashga qaratilgan, aqlsiz ko'ngilning tuban mayllarini qondirishga intilgani bilan o'ziga xos xarakterlanadi. Bugungi « ommoviy madaniyat », buzg'unchi kuchlar tamonidan og'iz ko'pirtirib jar solinayotgan ko'ngilxushlik g'oyasi insonning hayot lazzatlaridan xoxlagan vaqt, istagan erda va istagancha lazzatlanish, huzur qilish, bu yulda hech narsadan qaytmaslikni targ'ib qilish orqali maishatga izn beradi. Oqibatda g'arbni manaviy tubanlik sari undab jar yoqasiga etaklab kelgan ko'ngilxushlik g'oyasi bugun sharqqa ham manaviy tahdid bo'lib turibdi. Tomas Vulfning « Manmanlik o'ti » romanida yosh moliyachi « shahvoniy hirsizlarga cho'kib ketgan » Nyu – York farzandi bo'lganligi uchun ham xotini va qizining hayotiga zomin bo'ladi. Ayrim malumotlarga ko'ra, bugun Britaniya bolalarining 34 foizi nikohsiz tug'ilmokda, taxminan shuncha mikdordagi katta yoshlilar ajrashish alamidani aziyat chekmoqda. AKShda kamalganlarning yarmidan ko'pi buzilgan oilalar farzandlaridir. Bunday statistik malumotlarni uzoq davom ettirish mumkin. Mana kungilxushlik g'oyasi bergan mevalar. “ Ommoviy madaniyat “ ning ko'ngilxushlik g'oyasi insonni manaviy tubanlik sari etaklaydi. G'arbda uning makoni sershovqin musiqalari, turli – tuman rangli chiroqlar bilan bezalgan tungi barlar. Minglab yoshlarni o'ziga ohangrabodek chorlayotgan bu tungi barlarning mijozlari, afsuski, kundan – kunga ko'payib bormoqda. Tungi barlar. Balki ular kimlarningdir iqtisodiy manfaati uchun, xolis maksadda tashkil etilgandir. Ammo bugungi tungi barlarning aksariyat muxlislari bu yoshlar, hali ona suti og'zidan ketmagan, kayfu – safoga berilgan, ko'ngilxushlikka mukkasidan ketgan yosh yigit – qizlardir. Eng achinarli tamoni shundaki, tungi barlar ichkilikbozlik, turli tartibsizlik va giyoxvandlik kuchasidagi bekat vazifasini o'tamokda. G'arbda tungi barlarlarda sang'ish aksariyat ota – onalar tamonidan tabiiy hol sifatida qabul qilinadi. Yu. Xabermas kabi sog'lom fikrli odamlar fikricha: **«G'arb mamlakatlaridagi yomg'irdan keyingi qo'ziqorindek tungi barlarning ko'payishi odamlarda mardlik, jasorat va halollik kabi sifatning yuqolishiga olib keldi** ».

Bugun ko'ngilxushlik g'oyasiga griftor bo'lgan g'arbnig bazi yoshlari **maishiy buzuvchilik** kasaliga muhtalo bo'lgan. Biz maishiy buzuvchilik deb atayotgan holat ular uchun balki shaxsiy erkinlikdir. Chunki so'ngi yillarda g'arbda maishiy buzuvchilik, **mevorsiz erkinlik** - saddizmni inson hayoti uchun foydali deguvchilar ham ko'payib qolgan. Shu o'rinda saddizm tushunchasiga qisqacha izoh berib o'tsak, **“saddizm** “ atamasi frantsuz yozuvchisi Markiz de Sad nomi bilan bog'liq tushuncha. yozuvchining “Sadomda 120 kun“, “Fohishaxonalar falsafasi “ singari tubandan – tuban mazmundagi kitoblari insonning eng tuman illatlarga griftor bo'lishi mumkinligi tasvirlanadi. Sad o'z asarlarida odamlarni manaviy buzuvchilikning xoxlagan izmiga solish mumkin, faqat ularning manaviyatini egallasak bas, kerak bo'lsa biz o'zga yurt odamlarini shunday o'z tasirimizga olishimiz kerakki, toki, ularning o'zlari bizga yukinib kelsin, degan

qarashlarni ilgari suradi. Natijada bugun «Markiz de Sad asarlarining qayta –qayta nashr etilayotgani, maishiy buzuvchilikka bag'ishlangan kinolar va asarlarning ko'payib borilayotgani, hatto, bazi mamlakatlarda fohishaxonalar ochishga ruxsat borligi, har yili badavlat arab mamlakatlariga Osiyodan 4 millionga yaqin ayollar « uy xizmatchisi » niqobi ostida keltirilayotgani saddizmning ommaviy hodisa bulib qolayotganidan dalolat beradi » deb bemalol aytish mumkin.

Bugun insoniyatning taraqqiyotiga salbiy tasir qiluvchi shunday buzg'unchi g'oyalar yaratilmokdiki, bu g'oyalar inson manaviyatini faqat zalolat sari etaklashga xizmat qiladi, xolos. G'arb dunyosidagi sog'lom fikrli insonlarni tashvishga solayotgan, o'ziga xos qarashlarni mujassam etgan **bir xil jins** egalarining o'zaro oila qurayotganligi achinarli holdir. Sharqda bunday holat azaldan qoralanib kelingan. Ahmad Yassaviy aytganlaridek, bunday buzuvchi qarashdagi odamlarning hayvondan nima farqi qoladi. «...besaqolbozlik jahannamga elitadi. Har doimdagiday, g'urur erga urilganda eng yaramas illat yuzaga chiqadi. Insoniyatning jinslarga bo'linishi koinotning tabiat qonunlariga kura qutblanishi tajassumidir. Erkaklar va ayollar qo'shimcha ilk sabablardir. Jinsiyat ularning ilohiy va nasl qoldirish bo'yicha o'zaro kelishuvdir. Shuning uchun ham bir jinsga mansub kishilarning oila qurishi tabiiy tartib buzilishining eng dahshatli ko'rinishidir».

G'arbning o'zida ham sog'lom manaviyatli odamlar allaqachon bunday illatlarni qoralab kelgan: Insonda u yoki bu sifatlarning shakllanishi uning manaviy qiyofasining qay darajada ekanligiga bog'liq. Bugun insoniyat tafakkuri taraqqiyotini kuzatsak, odamzod bir tamondan aql bovar qilmas ixtirolarni ijod etayotgan bo'lsa, ikkinchi tamondan odamzod hatto hayvondan-da battar ahvolda, chirkin tabanliklar botqog'iga botgan, bazi kimsalar o'z nopok illatlari bilan faqat o'zinigina emas, o'zgalar hayotini ham zaharlamoqda, hatto kelajak avlod hayotini ham xarob etmoqda. Insoniyat manaviy tanazzul girdobiga uchragan. Xushsurat axloqning o'rmini badsifat xislatlar egallagan, olijanob maqsadli hayot tarzi bemani axloq va illatlar bilan bulg'angan, inson manaviyati tubanlikka yuz tutgan. Buyuk tabiatning mo'jaz xilqati o'z aqlu tafakkuri bilan tabiatning barcha tirikligi orasida tengsizligi bo'laturib, shu aqlu tafakkurini o'z qo'li bilan xiralashtirib, o'zini manaviy tubanliklar girdobiga otmoqdiki, bu har qanday aqli raso kishini hayratlantirmay iloji yo'q. Masalan, malumotlarga ko'ra, Buyuk Britaniyada mashhur qo'shiqchi Elton Jon bir xil jins vakillarining nikohdan o'tib, oila qurishini erkinlik namunasi sifatida butun dunyoga ko'z – ko'z qilmoqda. Eng yomoni shundaki, bunday odamlarning yoshlar o'rtasida ming – minglab muxlislari bor va ularning bu kabi jirkanch ishlari ana shu yoshlar ongini zaharlamasdan qolmaydi albatta.

Asrlar davomida Sharkda, xususan, uzbek xalqida o'z farzandlari ayniqsa, qizlar tarbiyasi, odob - axloqi bilan jiddiy shug'ullanib kelingan, avlodning har tamonlama barkamol bo'lib voyaga etishiga katta ahamiyat berilgan. Shu bois, o'zining tafakkuri, odob – axloqi va buyuk xizmatlari bilan dunyoni hayratga solgan A. Navoiy, Bobur Mirzo, Ulug'bekdek buyuk shaxslar, Nodirabegim, Zebuniso va Uvaysiy singari o'nlab oqilalar xalqimiz manaviyatini boyitgan. **«Bizning ulug' ajdodlarimiz o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlarini eslash o'rinli. Ota – bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or – nomus, uyat va andisha, sharmu – hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalar bu kodeksning asosiy mano – mazmunini tashkil etadi».** Ammo bugun bazan yoshlar o'rtasida milliy mintalitet, qadriyatlarimiz va turmush tarzimizga xos bo'lmagan yot va begona g'oyalar, buzg'unchi illatlar tasiriga tushib qolgan holatlarga ham duch kelib turibmiz.

Bugun yoshlar manaviyati va madaniyati bilan bog'liq muammolardan biri **kiyinish madaniyati** va unda g'arb madaniyatiga taqlid, ergashish masalasi dolzarb mavzu bo'lib turibdi. Milliy talim – tarbiya olgan, manaviyatida milliy madaniyatimizga hurmat va etiqod shakllangan, kiyinishda ham o'z milliy qiyofasini yo'qotmagan yoshlarimiz ko'p, albatta. Lekin bazan ko'chada, jamoat joylarida ochiq – sochiq kiyinib yurgan yoshlarimizni uchratish mumkin. Bu uning uchun “moda”, “zamonaviylik” yoki ochiq aytadigan bo'lsak, bugun “ommaviy madaniyat” deb atalgan g'arb madaniyatiga taqlid. Zamonaviy yashash yaxshi,

dunyo taraqqiyotidan orqada qolish kerakmas, ammo biz kim, qaysi millat vakili ekanligimizni unutmasligimiz kerak. Insonning tashqi qiyofasi ham uning qaysi millatga tegishli ekanligi va qanday manaviyat egasi ekanligini ko'rsatib turuvchi belgilardan hisoblanadi. I. Karimov " yoshlik " talabalar shaharchasida talabalar bilan bo'lgan uchrashuvda kiyinish madaniyati haqida fikr bildirib, shunday degan edi: **"kiyinish madaniyatida albatta milliylik bo'lishi kerak. Qolaversa, kiyim tanlash va kiyinishda yoshlarimiz milliy turmush tarzimizga, O'zbekiston sharoitiga, iqlimimizga mos jihatlarni inobatga olishsa, foydadan xoli bo'lmaydi "**.

«Ommoviy madaniyat » targ'ib qiliyotgan moda insonning xoxlagan alfozda, istagan kiyimda jamoat joyida bemalol yurishini targ'ib qilishga asoslangan qarashlar majmui hamdir. yoki buni qo'pol tarzda bayon etadigan bo'lsak, «yarimyalong'ochlik »ni targ'ib etish. Bu balki birovlar nazarida shaxsiy « erkinlik », « demokratiya »dir, ammo bu bizning asrlar davomida shakllangan urf – odat, udumlarimiz, milliy qadriyatlarimizga mutloqo tug'ri kelmaydi. Buzg'unchi kuchlar moda deganda, bugun shunday modalarni yaratilmoqdaki, ular o'zlarining bejirim, rango – rangiligi bilan yosh yigit - qizlarimiz diqqat – etiborini o'ziga tortmokda. Yarimyolong'ochlikka asoslangan ushbu modalarning olimlar bir kator zararli tamonlarini aniqlaganlar:

1. Odamlar, ayniqsa, yoshlarning tarbiyasi buziladi.
2. Inson hayvonat olamiga yaqinlashib boradi.
3. Kishilarning, ayniqsa, ayollarning latofati yo'qolib boradi.

Ayol tabiatning bebaho mujizasi. U o'zining nozikligi, nafosati, latofati va go'zalligi bilan o'ziga qarama – qarshi jins vakili – erkaklardan ajralib turadi. Shunday ekan, ayol kishi tabiatning bu inomini asray bilishi va o'z manaviyatini hayo, ibo, iffat fazilatlarini bilan boyitib borishi kerak, shunda u yanada go'zallashadi. Olloh ham go'zallikni sevguchidir.

Har bir xalqning o'z kiyinish madaniyati, odob – axloq meyorlari mavjud. Xalqimizning bu sohada ham asrlar davomida sayqallangan tajribasi bor, nima uchun bugun biz g'arbning palak otib borayotgan yarimyalong'och kiyinish madaniyatini qabul qilayapmiz? Moda deb yarashsa – yarashmasa turli bo'lmag'ur, milliy qiyofamizga nomutanosib kiyimlarni elkamizga ilib olsak, unda milliy, sharqona qiyofamizga putur etmaydimi? Milliy qiyofamizni saqlashga o'zimiz harakat qilmasak, kim bu uchun jon kuydiradi, bundan tashqari bunday kiyimlarni elkaga ilish bilan o'zgalarning milliy qiyofamizga doxli kilishlariga o'z qo'limiz bilan yo'l ochib bermaymizmi ? Zero, kishining kiyimi, tashki ko'rinishi ham uning ichki olami, manaviyatini aks ettiruvchi belgilardan sanaladi. Inson o'zining kimligi, qaysi millatga mansubligini bilishi va unga sodiq qilishi bugungi kunda muhim, bu milliy o'zlikni anglash, milliy mansublikdir. Albatta, har sohada bo'lgani kabi, umumjahon taraqqiyotidan orqada qolish kerak emas. Ammo bunga milliy qiyofamizni qurbon qilish evaziga emas, aksincha, milliy manaviyatimizni asos qilgan holda, taraqqiyot sari yuz tutmoq kerak. Shundagina xalqni xalk, millatni millat sifatida saqlab qolish mumkin.

Hozirgi paytda liboslar sanoati bilan shug'ullanuvchi g'arbning «Kristian dior», «Versache», «Pol Makkarti», «Shanel» kompaniyalari mahsulotlari dunyo bozorida eng yuqori o'rinlarni egallaydi. Bugungi kunda shu va shunga o'xshash kompaniyalar mahsulotlari, turli liboslari juda tezlik bilan urfga aylanayapti. Buning sababi nimada? Buning birinchi sababi, suniy yo'ldoshlar, ommoviy axborot vositalari, internet orqali jahonda paydo bo'layotgan kiyinish yangiliklari haqida axborotga ega bo'lish. Ikkinchisi, hozirgi paytda erkinlikka intilish hamda madaniyatlarning o'zaro yaqinlashuv jarayoni bilan bogliq.

Bugungi yoshlarimiz esa juda qiziquvchan, yangilikka o'ch. Ular har bir voqea – hodisani etiborsiz qoldirmaydilar. Ayniqsa, dunyoda paydo bo'layotgan modalar hamisha ularning diqqat markazida. To'g'risi, bazi yoshlarimiz qaysi joyda qanday kiyimni kiyish kerakligi, o'zining bo'y – basdiga nima yarashishini o'ylamaydilar ham. yoshlarimiz kiygan kiyimlari ularning muomalasi, yurish – turishi, hatti –harakatlari, o'zini tutishi, og'izlaridan chiqayotgan so'zlariga ham tasir etmay qolmaydi. Afsuski, buning mohiyatini tushunmagan bazi ota – onalar esa farzandlariga kiyinish madaniyatidan o'git berish o'rniga aynan ularning

o'zlari farzandlariga g'arbona, yarimyalong'och kiyimlarni kiyishni tavsiya etish orqali farzandidan «zamonaviy» bo'lishni talab etayotganlari afsuslanarlidir.

Faqat modada kiyinish kishining zamonaviyligini bildirmaydi. Zamonaviylik, avvalo, insonning ichki va tashqi qiyofasining zamonga uyg'unlashishi demakdir. Shu manoda har bir kastyum, libosning o'z mazmuni bor. Rivojlangan mamlakatlarda oiladan tashqari maktabda, o'quv yurtlarida insonning turli davralarda o'zini tutishi, o'zi uchun munosib kiyim tanlash borasida maxsus bilimlar beriladi. Bizda bunday bilimlar maktabda «Odobnoma», «Oila psixologiyasi», oliy o'quv yurtlarida «Etika», «Estetika» kabi fanlarda umumiy o'qitiladi. Bugungi yoshlarimizning g'arb modasiga mukkasidan ketayotgani, ular milliy kiyinishni unutdilar, degani emas. O'zbek xalkining milliy kiyimlari hamisha ezozda, atlas, adras, banoras va beqasam matolar yana urfga kirmokda. Zamonaviylik va milliy uyg'unlik aks etgan andozalarda tikilgan liboslar keng siyosiyilmokda. Bugun mamlakatimizda va butun jahonda zamonaviy kiyinishning milliy va zamonaviy uyg'unlashgan ko'rinishlari xam rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda istiqldan so'ng tadbirkorlik, insonning o'z istedodini rivojlantirishga qaratilgan imkoniyatlari natijasida yoshlarimiz orasida zamonaviy kiyimlarning tarix, milliylik bilan uyg'unlashgan dizaynerlari etishib chikmoqda. Albatta bu quvonchli hol. Ular bugun bu liboslarni faqat to'yu – tantanalarda emas, ish sharoiti uchun ham moslashtirish niyatida izlanmoqdalar. Bu ham o'zlikni anglash, milliy – manaviy tiklanish jarayoni davom etayotgan jamiyatimiz taraqqiyoti va xalqimiz milliy - manaviy qiyofasini tiklashdagi muhim qadamdir. Shunday ekan, har birimizning did, farosatimizda sharqona tarbiyaning bo'lishi, tashqi qiyofamizda ham milliylik muhimdir.

«Ommaviy madaniyat»ning bugun butun dunyo bo'ylab tarqalib borayotgan, insonlarning manaviyatini o'z maqsadi sari etaklashga urinayotgan manaviy tahdidlaridan biri **individualizm** g'oyasidir.

Individualizm lotincha so'z bo'lib, bo'linmas demakdir. Ushbu g'oya negizida shaxsning jamoadagi avtonomiyasi, uning o'z manfaatlarini boshqalardan alohida, hatto ustun ko'yish, o'z qobig'iga o'ralib yashashiga asoslangan qarashlari tashkil etadi. «Hozirgi paytda ommaviy bir xillik hukumron bo'lib borayotgan, kishilar dunyoqarashini boshqarish, ularning xulqiga muayyan standart qoliplarni singdirish yo'lidagi urinishlar tabora avj olayotgan va keng miqyos kasb etayotgan bir paytda individualizm uzining ham nazariy, ham amaliy ko'rinishida ana shu hodisalarga o'ziga xos javob reaksiyasi sifatida namoyon bo'lmoqda».

Mafkuraviy poligonlar kurashi. **Poligon** - (grek. *serqirra*). Mafkuraviy poligon *deb, odamlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan g'oya yoki mafkurani mablag', ham zamonaviy texnik vositalar bilan kuchlantirib, moddiy va ma'naviy tashviqot qurollarini ishga solib, dunyodagi axborot va fikr oqimini o'z foydasi yo'lida boshqarib turadigan g'oyaviy markazga aytiladi.*

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Bugungi kunda odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlarigagina xizmat qiladigan, olis - yaqin manbalardan tarqaladigan, turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning ta'sirini doimiy sezib yashamoqda». (Karimov I.A. Asarlar. T.7. 85-86-betlar). SHuning uchun ham bugungi kunda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchli.

CHunki ularning ta'siri radio, televidenie, gazeta-jurnal, Internet; umuman, hamma axborot tarmoqlari orqali kirib kelmoqda. Ular odamlarni uyda ham, ko'chada ham, ishda ham tinch qo'ymasligi mumkin.

YAdro poligonida tayyorlangan qurol faqat muayyan hududni vayron qiladi, ammo mafkuraviy poligonlardan turli axborotlar, badiiy asarlar, o'yinchoqlar, kundalik ehtiyoj mollari shaklida tarqalayotgan vositalar esa insonlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgandir. Masalan, «diniy adabiyot» niqobi ostida xorijdan olib kelinayotgan ayrim kitoblarda dinga siyosiy tus beriladi, jehod haqida noto'g'ri ma'lumotlar targ'ibotlariga ishonib, noto'g'ri yo'lga kirib ketishi mumkin. YOki behayolikni, vahshiylik va zo'rovonlikni targ'ib etadigan filmlar ham mafkuraviy poligonlardan yuborilayotgan zararli ta'sirlardandir.

Bunda ommaviy axborot vositalari orqali psixologik ta'sir o'tkazishning yangidan-yangi usullaridan foydalanadilar. Xususan, milliy hayotimizga xos muayyan xususiyatlarni ochiqdan-

ochiq qoralash, erga urish yoki ayrim tarixiy voqea-xodisalarni umuman bo'lmagandek, jahon madaniyati, ilmu-faniga ulkan hissa qo'shgan ulug' allomalarimizning bizga aloqasi yo'qdek qilib ko'rsatishga urinishlar mavjud.

SHuningdek, mintaqa davlatlari o'rtasida ziddiyatlar keltirib chiqa-rish va jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tug'di-rishga bo'layotgan intilishlarni hech qachon e'tibordan chetda qoldirmas-ligimiz lozim.

Xullas, hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurash nihoyatda murakkab tus olgan. Bu geopolitika va globallashuv jarayonlari bilan qo'shilib, uyg'unlashib ketmoqda. Markaziy Osiyoda ham, unga nisbatan ta'sirlarda ham ana shunday serqirra jarayon, xilma-xil xususiyat, turlicha xatti-harakatlar mavjud. Bularning barchasini anglash, ro'y berayotgan voqea-hodisalarning mag'zini chaqish, mustahkam mafkuraviy immunitetni shakl-lantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Xalqaro miqyosdagi g'oyaviy-mafkuraviy munosabat muammolarini hal etish imkoniyati, ko'p jihatdan, u yoki bu mamlakatning globallashayotgan mafkuraviy jarayonlarga moslashuv imkoniyatlari bilan bog'liqdir. Ta'kidlash lozimki, mustaqillik yillarida O'zbekistonning jahon mafkuraviy jarayonlariga moslashuv imkoniyatlari kengaydi. Bu, quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston jahondagi barcha mamlakatlarga ochiq davlat sifatida namoyon bo'ldi;
- mamlakatimiz o'z siyosatida milliy manfaatlarini himoya qilishga ustuvor ahamiyat bersada, biroq, boshqa davlatlar manfaatlarini ham himoya qilish yo'lini tutmoqda;
- O'zbekiston xalqaro siyosatida boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik siyosati tamoyiliga asoslanmoqda;
- O'zbekiston hukumati jahon mafkuraviy jarayonlarida umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni, g'oyalarni amalga oshirishdan iborat global hamda lokal siyosatda faol ishtirok etmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonning jahon mafkuraviy jarayonlariga moslashuvida o'ziga xos qiyinchilik va muammolar ham mavjudligini esdan chiqarmaslik lozim. Zero, mafkuraviy muammolar insoniyat ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti tarixi boshlangan 6 ming yil ilgari bo'lgani kabi, hozir ham saqlanib qolmoqda.

Mamlakatimizning jahon mafkuraviy jarayonlariga moslashishiga halaqit qilayotgan sabablarni ikkiga bo'lish mumkin. Bularning birinchisi tashqi sabablar bo'lib, ularga mamlakatimiz fuqarolarining hozirgi dunyo, undagi o'zgarishlar to'g'risida mukammal bilim va tasavvurlarning yo'qligi ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, ayrim fuqarolarimizda hozir dunyoda mavjud bo'lgan turli diniy-siyosiy oqimlar, tashkilotlar, uyushmalar xususida ob'ektiv ma'lumotlarga ega emasligi mazkur jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonning jahon mafkuraviy jarayonlariga moslashishga halaqit qilayotgan ikkinchi sabab: tashqaridan mamlakatimizdagi g'oyaviy-mafkuraviy barqarorlikka putur etkazish, "mafkuraviy bo'shliq"ni to'ldirish, fuqarolarda mafkuraviy immunitetni hosil qilish- bularning bari hozirgi kunda O'zbekiston oldida turgan jiddiy mafkuraviy muammolar hisoblanadi.

Ijtimoiy taraqqiyot globallashuvining bir sifat bosqichidan ikkinchisiga o'tayotgan hozirgi sharoitda g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarni oqilona integratsiyalashtirish, turli davlatlar, millatlar, xalqlar manfaatlarini umumiy maqsad doirasida muvofiqlashtirish ichki ziddiyatli jarayon hisoblanadi.. Masalan, sovet mustabid tizimi davrida reaksiya, ijtimoiy taraqqiyotga halaqit qiladi deb talqin etilgan narsalar mustaqillik yillarida boshqacha sifat bilan baholanmoqda, shuningdek, mustaqillikdan keyin ijtimoiy-siyosiy hayotimizga endi kirib kelayotgan barcha hodini ham ijobiy deb atash qiyin. Ya'ni, hozir bir ijtimoiy-siyosiy voqea yoki hodisadan turli xil xulosa chiqarish mumkin. Bu xulosalarning yagona mezonini global miqyosdagi umuminsoniyat tsivilizatsiyadagi istiqbollardir. Zero, hozirgi davrda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning integratsiyasi va universallashtirish darajasi milliy manfaatlarini shartli hamda nisbiy qilib qo'yimoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, aloqa kommunikatsiyalari sohasidagi global tuzumlarda ommaviy axborotning transmilliy vositalarida sodir bo'lgan o'zgarishlar siyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlar globallashuvini tezlashtiradigan muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, «Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar

shu qadartig'iz, shu qadar tezkorki, ha bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo`q, deb beparvo qarab bo`lmaydi”

Darhaqiqat, axborotlar dunyosi kengayib, globallashib borayotgan bir davrda bunday holatlar ajablanarli emas.

Hozirgi kunda u yoki bu davlatning mafkuraviy muammosi jahon muammosiga aylanib bormoqda. Ta`kidlash lozimki, muayyan mamlakatda mafkuraviy muammolarni, jumladan: diniy ekstremizm, millatchilik, shovinizm, ma`naviy qashshoqlik, axloqsizlik, ommaviy qirg'inlar, fojealarning oldini olish – global g'oyaviy-mafkuraviy muammolarni hal etishning kafolati hisoblanadi. Zero, har qanday milliy muammo global muammoning elementi, tarkibiy qismidir.

O'zbekiston hukumati milliy muammolarni jahon muammolari kontekstida hal etish mumkinligini anglab etdi va shu yo`ldan bormoqda. Bu esa, xalqaro hamjamiyat tomonidan ma'qullanmoqda. Mamlakatimiz yirik industrial davlatlar bilan birga, endi rivojlanib kelayotgan mamlakatlar bilan ham bir xil darajada hamkorlikni yo`lga qo`ygan. Xalqaro tashkilotlar, BMT, NATO, boshqa hamkorlik uyushmalari faoliyatida ishtirok etish orqali, O'zbekiston bir tomondan, o'zining mafkuraviy muammolarini hal etayotgan bo`lsa, boshqa jihatdan, xalqaro hamjamiyat muammolarini bartaraf etishga o'zining munosib hissasini qo`shmoqda.

Hozirgi kunda olib borilayotgan mafkuraviy jarayonlar milliy mentalitetimizga ham o`z ta'sirini o`tkazmoqda. Dunyodagi barcha davlatlar, siyosiy, diniy, mafkuraviy tashkilotlar O'zbekistonga o`ziga xos tarzda ta'sir ko`rsatish yo`lidan bormoqdalar. Ayrim siyosiy kuchlar, diniy mafkuraviy birlashmalar O'zbekiston aholisining siyosiy ongi, diniy e'tiqodi, ijtimoiy ruhiyatiga, ma'naviy-madaniy saviyasiga ta'sir o`tkazish orqali o`z manfaat-maqсадlariga erishishga harakat qilmoqdalar. O'zbekistonni o`z siyosiy ta'siriga o`tkazish, sobiq SSSRni tiklash, postsovet siyosati, islom dunyosini birlashtirish kabi «g'oya»lar bunday harakatning asosini tashkil etadi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida bunday salbiy holatlarga qarshi himoya vositalari ishlab chiqilgan. Bu himoya vositalari tizimida milliy istiqlol g'oyasi alohida o`ringa va ahamiyatga egadir. Zero, ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichida mafkuraviy kurashlar tobora kuchayib bormoqda, geopolitik maqsadlar mafkuraviy siyosat bilan ko`proq qo`shilib ketmoqda. Bir tomondan, umuminsoniy qadriyatlar hisoblangan demokratiya, o`zaro hurmat, ijtimoiy-siyosiy hamkorlik kuchayib bormoqda. Biroq, boshqa tomondan, g'arazli maqsadlarga erishish harakati, zo`ravonlik, harbiy kuch ishlatish, mafkuraviy vositalardan foydalanish ham kuchayib bormoqda.

Shunday sharoitda O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi, uning tarkibiy qismi va sub'ektiga aylanishi o`ta muhimdir. Darahaqiqat, shu o`rinda qayd etish lozimki, O'zbekiston o'zining iqtisodiy, siyosiy nufuzi, imkoniyatlari nuqtai nazardan jahon hamjamiyatida munosib o`rin egallashga haqlidir. Ma'lumki, O'zbekiston har doim Sharq va G'arbga birlashtirib turgan muhim bo`g'in hisoblangan. Uning maydoni 447, 4 ming kv. km. bo`lib, uning g'arbida Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat, 165 qishloq (ovullar) mavjud. Mamlakatimizda hozir 136 millat, elatlar vakillari bo`lgan 26 millionga yaqin kishi yashaydi. Aholining 60 foiziga yaqinini bolalar, o`smirlar va 25 yoshga etmagan yigit-qizlar tashkil etadi. Mamlakatimiz qadimdan boy tabiiy resurslarga, hosildor erlar, kuchli iqtisodiy, ilmiy va ma'naviy salohiyatga ega bo`lgan mamlakatdir.

Mamlakatimizning ichki siyosatida inson, uning xaq-huquqlari, manfaatlarini himoya qilish, fuqarolar uchun munosib turmush sharoiti yaratib berish, ozchilikning ko`pchilik irodasiga bo`ysunishi, shu bilan birga, ozchilik fikrining ham ko`pchilik tomonidan hurmat qilinishi kabi demokratik tamoyillar alohida o`rin egallaydi. Mamlakatimizning tashqi siyosatida barcha davlatlar bilan teng huquqlilik va o`zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish, ularning ichki ishlariga aralashmaslik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, tinchlik va xavfsizlikni asrab-avaylash, xalqaro huquq me'yorlarning ustuvorligi kabi tamoyillarga amal qiladi.

O'zbekistonning tashqi siyosati uning siyosiy nufuzini ortishiga olib kelmoqda. Shuningdek, mamlakatimiz tashqi siyosatining o`ziga xos g'oyaviy-mafkuraviy asoslari ishlab chiqildi. Xususan, bu narsa mamlakat Konstitutsiyasining 17-moddasida o`z aksini topgan. Unda qayd etilishicha, O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to`la huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid

qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Bularning barisi mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga ishonchli sherik sifatida kirib borishiga imkon yaratmoqda. O'zbekistonning jahon xalqaro tinchligi va xavfsizligiga mos bo'lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahonda mustaqil davlat sifatida tan olinishini ta'minladi. Bugun mamlakatimiz mustaqilligini dunyodagi 165 nufuzli davlat tan oldi, ularning 120 tasi bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Toshkentda 40 ta mamlakatning elchixonasi ochildi, 19 davlatning elchisi O'zbekistonda o'rindoshlik yo'li bilan ishlab turibdi, 88 ta xorijiy vakolatxona, 24 ta hukumatlararo va 13 ta hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning soni tobora ortib bormoqda. Buni ham O'zbekistonni jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishining globallashuvi tarzida olib qarashga asos bo'ladi.

Xo'sh, bunday hamkorlik qanday natijalar bermoqda? Eng avvalo, O'zbekistonning boshqa xorij davlatlari bilan o'zaro aloqalari yaxshilanishi, ular o'rtasida g'oyaviy-mafkuraviy integratsiya kuchayishiga olib kelmoqda. Bunday integratsiya tufayli davlatlarning bir-biri to'g'risidagi tasavvurlari ortib, bilimlari kuchaymoqda. Lokal va global muammolarni hal etishda imkoniyatlar kengaymoqda. Bu imkoniyatlar, ayniqsa ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, kommunikatsiya hamda texnik-texnologik soha integratsiyasiga olib kelmoqda.

Qayd etish lozimki, g'oyaviy-mafkuraviy integratsiyaning kuchayishi O'zbekiston fuqarolarida sovet mustabid tizimi davrida shakllangan komform dunyoqarashni singdirishda, iqtisodiy va mafkuraviy-ma'naviy boqimandalik kayfiyatini bekor etishda muhim rol o'ynamoqda. Bunday integratsiya, ayniqsa mustaqillikgacha biz uchun begona bo'lgan demokratik jamiyatda yashash ko'nikmasini hosil qilishda yordam bermoqda.

Xullas, har bir davlat va jamiyat o'ziga xos rivojlanish modellariga ega bo'lib, ular bir-biridan shakli, mazmuni jihatdan farq qilsa ham, umumiy rivojlanish qonuniyatlarini istisno qilmaydi. Ya'ni, bir tomondan, bunday umumiylik, insoniyatning ezgu maqsadlari doirasida uyushish, jipslashish manfaatlarini ifodalaydi. Ikkinchi tomondan, milliy taraqqiyotdagi o'ziga xoslik muayyan davlatning siyosiy tuzimi, iqtisodiy hayoti, madaniy turmushi, g'oyaviy-mafkuraviy muhiti ta'sirida shakllanadi. «Sodda qilib aytganda, - degan edi Islom Karimov, - muayyan davlat va jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi hayotning o'zi o'rta qo'yayotgan shart va talablarning hisobga olinishini taqazo etadi.

Aytish mumkinki, taraqqiyotning har bir bosqichi - bu yangi muammolar va ularni bartaraf etish yo'lidagi yangi vazifalar demakdir.

Bu - hayot qonuniyati, biz uni inkor etolmaymiz va inkor etishga haqqimiz ham yo'q»

Darhaqiqat, har qanday jamiyatning, davlatning muayyan tarixiy davrdagi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti mafkuralar vorisligi tamoyiliga asoslansa ham, konkret milliy xususiyatlari mavjud. Boshqacha aytganda, milliy tarixiy taraqqiyotning mavjudligi, uning g'oyaviy-mafkuraviy mazmunida namoyon bo'ladi. Shuningdek, tarixiy taraqqiyot va g'oya hamda mafkuralarining millat manfaatlariga asosida uyg'unlashuvi, uni real kuchga aylantiradi, ya'ni «milliy g'oya xalqning milliy manfaatlaridan kelib chiqadi va uni o'zida ifoda etadi»

Hozirgi sharoitda milliy mafkuramizning yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq faravonligi g'oyalari shakllanib, ular o'zbek xalqi tarixiy taraqqiyoti davomida sinovlardan o'tgan. Bu g'oyalar mazmun-mohiyati jihatdan bir-birini to'ldiradigan hamda mantiqiy izchil, gumanistik xarakterini namoyon qiladi. Shu o'rinda, bu g'oya va mafkuralar mamlakatdagi muayyan hukmron siyosiy kuchlarning vaqtinchalik maqsadlariga, mavsumbozlik tadbirlariga xizmat qilsa, ularning ijtimoiy-siyosiy nufuzini yo'qotishini alohida ta'kidlash kerak.

Konkret tarixiy sharoitlarga xos bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarning jamiyat g'oyaviy-mafkuraviy muhiti bilan o'zaro aloqadorligi asosida siyosiy munosabatlar tizimining shakllanishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, milliy mafkuraning tarkibiga kiruvchi g'oyalarning ob'ektiv xarakterini, tarixiy ildizlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Tarixan shakllangan har qanday g'oya muayyan ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifoda etuvchi g'oyalar tizimining tarkibiga kiradi. Shuning uchun ham o'tmishda yashab o'tgan

ajdodlarimizning muayyan manfaatlarini ifodalagan, ularni kelajakka safarbar etgan g'oyalari ham o'sha davrning strategik maqsadlarini ifoda etuvchi ijtimoiy hodisa sifatida dunyoga kelgan.

Milliy taraqqiyotning ustuvor g'oyalarni amalga oshirishda mamlakat tashqarisidagi va ichidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat ham muhim ahamiyatga ega. Zero, har qanday mafkura jamiyatdagi ijtimoiy guruhning muayyan siyosiy manfaatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi siyosiy ongi sifatida jamoatchilik fikri, xohish-istaklarini ifodalab, xalqning ruhiyatiga mos keladi hamda mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqaror taraqqiyotining ma'naviy asosi, kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Milliy mafkuraning bosh strategik maqsadi milliy mustaqillikni mustaxkamlash va barqaror taraqqiyotni ta'minlash uchun jamiyat a'zolarining hayot sharoitini real yaxshilashdan iborat. Shuning uchun ham bu masala islohotlarning bosh yo'nalishi qilib belgilanganligi natijasida «Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 9,5 foizni tashkil etdi, ishlab chiqarish hajmi sanoatda 12,1 foizga, qishloq xo'jaligida 6,1 foizga oshdi». «Aholining real pul daromadlari bir yilda 27 foizdan ziyod ko'paydi. Statistika idoralari ma'lumatlariga ko'ra, 2001 yilda mehnatga layoqatli aholining o'rtacha ish haqi kun kechirish uchun minimum darajada zarur bo'lgan mablag'ning 99 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2007 yilda bu ko'rsatkich 3 barobardan ko'proq oshdi. Ta'kidlash joizki, bu raqam Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari o'rtasida yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi». Bizning keyingi yillardagi strategik maqsadimiz shu sur'atni usaytirmasdan davom ettirish va milliy taraqqiyotimizni yangi bosqichlarga olib chiqishdir.

8-Mavzu: Jamiyat barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy g'oyaviy asoslari.

REJA:

- 1. Milliy g'oyaning etnosiyosat va etnomadaniyat rivojiga ta'siri.**
- 2. O'zbekistonda milliy madaniy markazlarning tashkil qilinishi millatlararo barqarorlikni ta'minlash vositasi.**
- 3. O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi va siyosiy mavqeyi mustahkamlanishida millatlararo va dinlararo tolerantlikning ahamiyati.**
- 4. "Bu muqaddas vatanda azizdir inson", "Buyuk va muqaddassan mustaqil vatan" g'oyalarini ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati.**

Millat uzoq davom etgan ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va etno – ma'daniy jarayonda, aniq hududiy doirada til va o'zlikni angalash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining yuksak cho'qqisi, o'ziga xos milliy ong va mintalitet zaminida tarkib topgan birikish shakli. Bugungi kunda mutaxassis olimlarning fikriga ko'ra, er yuzida 3000 ga yaqin millat bo'lib, u insoniyatning 96 % ni birlashtiradi, qolgan 4% ni ellat va qabilalar tashkil etadi.

Millatlarning har biri bir necha 10 mingdan bir necha yuz milliongacha bo'lishi mumkin.

Millat - kishilarning tarixiy birligi sifatida uzoq vaqtlar davomida shakllanib keldi, hamda o'ziga xos bo'lgan milliy mintalitetni boyitib keldi. Millat umumiy iqtisodiy turmush, til, xudud birligi, ma'daniyat va ruhiyat uyg'unligidir.

Millatlar son sifatidan doimo ortib boradi va ular soniga qarab 5 yirik guruhga bo'linadilar.

1. Buyuk millatlar – bular 1 mlrd dan oshiqroq bo'lgan hindlar va xitoyliklar hamda ruslar singari millatlar bo'lib 100 mln dan 200 – 300 mln gacha aholiga ega.

2. Katta millatlar – 50 mlrd dan 100 mln gacha. Bularga inglizlar, frantsuzlar, ispanlar, nemislar, turklar va boshqalar kiradi.

3. Yirik millatlar – 10 mln. 50 mln gacha – o'zbeklar, portugallar. polyaklar, efioplar va boshqalar.

4. O'rta millatlar, ular 1 mln dan 10 mln gacha bo'lishi mumkin.

5. Kichik millatlar bir necha 10 mingdan 1 mln gacha.

Jaxondagi 27 millat er yuzi aholisining 75 % ni tashkil etadi.

Millat tushunchasi etnik gurux, etnik birlik tushunchalari bilan chambarchas bog'liq va ajralmasdir. Etnik birlik - ma'lum bir ijtimoiy tuzimda yuzaga kelgan etnik uyushma aniq va xalqqa nisbat ishlatiladigan atamadir.

Ilm – fanda etnotsentrizm – tushunchasi xam keng qo'llanilib keladi. Etnotsentrizm – o'z xalqi. madaniyat, urf – odatlari normalari va qadriyatlarini boshqa xalqlarga xos bo'lgan shunday xususiyatlarni baholash uchun asos qilib olinishini ifodalovchi tushuncha. Etnotsentrizm kundalik hayotda va alohida olingan shaxs darajasida «biz boshqalar» tarzida qarama-qarshi qo'yilishda ko'rinadi. U turli omillar, shu jumladan, milliy til va an'analar ruhida tarbiyalanishi, milliy adabiyot va san'at ta'sirida ham shakllanishi mumkin. Har bir millat elatning o'zi nayob bo'lganidek, ularning madaniyati va ma'naviyati ham o'ziga xos va betakror xarakterga ega bo'ladi. Shunday ekan, bir qadriyatlar tizimi boshqa qadriyatlar tizimini baholash uchun etalon, mezon sifatida olinishi mumkin emas. Umuman olganda, o'z mohiyatiga ko'ra, milliylik, milliy qadriyatlar atrofida birlashishga xizmat qilsada, bu birlashuv boshqa xalqlarga xos bo'lgan o'ziga xosliklarni inkor etish asosiga qurilganligi uchun ham uni qabul qilish mumkin emas.

Millat bir tilda so'zlashuvchi odamlarning oddiy jamoasi emas. Millat bu tarixiy, ma'naviy, ruhiy, insoniy, siyosiy, ijtimoiy birlikdir. Millat ichki va tashqi uyg'unlik, inoqlik, hamjihatlik muhitida yuksaladi.

Millat o'z atrofidagi boshqa millatlar bilan hamjixatlikda yuksaklab boradi. U doimo o'z manfaatlarini o'zgalarning manfaatlari bilan muvofiqlashtirib boradi.

Jamiyat hayoti va taraqqiyotida barcha millatlar o'rtasidagi yaxshi munosabatlar va o'zaro hamjihatlik doimo katta rol o'ynab kelgan.

Millatlar o'rtasidagi kelishmovchilik jamiyat hayotida beqarorlikka va tanazzulga olib kelishini insoniyat tarixi bir necha bor isbotlab berdi. Ko'pmillatlik polientik davlatlarda milliy siyosat borasida barcha millatlar manfaatini ko'zlagan holda siyosat yurgazish zarurligi tarixiy zaruriyatga aylandi.

Millatning ravnaqida milliy mintalitetning ahamiyati doimo katta bo'lib kelgan. Milliy mintalitet har bir millatning ayrim vakiliga yoki butun boshli ijtimoiy guruhga xos bo'lgan aqliy qobiliyat darajasi, ma'naviy salohiyatidir. Jamiyat, millat yoki shaxsning mintaliteti o'ziga xos bo'lgan tarixiy an'analari, urf-odatlar, diniy e'tiqodlarini qamrab oladi. Har bir millatning mintaliteti uning tarixi, yashab turgan shart-sharoiti, ijtimoiy faolligi, ajdodlar tomonidan qoldirilgan milliy meros, milliy birligi, milliy manfaatlari va shu singari omillarga bog'liqdir.

Millatlararo munosabatlar jamiyat hayoti va taraqqiyotining asosiy zaminlaridan biridir. Milliy munosabatlarni takomillashtirish borasidagi har bir qilingan ish, har bir qo'yilgan qadam jamiyat taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbekiston bu erda yashayotgan har bir inson uchun aziz Vatandir, millatidan qat'iy nazar ularning vatanparvarligi, fidoyligi shu yurtning taraqqiy etishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» nomli asarida jamiyat hayoti va taraqqiyotida millatlararo munosabatlarning roli haqida gapirib shunday deydi: **«O'zbekistonning milliy-madaniy jihatdan g'oyat rang-barangligi milliy o'zligini anglash va ma'naviy qayta tiklanishning kuchayib borishi bilan uzviy birlikda jamiyatni yangilash, uni ochiq jamiyatga aylantirish uchun qudratli omil bo'lib xizmat qiladi va respublikani jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi».**

Mustaqillik mamlakatimiz uchun taraqqiy etish, dunyoga tanilish imkonlarini ochib berdi. O'zbekistonda ozod va obod Vatanni yaratishda, jamiyat hayotini erkinlashtirishda va farovonlashtirishda, jamiyat hayotini demokratiyalashtirishda millatlararo munosabatlarni takomillashtirib borish tarixiy zaruriyatga aylandi. Chunki turli millat vakillaridan iborat bo'lgan O'zbekiston fuqarolarini qalbi va ongiga bunyodkorlik, vatanparvarlik tuyg'ularini singdirish orqaligina jamiyatimiz hayotini yuksaltirishimiz mumkin.

Dastlabki milliy madaniy markazlar koreyslar, qozoqlar, yaxudiylar, armanlar tomonidan 1989 yilda tuzilgan. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach bu markazlar tez rivojlana boshladi, ularning soni tez orta boshladi. 1992 yilda 10 ta milliy madaniy markaz faoliyat yurgazgan bo'lsa, 1995 yilda ularni soni 72 taga, 2003 yilga kelib esa 135 taga etdi. Milliy madaniy markazlarni

asosiy maqsadlaridan biri O'zbekistonda yashayotgan barcha millat vakillarini respublikamizning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishlarini ta'minlashdir. Respublika boynalminal madaniyat markazining vazifasidan biri mamlakatimizda fuqarolar hamjihatligi va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga ko'maklashish. 1992 yil boshib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi **"Baynalminal madaniyat"** markazi tashkil qilindi. Milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ko'maklashish ham uning asosiy vazifasidir.

Millatlararo totuvlik milliy istiqolot mafkurasining asosiy g'oyalardan biri; muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha. Er yuzidagi 1600 dan ortiq millatdan, bor-yo'g'i 200 ga yaqini o'z davlatchiligiga ega, xolos. Bunday sharoitda butun dunyoda millatlararo totuvlikni ta'minlash uchun, ularning manfaatlari, ruhiyati, intilishlarini muntazam kuzatib borish, siyosiy-ijtimoiy hayotda buni doimo e'tiborga olish zarur. Jahon tajribasi millatlararo totuvlikni ta'minlashga bir yoqlama, yuzaki yondashuv jiddiy muammolarni keltirib chiqarishini ko'rsatdi. Xususan, davlatga o'z nomini bergan (titul) millat bilan o'sha joyda yashaydigan millat va elat vakillari orasidagi munosabatlar jiddiy e'tiborni talab qiladi. Aks holda jamiyat hayotidagi tinchlik va barqarorlik izdan chiqishi mumkin. O'zbekiston hududida qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib kelgan. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi. Millatlararo munosabatlarda uyg'unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko'p millatlilik jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida **"O'zbekiston xalqini millatida qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi," — deb ta'kidlanishi, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"**gi qonunda esa barcha fuqarolarga ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqeyi, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'iy nazar, teng saylov huquqining berilishi belgilab qo'yilgan. Bu esa shu bag'rikenglikning zamonaviy, siyosiy-huquqiy ifodasidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urq-odatlar va an'analarni xurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan ushbu qoida ham hayotda o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Respublikamizda milliy-madaniy ehtiyojlarni qondirishning muhim mexanizmiga aylangan 135 ga yaqin milliy-madaniy markaz faoliyat ko'rsatayotgani fikrimizning yaqqol dalilidir.

Bundan buyon ham qo'lga kiritilgan yutuqlarni yanada mustahkamlash, mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash milliy-madaniy markazlar fa'oliyatining asosiy maqsadlaridan biridir.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida O'zbekiston mustaqilligini tan olgan, ularning ko'plari bilan diplomatik aloqalar o'rnatilgan.

O'zbekiston ko'plab nufuzli tashkilotlarga a'zo bo'lib, ularning ishlarida faol qatnashib kelmoqda.

Ko'plab dolzarb muammolarni xalqaro tashkilotlar bilan xamkorlikda hal etib kelina yotganligi milliy qadriyatlarni alohida unsurlarini tashkil etuvchi milliy til, milliy davlatchilik, milliy g'oya, milliy mafkura, milliy urf-odatlar, milliy an'analarni tiklash bilan uyg'unlashtirgan holda kelajak sari qadam tashlayotganini ko'rsatadi.

Gullab-yashnaydigan, erkin va demokratik jamiyatga yolg'iz o'z yo'lini ijtimoiy rivojlanishning boshqa yo'llariga karama-qarshi ko'rgan holda kelish mumkin emas. Birgalikda rivojlanish, birgalikda ijod qilish, xamkorlik davrning kat'iy talabidir. Qadimgi Yunoniston, ma'rifatparvarlik davri, yangi va eng yangi davr inkiloblari insonparvarligining barcha eng yaxshi tomonlarni o'zida mujassamlashtirgan umuminsoniy demokratiya ideallari sari xarakterning zarurligini hal etish barakalidir. Amaliyotda bu xol inson huquqlari sohasida BMT xalqaro huquq hujjatlari, inson xuquqlari umumjahon deklaratsiyasi, ko'plab xalqaro bitimlar, yangi Evropa uchun, Parij xartiyalarining universal negizida xalqaro hamkorlikning kengaytirilishini anglatadi. Ularni hurmat qilish, ularga amal qilish, qonun bilan kafolatlash, ximoya qilish, to'liq amalga oshirish-

hukumatlar va davlatlarning eng birinchi burchi, shaxsning ruxiyati va ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi xamda kishilarning ijtimoiy kuch-g'ayratini ozod etuvchi erkinlik, adolat va tinchlikning negizidir. Har qanday jamiyat xayotini demokratiyalash kuchaygan sari fuqarolarnikg siyosiy ongi, ularning faolligi oshib boradi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganini iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarida sodir bo'layotgan jarayonlarda yakkol ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, ayni vaqtda bizning mamlakatimiz jahon iqtisodiyoti bilan o'zaro yaqinlashish niyatida bozor munosabatlarini rivojlantirmoqda. Bunday yangi iqtisodiy siyosat ayni bir paytda xam bizning milliy talablarimizga, ham umuminsoniyat manfaatlariga javob beradi. Shuning uchun xam aksariyat rivojlangan xorijiy mamlakatlar bizga o'z ko'maklarini ko'rsatmoqda. Bunga Uzbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan keyingi vaqtda bir necha xorijiy mamlakatlarga qilgan safari chog'ida imzolangan ko'pgina shartnomalar yaqqol misol bo'la oladi.

Sobiq SSSR respublikalari, shu jumladan Uzbekiston Respublikasi keyingi vaqtda Evropa hamjamiyatida, Xalqaro valuta fondida va boshqa iqtisodiy tashkilotlar ishida ham faol qatnashmokdalar. Uzbekiston xalkaro hukuknnng teng xukuqli sub'ekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga kabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zlarining qilayotgan ma'ruzalarida, asarlarida mustamlakachilik davridan qolgan illatlarga barham berish yo'lida oldimizda qanday vazifalar turganligini ta'kidlab kelmoqdalar. Siyosiy va iqtisodiy barqarorlikka erishish, milliy qadriyatlarni tiklash, millatlararo munosabatlarni takomillashtirish, fuqarolar totuvligini ta'minlash, millati, dini va e'tiqodidin qa'tiy nazar har bir shaxsning erkinligiga va inson xuquqlariga kafolat beriladigan zamonaviy demokratik davlatlar qatoridan joy olishdir.

Bunday vazifalarni amalga oshirishda milliy xususiyatlarni, turli millatlar manfaatlarini, mintaqa da asrlar mobaynida tarkib topgan turmush tarzini hisobga olmoqda.

Shu bilan birga millatlararo munosabatlarni demokratik tamoyillar asosida hal etib katta yutuqlarga erishgan mamlakatlarni tajribalaridan, xamda milliy munosabatlarni tashkil etish yo'l qo'yilgan xatolardan xulosa chiqarilgan holda foydalanib ish olib borilmoqda.

Shuni e'tiborga olish lozimki qator xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan sobik sovet davlati xududida hamda shu singari o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan boshqa ko'plab davlatlarga moddiy va ma'naviy tomondan yordam ko'rsatilishi ikkala tomon uchun ham foydalidir.

Chunki yangidavlatlar mustaqillikning ilk kunlaridanoq uchraydigan ma'lum bir qiyinchiliklarni bartaraf etish jarayonida turli xil muammolarga uchrashi mumkin. Jamiyat hayotining turli soxalarida amalga oshirilayotgan o'zgarishlardagixatoliklar va kamchiliklar, shu jumladan milliy siyosatni tashkil etishdagi xatolikliklar ziddiyatlarning kelib chiqishiga, ularning keskinlashib borishiga sababchi bo'lishi mumkin. Bunday kamchiliklar va xatolar uzoq vaqt qaramlikni o'z boshidan kechirgan, ko'p millatli davlatlar uchun ayniqsa xavflidir.

Bunday muammolarning o'ta ziyraklik, ehtiyotkorlik, barcha millatlarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda hol etish ko'p millatli O'zbekiston uchun ham xosdir.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ajdodlarimizning boshqa millat vakillariga nisbatan mehr-muruvvatli va do'stona munosabatda bo'lish fazilatlarini davom ettirilishi yurtimizda tinchlik va barqarorlik bo'lishini ta'minlab bermoqda. Ajdodlarimizning bunday fazilatlari xaqida gapirib Prezidentimiz shunday deydilar "Qadimiy diyorimizda asrlar mobaynida turli madaniyat va tsivilizatsiyalar yonma-yon yashab kelgan, bu esa bag'rikenglik, tinchlikparvarlik, sahovat va mehr-oqibatlilik fazilatlari bilan ajralib turadigan xalqamizning o'ziga xos mintaliteti shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi".

Millatlararo munosabatlarni taraqqiy ettirish, tinchlik va barqarorlikni ta'minlab berish yo'lida chet el davlatlari berayotgan ko'magi, O'zbekiston rahbariyatini bu borada olib borayotgan siyosatining ular tomonidan ko'llab quvvatlanishi mamlakatimizda demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Bundan ham biz hozirgi paytda milliy va umuminsoniy manfaatlarning bir-biri bilan uzviy boglanib ketganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Xalqlar xayotida ro'y berayotgan iqtisodiy va siyosiy o'zaro yaqinlashish madaniyat sohasiga ham to'la taalluklidir. Shu asosda xar bir milliy madaniyat boshka xalqlarning madaniyatiga ta'sir etib, ularni boyitib, ayni paytda uning o'zi ham boyib boradi. Milliy madaniyatlarning o'zaro ta'siri asosida rivojlanib, takomillashib borishi umuminsoniyat madaniyati taraqqiyotiga zamin yaratadi.

Jamiatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi jahon xalqlarining fan, texnika, adabiyot va san'at sohasida erishilgan ilg'or tajribalaridan atroflicha foydalanishni xayotiy ehtiyojga aylantirdi. Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotda milliylik bilan baynalminallikni joriy etish va rivojlantirishda ana shunga e'tibor qilish ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

9-Mavzu Tafakkur o'zgarishi va ma'naviy yangilanishda milliy g'oyaning roli.

REJA:

1. Bozor munosabatlariga o'tishning inson tafakkuriga ta'siri.
2. Taraqqiyotning milliy modeli va ularning mazmuni. O'zbek modeli.
3. "Kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili, uning barcha sohalardan ma'naviy yangilanish va tafakkur o'zgarishidagi o'rni va ahamiyati.
4. Yuksak ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar.
5. Prezident Islom Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobining tafakkur yangilanishiga ta'siri.

Iqtisod va ma'naviyat o'zaro chambarchas bog'liq. Ma'naviyatsiz iqtisod va iqtisodiyotsiz ma'naviyat yuksak bosqichga ko'tarila olmaydi.

Oldin iqtisodiy masalalarni, vazifalarni hal qilib, so'ng ma'naviyat bilan shug'ullanish lozim deguvchilar qattiq adashadi va aldanadilar. Bunday yo'l, usul xato va noto'g'ridir.

Iqtisodiyotning siyosatdan ustivorligini yurtboshimiz Islom Karimov bozor munosabatlariga o'tishning asosiy tamoyillaridan biri ekanligini qayta-qayta uqtirib kelmoqdalar. Bundan ayrim kishilar bizga mafkura, siyosat kerak emas, degan noto'g'ri xulosaga kelib ijtimoiy fanlarga nisbatan noto'g'ri munosabat bildirgan boshlagan davrlar ham bo'ldi. Bu no'noq, uzoqni ko'ra bilmaydigan odamlar fikri. Oldingi ma'ruzalarimizda aytganimizdek, ma'naviyatsiz jamiyat bo'lishi mumkin emas. Har qanday iqtisodiy masalalarni ma'lum ma'naviyat va ma'rifat sohiblari hal etadilar. Mamlakat qanchalik iqtisodiy rivojlangan bo'lsa, bu mamlakatda ma'naviyat va ma'rifat shuncha yuksak bo'ladi. Yuksak ma'naviyat va ma'rifatga ega bo'lgan mamlakatning iqtisodiy kuch-qudrati ham yuqori bo'ladi. Demakki, ma'naviyati va ma'rifati yuksak inson yurt, mamlakat, xalqi oldida o'ziga yuklatilgan mas'uliyatni chuqur his etadi. SHu yurt, mamlakat, xalq uchun halol, fidokorona yaratuvchilik, bunyodkorlik mehnati bilan uning yuksaklikka parvozi uchun o'z hissasini qo'shishi kerakligini teran his etadi. SHunday qilib, yuksak ma'naviyat va ma'rifat yuksak iqtisod, yuksak iqtisod esa yuksak ma'naviyat va ma'rifat bilan bog'lanib ketadi.

Ayrim kishilar erkin bozor iqtisodi sharoitida ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy qadriyatlarning qiymati tushib ketadi, madaniyat ikkinchi darajali narsaga aylanadi, ma'naviy qashshoqlik avj oladi, deb da'vo qiladilar. Erkin bozor iqtisodiyoti bilan ma'naviyatni bunday qarama-qarshi qo'yish mutlaqo o'rinsiz, aksincha yuqorida aytganimizdek ular bir-birlarini to'ldiradi, chunki faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohatlarga tayyor bo'lishi mumkin.

Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish ma'naviy o'nglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un holda boradi.

Mana shuning uchun ham jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish XXI asr arafasi va uning dastlabki yillaridagi ustivor yo'nalishlardan biri ekanligi ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining birinchi sessiyasida belgilab qo'yildi. YUrtboshimiz I.A. Karimov «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz» kitobida ta'kidlaganidek,

har qaysi ijtimoiy toifa va qatlamning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, umumiy gaplar bilan emas, amaliy ishlar bilan ma'naviyatni yuksaltirish diqqatimiz markazida bo'lishi shart¹.

Demak, ma'naviyat va iqtisod bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib, rivojlanib boradi. Hozirda iqtisodiy islohotlarning yangi, yuqori bosqichiga o'tayotgan ekanmiz, demak ishlab chiqarish tarmoqlari ishga tushib, iqtisodiy yuksalish yuz beradi. Bu esa fan, madaniyat va ma'naviyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qiladi. Xususan, bunga kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uni amalga oshirish borasidagi ishlar yaqqol misol bo'la oladi.

Keyingi yillarda Prezidentimiz Islom Karimov ma'naviyat – iqtisodiy rivojlanishning ham asosidir, degan yangi fikrni o'rta tashladi. SHo'rolar zamonida ma'naviyatning rolga bunchalik katta e'tibor berilmagan edi. Umuman, biz uzoq yillar davomida ma'naviyat, madaniyatni iqtisoddan keyingi o'rinlarga qo'yishga odatlanib qolgan edik. Endilikda ma'naviyat birinchi o'ringa chiqdi.

Ma'naviyatning birinchi o'ringa qo'yilishiga ikkita sabab bor: Birinchidan, biz YAponiya kabi yuksak rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyot omillarini o'rganib, faqat yuksak ma'naviyatgina yuksak iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashi mumkinligiga amin bo'ldik.

Ikkinchidan, respublikamizda iqtisodiy rivojlanishni orqaga surayotgan, unga to'siq bo'layotgan sabablardan eng muhimi – ma'naviyatsizlik ekanini anglab etdik. Bu haqiqat achchiq bo'lsa ham, ammo uni tan olmasdan ilojimiz yo'q.

Iqtisod, ma'naviyat va ma'rifatning o'zaro chambarchas bog'liq ekanligini bizning otabobolarimiz to'g'ri tushunib etganlar. SHunga tayangan holda ular komil, ma'naviyati yuksak inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, boshqacha aytganda axloq Kodeksini ishlab chiqqanlar. Undagi asosiy o'zak, jihat kishi qalbida haromdan hazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi, bozor munosabatlarida insof va diyonat, xaridorga munosabatda samimiylik, yumshoq muomala, xaridor ko'nglini topishga intilish asos qilib olingan.

Ma'naviyati yuksak kishi birovning haqiga, davlat, jamoa mulkiga hiyonat qilmaydi, sadoqatli bo'ladi, Vatani, eli, yurti, xalqi uchun jonini fido etishga o'zini ayamaydi. Buning aksi o'laroq, ma'naviyati qashshoq kishilar nopok, firibgar, poraxo'r, o'g'ri, qallob, Vatan va millat manfaatlariga befarq qaraydi. Siz bo'lajak mutaxassislar bunday kishilardan yiroq bo'ling, ularga nisbatan nafratli bo'ling, ulardan o'rnak olmang.

Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada rivojlangan iqtisodiyoti bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviyati etuk farzandlari bilan ham jahonni hayratga solishi va unga yuz tutishi lozim. Bunga esa iqtisod va ma'naviyat, ma'rifatni birga, o'zaro mutanosib, mushtarak rivojlanishiga ahamiyat berganimizdagina erishishimiz mumkin.

Biz maqsad qilib olgan tsivilizatsiyalashgan bozor munosabatlari faqat yuksak ma'naviyat va ma'rifat negizida, yuksak axloqiylik va vatanparvarlik negizlarida bunyod etilishi mumkin. Buni hammamiz teran anglab olishimiz kerak.

Ma'naviyat va ma'rifatli, iymonli kishilargina o'zining halol-pok mehnati bilan boylik yaratuvchi, izlanuvchi, insofli, mehnatsevar, tadbirkor, el-yurt dardiga malham bo'luvchi haqiqiy vatanparvar bo'ladi. SHunday fuqarolarga ega bo'lgan mamlakat, jamiyat iqtisodiy taraqqiyot pog'onalaridan uzluksiz yuqoriga ko'tarilib boradi.

Ma'naviyatli va ma'rifatli kishilarda yaxshilikka moyillik va yomonlikdan tiyilish hissi kuchli bo'ladi. Demakki, turli yomonliklardan tiyilish hissi jamiyatda osoyishtalik va farovonlikka olib keladi.

Kelajak yoshlarniki bo'lgani uchun ham mamlakatimizda ularning ma'rifatli, tadbirkor, zukko va o'z kasbining ustasi, iymon-e'tiqodli, zamon talablari darajasida etuk, ma'naviy barkamol bo'lishlari uchun Prezidentimiz boshliq hukumatimiz va keng jamoatchilik barcha imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Ilm-fan, ta'lim-tarbiya, hunar egallashni izchillik bilan amalga oshirish iqtidorli yoshlarga ochilgan keng imkoniyatdir. Bu boradagi olib borilgan ish Oliy Majlisning IX sessiyasida kadrlar tayyorlash milliy dasturi va O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi» qonunini qabul qilinganligida hamda bu masala ikkinchi chakirik Oliy Majlis

¹ Qarang: I. Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 25-bet.

birinchi sessiyasida ustivor yo'nalishlardan biri qilib belgilanganligida o'z ifodasini topgan. YUrtboshimiz ta'kidlaganlaridek, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi o'rnimizga kim kelishiga bog'liq.

SHunday qilib, ma'naviy barkamol, ma'rifatli, madaniyatli, tadbirkor, fozil inson eng oliy faoliyat – mehnat, yaratuvchanlik, bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lishi uchun, uning yashashi va sharoitini tubdan yaxshilash taraqqiyotimizning ob'ektiv qonuniyati bo'lib qolmoqda.

Bozor munosabatlariga o'tish va uning rivoji tadbirkorlik bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Zotan bozor iqtisodiyotining talabi tadbirkorlik va ishbilarmonlikdir. Tadbirkor ham ma'naviy pok, ma'rifatli bo'lishi kerak.

Tadbirkor halol va haromni ajrata bilishi, haromdan hazar qilishi lozim;

tadbirkor ma'rifatli, dunyoqarashi keng qamrovli, bir – yoqlamalikdan holi bo'lishi lozim;

tadbirkor o'zi boshlagan ishga qat'iy ishongan bo'lishi, aniq maqsadni o'z oldiga qo'ygan va uning natijalarini aniq tasavvur eta bilgan bo'lishi lozim;

tadbirkor o'z xatolarini tan ola bilishi va uni o'z vaqtida to'g'rilashga intilishi kerak;

tadbirkor tavakkalchasiga ham ish yuritishi, unga borishi kerak;

tadbirkor farosatli, insofli, mehnatsevar bo'lishi kerak va boshqalar.

Xullas, mustaqil O'zbekiston tanlab olgan bozor iqtisodiyoti yo'li shuning uchun ham istiqbolli, u har bir kishidan o'ta tadbirkorlikni, hozirjavoblikni, tejamkorlikni, uddaburonlikni, vaqti-soati kelganda sabr-toqatlilikni, sovuqqonlikni, har bir vaziyatda ishning ko'zini bilishni, muomalada nihoyatda ehtiyotkorlikni, har bir so'zning shakli va mazmunini ajratishni va farq qilishni talab etadi.

Yuqorida tadbirkor xislatlari qanday bo'lishi haqida qisqa fikr yuritdik. Bu xislat va xususiyatlar o'zbek xalqida azaldan mavjud. Afsuski, ularning ko'pchiligi turli sabablar ta'sirida kishilarimizning yodidan chiqib, xayolidan ozmi-ko'pmi ko'tarilgan, yoki mustabid tuzum va uning mafkurasiga yot narsalar sifatida o'z orasidan haydab chiqarilgan. Endi ular tiklanishi va hayotimizda o'zlariga xos o'rin egallashi kerak. Bozor iqtisodi – demakkim zamon talabi, mustaqillik qonuni. Mamlakatimizda kishilarning, ayniqsa yoshlarning tadbirkorlik ishi bilan shug'ullanishlariga barcha imkoniyatlar yaratilgan va u qonun bilan mustahkamlangan. Vazifa ana shu qonun doirasida tadbirkorlikni har tomonlama rivojlantirib, O'zbekistonni jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishiga olib chiqishdir. SHuning uchun ham yoshlar bizning, mamlakatimizning kelajagi deymiz. Zotan buyuk kelajak ma'nan yuksak, ma'rifatli yoshlarimiz qo'lidadir.

Prezident I.Karimov tamonidan juda kata ishonch va asosli ravishda aytilganidek, **“O'zbekistnon kelajagi byuk davlat.”** Mustaqillik poydevorini saqlab qolish, uni yanada mahkam turishi uchun mamlakat iqtisodiy ahvolini yaxshilash istiqlolning dastlabki kunlaridagi eng muhim vazifa edi.

Odamlarning oziq-ovqat, kiyim-kechakka, uy-joy, xullas, iqtisodiy ehtiyojini zarur darajada yaratmay jamiyatni taraqqiy ettirish qiyin. Shuning uchun butun imkoniyatlarni ishga solgan holda, O'zbekiston iqtisodini tiklashga kirishildi. Iqtisodni rivojlantirish orqali qiyinchiliklar bilan qo'lga kiritilgan mustaqillikni saqlab qolish zarur edi. Zero, moddiy zamini bo'sh, iqtisodiy jihatdan zaif bo'lgan mamlakatning, xalq va millatning kelajagi bo'lmaydi, unga omad kulib boqmaydi. Quruq so'z, soxta va'dalar va dasturlar bilan uzoqqa borib bo'lmaydi. Hamma narsani amaliyot hal etadi.

Sovet davrida O'zbekistondan olib chiqib ketiladigan boyliklarning 70 foizini faqat xom ashyo tashkil qilardi, chetdan esa 70 foiz tayyor mahsulotlar, aholiga eng zarur don, go'sht, sut mahsulotlari, neft, yoqilg'i, uskunalar kabi tovarlar olib kelinardi.

Qaramlik yillarida O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirmaslikka, uni xom ashyo bazasiga aylantirishga katta e'tibor berildi. O'zbekiston Rossiyaning asosiy paxta ba'zasiga aylantirilib, ekin maydonlarining barchasiga paxta ekilgan. O'zbek xalqi serunum, hosildir erlarda yashasa-da, ko'plab qishloq xo'jalik mahsulotlarini, xususan, kartoshkani chetdan olib kelishga majbur bo'lar, don, go'sht mahsulotlari ham chetdan olib kelinardi.

O'zbek xalqi faqat paxta uchun ishlaydigan, paxta dalalaridan beri kelmaydigan millatga aylana borgan. Maktab o'quvchilari, talabalar ilmi, ma'rifatli bo'lish o'rniga hayotining katta qismini paxta dalalarida o'tkazardi.

Paxta yakkahokimligi xalqimiz hayotini yaxshilanishiga emas, balki yomonlashib borishiga olib keldi. O'zbek xalqi asrlar mobaynida o'troq xalq sifatida dexqonchilik bilan shug'ullanib, o'zlariga qo'shni xalqlarni xam qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlab kelgan. Sovet davlatini O'zbekistonning barcha ekin maydonlarini paxtazorlarga aylantirishi aholini qishloq xo'jalik mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini o'tirish bilan birga, suv muammosining paydo bo'lishiga olib keldi.

Mustaqillik bunday salbiy holatlarni oldini olish imkoniyatlarini yaratib berdi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan barcha qishloq xo'jalik mahsulotlarini o'zimizda ishlab chiqarish chora-tadbirlari ko'rildi. Natijada, agar istiqloq arafasida mamlakatimizda yiliga atigi 900 ming tonna atrofida g'alla etishtirilgan bo'lsa, 2003-2004 yillarga kelib, ushbu ko'rsatgich 5 ml. tonna, 2005 yil 6 mln. tonnadan oshdi. O'zbekistonda 2003 yildayoq g'alla mustaqilligiga erishildi. Bu muvaffaqiyatga erishishning o'ziga xos sabablari bo'lib, ulardan biri mamlakatda paxta yakka hokimligiga barham berilib, g'allazorlarning kengayganligi, dehqon fermerlarga yaratilgan keng imkoniyatlar va har bir qishloq oilasiga o'z tamorqasida etarlicha g'alla ekish erkinligining berilganligidir.

Qishloq aholisining turmush darajasini yuksaltirish maqsadida 2008 yil 20-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning " Oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni etishtirishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida " gi farmoni chiqdi. Mazkur farmonning qabul qilinishi yurtimiz fuqarolarining katta qismi yashab kelayotgan qishloq joylar aholisining turmush kechirish sharoitlarini yaxshilanishiga olib keladi.

Mamlakatda er o'z egasini topgan. Istiqloqning dastlabki kunlaridanoq dehqonlarga er berish orqali dehqonning erga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga erishildi. Kolxoz va sovxozlar o'rnida jamoa xo'jaliklari va undan asta-sekin dehqon-fermer xo'jaliklariga o'tildi. O'z mehnati samarasidan manfaatdor bo'layotgan dehqon endi o'ziga qarashli erni e'zozlashga, fidokorona mehnat qilishga kirishdiki, bugungi kunda dehqon-fermer xo'jaliklar tamonidan etishtirayotgan mahsulotlar butun mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismini egallaydi. Mamlakat dehqonlarining mehnati bilan 5 ming tonnadan ortiq meva-sabzavot va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari yaratildi. Bugungi dehqonning iqtisodiy ahvoli kechagi sovet davri dehqoni ahvolidan tubdan farq qiladi. Bugungi dehqon ertangi kun orzusi, rejasi bilan ijodiy mehnat qilish bilan band. Qishloq xo'jaligi sohasida qilinadigan ishlar rejalashtirish to'g'risida fikr yuritib, istiqloqning dastlabki kunlarida I.Karimov shunday ta'kidlagan edi: **Bugungi kunda qishloqqa o'zining asl qadr-qimmatini qaytarmoq zarur. Qishloq mehnatkashlariga ishonch bag'ishlash kerak. O'zbekiston barcha aholisining turmush darajasi qishloq aholisining farovonligiga, ularning shijoatiga bog'liq. Dehqon to'q bo'lsa, butun respublika ham badavlat bo'ladi"**

O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan eng asosiy paxta ekan, uni etishtirish va qayta ishlash sohasi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bir paytlar paxtadan faqat xom ashyo sifatida foydalanilgan bo'lsa, bugungi kunda undan tayyor mahsulot olish choralari ko'rilmogda. Hozirda O'zbekiston paxtasining 39 foizi qayta ishlanayotgani holda, kelgusida 55 foizini qayta ishlab tayyor mahsulot sifatida sotish rejalashtirilmogda. Birgina Toshkentning o'zida ko'plab fa'oliyat yuritayotgan tikuvchilik tsexlari paxtadan tayyorlangan mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan.

O'zbekistonda etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining qo'shni davlatlarga, jahon bozorlarida sotilishi aholi turmush darajasini yaxshilanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmogda. Qishloq joylarga sanoatning kirib borishi, qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlash bilan birga axoli daromadini oshib borishiga ta'sir ko'rsatadi.

2008 yilning 14-15 oktabr kunlari Prezident I.A.Karimov tashabusi bilan Toshkent IV xalqaro O'zbekiston paxta yarmarkasi bo'lib o'tdi, ushbu yarmarka o'zbek paxtasi dunyoda o'z xaridoriga ega ekanligini ko'rsatdi. Yarmarka yakuni bo'yicha 950 ming tonnadan ortiq paxta tolasini sotib olish bo'yicha shartnoma va bitimlar imzolandi.

Bunday yutuqlarning zamirida istiqloq, O'zbekistonning ozodligi, hurligi yotadi. Agar u mustaqillikka erishaolmaganda bunday yutuqlar qayoqda edi. Mamlakatda xalq xo'jaligini erkinlashtirish, jamiyatni demokratlashtirish va ishlab chiqarish tarmoqlarini madornizatsiyalashtirish davom etmogda. Tadbirkorlik va tashabbuskorlikka keng yo'l ochilgan.

Xususiyl tadbirkorlar davlat tamonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning qariyb 75 foizi, sanoat mahsulotlarining 78 foizidan ortig'i, qishloq xo'jaligi va chakana savdo aylanmasining deyarli barcha mahsulotlari nodavlat sektor ulushiga to'g'ri kelmoqda. Nodavlat sektorda 77 foiz yoki iqtisodiyotda band bo'lgan kishilarning to'rtidan uch qismi mehnat qilmoqda. Bugungi kunda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o'sish suratlarini jallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan aholi bandligi va daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham etakchi o'rin tutmoqda. Bunga ko'p jihatdan huquqiy bazani mustahkamlash, iqtisodiyotning mazkur sektori uchun barqoror qulaylik, imtiyoz va kreditlar tizimini shakllantirish masalalariga jiddiy e'tibor berilayotganligi tufayli erishildi. Kichik biznes ob'ektlari ko'payib bormoqda. Hozirgi kunda kichik tadbirkorlik (biznes)ning yalpi mahsulot hajmidagi ulushi yildan yilga ortib barmoqda. Bugungi iqtisodiyotda band bo'lgan aholining ko'prog'i mazkur sohada fa'oliyat yuritmoqda. Yangi yaratilayotgan ish o'rinlarining katta qismi aynan kichik biznes hisobiga to'g'ri kelmoqda.

Keyingi yillarda davlat va nazorat tuzilmalarining korxonalar moliya-xo'jalik fa'oliyatiga aralashuvini keskin qisqartirish, xo'jalik sub'ektlari hamda tadbirkorlikning iqtisodiy erkinligi va huquqlarini sezilarli darajada kengaytirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda milliy tiklanish g'oyasini amalga oshirish millat va jamiyat oldida turgan vazifalarni aniqlashtirib olishni talab qiladi. Umuman, bu vazifalar Milliy mafkuraning bosh g'oyasidan kelib chiqadi. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik - bular milliy tiklanish g'oyasini amalga oshirishdagi muhim nuqtalardir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, davlat va jamiyatning bundan keyingi rivojlanishi ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirish va demokratiyalash bilan bevosita bog'liqdir. Boshqacha aytganda, ijtimoiy-siyosiy sohada demokratiya amalga oshirilmas ekan - milliy tiklanish to'g'risida fikr yuritish befoydadir.

Umuman, fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim sharti davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirishdir. O'zbekistonda bu jarayon «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» degan tamoyil asosida olib borilmoqda. «Hammamizga ayonki, - deb qayd etadi I.Karimov, - bu yo'nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni taqazo etadi»¹.

Darhaqiqat, O'zbekistonning hozirgi ijtimoiy-siyosiy hayotini erkinlashtirishda markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlash o'ta muhimdir.

«Kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari» kontseptsiyasi o'zining g'oyaviy-mafkuraviy asoslariga ega bo'lib, ular O'zbekistonda mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar, shakllangan qadriyatlar darajasi va ko'lami bilan belgilanadi. Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish vazifasi birdaniga hal bo'lmaydi. Uning uchun ma'lum shart-sharoitlar etilgan bo'lishi lozim. Bular quyidagilardan iborat:

- jamiyat fuqarolarida eski tafakkur tarzini yo'qotish, g'oyaviy-ma'naviy boqimandalik hissini bartaraf etish;
- kishilarda jamiyat hayotida sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga befarqlikni, jamiyatdan begonalashuv kayfiyatini bartaraf etish;
- insonning siyosiy ongi va madaniyatini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini ko'tarish, jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga dahldorlik hissini shakllantirish;
- odamlarda o'z-o'zini boshqaruv organlarida, jamoat tashkilotlari, nodavlat muassasalarida erkin faoliyat ko'rsatish ko'nikmasini paydo qilish;
- mamlakat siyosiy hayotini erkinlashtirish orqali demokratik jamiyat qurish mexanizmining huquqiy-qonuniy asoslarini yaratish;

¹ Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. T.: O'zbekiston, 2003. -B.27.

- davlat tuzilmalarining jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga ko'r-ko'rona aralashuv mexanizmini yo'q qilish;

- qonunlar ijrosini ta'minlash, mamlakatda qabul qilingan va amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarni hayotga joriy qilishda davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Albatta, bular kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tishning barcha jihatlarini qamrab ololmaydi. Ammo, kuchli jamiyat yuqoridagi kabi holatlarning amaldagi ijrosisiz ham paydo bo'lishi mumkin emas.

Siyosiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, hech shubhasiz, jamiyatni bosqichma-bosqich demokratlashtirish bilan bog'liqdir. Ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda yangi demokratik jamiyat qurilishining umumjahon e'tirof etgan o'ziga xoya kontseptsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda ijtimoiy hayotning muhim hodisalaridan bo'lgan demokratiyani yangicha talqin etish va tushunishga alohida e'tibor qaratilgan.

Umuman, demokratiyani tushunish va anglash, unga amal qilish shaxsdan maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Siyosiy ongi va tafakkuri shakllanmagan insonning demokratiya talablariga javob berishi mumkin emas. Bundan tashqari, demokratiyaning o'ziga xos xususiyatlari, uning har bir davlat va millat hayotida amal qilish tamoyillari ham mavjud.

Shu o'rinda **Sharqona demokratiya** to'g'risida ayrim fikrlarni aytish muhimdir, zero bunday demokratiya aslida demokratiya tushunchasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu demokratiya Sharq mamlakatlari, asosan aholisining ko'p qismi musulmon ma'naviyatidan bahra olgan hududlarga xos bo'lgan demokratik qoidalar majmuining o'ziga xos shakl va mazmunda namoyon bo'lishidir. Sharqona demokratiya milliy bosqichlik, andisha, yoshi ulug'larga hurmat, o'zaro maslahat, har qanday keskin masalada ham tomonlarning kelishuvlariga asoslanadigan faoliyatdir. Ana shu xususiyatlari bilan ushbu ijtimoiy tushuncha G'arb demokratiyasidan farq qiladi.

Ayni paytda sharqona demokratiya, siyosiy tartibsizliklar, bosh-boshdoqlik va mitingbozlikni milliy manfaatlariga zid deb qaraydi hamda jamiyat va davlatning ichki masalalari har qanday fundamentalistik va qurolli kuchlarga asoslangan harakatlarni qoralagan holda, o'z faoliyatini o'ziga xos madaniyat tamoyillari asosida yo'lga qo'yadi.

Jamiyatni demokratlashtirishda har bir davlat va millatning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olingandagina uni amalga oshirish darajasi reallashadi. Shuningdek, u yoki bu davlatdagi demokratiyaning yashovchanligi uning qanday g'oyaviy-mafkuraviy zaminlarga suyanishiga ham bog'liqdir. O'zbekiston jamiyatini demokratlashtirishda aholining ma'naviy-ma'rifiy darajasi, uning siyosiy ongi va madaniyati, milliy mentaliteti, o'ziga xos tafakkur tarzi bunday g'oyaviy-mafkuraviy zaminni tashkil etadi.

O'zbekistonda demokratik huquqiy jamiyatni barpo etish shaxs erkinligi hamda uning g'oyaviy-mafkuraviy asoslari bilan bevosita bog'liqdir. Shaxs erkinligi avvalo ijtimoiy tushuncha hisoblanadi. Jamiyatda erkinlashtirish jarayonini amalga oshirmasdan shaxs erkinligi to'g'risida fikr yuritish mumkin emas. Shaxs erkinligi fuqaroning imkoniyatlari, ijodiy qobiliyatlariga yo'l ochadi. Pirovard natijada shaxs ijtimoiy faol individga aylanadi.

Shaxs erkinligi to'g'risida gapirganda uning dunyoqarashi, siyosiy bilimlar darajasi, jamiyatda o'zini tutish madaniyati, turli ekstremal vaziyatlarda to'g'ri xulosa chiqarish imkoniyati, o'zining ozod shaxs ekanligini qay darajada anglashi, o'zining va jamiyat manfaatlarining mutanosiblik holatini aniqlashi sifatlariga ko'proq e'tibor berish lozim.

U insonlar o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy munosabatlarda ro'yobga chiqadi. Shuning uchun jamiyatdan tashqarida erkinlik bo'lmaydi. Jamiyatda erkinlikni tushunish va amalga oshirish mamlakatda ustuvor bo'lgan milliy madaniy, tarixiy, diniy va boshqa tartibotlar, qonun-qoidalar hamda qadriyatlarga, ularning xarakteri, mazmuniga bog'liq bo'ladi. Erkinlikni anglash va uni ifoda etishda G'arb va Sharqning o'ziga xos jihatlar bor. G'arbda erkinlik to'g'risida fikr yuritilganda, asosan, alohida olingan shaxs erkinligi va huquqlaridan kelib chiqqan holda yondashiladi, erkinlikka shu mezondan kelib chiqib baho beriladi.

Sharqda ham shaxs erkinligi va huquqlari hisobga olinadi. Lekin shaxs hatti-harakati, xulq-atvori, jamiyatdagi o'rni, ma'suliyatini idrok etish holatlariga baho berilganda, muayyan guruh,

etnos, xalq, millat, jamiyatning manfaatlari, huquqlariga alohida qadriyatlar, an'analaridan kelib chiqqan holda yondoshiladi.

Shaxsning xohish–irodasi, istagi, maqsad va manfaatlari uning faoliyatida namoyon bo'ladi. Erkinlik va jamiyat hayotini erkinlashtirish muammosi muayyan g'oyalar tizimi bilan ham bog'liq. G'oya erkinlik, jamiyat hayotini erkinlashtirishga xizmat qilishi yoki, aksincha, erkinlikni, erkinlashtirish jarayonlarini bo'g'ishi, ya'ni unga imkoniyat bermasligi ham mumkin. Chunki, jamiyat hayoti siyosiy tizim sifatida, muayyan g'oyalar orqali muayyan tartibotlar, urf–odat, an'analar, qadriyatlar bilan shakllanadi. Ular esa jamiyatning turli sohalarida faoliyat ko'rsatadigan insonlar dunyoqarashi, ongi va tafakkuri orqali o'z ifodasini topadi. G'oyaga mos ravishda erkinlik va erkinlashtirish jarayonlari sodir bo'ladi. Mamlakatda yagona g'oya tan olinib, faqat unga amal qilinsa, shunga mos faoliyat qaror topadi. Masalan, kommunizm g'oyasi yakka hukmronlikka asoslangan bo'lib, natijada inson erkinligi, umuman, jamiyatni erkinlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Inson fikri, uning jamiyat iqtisodiy, siyosiy hayotidagi o'rnini ham sinfiylashtirish mafkuraga yoki proletar manfaatlari bo'ysundirildi. Inson ongi va dunyoqarashida uning dunyoni idrok etishi bilan bog'liq qarashlari, tasavvurlari emas, aksincha, dunyoqarashni «sinfiy»lik tamoyiliga moslashtirish va undan kelib chiqqan holda fikrni ifodalash, munosabat bildirish hodisasi ro'y berdi. Bu dunyoqarash majburiy tarzda shakllantirildi.

Jamiyatning erkinlashishi insonlar, turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtirokiga, o'zaro munosabatlardagi o'rnini, mavqeyi, holatiga bog'liq. Inson erkinlikni xohlaydi, lekin nosog'lom siyosat, mafkuraviy maqsadlar bunga yo'l bermasligi mumkin. Bunga sobiq Ittifoq davri yaqqol misol bo'ladi. O'zining erkin yoki erkin emasligini farqlamaydigan insonlar ham uchraydi. Bu ularning ongi, dunyoqarashi, tafakkuri darajasiga bog'liq. Inson erkinlikni istaydi, ammo mavjud ijtimoiy–iqtisodiy holati bunga imkon bermasligi mumkin. O'z erkinligini idrok eta olmagan kishi ozod bo'la olmaydi. Bunday odamlar doimo birovning ta'sirida va unga qaram bo'ladi. Iqtisodiy qaramlik inson erkinligini yuzaga chiqarmaydi. Bu o'ziga xos iqtisodiy tobelik ruhiyatini shakllantiradi. Ayrim ijtimoiy muammolarning mavjudligi kishining erkin faoliyat yuritishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Masalan, bir amallab o'z ish o'rnini saqlab turgan, boshqa mehnat faoliyati bilan shug'ullanish qo'lidan kelmagan yoki unga imkoniyati bo'lmagan kishi o'z ishini yo'qotib qo'ymaslik uchun jim turishni afzal ko'radi. U ishsiz qolishdan qo'rqadi. Sho'rolar davrida insonlar bir kasb doirasiga chambarchas «bog'lab» qo'yilgan, boshqa mehnat faoliyati, xususan, tadbirkorlik bilan shug'ullanish imkoniyatlari cheklangan edi. Bugun xususiy tashabbusga keng imkoniyatlar berildi, biroq bu imkoniyatlardan foydalanish oson kechayotgani yo'q.

Ijtimoiy–iqtisodiy hayotning bozor iqtisodiga asoslangan, mulk xilma–xilligiga o'tgan O'zbekistonda hammaning oldida yangi–yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Insonlar endi faqat bir narsaga tayanib qolish emas, balki mulkdor bo'lish huquqining barcha imkoniyatlaridan keng foydalanishlari mumkin. Buning uchun odamdan faqat etarli salohiyat, izlanish, mehnat, faollik talab etiladi. Bugun kim shu talablarga javob bersa, muayyan yutuqlarga erishayapti va yomon yashamayapti.

Demak milliy g'oyaning jamiyat hayotiga tadbiiq etilishi jamiyatni erkinlashtirish va demokratiyalashtirish bilan uzviy bog'liqdir. U erkinlik, erkinlashtirishning muhim ma'naviy omili bo'lib xizmat qiladi. Chunki u tayanadigan, amal qiladigan qoidalar, tamoyillar shunga shart–sharoit yaratadi va shuni talab ham qiladi. Mustaqillik tufayli jamiyat yangilanishga, erkinlashishga ehtiyoj sezayotgan ekan, demak mustaqillikkacha amal qilgan g'oyalar, qoidalar, tamoyillar bugungi kun talablariga javob bermaydi, ularga asoslangan holda jamiyat va inson hayotining erkinlashtirish mumkin emas. Mamlakatning huquqiy asoslari, qonunchilik sohasi, ijtimoiy–siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy negizlari yangilanmoqda. Yangi g'oyalar demokratik tamoyillar asosida qurilmoqda. Bu istiqbolda kuchli, demokratik fuqarolik jamiyatini qurish vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Erkinlashtirish va demokratiyalashtirish esa, uning ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.

Asarda ma'naviyatning xalqimizning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirishdagi roli ham asoslab berilgan. Jumladan, Prezidentimiz shunday yozadi: «Xalqimizning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir.

Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimizning qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan etilgan»¹.

Ma'naviyatning milliy taraqqiyotidagi o'rni va uni o'zlashtirish zarurligi asarda ilmiy asoslangan: «Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi»².

Ma'ruzani o'qish jarayonida muallim talabalarga bugungi kunda milliy ma'naviyatni rivojlantirish davlat siyosatida ustivor vazifa sifatida belgilanganligini Prezidentning yuqoridagi g'oyalarni chuqur tushuntirish orqali asoslab berishi lozim.

Islom Karimov o'z asarida mamlakatimizda milliy ma'naviyatni tiklash va rivojlantirish davlat siyosatida ustivor vazifa ekanligiga e'tiborni qaratib quyidagi kontseptual g'oyani ilgari suradi. U shunday yozadi: «Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so'ngra ma'naviyat to'g'risida o'ylash kerak deydiganlar haq bo'lmasa kerak. Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyat, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi...»

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan bu kontseptual g'oyaning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki: birinchidan, bu bilan muallif sobiq sho'rolar davrida ma'naviyatni rivojlantirishga uchinchi darajali omil sifatida qaralishining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy inqirozining sabablarini ham ko'rsatib beradi. Ikkinchidan, ma'naviyatni rivojlantirmasdan, shaxsning ma'naviy-ruhiyatini o'zgartirmasdan turib jamiyatda ko'zlangan maqsadni amalga oshirish mumkin emasligiga asosiy e'tiborni qaratgan.

Prezidentimizning yana bir muhim kontseptual g'oyasi ma'naviyat shaxsning eng muhim mezonini va shuning bilan birga uni kamolotga eltuvchi, o'z-o'zini anglatuvchi va o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqartiruvchi ulkan omil ekanligini ilmiy asoslaganligidir.

Islom Karimovning milliy-ma'naviy tiklanishga bag'ishlangan kontsesiyasida vatanparvarlikning shaxs ma'naviyatining ajralmas qismi ekanligini asoslab berish alohida o'rinni egallaydi. Haqiqatan ham o'z Vatani sevmagan, uning har qarich eri uchun mas'ulligini his etmagan har bir inson ma'naviy jihatdan qashshoq hisoblanadi. Muallim talabalar diqqatini xuddi mana shu g'oyaning mohiyatini tushunib etishga qaratishi lozim.

Prezidentimiz mazkur asardagi milliy-ma'naviy tiklanish vazifasini amalga oshirishga bag'ishlangan kontseptsiyalarini o'zining boshqa asarlarida ijodiy rivojlantirgan, yangi mazmun bilan boyitgan, taraqqiyotimizning yangi bosqichida yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish ehtiyojlariga mos ravishda uning yangi yo'nalishlarini belgilab bergan.

Xususan, ular «O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida», «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «Amir Temur – faxrimiz, g'ururimiz», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin», «O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz («Turkiston» gazetasining muxbiri savollariga javoblar)», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz», «Milliy mafkura – kelajak poydevori», «Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman («Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblar)» kabi asarlari, nutqlari va muxbirlar savollarida o'z ifodasini topgan.

Prezidentimizning yuqoridagi asarlarida ilgari surilgan kontseptual g'oyalarni umumlashtiradigan bo'lsak, ular quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- ma'naviy meros va diniy qadriyatlarni chuqur o'zlashtirish, millatimizning o'z-o'zini anglashiga erishish, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini izchillik bilan mustahkamlash;
- mustaqillik sharoitida milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda uni xalqimiz dunyoqarashiga aylanishiga erishish;

¹ O'sha asar 78-bet.

² O'sha joyda.

- ta'lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashning milliy dasturini amalga oshirish asosida barkamol avlodni shakllantirish, sog'lom avlod dasturini amalga oshirish asosida jismonan baquvvat, ruhi, fikri sog'lom, iymon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur vatanparvar avlodimizni shakllantirish;

- milliy-ma'naviy salohiyatimizning jahon tsivilizatsiyasidagi o'rnini tiklash va bugungi kunda ma'naviyat, ma'rifat, fan, texnika, texnologiya yutuqlarini chuqur o'zlashtirish asosida hozirgi zamon umumjahon ma'naviyati tizimi rivojiga hissa qo'shish;

- yoshlar ma'naviyatini milliy istiqlol g'oyalari bilan boyitib borish, ular ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

- insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarini milliy-ma'naviy salohiyatimizning ajralmas qismiga aylantirish kabilardir. Ma'ruzachi Prezidentimiz asarlarida ilgari surilgan ana shu kontseptual g'oyalarni asarlar bo'yicha mukammal bayon qilib berishi zarur bo'ladi.

Ajdodlarimizdan qolgan meros har bir millatning nafaqat o'tmishi, shuning bilan birga istiqboli uchun ham kuch, fidoyilik va ilhom manbai hisoblanadi. SHuning uchun ham Prezidentimiz «Hozirgi O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat SHarq, balki umumjahon tsivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu-fuzololar, olimu-ulomolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan.

Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan.

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi»¹ - deb ta'kidlaydi. Uning «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Inson uchun tarixdan judo bo'lish hayotdan judo bo'lish demakdir»² - degan g'oyalarida har bir vatandoshimizning, ayniqsa yoshlarimizning ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish zarurligi milliy ma'naviy tiklanishimizning bosh vazifasi ekanligini tushunib etishga qaratilgandir.

Islom Karimov milliy mafkuraning milliy ma'naviy tiklanish va mamlakatimizda demokratik jamiyat qurishdagi ahamiyati va rolini ilmiy asoslashga katta e'tibor qaratadi. Milliy mafkura-millatni birlashtiradi, mafkurasiz odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotadi.

Ma'naviyat va mafkura bir-birlari bilan mustahkam bog'langandir. Ma'naviyat insonning ruhiyati, o'zini-o'zi anglashi, yuksaklikka intilishidagi salohiyati bo'lsa, mafkura - ma'lum bir davlat, jamiyat, millat, sinf va ijtimoiy guruhlar huquqiy, falsafiy, badiiy, diniy g'oya, nazariya va qarashlar tizimi hisoblanadi.

Mafkuraning ma'naviyatda tutgan o'rni shundaki, u inson, jamiyat, yoxud millat yoki guruhlarining intilishlari, ruhiyatlari va kayfiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ma'naviyat singari mafkuraning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda kattadir. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, har qanday jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishishi uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan»³. Mafkura jamiyat taraqqiyotida quyidagi vazifalarni bajaradi: **birinchidan**, davlat rivojlanishining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi vazifalarni o'zida mujassamlashtiradi; **ikkinchidan**, bir davlat, bir mamlakat miqyosida barcha fuqarolarni, turli millat, elat, sinflar va ijtimoiy guruhlarini bir g'oya va maqsad sari birlashtirishga xizmat qiladi; **uchinchidan**, davlat olib boradigan ichki va tashqi siyosat g'oyalarini o'zida mujassamlashtirib, uni fuqarolarga targ'ib etadi; **to'rtinchidan**, davlat doirasida yashayotgan fuqarolarni yaratuvchilik, bunyodkorlik, ijodkorlik faoliyatlarini faollashtiradi va ularni jamiyat maqsadlariga yo'naltiradi; **beshinchidan**, xalqning orzu-umidlarini o'zida ifoda ettiradi, jamiyatda mavjud bo'lgan muammolarni hal qilish uchun butun jamiyat va fuqarolarni harakatga keltiradi; **oltinchidan**, mafkura jamiyatda ma'lum siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy qarashlarni shakllantiradi.

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T: Sharq, 1998, 3-4 betlar.

² O'sha asarda 5, 10-betlar.

³ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurası - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent, «O'zbekiston», 2000 yil. 5-6 betlar.

Mafkuraning jamiyat, millat, shaxs va fuqaro hayotidagi ana shunday roliga qaramay, mustaqillikning dastlabki yillarida respublikamizda umuman mafkuraga uning mohiyatini tushunganlar ham, tushunmaganlar ham qarshi kurash boshlab yuborgan edilar. YA'ni hech qanday mafkuraga ega bo'lmagan, mafkuraviy bo'shliqqa asoslangan, o'z g'oyasiga ega bo'lmagan jamiyat qurish kabi qarashlarni ilgari sura boshladilar. Bu jarayon respublikamiz Prezidentining 1993 yil 23 aprelidagi respublikaning bir guruh adiblari bilan uchrashuvida «Milliy istiqlol mafkurasi»ni yaratish vazifasini kun tartibiga qo'ygunicha davom etib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Tafakkur» jurnali bosh muharriri va «Fidokor» gazetasi muxbirining savollariga javoblarida milliy g'oya, milliy mafkuraning O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishdagi tutgan o'rne, ahamiyati bayon qilib berganligini alohida ta'kidlash joiz: «Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qaerdaki mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha erda begona mafkura hukmronlik qilishi tayin»¹. Buni har bir inson, O'zbekiston fuqarosi chuqur anglashi, mag'zi-mag'ziga etib olishi kerak. Negaki, jamiyatning, jamiyat a'zolarining mustahkam va ravshan mafkurasi, g'oyasi, maqsadi bo'lmasa, inqirozga yuz tutadi. Insoniyat tarixida davlatlar va jamiyatlar paydo bo'libdiki, ularga egizak holda mafkuraviy qarashlar ham shakllangan. Boisi - mafkurasiz davlat yoki jamiyat bamisoli hech bir maqsad-rejasiz, tavakkal qilib yo'lga chiqqan odamga o'xshaydi. yo'lga chiqdingmi - manzil, maqsad aniq bo'lmog'i kerak. SHuning uchun ham Prezidentimiz I.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mafkura muammosiga alohida e'tibor qaratib kelmoqdalar. «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javoblarida mafkurani milliy g'oya xalqni-xalq, millatni-millat qiladigan, uning istiqbol yo'llarini yuksak maqsad va e'tiqod nurlari bilan yoritadigan qudratli ma'naviy omil, deb ta'sirfladilar². «Turkiston» va «Fidokor» gazetalari muxbirlari savollariga javoblarida bu g'oyalar yanada rivojlantirildi, mafkura muammosi kun tartibiga prezidentimish tomonidan yanada jiddiy qo'yildi. Bunga sabab «... hozirgi zamondagi eng katta xavf insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi»³. Mana shuning uchun ham Islom Karimov muntazam ravishda mafkura dunyosida bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmasligiga, shunday holat yuz bergan taqdirda bo'sh qolgan mafkura maydonida bizga begona, orzu-intilishimizga mutlaqo yot g'oyalar o'rin egallashga urinishi shubhasiz ekanligiga hammamizning diqqatimizni takror-takror qaratib kelayotganliklari bejiz emas»⁴.

Prezidentimiz mafkura - umummilliy, umumxalq ahamiyatiga ega g'oya bo'lib, u xalqni, millatni birlashtiruvchi, umumsafarbarlikka da'vat etuvchi kuch ekanligini ta'kidladilar. Inson, uning qadr-qimmati, farovonligi, Vatanimizning yorqin kelajagi bizning milliy g'oyamiz, milliy mustaqillik mafkuramizning negizini tashkil etadi.

Prezidentimiz I.Karimov milliy istiqlol mafkuramiz, avvalo xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozimligini ta'kidladilar.

SHu bilan birga, bu mafkura xalqimizda, o'zining qudrati va himoyasiga suyangan xolda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mutaraqqiy davlatlar orasida teng xuquqli o'laroq munosib o'rin egallashga doimiy intilish hissini tarbiyalamog'i kerak⁵.

YUrtboshimiz milliy g'oya, milliy mafkura nimalarni o'zida mujassamlashtirishi va qanday talablarga javob berishi kerakligini ta'kidlab, quyidagi dasturiy ahamiyatga molik fikr-mulohazalarni bildirgan edilar:

Milliy mafkura, **avvalambor**, o'zligimizni, muqaddas an'analari-mizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart⁶.

¹ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. Tafakkur, №2, 1998 yil.

² Qarang. O'sha erda.

³ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. 7-bet.

⁴ Qarang. O'sha erda. 8-bet.

⁵ Qarang. «Turkiston» gazetasi, 1999 yil, 2 fevral.

⁶ Qarang. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, isqtisod, siyosat, mafkura. 203-bet.

Ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarning intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'iy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini umumsafarbarlikka da'vat etuvchi kuch ekanligini ta'kidladilar.

Uchinchidan, milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarida madadkor bo'lishi zarur.

To'rtinchidan, u Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilishi, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oya bo'lishi kerak¹.

Mustaqillik bizni porloq rivojlanish imkoniyatlariga ega qildi. Xalqimiz katta orzu-maqsadlar va intilishlar bilan yashayapti. Xuquqiy davlat, adolatli fuqarolik jamiyati - oldimizda turgan nurafshon manzildir. Ammo bu manzillar o'z-o'zidan dunyoga kelmaydi, uni o'z-o'zidan mashaqqatsiz, izlanishsiz, yaratuvchilik, ijodkorlik ishlarisiz egallanmaydi. Yangi jamiyat yuksak darajada rivojlangan ongini, ma'naviy kamolotni yanada baland bosqichga ko'tarilishini taqazo etadi. Ilg'or demokratik qoida va tushunchalar bilan boyigan milliy mustaqillik mafkuramiz ana shu yangi ma'naviyatning hal qiluvchi mezonlaridan biridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, ma'naviyat mafkurasiz rivojlana olmasligini ko'ramiz. Chunki, inson ruhiyatini shakllantirish, milliy qadriyatlarni tiklash va jamiyat maqsadlarini amalga oshirishda mafkura harakatga keltiruvchi kuch sifatida katta ahamiyat kasb etaveradi.

Xullas, mafkura - umummillatga, umumxalqqa, butun jamiyatga taalluqli ulkan g'oyalar birligidir. Ammo uning ildizlari har bir insonning qalbida, vijdonida, iymonida, aql-idroki va tafakkurida. Shu bois, haqiqiy, hayotiy, chuqur insoniy mafkurasi bor xalq, mamlakat va jamiyat qudratlidir.

10-Milliy g'oyani rivojlantirishning institutsional tizimi.

REJA:

- 1."Mafkuraviy tarbiya" tushunchasi, uning mazmuni va namoyon bo'lish shakllari.**
- 2. Ta'lim tarbiya tizimida milliy g'oyani rivojlantirish imkoniyatlari.**
- 3. Milliy g'oyani rivojlantirishda ommaviy va siyosiy tashkilotlar, oila mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlarning rolini oshirishning ahamiyati.**
- 4.Milliy g'oya va mafkurani targ'ib tashviq qilishda mutaxassislar roli va ma'suliyati.**
- 5."Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi"da belgilangan vazifalarni amaliyotga tadbqiq etishning ahamiyati.**

Mafkuraviy tarbiya talabaning ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarini oddiygina qabul qilib olishinigina emas, balki ularni ongli ravishda tushunib etishini, bu bilimlardan zamonaviy ijtimoiy hodisalarga mafkuraviy kurashlar voqeligidan kelib chiqib, munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Bu ko'nikmalar talaba dunyoqarashini, bilimlarini milliy istiqloq g'oyasi – Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik) nuqtai nazaridan sekin-asta boyitib borish bilan ta'minlanadi. Shuning uchun yosh avlodni tarbiyalashda uning dunyoqarashi, bilim darajasi, madaniy va siyosiy saviyasi, xulq-atvori umuminsoniy qadriyatlarga va qonun-qoidalarga mos kelishi eng muhim ahamiyatga ega. Chunki, inson mavqeyi jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, shaxs kamolining asosiy manbai jamiyatda, uning

¹ Qarang. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin; Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.

faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy va oilaviy-maishiy munosabatlar tuzumida ekanligini tarix tajribasi tasdiqlab bergan.

Inson mohiyati masalasini, uning jamiyatda tutgan o'rnini, shaxsning dunyosini ifodalovchi o'zaro uzviy bog'langan e'tiqod (iymon), huquq, burch, diyonat (vijdon), adolat, halollik kabi qadriyatlar orqali to'g'ri idrok qilishi mumkin. Aslida har bir fuqaro hayotdagi o'rnini, mavqeyini o'z jamiyati, vatani, tevarak-atrofidagi muhim (oilalar, mehnat jamoasi, mahalla va h.k.) oldidagi burchi va mas'uliyatini ichki his-tuyg'ulari, vijdoni orqali chuqur tushunib olsa, mustaqil fikri bo'lsa ijtimoiy taraqqiyotning muhim omiliga aylanadi. Shunday qilib, **mustaqil fikrlash** - shaxsning bevosita o'ziga bog'liq bo'lgan, uni tashqi muhitning turli ta'sirlariga nisbatan fikr-o'ylari vositasida munosabatda bo'lib, kerak bo'lsa, unga qarshilik ko'rsatish qobiliyatidir.

Mustaqil fikrning yo'qligi, afsuski, ayrim toifalar, xususan oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga tortilmagan yoshlar, ayollar o'rtasida uchray turadi. Bunday holatda odamlarning buzg'unchi g'oyalar ta'siriga, yot mafkuralar girdobiga tushib qolish xavfi ortib boradi. Shaxsning fikrga qarshi fikr bilan, g'oyaga qarshi g'oya bilan, jaholatga qarshi ma'rifat bilan qarshilik ko'rsata olish imkoniyati torayadi. Bu, aytish mumkinki, yoshlarni mafkuraviy nuqtai nazardan tarbiyalashdagi eng katta muammolardan biridir.

Hozirgi murakkab davrda biz fuqarolarimizning, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashi va ongi qanday bo'lishiga befarq qaray olmaymiz, kelajakda ham har tomonlama kamol topgan, bilimdon va ishbilarmon, real hayotni va qonun-qoidalarini to'g'ri idrok qila oladigan, ongli va faol, o'z burchiga sadoqatli erkin shaxsni tarbiyalashimiz zarur. Erkin shaxs yashash maqsadini va o'z mavqeyini to'g'ri aniqlab olishga, xurofiy tasavvurlardan ozod holda aql-idroki, kuch-g'ayrati va vijdoniga tayanib, halol mehnat va faoliyati bilan turmush sharoitini yaxshilashga intiladigan bo'lishi zarur.

Biz o'z madaniyatimiz va bizni o'rab turgan ijtimoiy borliqning hosilasi ekanmiz, vaziyatlarga bog'liqmiz va **boshqalarning bizga ko'rsatayotgan ta'sirlari** komida bo'lamiz. Ayrim yoshlarning jaholat va diniy aqidaparastlikka berilishi, o'zi to'la anglamagan xolda turli xil buzg'unchi g'oya va da'vatlariga qo'shilib ketishi, terrorizmning manfur xarakteriga, jinoyatga sabab bo'lgan ko'plab voqealarga bosh qo'shishi aynan shunday vaziyat xukmida amalga oshganligi ma'lum. Shuning uchun asosiy vazifa – har bir odamni, u vaziyatdan ham ko'ra o'zining shaxsiy dunyoqarashi va e'tiqodini, sog'lom qarashlarini u yoki bu tahdidli va tahlikali yoki konfliktli vaziyatlarga qarshi qo'ya oladigan qilib tarbiyalash kerak.

Demak, **shaxsiy fikr** katta ahamiyatga ega. Odamlarning turli ijtimoiy vaziyatlarda o'zlarini turlicha tutishlari, aslida ularning turlicha o'ylashlaridan kelib chiqadi, o'ylash, fikrlash, sovuq mulohaza yuritish san'ati milliy mafkura tarbiyasida biz kattalarga qo'l keladigan pedagogik vositadir. Demak, pozitiv tafakkur, ijobiy fikrlash – yaxshi oqibatlariga, ijobiy natijalarga olib keladi. Agar biz farzandlarimizga **“O'z yurtning erkin fuqarosi bo'!”** O'z taqdiringning o'zing ega bo'! Sen shunga munosibsan!” desak, uning ham fikri, ham xulqi shu zaylga tushadi.

Biz yoshlarga vatanparvarlik to'g'risida faqat balandparvoz gaplarni gapirishdan, asl vatanparvarlikning mohiyatini tushuntirishga, Vatanni *sevishini isbot qila* oladigan harakatlari to'g'risida fikr almashinishga o'rgatishimiz darkor. Bu hozir davrda pedagogika va psixologiya fanlari amaliyotida o'zini oqlagan interfaol usullar vositasida amalga oshiriladi. Bozor munosabatlari faqat pul topish yo'lini izlashdangina iborat emas. Bozor munosabatlari rivoji uchun kishilarda daromad topishga intilishdan tashqari yuksak ma'naviyat ham bo'lishi kerak. Agar odamlarda halollik, haromdan hazar qilish, imon, insof, adolat, insonparvarlik singari fazilatlar bo'lmasa, bozor taraqqiyot yo'li bo'lmay qoladi, jamiyatda ma'naviy inqiroz kuchayadi. Bozorning mezonini «yo men bironi aldayman, yo biron meni aldaydi», degan qoida emas. Bozor munosabatlariga asos bo'ladigan milliy, diniy, ma'naviy qadriyatlar – har bir shaxs o'zining, boshqalarning qadri qimmatini, manfaatini ham adolatli ravishda hisobga olib bilishidir.

yoshlar tijoratga intilishining ijobiy va salbiy tomonlari ham bor. Hozircha bu intilishning salbiy tomonlariga etarli e'tibor berilayotgani yo'q. yoshlarni pul topishgagina o'rgatmay, ularni ko'proq aqliy, ilmiy, amaliy kamolot yo'lga boshlamoq kerak. Barcha yoshlar oldi-sottiga berilib,

pul topish yo'liga o'tib ketaversa, O'zbekiston kelajakda buyuk, qudratli davlat bo'la olmaydi. Mamlakatimiz istiqboli, birinchi navbatda, yoshlar zamonaviy fan asoslarini, eng yangi texnika va texnologiyani, milliy va umuminsoniy ma'naviyat qadriyatlarini qanchalik chuqur egallashiga bog'liq.

Bu fikrlar oiladagi tarbiya masalasiga ham oiddir. Ota-onalar farzandlarining maktabda, oliy o'quv yurtlarida olayotgan bilimlariga, kasb tanlash madaniyati, ehtiyoji shakllanishiga befarq qarashlari mumkin emas. yosh avlodni bugungi kun imkoniyatlarigagina emas, balki ertangi kun ehtiyojlariga tayanib tarbiyalamoq zarur. Umuman tarbiyada ertangi kunni o'ylash, ko'ra bilish ustivor ahamiyatga ega.

Bolalar doim biror foydali ish bilan band bo'lishini ta'minlash ham katta ahamiyatga ega. Biror ish bilan band bo'lishga o'rgangan yoshlar mehnatsevar bo'ladilar, ularda juda yoshligidanoq ma'lum mehnat malakalari shakllanadi. Bo'sh vaqtlarida, ular o'zlari sevgan ish bilan shug'ullanishga o'rganib qoladilar. Bunday bolalarning jinoyat qilishga yoki nojo'ya ishlar bilan shug'ullanishga vaqti ham bo'lmaydi.

Odobli, mehnatsevar, sabr-toqatli farzandlar ota-ona qoldirgan boylikka boylik qo'shadi, halol mehnati bilan jamiyatda o'z o'rnini, qadr-qimmatini topadi. Ota-onadan meros bo'lib qolgan axloq va odob esa bir umr tugamaydigan eng katta boylikdir. O'zbek xalqi maqolida aytilganidek, meros yo'li bilan orttirilgan moddiy boylik yomon, akadan qolgan boylik undan ham yomonroq, xotindan qolgan boylik esa bularning hammasidan ham yomonroqdir. yoshlar o'z mehnati, peshona teri bilan topgan boylikni ko'proq qadrlaydilar.

Ota-onalar bilishi, amal qilishi lozim yana bir muhim masala farzandlariga berayotgan tarbiya davr ruhiga, zamon imkoniyati va ehtiyojlariga, davlat belgilagan rejalar tizimiga qay darajada mos kelishini yaxshi tasavvur etishdir. Ota-onaning ko'zi oldida shirin farzandlari bilan bir qatorda, ularning jamiyat, millat taraqqiyoti, davr ehtiyojlari va imkoniyati bilan uzviy bog'langan kelajagi ham turmog'i kerak.

Ota-onalar farzand tarbiyasida asrlar davomida shakllangan an'analarga, bu boradagi umuminsoniy qadriyatlarga tayanganida, davr ruhi va ehtiyojlarini e'tiborga olganida yaxshi natijalarga erishadilar. Bu ishning samarasi ko'proq tarbiyaning maqsadi va usullariga bog'liq bo'ladi. Tarbiyaviy ishlarining mazmuni, yo'nalishi, usullari esa o'zgarib, yangilanib, takomillashib turadi. Bunga har bir konkret tarixiy davrning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, mafkuraviy, ehtiyojlari ham ta'sir etadi.

Shu bois aqlan etuk, ruhan tetik va sog'lom, erkin va tanqidiy fikrlovchi, ayni paytda, ijtimoiy mas'uliyatni to'g'ri his etadigan, muayyan kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni tarbiyalash O'zbekistonda yangi jamiyat barpo etishning tarkibiy qismiga, asosiy shart-sharoitiga va maqsadiga aylandi¹.

Shu o'rinda ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq yana bir masalaga ham e'tibor berish kerak. Milliy axloqiy qadriyatlarning, milliy tarbiya usullarining ahamiyatini kamsitmagan holda shuni ham aytish mumkinki, har qanday sharoitda ham tarbiya sof milliy mezonlar doirasida qolib ketishi millat ma'naviy kamoloti imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tarbiyaning mazmuni va yo'nalishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida belgilanadi. Bu fikr mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya ishlari yo'nalishlarini belgilash uchun ham katta ahamiyatga ega. Milliy tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri yoshlarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishdir. Olimat ul Banotning milliy tarbiya an'analari haqida quyidagi fikrlarida ham chuqur ma'no bor. U shunday deb yozgan edi: «Ota-onalar qo'lida bolalar aziz omonatlardir. Shuning uchun ham ularni go'zal tarbiya etmoq yaxshi xulqlarga o'rgatmoq va ko'rkam odatlarni tushuntirmoq lozim.

Tarbiya bilan bir bolani oltin etmoqlik mumkin, tuproq qilmoq ham mumkin². Tarbiyalangan kishilar din amri bilan yashaydilar, ularning tili bilan dili, so'zi bilan ishi bir bo'ladi. Bunday fazilatlarni shakllantirish birinchi navbatda oilada ota-onaga hamda qolaversa

¹ Qarang: O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyat. T.: «Ijod dunyosi» nashriyoti, 2002. –B. 20.

² Qarang: Erkin Yusupov. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. -T.:Universitet, 1998, -B. 120.

tarbiyachilarga bog'liqdir. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tilgan hozirgi sharoitda oila va undagi ota-onaning farzand tarbiyasida mas'uliyati yanada oshdi, deb aytishga to'la asosimiz bor.

Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda oila - haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

"Har bir inson uchun, - deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov, - Vatan tushunchasi, avvalo oiladan boshlanadi. Shu bois, oila va mafkura tushunchalari chambarchas bog'liqdir. Oilaning jamiyatdagi o'rni, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab etmasdan, oilaga milliy manfaat nuqtai-nazaridan yondoshmasdan turib, xalqchil mafkura yarata olmaymiz»¹. Yurtboshimizning "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratib: "Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning to'rni va ta'siri beqiyosdir"², deydi.

Binobarin, jamiyat faqat o'z shaxsiy manfaatini ko'zlaydigan odamlar yig'indisidan iborat emas. Umumiy manfaatlarni teran anglash, kishilarning jamiyat bo'lib uyushishlariga, ijtimoiy talab va normalarni e'tirof etib, ularga amal qilishlariga sabab bo'ladi. Bu ayniqsa, hozirgi o'tish davrida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ana shu sababdan ham jamiyat a'zolarini umumiy maqsad va manfaatlar yo'lida birlashtirish mafkuraning asosiy vazifalaridan biridir. O'zining Vatan deb atalmish ulug' bir oilasiga mansubligini his etish tuyg'usi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki muttasil va izchil g'oyaviy tarbiya samarasi o'laroq, yuzaga keladi³. Oiladagi totuvlik, ahillik, mehr-shafqat hislatlari uluksiz ravishda turli shakllarda olib boriladigan axloqiy tarbiyaning g'oyat xilma-xil qatlamlarini umumiy manfaatlari atrofida jipslashtirish, odamlar o'rtasida hamjihatlik totuvlik, o'zaro yordam xislatlarini shakllantirish ham izchil mafkuraviy tarbiya vositasida amalga oshiriladi.

Diqqat qilinsa, ta'limning milliy modelida ilgari surilgan maqsadlarning mohiyati aynan milliy g'oya va mafkuradagi asosiy tamoyillar bilan uyg'unligini anglab olish qiyin emas.

Qadrlar tayyorlash milliy modelida belgilangan maqsad va vazifalarning to'la amalga oshishi mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy muhitning yanada yaxshilanishiga olib keladi, jamiyatda yangi shaxs - komil insonlar vujudga keladi. Ular hayotga tamomila boshqacha yondashdilar va boshqacha nigoh bilan qaraydilar.

Ikkinchidan, milliy model tadbiqu kishining jamiyatda o'z o'rnini topish jarayonini tezlashtiradi. «Ta'limning yangi modeli ishga tushgach, – deb ko'rsatgan edi I.A.Karimov, - insonning hayotdan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi. Har qanday odam ham o'smirlik chog'ida, endigina voyaga etib kelayotgan davrda jamiyatdan munosib o'rin topishi kerak»⁴.

Milliy modelning takomillashuvi jamiyatda mustaqil fikrlaydigan shaxsning shakllanishiga olib keladi. Bunday shaxslarning ko'payishi jamiyatda ongli hayot kechirish tizimini vujudga keltiradi. Ya'ni, odamlar olamon bo'lib yashashdan bosh tortadilar, har bir kishi o'z aqli, o'z mehnati, o'z xulosasi bilan yashay boshlaydi. Eng muhimi, bunday kishilarga chetdan hech qanday nopok kuch, buzuq g'oyalar, quruq shiorlar, chaqiriqlar bilan ta'sir etib bo'lmaydi. Bunday odamlarni o'zi tanlagan yo'llari, maqsadlaridan hech qanday kuch toydira olmaydi. Yuksak g'oyalar odamlarni olijanob maqsadlar sari etaklaydi. g'oyasi etuk, e'tiqodi butun, qadriyatlari yuksak insongina mardlik namunalarini ko'rsata oladi⁵.

Shunday ekan, **«Qadrlar tayyorlash milliy dasturi»**da ilgari surilgan ta'limning milliy modeli masalasi, avvalo, jamiyatimiz hayotining o'ziga xos mazmuniga aylangan, xalq tayanadigan kuch bo'lmish milliy g'oyadagi asosiy tamoyillarni ham o'zida aks ettirgan.

Prezidentimiz I.A.Karimov yozganidek «Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati tili va dinidan qat'iy nazar, har bir fuqaroning

¹ Qarimov I. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. --T.:O'zbekiston, 2000. –B. 23.

² Qarimov I. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008. –B. 52.

³ Qarang: Milliy istiqlol g'oyasining asosiy maqsad va vazifalari. -T.:«Ijod dunyosi» nashriyot uyi, 2002. –B. 9.

⁴ Barkamol avlod orzusi. –T., 1999, -B. 179.

⁵ Qarang: Foya va mafkura. –T., 2002 yil, «Ijod dunyosi» nashriyoti. 25-bet.

yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimiz bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylilikni hayot mezoniga aylantirish – milliy mafkuraning bosh maqsadidir»¹.

Bizning ezgu maqsadimiz esa ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish asosida g'oya va mafkuramizni e'tiqod qilinadigan muqaddas tuyg'uga aylantirishdir. Chunki, e'tiqodga aylanmagan g'oyani g'oya, milliy mafkurani mafkura deb bo'lmaydi².

Shuning uchun ham «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Qadrlar tayyorlash milliy dasturida, davlat, jamiyat va inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladigan, butun ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan muhim hayotiy masalalar ilgari surilgan. Unga ko'ra, o'quv-tarbiya jarayoni sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining butunlay yangi usullarini joriy etish;

-o'quv yurtlari tuzilmalarini takomillashtirish..., yoshlarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni idrok etish mafkurasi asosida, Vatanga mehr-muhabbat, mustaqillik g'oyalariga, sadoqat ruhida ta'lim-tarbiya berish;

-yoshlar bilan muntazam ravishda tinimsiz ishlash, iqtidorli bolalarni qidirib topish, ularning eng yaxshi xorijiy o'quv markazlarida professional ta'lim olishi uchun sharoit yaratish;

-O'zbekistonning iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojiga mos keladigan, yuksak malakali xorijiy mutaxassislar bilan raqobat qila oladigan kadrlar salohiyatini yuzaga chiqarish va uni rivojlantirish;

-ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yangi o'quv adabiyotlari, zamonaviy jihozlar va kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash va h. k.

Binobarin, ta'lim sohasida belgilangan bu vazifalar, milliy g'oya va mafkuraning asosiy tamoyillari, uning maqsadi va mohiyati bilan ham uzviy bog'liqdir.

Fikrimizni asoslash uchun milliy mafkuraning mazmuniga e'tibor beraylik:

- iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotning barcha sohalariga singib ketgan sobiq Ittifoqdan, eski mustabid tuzumdan qolgan yaramas merosni uzil-kesil tugatishdan;

- mustaqillikning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy-huquqiy zaminlarini mustahkamlashdan;

- O'zbekistonning o'ziga xos va o'ziga mos taraqqiyot yo'lini asoslashdan;

- fan-texnika yutuqlarini rivojlantirib, jamiki zamonaviy yangiliklarni chuqur o'rganib, ularni hayotga, ishlab chiqarishga ijodiy, oqilona joriy etish va O'zbekistonni jahon bozori talablariga mos keladigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan mamlakatga aylantirish;

yoshlarni imon-e'tiqodli, milliy g'oyaga sadoqat, bir-birlariga mehr oqibatni, o'z Vataniga, millati, dini, tili, tarixi, madaniyati urf-odatlariga hurmat ruhida tarbiyalash bugungi kun talabidir. Zero, fuqarolarni yangicha tafakkur asosida tarbiyalash orqali milliy g'oya va mafkuraning hayotbaxsh insonparvarlik tomoyillariga, umumbashariy qadriyatlarga mos keladigan xulq-atvorni shakllantirish va kamolga etkazish, ya'ni jamiyatda mehr-muruvvat madaniyatini qaror toptirish mumkin.

Yurtimizda har bir yilning muayyan ijtimoiy masalaga bag'ishlanishida ham chuqur ramziy ma'no bor edi. Zotan, har bir narsaga, inson qalbidagi oliy tuyg'u mehr bilan yondashilmasa kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Shu bois milliy g'oya va mafkuraga ham ixlos bilan munosabatda bo'lish, uning tarixiy, falsafiy, diniy, ahloqiy ildizlarini muntazam o'rganib borish, ajdodlarimiz merosini ta'limning har bir bo'g'inida yoshlarimiz ongi tafakkuriga singdirish muhimdir.

O'z navbatida, yillarda belgilangan maxsus vazifalar bir martalik harakat ham, «**tadbirlar kompleksi**» ham emas, balki dunyoqarash va fe'l-atvordir, inson ichki ma'naviyatining tarkibiy qismi jamiyat madaniyatining alomatidir. Yuqoridagi fikrlarga tayanib, milliy g'oya va mafkura

¹ Boboev X. va boshqalar. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. -T.:Yangi asr avlodi, 2001. –B. 3.

² Qarang: Abdullajon Begmatov. Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. -T.: 2000. –B. 21.

shakllanishida ta'lim tarbiya tizimidagi o'rni nimadan iborat degan masalaga oydinlik kiritish zarur, deb o'ylaymiz.

Fikrimizcha, har bir yilda ustuvor vazifani belgilab olish milliy mustaqillik g'oyasining insonparvarlik tomoyillaridan ko'zlangan asosiy maqsaddir. Shuning uchun ham tarbiya jarayonida xuddi shu konkret maqsaddan kelib chiqqan vazifalarga jiddiy e'tibor berish zarur.

Ma'lumki tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra, keng va tor ma'nolarda istefoda etiladi hamda ijtimoiy hayotda amal qiladi. Keng ma'noda oladigan bo'lsak, tarbiya - ijtimoiy-madaniy tajribalarni aniq maqsadni ko'zlagan holda avloddan-avlodga o'tkazadigan va shaxsning kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratadigan alohida jarayondir.

Tor ma'noda esa, ma'naviy madaniyatni tarbiyalash - yoshlarni ijtimoiy turmushning murakkab vaziyatlariga moslashtirish yo'lida kattalarning birgalikdagi aniq maqsadga yo'naltirgan faoliyatini, ya'ni etuk shaxsni kamol toptirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish jarayonini anglatadi.

Ushbu jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Xuddi shuning uchun ham yoshlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishning samarali tashkiliy va pedagogik uslublari, vositalari ishlab chiqilishi hamda amaliyotga joriy etilishi zarur. Milliy ta'lim-tarbiya tizimining turli shakl va vositalari milliy g'oyani ro'yobga chiqarish, barkamol avlodni shakllantirishdan iborat bosh maqsadga erishishni ta'minlovchi xalqimizning milliy madaniy-tarixiy an'analarga, urf-odatlariga va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan bo'lishi lozim.

Ta'lim-tarbiya barcha davrlarda ham insoniyat oldida hal etilishi zarur bo'lgan eng muhim dolzarb vazifa bo'lib turgan. Shuningdek, u odamlarning amal qilib kelayotgan tajribalari, yutuqlari, urf-odatlari va an'analari asosida tashkil qilingan. Ya'ni, ta'lim-tarbiyaga doir shakllangan urf-odatlarimiz, boqiy an'analарimiz ko'p. Bugungi kunda ham ulardan yoshlarni tarbiyalashda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab ko'rsatganidek «Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga etishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak»¹. Bilimlar va axborotlar hajmining ko'payishi odamlar dunyoqarashining kengayishi va ma'naviyatining yuksalishiga turtki bo'lishi shubhasiz. Ayni paytda, tinimsiz va tizimsiz kelayotgan xabarlar ichidan haqqoniy, ob'ektiv va foydali ma'lumotlarni ajrata olish qobiliyatini shakllantirish juda muhim vazifa bo'lib boradi.

Har bir davlat o'z aholisini, ayniqsa bilim va yangilikka chanqoq yoshlarini ilmiy bilimlar, ma'rifiy-ma'naviy ozuq bo'ladigan axborotlar bilan ta'minlanishidan manfaatdordir. O'zbekistonda ham o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual ehtiyojlarini qondirishga, madaniy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga yo'naltirilgan, printsiplial "axborot siyosati" shakllantirildi va hayotga joriy etilmoqda.

Zamonaviy informatsion vaziyat talablarini hisobga olgan holda aholini yanada kengroq va tizimli axborot bilan ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2006 yili maxsus qaror qabul qilindi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad yangi axborot markazlarini barpo etish, mamlakatdagi kutubxonalar tarmog'ini tubdan takomillashtirish edi.

Mazkur qarorda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari hamda ko'p sonli umumta'lim maktablari huzurida axborot-resurs markazlari tuzish ko'zda tutildi.

Axborot-resurs markazlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- ta'lim muassasalari o'quvchilari hamda aholining zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muntazam ta'lim olishi va mustaqil ravishda talim olishiga ko'maklashish;
- milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni keng ko'lamda targ'ib qilish, xalqning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo'lishini ta'minlash, ma'naviy boy va uyg'un kamol topgan shaxsning ijodiy o'sishi uchun imkoniyat yaratib berish;

¹ Muloqot jurnali, 1999 yil. № 4. 21-bet.

- yangi axborot texnologiyalari (ma'lumotlar elektron bazalari, internet resurslari) asosida aholiga axborot xizmati ko'rsatish;
- madaniy, ta'lim, axborot hamda boshqa dastur va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta'lim muassasalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, milliy madaniyat markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish va hokazolar.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xuddi mana shu maqsadga yo'naltirilgan. Zero, ushbu masala g'oyaviy nuqtai nazardan **«Qadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun** printsiplariga to'la muvofiq keladi.

Ta'lim-tarbiyaga oid milliy merosimizni o'rganishning dolzarbligi nazariy jihatdan asoslidir. Xususan, kadrlar tayyorlash milliy dasturida zikr etilgan uzluksiz ta'limning milliy modeli tamoyillari mohiyatan ta'limning milliy-ma'rifiy, milliy tarix, xalq an'analari, milliy merosimiz bilan uyg'unlikda olib borilishini anglatadi. Shuning uchun «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 4-bobida, ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlarni takomillashtirish, uning zamonaviy tarbiyaviy shakl va vositalarini ishlab chiqib, amaliyotga tadbiq etish, milliy tarixiy an'analar va umumbashariy qadriyatlarga asoslanish muhim ahamiyat kasb etishi alohida qayd etilgan. Umuman ta'lim-tarbiyaning milliy modeliga ko'ra, ta'lim tizimini yangilash – tabiiy ravishda milliy merosimizni o'rganish va uni pedagogik tafakkur iste'moliga olib kirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Qadrlar tayyorlash milliy modelining birinchi komponenti shaxsdir. Chin ma'nodagi shaxs o'zini-o'zi qayta tarbiyalash salohiyatiga ega bo'ladi. O'zi va millat uchun befoyda, zararli odatlaridan voz kechadi. Millat manfaatlarini o'z manfaati, o'z manfaatini esa millat manfaatiga erishish sharti deb tushunadi. O'z vazifasini millatning kuniga yarash, og'irini engil qilishda ko'radi. Shu sababli u o'z shaxsiy qobig'idan chiqib ko'tariladi va millat manfaati uchun, millat farovonligi orqali o'zini kamolotga erishtirish uchun boshqalardan ko'proq, samaraliroq mehnat qiladi. Umummilliy g'oya, maqsadga ishonadi, uni himoya qiladi. Talabada bu fazilatlar birdaniga paydo bo'lib qolmaydi. U, avvalo, oilada ota-ona, oiladan tashqarida qarindosh-urug', qo'shni-mahalladoshlar orasidagi tarbiyaviy muhitni rag'batlantirib borish, so'ngra oliy o'quv yurtida - mafkuraviy bilimlarni egallash orqali tarbiyalanadi. Shu sababli bu jarayonga ijtimoiy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qarash lozim.

Bu bejiz emas, albatta. Chunki, milliy merosimizning g'oyaviy negizi – shaxs tarbiyasi, uning ma'naviy ehtiyojlariga da'vogar bo'lgan omillarni o'rganishdan iborat bo'lib kelgan, ushbu muammo hozirda ham jamiyatimizda olib borilayotgan siyosatda eng muhim masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ta'lim jarayoni dunyo bo'yicha turli mamlakatlarning yaqinlashuvi, tom ma'noda global, insoniyat tsivilizatsiyasi taqdiri uchun hal etuvchi ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab omillar bilan belgilanadi. Bu omillar orasida yuzaga kelgan umumiy va milliy o'ziga xosliklar alohida ahamiyatga ega.

Ta'limning noyob imkoniyatlari hozir nafaqat inson aqlini yangi tezkor imkoniyatlar bilan qurollantirish, balki uning ongini qayta qurish bilan bog'liq. Insoniyat tsivilizatsiyasi rivojining yangi bosqichi insonning shakllanish jarayoni, shaxsiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar va qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini o'zgartiradi. O'sib kelayotgan yosh avlod uchun ta'lim tizimi sifat jihatdan yangicha talablar qo'yadi.

XXI asr - innovatsiyalar asridir. Mamlakatimiz kelajagi jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan birga ta'lim tarbiya tizimini yangi zamon talablari darajasiga ko'tarishga yo'naltirilgan ishlarning samaradorligi bilan belgilanadi.

Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish o'z navbatida bu sohada yangi, zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarni izchil joriy etishga ko'p jihatdan bog'liq. Ta'lim samaradorligi o'quvchi bu jarayonda qay darajada faol qatnashayotganligi bilan belgilanishini hisobga olgan xolda yangi o'qitish uslublari, shakllari ta'lim oluvchilarga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish uchun imkoniyat yaratadi.

Navqiron avlod davr ruhida ma'naviy kamol topib, buyuk ajdodlarimiz barhayot mevasidan oziqlanib, zamonaviy bilimlarni egallab, ularni ongi, shuuriga singdirib bormas ekan, bizning o'z oldimizga qo'ygan ulug'vor maqsadlarimizga erishishimiz, nurli istiqbolimizni bunyod etishimiz ham qiyin. Mana shu bois ham yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol insonlar etib shakllantirish, voyaga etkazish masalasi har doim davlatimiz oldidagi birinchi darajali vazifalardan biridir.

Ajdodlarimizning yaratuvchanligi shaxs manfaatlariga qaratilgan bo'lsa, ayni vaqtda mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar ham inson kelajagi uchun xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g'oyaviy uyg'unlik – ta'lim-tarbiya jarayonida milliy merosning ma'naviy-ma'rifiy zaminlariga tayanish zarurligini ham anglatadi. Shu jihatdan olib qaraganda o'tmish allomalari, mutafakkirlarining ma'naviy meroslarini yosh avlodning tarbiyasidagi ahamiyati bugungi kunda ham g'oyat beqiyosdir.

Adabiyot va san'at. Bu sohada ijod ahlining g'oyaviy-badiiy salohi-yatini komil inson tarbiyasiga yo'naltirish ustuvor yo'nalish bo'lishi darkor.

Ijodkorlarni murakkab va shonli tariximizning yorqin sahifalari-ni, bugungi hayot voqeligini, olijanob orzu-umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot, kino, musiqa va tasviriy san'at asarlarini yaratishga har tomonlama rag'batlantirish. yoshlarga ibrat bo'ladigan barkamol insonlar, zamonaviy qahramonlar timsolini barpo etish.

Milliy g'oyani tarannum etishga, istiqlool mafkurasiga zid g'oyalarning zararli mohiyatini ochib berishga ayniqsa e'tiborni kuchaytirish zarur. Hayot va ijoddagi mahdudlik hamda fikr qashshoqligiga qarshi kurashish, bahs-munozara, tanqid va tahlillar orqali mafkura muhitining sog'lom bo'lishiga erishish.

Din. Eng nozik va murakkab bo'lgan bu sohada, avvalo, din ma'naviyat va madaniyatning ustunlaridan biri ekanini, barcha zamonlarda milliy g'oya va mafkura diniy qarashlar bilan uyg'un rivojlanishini nazarda tutish lozim. Din o'z mohiyatiga ko'ra, poklik, mehr-oqibat kabi ezgu tuyg'ular orqali milliy istiqlool mafkurasining g'oyalarini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdiradi. Muqaddas dinimiz sog'lom va mo'tadil munosabatni shakllantirish - bu boradagi eng muhim mafkuraviy vazifadir¹.

Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan **urf-odat, marosim va bayramlar** ham milliy mafkuraning asosiy g'oyalarini singdirishda muhim omil bo'ladi. Xususan, Mustaqillik, Navro'z, O'qituvchilar va murabbiylar, Xotira va qadrlash kuni kabi yangi bayram va marosimlarimizdan jamiyat hayotiga zamonaviy mazmun baxsh etish yo'lida oqilona foydalanish zarur. Bugungi kunda urf-odat va an'analarimizning jamiyatni birlashtiruvchi xususiyatlaridan yanada to'liqroq foydalanish lozim.

Milliy an'analarni o'rganish, targ'ib etish bilan bir qatorda to'y-marakalarni, odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofgarchilik va dabdababozlikka yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratish darkor.

Ma'naviy-ma'rifiy muassasalar. Prezidentimiz Islom Karimov «Jamiyat taraqqiyotining asosi, - degan edi, - uni muqarrar halokatdan qut-qarib qoladigan yagona kuch - ma'rifatdir»². «Tarix - xalq ma'naviyatining asosidir».

Qadrlar tayyorlash milliy dasturida *«Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar»ga* alohida e'tibor berilgan. yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi³. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirilib boriladi.

¹ Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: «O'zbekiston», 2000, 62-69–betlar.

² Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. T.: «O'zbekiston», 1999, 135, 146–betlar.

³ Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: «SHarq», 1997, 55- bet.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar.

Shu ma'noda, bunday xavf-xatarlarga qarshi asosiy qurol sifatida yurtimizda yashayotgan har bir inson, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo'lib voyaga etishi uchun keng jamoatchilik va aholimiz o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir».

1999 yil 3 sentabrda tuzilgan «Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengishini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Prezident Farmonida kengashning asosiy maqsadi ham - «Jaholatga qarshi ma'rifat» g'oyasiga tayangan holda o'zbek xalqining ongini va qalbini mustabid o'tmish asoratlaridan forig' etish, barkamol avlod, komil insonni kamol toptirishdan iborat qilib qo'yildi. «Biz barcha mamlakatlarda bo'lganidek, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish tarafdorimiz», - degan edi Yurtboshimiz. (Karimov I.A. Asarlar. 8 - tom, 24 - bet).

Demak, **madaniyat va madaniy - ma'rifiy muassasalar** mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirishda katta imkoniyatlarga ega. Bunda kutubxona, teatr, klublar, madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa muassasalar faoliyatidan keng foydalanish, kishilar dunyoqarishini yuksaltiradigan, odamlarga ruhiy-ma'naviy oziq beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

Bu dargohlarda turli anjumanlar, davra suhbatlari, bahs-munozaralar, uchrashuvlar uyushtirish, milliy istiqlool mafkurasining mazmun-mohiyatini har bir ijtimoiy qatlamga tushunarli tarzda izohlab beradigan qo'llanma va tavsiyalar tayyorlash ayniqsa muhim.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar yoshlarni haqiqiy san'at, chinakam badiiy go'zallik ruhida tarbiyalash maskanlari bo'lmog'i lozim.

Madaniyat va san'at sohalari faoliyatining butunlay tijorat asosida tashkil etilishiga, g'oyaviy-badiiy jihatdan sayoz, milliy qadriyat-larimizga yot asarlarning etakchi o'rinni egallab olishga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyatga ega.

Davlat, nodavlat tashkilotlarning o'рни. «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish» g'oyasini bugun amalga oshirish ma'lim ma'noda mafkuraviy ishlarimizning qat'iy tizimi doirasiga bog'liq. Shuningdek, o'qitish texnologiyasi, darslik, ijtimoiy fan salohiyatiga, ularni amalga oshirish omillariga bog'liq.

Siyosiy partiyalar - o'z faoliyati bilan fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilma-xilligiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etish g'oyasining amalga oshishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda har bir partiya o'z dasturiy qarash va maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha huquqiy asos va qonuniy kafolatlarga ega. Har bir partiyaning o'z dasturiy g'oyalarni hayotga tatbiq etish jarayonida milliy istiqlool mafkurasining asosiy tamoyillariga amal qilishi siyosiy hayotning bosh mezonidir. Chunki xalq manfaatlari, istiqlool g'oyalari, qaysi siyosiy va mafkuraviy kuchga mansubligidan qat'iy nazar, barcha yurtdosh-larimiz uchun muqaddasdir.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida faoliyat ko'rsatayotgan **nodavlat tashkilotlar** mafkuraviy jarayonlarda ham faol ishtirok etishi lozim.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi bu boradagi amaliy ishlarni muvofiqlashtirib borishi, Inson huquqlari milliy markazi, Ma'rifatparvarlar jamiyati, Oila ilmiy markazi, Faylasuflar milliy jamiyati, O'zbekiston Faylasuflari jamiyati, Ijtimoiy fikr markazi kabi tashkilotlar o'z faoliyatini milliy istiqlool mafkurasi bilan uyg'un holda tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, milliy g'oya va milliy istiqlool mafkurasini joriy etishga moddiy, texnikaviy va ma'rifiy jihatdan ko'mak beradigan «**Sog'lom avlod**», «**Kamolot**», «**Umid**», «**Ulug'bek**», «**Oltin meros**», «**Amir Temur**», «**Imom Buxoriy**», «**Ustoz**», «**Mahalla**», «**Iste'dod**» **jang'armalari** va boshqa jamoat tashkilotlari imkoniyatlaridan foydalanishga jiddiy e'tibor qaratish zarur.

Demak, milliy istiqlool g'oyasini yoshlar ongiga singdirish sohalari va yo'nalishlari xilma-xil bo'lib, ulardan samarali va to'g'ri, o'rinli foydalanishni talab etadi. Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur va muhimdir. Mafkura bo'lmasa xalq, millat, jamiyat, davlat o'z yo'lini

yo'qotishi muqarrar. Mafkura jamiyat, xalq va millatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyotiga maqsad va yo'nalish beradi. **Milliy g'oya, milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirishda:**

1) Nodavlat, mustaqil tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, ularning imkoniyatlaridan to'la foydalanish zarur.

2) Mustaqillikni mustahkamlab, ma'naviy, ma'rifiy-mafkuraviy ishlarni yanada jadallashtirish, yangi bosqichga ko'tarish, bu sohadagi barcha ishlarni muvofiqlashtirib, yagona maqsad yo'lida safarbar etishni taqozo etadi. Ayniqsa fuqarolarni kamol toptirishga yo'naltirilgan va tuzilgan ma'naviyat va ma'rifat Respublika Kengashi targ'ibot-tashviqot ishlarini uzluksiz olib borishni davr taqozo etmoqda.

3) Maktablar, litseylar, kollej va oliy o'quv yurtlarida bevosita ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanadigan mutassaddi mutaxassislar lavozimlarini joriy etib, ular hayotini yanada faollashtirish lozim.

4) Oila, mahalla, umumiy o'rta, umumiy maxsus, kasb-hunar ta'limi, maktabdan tashqari muassasalar, oliy ta'lim tizimida bolalar, o'smirlar, talaba yoshlar ongini yuksaltirish, ularni ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qiladigan turli xil tashkilot va to'garaklar tuzish, ongni fikrlashga o'rgatish, ularning tafakkurida bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Demak, milliy istiqloq g'oyasini ommaga tushunarli tarzda etkazish, qurollantirish, shakllantirish, to'g'ri idrok qilish malakasini hosil qilish uchun quyidagi **omillarga e'tibor bermoq zarur:**

1. yoshlarga e'tiborni yanada kuchaytirish kerak. **«Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish»** g'oyasi qat'iy tizim doirasida amalga oshirishini taqozo etadi. Tarbiya muassasalari deb nomlanuvchi ko'plab jamoat tashkilotlari xususan, **«Kamolot», «Mahalla», «Oila» jamoatchilik markazi** va boshqalar ta'lim muassasalaridan ajralib qolgan. Xamkorlik, hamjihatlikni ta'minlash kerak.

2. Qadrlar tayyorlash Milliy dasturi bo'yicha o'qitish texnologiyasi o'zgartirilishi lozim.

3. Darsliklar, xususan mafkura tarbiyalovchi darsliklar (falsafa, tarix, sotsiologiya, dinshunoslik, siyosatshunoslik, «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti», madaniyatshunoslik, psixologiya, pedagogika va boshqalar) talaba yoshlari qiziqтира olmayapti. Ba'zi darsliklarda qaytaruvlar ko'p.

4. Ilg'or ma'rifatchilar armiyasi kerak. Ular o'sha qishloq o'qituvchisidan tortib, akademik va rahbarlardir. Ular tayyorgarlikdan o'tgan bo'lishi, maxsus mashg'ulotlar yordamida metodik tayyorgarlikdan xabardor bo'lishi, nima haqida, qanday gapirishligini bilishi lozim.

5. Aholi zich joylashgan hudud, mahallalar, ta'lim-tarbiya muassasalarida e'tibor bilan ishlar tashkil etilsa, to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, odamlar bir-biridan ta'sirlanib, sog'lom, yangi fikrlarni qabul qilaveradi.

6. Odatlarning shakllanish muddati va bartaraf etish vositalariga, masalan, vahhobiylilik, hizbut-tahrirlikka moyil odamlar to'plangan joylar-ning odat, ko'nikmalarini bilish.

7. Yangi odatlarning odamlar hayot sharoitlari va turmush darajasiga mosligi.

8. Yangi g'oyalarning odamlar tabiati va ruhiyatiga mosligi¹.

Milliy istiqloq g'oyasini yoshlar ongiga singdirishda har bir ota-ona o'z farzandining maktabgacha tarbiyasi, uning keyingi taraqqiyot davrida qanchalik ahamiyat kasb etishi, bu davr uzluksiz ta'lim va tarbiyaning muhim bosqichi ekanini anglab etishi nihoyatda muhim. Bunda oilaning ta'lim muassasalari tizimiga izchil uyg'unlashuviga erishish zarur. Bu davrdagi barcha bevosita ta'lim beruvchi muassasalar (maktablar, litsey, kasb-hunar kollej-lari, oliy o'quv yurtlari) mafkuraviy tarbiyaning asosiy o'choqlaridir. Ularning barchasida amalga oshiriladigan mafkuraviy ta'lim jarayonida, barcha o'quv qo'llanmalari va darsliklar, qo'shimcha adabiyotlarda quyidagi omillar ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim:

- **Vatan tuyg'usini shakllantirish;**
- **ona tilimizga muhabbat uyg'otish;**
- **milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish;**

¹ Karimova V.M. Yoshlarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish omillari va shartlari. «Ta'lim va tarbiya». 2000, № 1-2, 39 – bet.

- **ezgulik timsoli bo'lgan ayolni ulug'lash;**
- **oilaning vatanparvarlik hissini tarbiyalashdagi rolini ko'rsatish;**
- **mahallaning demokratiya darsxonasi va o'z-o'zini boshqarish maktabi ekanini tushuntirish va hokazo.**

Sotsiolog, vrach, psixolog, radikal freydizm yo'nalishi vakali Rayx Vilgelm (1897-1957) fikricha, «ko'r-ko'rona va avtoritar (diktaturaviy) tarbiya bois yoshlar ishonuvchan bo'lib qoladilar hamda tanqidiy qobiliya-tidan mosuvo bo'ladilar».

Milliy istiqlool g'oyasini inson ongi va qalbiga singdirish **targ'ibot-tashviqot** orqali amalga oshiriladi. **Targ'ibot** (uning o'zak so'zi, «rag'bat») - u insonni biror harakatga rag'batlantirishni nazarda tutadi. «**Tashviqot**» (tushunchasi o'zagi «shavq» so'zidan olingan) - u kishida biror narsaga shavq uyg'otishga yo'naltiriladi.

Targ'ibot («inson qalbining sozlovchilari») insonning ongi va qalbini egallashga qaratilgan.

Targ'ibot-tashviqotdan maqsad - bilim orttirish emas, balki kishini biror harakatga undashdan iborat. Milliy istiqlool g'oyasini halq qalbi va ongiga singdirish muayyan texnologiya asosida olib borilganida tadbirlarning ketma-ketligi, miqyosi va me'yori, davomiyligi va tamoyillari singari jihatlar qamrab olinadi.

O'zbekistonda **mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari** quyidagilardan iborat:

- 1) belgilangan tadbirlarning yuqori darajada uyushqoqlik bilan o'tkazilishini ta'minlash;
- 2) milliy istiqlool g'oyasining targ'ibot sifatini muntazam oshirib borish;
- 3) davr talablaridan kelib chiqqan holda mafkuraviy ishlarni tashkil etishning yangi, samarali yo'larini izlash;
- 4) bu sohada eski uslublarning mutlaqlashtirilishiga, andozalash-tirishga yo'l qo'ymaiga, andozalash-tirishga yo'l qo'yma tashkil etishda ijtimoiy muhitni hisobga olish;
- 5) mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda uchraydigan rasmiyatchilik va majlisbozlik ko'rinishlariga barham berish;
- 6) mafkuraviy faoliyatning qanchalik samarali olib borilayotganini bilish maqsadida uning monitoringini tashkil etish.

Milliy g'oya, mafkuraning targ'ibot-tashviqotini tashkil etishda quyidagi **tashkiliy tamoyillarga** amal qilish maqsadga muvofiq:

1. Uzluksizlik (milliy mafkurani yoshlarga singdirib borishni beshikdan boshlash kerak, sodda shaklda).
2. Keng qamrovlilik (jamiyat barcha a'zolariga g'oyalar xilma-xilligi asosida mafkurani singdirish)
3. Bosqichma-bosqichlilik (oila-bog'cha-maktab-kollej, litsey, oliy o'quv yurtlari asosida).
4. Ketma-ketlik (har bir bosqich uchun insonga xizmat qiladigan qadriyatlar asosida)
5. Faollik (ko'proq interaktiv usullardan foydalanish).
6. Ish bilan so'z birligi (nazariya va amaliyot birligi).
7. Shaxsiy ibrat (targ'ibot qiluvchining o'zi shaxsiy hayotda ibrat bo'lishi).
8. Hayotiylik (yutuqlar bilan birga kamchiliklarni ham ko'rsatish).
9. Ilg'or targ'ibot-tashviqot texnologiyalaridan foydalanish.
10. Me'yoriylik (balandparvoz, rasmiyatchilik, takrorlanishlarga ko'p ham yo'l qo'ymaslik).

Milliy istiqlool g'oyasini yoshlar ongiga singdirishning noan'anaviy quyidagi usullaridan foydalanish ham zarur:

- 1) Aqliy hujum.
- 2) Bahs -munozara (debat).
- 3) Guruhlarga bo'linib ishlash.
- 4) Juft bo'lib ishlash.
- 5) Zanjir mashqi.

- 6) Ijodiy ish.
- 7) Intervyu.
- 8) Intilish.
- 9) Interfaol.
- 10) yo'naltirish.
- 11) Muzyorar.
- 12) Suratli diktant.
- 13) Chigil yozdi. Ma'rifat. 2003 y. 23 iyul.
- 14) Musobaqa-tanlov darslari.
- 15) Mujassamlashgan darslar.
- 16) Baholash va qiyoslash darsi (Turkiston» 2003 y. 19 iyun).

Foyaviy tarbiyani targ'ib qilish uslublari. Milliy istiqlolimiz rivojining hozirgi bosqichi ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy ishlar ta'sirchanligini oshirish, ommani buyuk maqsadlar yo'lida safarbar etish, uyushtirish uchun asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratishni taqozo etmoqda:

1) Milliy g'oya va milliy mafkuraga oid targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish va uning qamrovini kengaytirish;

2) Garchi achchiq bo'lsada, haqiqatni aytishdan cho'chimaslik.

3) Soxtakorlikdan qochish.

4) Hayotdagi qiyinchilik, muammolarni ochiq-oydin bayon etish.

5) Ommani ruhlantirish, ishonch-e'tiqodni mustahkamlash.

6) Prezidentimiz atrofiga yanada mustahkamroq jipslashishga da'vat etish, ziyoli, ma'rifatchi, mafkura ishi bilan shug'ullanuvchi barcha targ'ibot-tashviqotchilarning birinchi darajali vazifasidir.

7) Maqsadimiz ma'rifatli jamiyat barpo etishdan iborat, bu jamiyatda qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning mas'ulligi, adolat, Vatan, xalq manfaati ulug' sanalishini inobatga olish.

8) Xalq hukmdorlarga emas, hukmdorlar halqqa xizmat qilishi - asosiy qoida.

9) Pirovard maqsadimiz adolatli jamiyat barpo etish.¹

10) Birovning haqiga xiyonat qilmaslik, diyonatlilik, iymonlilik, halollik mezonini ulug'lash.

11) Ma'rifiy-targ'ibot ishlarining shaklan va mazmunan turi: ma'ruza, suhbat va bahs-munozaralar, seminarlar, konferentsiyalar o'tkazish, ommaviy axborot vositalarida chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi.

12) Mafkuraning asosiy maqsadlarini xalqqa sodda, ta'sirchan, tushunarli tarzda etkazish uchun odamlar qalbiga yo'l topa oladigan fidoyi inson, ziyolilarga tayanish.

Milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkurani targ'ib qilishda quyidagi tarbiyaviy tamoyil, uslub (metodlar)larga e'tibor berish kerak:

1) Tushuntirishda va bayon etishda oddiylik va lo'ndalik.

2) Talab va taklifni doimiy nazorat ostiga olish.

3) Ongga ta'sir ko'rsatishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish.²

4) Ziyolilar mavqeyini oshirish, ularga e'tibor va imkoniyat yaratish.

5) Turli bilimlarni egallashga bo'lgan ishtiyoqni qo'llab-quvvatlash.

6) Ommaviy-axborot vositalarida xalq ruhiyatiga yaqinlashtirilgan yangi mafkuraviy materiallarni ko'paytirish, doimiy «aks ta'sir» tamoyi-liga amal qilish.

7) Televidenie va radio zamonaviy ish usullari va shakllarini egallashi uchun rasmiy xabarlarnigina emas, balki xalqaro mezonlarga muvofiq matbuot sahifalarida va televideniya chuqur tahliliy material-lar, jiddiy siyosiy, iqtisodiy, xalqaro sharhlar, bahs-munozaralar ko'rinishida bo'lishi lozim.

¹ Boboev H., Fofurov Z., Islomov Z., Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2001, 174, 176, 191- betlar.

² Karimova V.M. Yoshlarni milliy g'oyani va milliy mafkurani shakllantirish omillari va shartlari. Ta'lim va tarbiya. 2000, № 1-2, 40 – bet.

Demak, Milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga singdirishning **asosiy sohalari**: «Oila - bog'cha - maktab - litsey - kollej - oliy o'quv yurtlari - mahalla - jamiyat» tizimlari tashkil etadi.

Milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirishning asosiy yo'nalishlari esa quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim va tarbiya.
2. Fan va ilmiy muassasalar.
3. Madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar.
4. Adabiyot va san'at.
5. Din.
6. Jismoniy tarbiya va sport.
7. Harbiy vatanparvarlik.
8. Urf-odat, marosim va bayramlar.
9. Oila.
10. Mahalla.
11. Mehnat jamoalari.
12. Siyosiy partiyalar.
13. Nodavlat tashkilotlar.

“MILLIY G'OYA: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOIYILLAR” FANIDAN

GLOSSARIY

Mafkura – fikrlar majmui, g'oyalar tizimi, e'tiqod.

Milliy g'oya - millatning o'tmishi, buguni, istiqboli, manfaat va maqsadini ifodalovchi ijtimoiy g'oya.

Foya - muayyan fikr, maqsad sari etaklovchi kuch.

Manfaat – individ yoki ijtimoiy guruh faoliyatini, xulqini belgilaydigan asosiy omil.

G'oyaviy tarbiya – Jamiyatdagi mavjud g'oyalarga faol munosabat, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishdir. G'oyaviy tarbiya axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

G'oyaning turli ko'rinishlari – Mazmuni va namoyon bo'lish shakliga ko'ra – ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy va umuminsoniy g'oyalarga bo'linadi.

Bunyodkor g'oyalar – 1) Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan tushuncha; 2) Jamiyat va odamlarni, turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni taraqqiyot sari etaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishga undovchi g'oya.

Vayronkor (buzg'unchi) g'oyalar – 1) bunyodkor g'oyalarga zid bo'lgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g'oyalar majmuini ifodalaydigan tushuncha; 2) insonni va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g'arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan g'oyalardir.

Milliy istiqlool g'oyasi – Milliy istiqlool g'oyasi O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-ideallarini, olijanob maqsad-muddaolarini o'zida mujassam etadi.

Milliy istiqlool mafkurasi – Milliy istiqlool mafkurasi har bir vatandoshimizning oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma'naviy mezonidir.

Milliy istiqlool g'oyasining asosiy g'oyalari – Vatan ravnaqini ta'minlash va yuksaltirish; YUrt tinchligini ta'minlash va asrash; Xalq farovonligini ta'minlash; Komil insonni tarbiyalash; Ijtimoiy hamkorlikni ta'minlash; Millatlararo totuvlikni ta'minlash; Dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik);

Milliy istiqlool g'oyasining bosh g'oyasi – Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir.

SHovinizm – millatchilikning o'ziga xos shakli, boshqa millatlarni mensimaslik va o'z millatining ularga nisbatan ustunligini asoslashga qaratilgan g'oyaviy-nazariy qarashlar tizimi va amaliyoti

Millatchilik – o'z millatining manfaatlarini boshqa millatlar haq-huquqlaridan yuqori qo'yib hal etishga intiluvchi siyosiy oqim

Davlat – butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv apparatiga tayanadigan, barcha uchun qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo'lgan siyosiy tashkiloti

Modernizm – dindagi zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan foydalanishni yoqlab chiquvchi oqim

Traditsionalizm – an'anaviylik. Diniy aqidalarni va kontseptsionalarni fan-texnika va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga qarab qayta ko'rib chiqishni rad etuvchi oqim

Fundamentalizm – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari surish

Mafkuraviy immunitet – lotincha Immunitatis so'zidan olingan bo'lib –biror narsadan ozod etish ma'nosini anglatadi. SHaxs, ijtimoiy gurux, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan ximoyalashga xizmat qiluvchi tizim

Barqarorlik – tinchlik, osoyishtalik

Vatan ravnaqi – har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g'oyadir

YUrt tinchligi – mamlakat barqaror taraqqiyotining asosiy sharti. Tinchlik – insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi va kamol topishining eng zarur omilidir

Xalq farovonligi – har bir shaxs va oila farovonligi insonning shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlarini bilan uyg'unlashib ketadi

Komil inson – insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, gumanistik g'oyalarga munosabati

Ijtimoiy xamkorlik – turli millat, irq va dinga mansub kishilar va guruxlarning umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligi

Millatlararo totuvlik – muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishi

Diniy bag'rikenglik – xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi

Ichki taxdidlar – o'z Vataniga, vatandoshiga, vatandoshlariga zarar etkazishga qaratilgan g'oya, xatti-harakatlardir.

Tashqi taxdidlar – tashqi tahdidlar asosan g'oyaviy bo'shliq tufayli sodir bo'ladi.

Ekstremizm – O'z maqsadi yo'lida har qanday keskin tadbir-choralar ko'rishga tarafdorlik.

Hizbut-taxrir – reaksion ruxdagi diniy-siyosiy tashkilot bo'lib, arab tilidan "Ozodlik partiyasi" degan ma'noni bildiradi

Mulk – iqtisodiy kategoriya bo'lib, ijtimoiy ishlab chiqarish va kishilar o'rtasidagi munosabatlarda ifodalanadi. Mulkning ijtimoiy va xususiy shakllari mavjud.

Bozor iqtisodiyoti – iqtisodiy aloqalarning yig'indisi bo'lib o'z qonunlariga ega, ya'ni: erkin raqobat, ehtiyoj va ishlab chiqarish, talab va takliflarning miqdori va tarkibini bir-biriga muvofiqlashtirish, xususiy mulkchilik shakllarining xilma-

xilligi, mulkka egalik, xo'jalik yuritish ishlariga faqat iqtisodiy usullar bilan ta'sir ko'rsatish, fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish kabi iqtisodiy qonunlarga bo'ysunadi. Bozor iqtisodi xalqning ijodi va mehnat imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, tadbirkorlik va ishbilarmonlik uchun keng yo'l ochadi.

Mentalitet – (lotincha «mens» - aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati.

Demokratiya – xalq hokimiyati.

YAngi jamiyat – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat.

An'ana – jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma'naviy faoliyat shakllarining, kishilar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o'tishi, ajdodlar hayoti, belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi.

Urf-odat – kishilar turmushiga singib ketgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko'nikmalar.

Mustaqillik – 1) Tazyiqdan, nazoratdan xoli bo'lish, erkinlik; 2) iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy tobe bo'lmaslik. O'zbek tilida Mustaqillik atamasi odatda istiqlool so'zi bilan yaqin ma'noda qo'llaniladi va uzluksizlikni anglatuvchi chuqur, keng qamrovli jarayonni aks ettiradi.

Fenomen – (yun. Phainomenon – yuz beruvchi) – 1) ko'zga ko'rinib turgan hol; 2) noyob, kam uchraydigan hol, yoki buyuk, yagona bo'lgan inson; 3) hissiy bilish, tajribada berilgan ma'lum bir holni anglatuvchi falsafiy atama; hissiy tajriba yordamida payqaladigan va anglanadigan hodisa, jonli mushohada ob'ektini bildiradigan tushuncha.

Milliy g'urur – 1) shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z xalqining jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o'zga millatlar oldidagi qadrgimmati, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha.

Muholifat – (arabcha «muholafat» - kelishmovchilik, teskarilashish, qarama-qarshilik, ziddiyat) – rasmiy siyosatga, hukmron qarashlarga mos bo'lmagan nuqtai nazar, alohida siyosiy yo'l, demokratiyaning muhim belgisi. Muholifat uch xil bo'lishi mumkin: a) parlament doirasida; b) undan tashqarida; yohud v) siyosiy partiyalar ichida.

Ma'rifat – Ma'rifatning lug'aviy ma'nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma'rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidir. Ma'rifat so'zining ko'pchilikdagi ma'nosi maorifdir. Ma'rifat atama sifatida – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi.

E'tiqod – Dunyoqarash. Biror dinga e'tiqod qilish – uni haq deb bilib, uni ta'limotini tan olish.

Tasavvuf – islomdagi diniy-falsafiy oqim. 8 asrda arab mamlakatlarida paydo bo'lgan. Bu ta'limot o'sha davrda savdogarlar va kosiblarning manfaatini ko'zlagan.

Tasavvufning asosiy mohiyati inson va uning Xudoga munosabatidir, ya'ni solihning Xudo vasliga etishishidir.

Komillik – insonning kamolotga erishuv jarayonidagi barkamolligi darajasini ifodalovchi tushuncha. Komillikning har bir davrga xos mezonlari mavjud. Nodonga nisbatan oqil, loqaydga nisbatan sergak, baxilga nisbatan saxiy, tanbalga nisbatan serg'ayrat, qo'rqqoqqa nisbatan botirlik kabi xislatlar o'ziga xos o'lchov vositasini o'taydi.

Qadriyat – umumbashariy, umuminsoniy, milliy, mintaqaviy, shaxsiy, diniy turlarga bo'linadi.

Aksiologiya – (yun. «axio» - qadriyat va «logos» - fan, ta'limot) – qadriyatshunoslik; qadriyatlar haqidagi fan.

Milliylik – muayyan xalqqa xos bo'lgan, uni boshqalardan farqini ko'rsatuvchi xususiyatlar majmui. Milliylik millatning tarixi, qadriyatlari, an'analari, madaniyati, yashash tarzida yaqqol namoyon bo'ladi.

Ma'naviyat – (arab. – ma'nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

Umuminsoniy qadriyat – barcha xalqlar uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, moddiy va ma'naviy manfaat, mezonlar majmui.

Milliy qadriyat – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyat shakli.

Umumbashariy – butun dune, barcha davlatlar va xalqlarning ishtirokisiz echish mumkin bo'lmagan muammolarga aytiladi.

Ozodlik – barcha demokratik erkinliklarga erishishning, haq-huquqlari kafolatlangan va ta'minlangan jamiyatning bosh sharti.

Obod Vatan – fuqarolari erkin, ozod, yaratuvchilik faoliyati bilan band bo'lgan, xavfsizligi ta'minlangan farovon hayot qurish makoni.

Fuqarolik jamiyati – iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayot sohasiga to'g'ri keladigan tushunchadir. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy sohasi ko'lamiga ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar, fuqarolarning turli shakldagi faoliyati, o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari ham mansubdir.

Ehtiyoj – inson talablari asosida paydo bo'ladigan tabiiy xususiyat; jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlarga, uning shularga bog'liq ekanligini ifoda etuvchi holat.

Integratsiya – milliy iqtisodiyotlarning sifat jihatidan yangi sharoitlarga ega bo'lishi va, mamlakat taraqqiyoti imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, ixtiyoriy ravishda birlashishi, bir-birlariga o'zaro ta'sir etishi jarayoni.

Vatanparvarlik – Vatanga nisbatan sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo'lishga undaydigan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy fazilat.

Demokratik institutlar – jamiyatning demokratik tuzumini barpo etishga xizmat qiluvchi omil bo'lib, unga quyidagilar kiradi. 1) Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar. 2) YUridik maqomga ega bo'lgan muxolifat. 3) Mulkchilik instituti.

SHarqona demokratiya - urf-odat, qadriyatlarga asoslangan o'ziga xos demokratiya.

Siyosiy demokratiya - jamiyat siyosiy tizimini xalqqa yaqinlashtirish, siyosiy adolatsizliklarning oldini olish.

Ijtimoiy demokratiya - bugungi davr demokratiyani islohotlar jarayoniga aylantirish.

Irqchilik – odamlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, bosqinchilik, zo'ravonlik va urushlarni kishilarning turli irqilariga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi g'ayrimilliy ta'limot. Irqchilar insonlarning ijtimoiy mohiyatini ularning biologik – irqiy (ko'zi, sochi va terisining rangi, bosh va yuz tuzilishi kabi tashqi, ikkinchi darajali jismoniy) belgilar bilan bog'lab, ularni oliy va quyi, bekamu-ko'st va noraso irqilarga ajratadilar.

Aqidaparastlik – muayyan sharoitda, biron-bir g'oya yoki tamoyilga qat'iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni, boshqa sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llashga urinish. Bu atama faqat salbiy ma'noda qo'llanib, muayyan olim yoxud oqim tomonidan bayon etilgan qonun va qoidalar ta'sir doirasini sun'iy ravishda kengaytirishga urinishni anglatadi.

Fanatizm – Biron g'oyaga, shaxsga uning mazmunini, mohiyatini chuqur anglamasdan johillarga ishonish va unga ergashishdir va u hayotda turli sohalarda uchraydi.

Manqurt – «Manqurt» o'z eli, tarixi, qon-qarindoshini, hatto o'zi tuqqan onasini ham unutgan, o'z kelajagini tasavvur eta olmaydigan kishilar va xalqlarning majoziy obrazi. U xalqlarning manqurtlarga aylanishida bosh aybdor davlat va mafkuraga to'la bo'ysundirilgan jamiyatdir degan xulosaga keladi. Masalan, CHingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» romanida «Manqurt» afsonasidagi shaxs obrazi.

Tafakkur – (arab. – fikrlash, aqliy bilish) – predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlaydigan, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi.

Vatan tuyg'usi – Vatan tuyg'usi bo'lgan kishidagina vatanparvarlik jo'sh uradi. Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: «Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug'iladi. YA'ni, inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usini ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi».

Targ'ibot-tashviqot – insonni biror xarakterga rag'batlantirish va kishida biror narsaga shavq uyg'otishga yo'naltirish.

Pragmativ – o'z amaliy faoliyatida ko'proq foyda olishni o'ylaydigan va shunga ko'proq foyda olishni o'ylaydigan va shunga ko'proq ahamiyat berish zarur deb bilguvchi shaxs.